O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI
O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO UNIVERSITETI

PEDIATRIYA. NEONATOLOGIYA.

O‘quv qo‘llanma

5510100 – Davolash ishi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun.

Toshkent – 2025

UO'K 616-053.2(075.8)
KBK 57.3ya73
N 79

Normatov, J.J. Pediatriya. Neonatologiya [Matn] : o‘quv qo‘llanma / J.J. Normatov .-Farg‘ona: Alpha Brand, 2025.- 332 b.

Tuzuvchi:

Normatov J.J. o’qituvchi

Taqrizchilar:

Xalmatova B.T. – Toshkent Kimyo universiteti professori. t.f.d.
Axmedova M.E. – TAFU “Pedagogika” kafedrasi professori. p.f.d.
Shermatov R.M. – FJSTI Pediatriya kafedrasi mudiri, t.f.n. dotsent.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada tibbiy-pedagogik ta’limga asoslangan bolalarning yoshga oid anatomik-fiziologik xususiyatlari, bolalar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, asosiy klinik belgilari, tashxislash va qiyosiy taqqoslash turlari, zamonaviy davolash usullari, kasalliklarning profilaktikasi va reabilitatsiyasi qamrab olingan. O‘quv qo‘llanma pediatriya faniga oid bilimlar, bolaning o‘sish va rivojlanish davrlarini, bola hayotining har bir yosh bosqichlariga xos alohida morfologik, fiziologik va psixologik o‘zgarishlarini o‘rgatadi. O‘quv qo‘llanmada neonatologiya fanini o‘qitish– talabalarda sog‘lom va bemor chaqaloqlar va ularning ota-onasi bilan muloqot qilish kabi mavzular qamrab olingan. Bolalarni tekshirish, laborator tahlillarni yoshga oid o‘qiy olish, chaqaloqlik davrida uchrovchi kasalliklarni tashxislash, tez yordam ko‘rsatish, profilaktika choralarini belgilash bo‘yicha tibbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishdan iborat.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 27 dekabrdagi 485- sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-8082-0-3

Normatov J.J. 2025
«ALPHA BRAND» nashriyoti, 2025

KIRISH.

Rivojlangan, tibbiyot tarmog‘ini va zamonaviy tibbiy ta’lim texnologiyalari taraqqiyotiga urg‘u bergan mamlakatlar tajribasi, tibbiy resurslar taqchilligi sharoitida innovatsion faoliyatni maksimal darajada faollashtirishga urinmoqdalar. Bu holda taraqqiyotning asosiy zaxirasi inson, inson sog’ligining potensial imkoniyatlarini aniqlash, tibbiy bilim, tibbiy kreativ qobiliyatini rivojlantirish, shaxsning tibbiy salohiyatini oshirish hisoblanadi. Har bir shaxsning va bo‘lajak mutaxassisning ijodiy salohiyati tibbiy ta'lim tizimida tibbiy-pedagogik jarayonning tashkil etilishi, bolalarni dabvolash va profilaktika muhitni yuzaga keltirish masalasiga borib taqaladi. Zamonaviy tibbiy ta'lim sohasi pedagogik tayorgarlik jarayonini samaradorligini oshirish, yangi avlod tibbiyotchilarini tayorlash, bo‘lajak shifokorlarda ijodiy, kreativ, innovatsion yondashuv jihatlarini yuqori darajada shakllantirishni talab etmoqda. Kasbiy va ijodiy faoliyatni faol o‘zlashtirish, uni samarali amalga oshirish nafaqat tibbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish va integrasiyalashuvini, kasbiy ishni bajarishning individual uslublari va usullarini ishlab chiqishni, balki kasbiy ijod metodologiyasini o‘zlashtirishni, ijodiy fikrlashni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. O‘quv qo‘llanma bir necha moduldan iborat bo‘lib, modullarning har birida kerakli nazariy ma'lumotlar, o‘quv qo‘llanma oxirida nazorat uchun savollar va mustaqil ish topshiriqlari berilgan. Umumiy amaliyot shifokori tayorlash nuqtai nazaridan bu fanning ahamiyati katta. Shu munosabat bilan ushbu o‘quv qo‘llanma birlamchi bo’g’inda sog’lom bolani o’sish va rivojlanishi, to’g’ri ovqatlantirish va keng tarqalgan bolalar kasalliklarini oldini olish, ularnni kechishi, davolashi va reabilitatsiya o‘tkazishni inobatga olib 4 ta fanni qamrab oladi (bolalar kasalliklari propedevtikasi, pediatriya, neonatologiya, ambulator - poliklinik pediatriya). Bolalarning yoshga oid anatomik-fiziologik xususiyatlari, bolalar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, asosiy klinik belgilari, tashxislash va qiyosiy taqqoslash turlari, zamonaviy davolash usullari, kasalliklarning profilaktikasi va reabilitatsiyasi qamrab olingan. O‘quv qo‘llanmada pediatriya fani asosida bolaning o’sish va rivojlanish davrlarini, bola hayotining har bir yosh bosqichlariga xos alohida morfologik, fiziologik va psixologik o’zgarishlarini o’rgatadi. O‘quv qo‘llanmada neonatologiya fanini o‘qitish talabalarda sog’lom va bemor chaqaloqlar va ularning ota-onasi bilan muloqot qilish, bolalarni tekshirish, laborator tahlillarini yoshga oid o’qiy olish, chaqaloqlik davrida uchrovchi kasalliklarni tashxislash, tez yordam ko’rsatish, profilaktika choralarini belgilash bo’yicha ko’nikmalarni shakllantirishdan iborat.

O‘quv qo‘llanmada chaqaloqlik davrida bolalardagi a’zo va tizimlarning anatomik-fiziologik xususiyatlari; chaqaloqlik davrida bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanish ko’rsatkichlari; chaqaloqlik davrida bolalarni ovqatlantirish tamoyillari; chaqaloqlik davrida ko’p uchraydigan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi,

klinikasi va qiyosiy tashxisoti haqida tasavvurga ega bo'lishi; chaqaloqlik davrida kasalliklarni davolash tamoyillarini; chaqaloqni jismoniy rivojlanish monitoringini o'tkazish; sog'lom bolalarni nevro-psixik holatini baholash; kasallik anamnezini yig'ish; bemorlarni klinik-laborator tekshirish ko'nikmalariga ega bo'lishi; kasalliklarning asosiy klinik, laborator va instrumental mezonlarini aniqlash; chaqaloqlik davrida ko'p uchraydigan kasalliklarning profilaktikasini bilishi va ulardan foydalana olishi; reabilitatsiya choralarini o'tkazish; aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishga o'rgatadi. O'quv qo'llanmada bola organizmini anatomik-fiziologik xususiyatlari, rivojlanishi, bolalar organizmining asosiy jarohatlanish simptomlari va sindromlari, semiotikasi, yoshga oid ovqatlanish, tibbiyot xodimlari va bemorning qarindoshlari bilan muloqotni etik va deontologik asoslari qamrab olingan. Chaqaloqlik davrida uchraydigan kasalliklar to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi; chaqaloqlik davrida ko'p uchraydigan kasalliklarning etiologiyasi, patogenezi, klinikasi va qiyosiy tashxisi, laborator ko'rsatkichlari, bolalar kasalliklarini davolash tamoyillari, kasalliklarni oldini olish yo'llarini, bemorlarni polikliniка sharoitida reabilitatsiyasi va dispanser kuzatuvi qoidalari haqida bilishi va ulardan foydalana olishi bolalarning jismoniy va psixomotor rivojlanish ko'rsatkichlarini aniqlash (bola vaznini va bo'yini o'lchash); yangi tug'ilgan chaqaloqni jismoniy rivojlanishi va yetukligini baholash; kasalliklarning asosiy klinik, laborator va instrumental mezonlarini aniqlash; chaqaloqlarda shartsiz reflekslarni aniqlash; ko'krak suti bilan to'g'ri emizish texnikasi; nazogastral zondlash texnikasi; yurak chegaralarini aniqlash; jigar chegaralarini aniqlash; gipertermiyada yordam ko'rsatish; yuqori nafas yo'llariga yot jism tushganda yordam ko'rsatish; anafilaktik shokda yordam ko'rsatish; aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish; laborator tekshiruvlar interpretatsiyasi (qon, siydik va axlat taxlillari) ni o'tkazish amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi haqida tibbiy pedagogik bilimlar, o'quv qo'llanmada o'z aksini topgan.

1-Mavzu: O'tkir revmatik isitma. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Revmatizmning tarqalishi. Hozirgi vaqtda kasallinishning susayganligi qayd qilingan va uning O'zbekistonda tarqalishi 1000 ta bolalar ichida 0,79 taga to'g'ri keladi. Maksimal kasallanish asosan 10-14 yoshlarga to'g'ri keladi.

Etiologiya va patogenezi. Infeksion faktorlar bilan bog'liq (A guruhiga mansub beta-gemolitik streptokokk yoki uning L formasi, virus-streptokokkli assotsiatsiya). Revmatik jarayonning shakllanishida streptokokkning antigen moddasi bilan yurak to'qimasi o'xshashligiga asoslangan immunologik

mexanizmlar muxim rol o‘ynaydi. Revmatizm bilan kasallanishda irsiy moyillik ham katta ahamiyatga ega (irsiylanishning multifaktorial tipi).

Patomorfologik nuqtai nazardan qaraganda revmatizmga biriktiruvchi to‘qima tuzilmalarining dezorganizatsiyasiga olib keluvchi sistemali vaskulit sifatida qarash mumkin. Ko‘pchilik mualliflar A guruhiga mansub betta-gemolitik streptokokkning revmatizmning etiologiyasida ahamiyati katta deb hisoblaydilar. Revmatizmning o‘tkazilgan streptokokkli infeksiyasidan so‘ng 2-3 haftadan keyin ko‘proq yuzaga kelishi, faol fazasidagi bemorlar qonida streptokokka nisbatan antitelalarning yuqori turda bo‘lishi, 60-75% bemorlar qonida streptokokkli antigen topilishi, bitsillin profilaktikasida kasallanish va qaytalanishning birdaniga susayishi streptokokkli nazariya to‘g‘riligini tasdiqlaydi. Revmatizmning qaytalanishi surunkali tonzilliti bor bo‘lgan bemorlarda, hatar guruhida: qarindoshlarida, naslda mavgjudligi hamda qonda B-xujayrali D8\17 markerning topilishi nisbatan 2,5 marta ko‘proq kuzatilada. Hozirgi vaqtda revmatizmning latent va surunkali shakllari streptokokkning ko‘p yillik bitsillin profilaktikasidan keyin aniqlangan, organ va to‘qimalarda persistirlovchi, fagotsitozga uchramaydigan va antibiotiklar ta’siriga chidamli qobiqsiz L - shakliga o‘tishi bilan tushuntiriladi. Anginani boshidan o‘tkazgan faqat 0,2-0,3% shaxslargina revmatizm bilan kasallanadi, ya’ni u streptokokk infeksiyasiga sezgir organizmlarda rivojlanadi. Kasallik asosan ota-ona va boshqa bolalari kasallangan oilalarda ko‘p uchraydi. Bu esa «oilaviy revmatizm» tushunchasi hosil bo‘lishiga olib keladi. Revmatizm streptokokka nisbatan genetik immun yetishmovchiligi bor shaxslarda rivojlanadi, ya’ni bu kasallik irsiy moyillikka ega, lekin shu bilan bir qatorda kasallik rivojlanishida tashqi muhit omillari ham muhim ro‘l o‘ynaydi.

Hozirgi vaqtgacha streptokokkning «revmatogen» shtamplari borligi to‘g‘risidagi masala taxlil qilinadi. Stellerman ko‘rsatishi bo‘yicha «revmatogen» shtammlarga liloproteinazasini yo‘qotgan (xiralashish omili) streptokokklar qiradi. U kardit, artrit, xoreya va revmatizmning boshqa ko‘rinishlari rivojlanishi turli «revmatogen» streptokokk shtammlariga bog‘liqligini aytib o‘tgan.

Bu nuqtai nazarga boshqa mualliflar revmatizm bilan kasallangan bemorlar tomog‘ida kasallikning faol fazasida 15-20 xil streptokokk serotipi aniqlanishini va ular klinik sog‘lom shaxslar, boshqa streptokokk infeksiyasi bemorlarda ham uchrashi haqidagi ma’lumotlarni qarshi qo‘yadilar.

Genetik markerlarni tekshirish shuni ko‘rsatadiki, revmatizm bilan kasallangan bemorlar ichida. A va B qon guruhli shaxslar ko‘pchilikni tashkil etadi. B guruh qoniga ega bo‘lgan, revmatizm bilan kasallangan bemorlarda antistreptolizin — O ning yuqori titri aniqlangan, bu esa bu guruh qoniga ega bo‘lgan shaxslarning streptokokka nisbatan yuqori sezuvchanligidan dalolat beradi. Streptokokk etiologik omil hisoblansada, u klassik infeksion patologiya nuqtai

nazaridan revmatizm qo‘zg‘atuvchisi emas. Immun gomeostazning buzilishi ham ahamiyatli emas, ya’ni revmatizm – bu klinik immun kasallik. Streptokokk organizmga o‘zining antigen xususiyatlariga ega bo‘lgan toksinlari (streptolizin O, DNK polimeraza, proteinaza, gialuronidaza, streptokinaza) bilan ta’sir qiladi, bunga javoban organizmda antitanalar (antistreptolizin – O, antistreptogialuronidaza va boshqalar) ishlab chiqariladi. Antigen xususiyatiga streptokokkning sitoplazma va membrana tuzilmalari ham ega bo‘lib, ularda ham antitanalar aniqlanadi.

Surunkali tonzillit bilan kasallangan, sensibillashgan bolalarda streptokokkli infeksiyaning qayta avj olishi organizmda ko‘p miqdorda immun komplekslar (streptokokk, antigen+antitana+komplement) to‘planishiga olib keladi. Ular qon tomir tizimida aylanib, mikrosirkulyator qon tomir devorlariga yopishadi va uning shikastlanishiga olib keladi. Bu esa antigen va oqsillarning biriktiruvchi to‘qimaga o‘tishini osonlashtirib, uning destruksiyasiga olib keladi (tezroq tipdagi allergik reaksiya). Revmatizm patogenezida allergiyaning ahamiyati qo‘zishning boshlang‘ich davriga, angina vaqtiga emas, balki undan 10-14 va ko‘proq kundan keyingi vaqtga to‘g‘ri keladi. Streptokokk antigenining tuzilishi bilan yurak biriktiruvchi to‘qimasi o‘xshashligi patalogik jarayon birinchi navbatda yurak qavatlarini qamrab olib, keyinchalik yuqori maxsus faollik va shikastlovchi ta’sirga ega bo‘lgan autoantigenlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Bunga javoban vazifasi va ahamiyati to‘liq o‘rganilmagan autoantitanalar – AKA (antikardial antitanalar) ishlab chiqariladi. Ko‘pchilik mualliflar fikricha ular dastlab himoya vazifasini o‘taydi (tozalovchilar), lekin yuqori titrda shikastlovchi ta’sirga ega bo‘ladi. AKA tarkibi bo‘yicha turli xil: bittasi faqat yurak AGga sezgir boshqalar esa streptokokk membranasiga ham ta’sirchan. Yurak to‘qimasi AKA bilan bir qatorda antistreptokokk antitanani ham biriktiradi. Immunokompleks reaksiya yurakda surunkali yallig‘lanish jarayoniga olib keladi.

Revmatizmda gumoral immunitet bilan bir qatorda xujayraviy immunitet ham zararlanadi, ya’ni gumoral va xujayraviy immunitet orasida muvozanat buziladi. Bunda shikastlovchi ta’sirga ega bo‘lgan, o‘zida yurak qavatlariga nisbatan fiksatsiyalangan antitanalar saqlovchi sensibillashgan killer-limfotsitlar kloni hosil bo‘ladi (sust tipdagi allergik reaksiya), ya’ni birlamchi revmatizmda asosiy patogenetik omil streptokokkli infeksiya va TTAR. Birinchi revmatik atakani yallig‘lanishga qarshi doiralar bilan davolash yaxshi samara beradi. Surunkali revmatizmda sensibillashgan limfotsitlarning yurak to‘qimasi bilan ta’sirlashuvchi antikardial antitanalar, muhim ro‘l o‘ynab, bunda immunodepressiv davo maqsadga muvofiq.

A.I.Strukov biriktiruvchi to‘qima dezorganizatsiyasining 4 ta bosqichini farqlagan:

1.Mukoid bosqich .

2.Fibrinoid bosqich.

3.Granulematoz bosqich.

4.Chandiqlanish bosqichi.

Klinitsistlar uchun mukoid bosqichini ajratish muhim bo‘lib, bunda davolash qancha erta boshlansa, patologik jarayonni shuncha tez ortga qaytarish mumkin. Fibronoid bo‘kish bosqichida biriktiruvchi to‘qimaning chuqurroq destruksiyasi kuzatiladi. Davolash olib borilganda jarayonni orqaga qaytarish extimolligi kamroq. Ikkala bosqich revmatik jarayon borligidan dalolat beradi va morfologik jihatdan bola organizmiga ko‘proq xos bo‘lgan ekssudativ komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Nospetsifik ekssudativ komponentning rivojlanish darajasi revmatizmning klinik o‘zgarishlari og‘irligi bilan bog‘liq (miokardit, xoreya, poliserozitlar). Ashoff-Talalayev granulyomalari yurak devori va klapani, endokardda, fibroz xalqada, perikardda, qon tomirlar devorida va boshqa a’zolar biriktiruvchi to‘qimasida uchraydi. Ular xujayraviy elementlar to‘plami bo‘lib, biriktiruvchi to‘qima dezorganizatsiyasi mahsulotlarini yo‘qotishga qaratilgan sustkor tipdagi xujayraviy immun reaksiyani belgilaydi, markazida proliferatsiyalanuvchi va gipertrofiyalangan gistiotsitlar saqlaydi. Bu granulyomada fiksatsiyalangan immun komplekslar topilishi bilan tasdiqlanadi (turga hoslik). Granulaning rivojlanish sikli 3-4 oy.

Revmatizm tasnifi. Revmatizm klinik ko‘rinishi polimorfdir. Revmatizm tashxisini to‘g‘ri qo‘yish uchun klassifikatsiya qabul qilingan. Kasallikning faol va nofaol fazalari farq qilinadi. Faol faza jarayonning faollik darajasi bilan tushuntiriladi. Nofaol faza haqida 6 oydan keyingina gapirish mumkin, chunki faollikning klinik va laborator belgilari yo‘qolgandan keyin ham morfologik o‘zgarishlar uzoq saqlanib qoladi.

Revmatik isitma klassifikatsiyasi (2003 yil) Rossiya revmatologlari Assotsiatsiyasi

Klinik variantlari	Klinik namoyon bo‘lishi		Natija	KAB Stadiya	
	Asosiy	Qo‘shimcha		KSV.	NUNA
Utkir revmatik isitma	Kardit Artrit Xoreya Xalkasi mon eritema	Istma Artralgiya Abdomin. sindrom Serozitlar	Tuzalish Surunkali revmatik kasallik Yurak kasalligi Poroksiz Porok bilan	0 1 11A 11B 111	0 1 11 111 1U
Qaytalama revmatik isitma					

KSV- N.D.Strajesko V.X.Vasilenko.

NUNA- Nyu-york kardiologlari assotsiatsiyasi.

FK-Funksional klass.

Klinik diagnozlar namunalari

1. Utkir revmatik isitma, Kardit (mitral valvulit), migratsiyalanuvchi poliartrit, KAB-1(FK -1).

2. Utkir revmatik isitma, Xoreya, KAB-0, (FK-0)

3. Qaytalama revmatik isitma, Xoreya, KAB-0, (FK-0)

4. Yurakning surunkali revmatik kasalligi. Mitral klapan qopqoqlarining yallig'lanishdan keyingi fibrozi. KAB-0 (FK-0)

5. Yurakning surunkali revmatik kasalligi, kombinirlangan mitral-aortal nuqson, KAB-II B (FK-III)/

Maksimal faollikdagi revmatizm (3-daraja) - kasallikning klinik va laborator ko'rinishlari aniq ifodalangan turidir.

1.Klinik sindrom: pankardit; o'tkir yoki o'tkir osti diffuz miokardit; yurak ishi yetishmovchiligi bilan kechuvchi o'tkir osti yoki surunkali revmokardit; o'tkir yoki o'tkir osti poliartrit, plevrit, revmatizm bilan birga nefrit, gepatit, granulyar toshmalar bilan birga keluvchi o'tkir osti yoki surunkali revmokardit; faollikka ega bo'lgan xoreya.

P.Rentgenologik tekshiruvlar yurak chegaralarining o'sib boruchi kattalanishishi va miokard qisqarish funksiyasining susayishi, faol antirevmatik terapiya ta'sirida orqaga qaytuvchi plevroperikardial o'zgarishlarni ko'rsatadi.

III.EKG: P-R intervalning uzayishi, ritm va o'tkazuvchanlikning buzilishi koronarit belgilari.FKG: tonlar o'zgarishi, shovqinlar, davolash ta'sirida orqaga rivojlanuvchi aksentlar.

IV-Qondagi o'zgarishlar: 8x10 10x10 oralig'idagi neytrofilli leykotsitoz. EChTning 20-30 mm/s gacha oshishi. S-refaol oqsil 1-3 musbat; alfa — 2 globulinlar 11.5-16% ni u-globulinlar 23-25%, seromukoid o,6 YeD dan, DFA 0,35-0,5 YeD dan yuqori.

U.Serologik testlar: streptokokk antitanalar titirlari, asosan antistreptolizin-O va antistreptogialuronidazaning normadan 1.5-2 marta oshishi.

VI-Kapilyar o'tkazuchanligining II darajagacha oshishi.

O'rta faollilikdagi revmatizm (2-daraja).

1.Klinik sindrom:

a) davolash bilan birga kelgan o'tkir osti revmokardit;

b) o'tkir osti poliartrit, fibrinoz plevrit, nefropatiya, revmatik xoreya, teri osti revmatik tugunchalar yoki xalqasimon eritema bilan birga keluvchi o'tkir osti yoki uzluksiz - retsidivlanuvchi revmokardit.

P.Rentgenologik tekshiruvlar natijalari: yurak kattalashuvi, (perikardial bitishmalar), antirevmatik terapiya natijasida orqaga qaytuvchi plevroperikardial bitishmalar.

III.EKG: P-R intervalning uzayishi, ritm va o‘tkazuvchanlikning buzilishi, koronarit belgilari. FKG: tonlar o‘zgarishi, shovqinlar, davolash ta’sirida orqaga qaytuvchi aksentlar.

1U.Qondagi o‘zgarishlar: $8x10^3$ - $YuxYu^3$ oralig‘idagi neytrofil leykotsitoz. EChTning 20-30 mm/s gacha oshishi. S-refaol oqsil 1-3 musbat, alfa-2-globulinlar 11,5-16% ni u-globulinlar taxminan 21-23% ni tashkil etadi, seromukoid 0,3-0,6 YeD, DFA-reaksiya 0,25-0,3 YeD oraliqlarida.

U.Serologik testlar: streptokokka qarshi antitana titrlari, asosan antistreptolizin - O va antistreptogialuronidazaning normadan 1,5-2 marta oshishi.

VI-Kapillyar o‘tkazuvchanligining II darajasigacha oshishi.

Kam faollikdagi revmatizm (1 daraja).

I-Klinik samarasi yomon kechuvchi, vaskulit, teri osti revmatik tugunchalar, xalqasimon eritema, turg‘un arteriyalar bilan birga kechuvchi cho‘zilgan yoki latent revmokardit.

P.Rentgen tekshiruv natijalari kasallikning klinik anatomik xarakteristikasiga binoan turlicha bo‘lib (birlamchi yoki qaytalama revmokardit, yurak nuqsoni bor yoki yo’q), antirevmatik terapiya ta’sirida aniq o‘zgarish kuzatiladi.

III.EKG va FKG kam ma’lumot beradi

1U.qondagi o‘zgarishlar noaniq, davolash jarayonidagi ularning o‘zgarishlari katta ahamiyatli, EChT biroz oshgan yoki me’yorda.

S-refaol oqsil bo‘lmaydi yoki ko‘p emas (1 musbat), alfa 2- u-globulinlar miqdori me’yorda yoki biroz ortgan, DFA - reaksiya ko‘rsatkichlari normaning yuqori chegarasida, seromukoid normal yoki pasaygan.

V. Serologik ko‘rsatkichlar normaning yuqori chegarasida yoki biroz oshgan. Ko‘rsatkichlarning davolash jarayonida va interkurrent infeksiyasidan tashqarida o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega. Streptokokkli antitanalarning past titlarida immun refaollikning susayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bemorning haqiqiy holatini aks ettirmaydi. Titlarning davriy oshishi hamda asta-sekin ko‘tarilishi (infitsirlanmasdan) revmatik jarayonning faolligi haqida qiyosiy tasdiqlovchi mezon bo‘lib xizmat qiladi.

VI. Kapillyarlar o‘tkazuvchanligi, boshqa sabablarni chiqarib tashlaganda, I-II darajasi oralig‘ida, kasallikning kechishi, uning boshlanishi va kechish xususiyatlarini hisobga olgan holda bemor refaolligiga bog‘liq.

O‘tkir – yorqin, keskin klinik ko‘rinishli, polisindromli, laborator ko‘rsatkichlar jarayonning yuqori faolligini bildiradi, kasallikning dinamikasi 2-3 oy davom etadi, yurak nuqsoni kam shakllanadi, bunday kechish ko‘prok revmatizmda uchraydi.

O‘tkir osti klinik simptomlar rivojlanishi asta-sekin, polisindromlik kamroq xos, kasallik davomiyligi 2-6 oy, ko‘pincha yurak nuqsoni shakllanadi. Antirevmatik terapiya samarasi kamroq ifodalangan.

Cho‘zilgan-sust-torpid kechish, kasallik 4-6 oy davom etadi, yaqqol xurujlarsiz, lekin remissiyasiz, bunda revmokardit kam yoki o‘rta faollikka ega bo‘lib, yurak nuqsoni davolanishga qaramasdan ko‘proq shakllanadi.

Uzliksiz – qaytalanuvchi juda og‘ir kechadi, ko‘pincha katta yoshdagi bolalarda uchraydi va polisindromik, yaqqol avj olish bilan xarakterlanib, davolash natijasida axvolining yomonlashuvi bilan to‘liqsiz remissiyaga o‘tadi. Yashirin-faol faza yo‘q, oldin ham bo‘lmagan, revmatik anamnezi yo‘q, yurak nuqsoni tezda aniqlanadi.

Revmatizmning tasxhis mezonlari. Revmatizmning tashxis mezonlari birinchi marta 1930-1938 yilarda bolalar revmatizmi ilmiy asoschisi A.A.Kisel tomonidan yaratilgan. Keyinchalik ular Jones tomonidan 1944 yilda qayta ishlangan. A.I. Nesterov ularni 2 ta punkt bilan to‘ldirdi. Asosiy (katta, spetsifik) va qo‘shimcha (kichik, nospetsifik) diagnostik mezonlar farq qilinadi.

Revmatizmning diagnostik mezonlari	
Asosiy:	Qo‘shimcha:
Kardit	Isitma
Poliartrit	Artralgiya
Xoreya	Leykotsitoz, EChT oshishi
Revmatik tugunchalar	EKG da P-Q uzayishi
Annulyar toshmalar	Serologik va bioximik ko‘rsatkichlar
O`tkazilgan strepkokkli kasallik bilan bog‘iqligi	Kapillyarlar o‘tkazuvchanligining oshishi
Antirevmatik terapiya samaradorligi	Charchash, qorin sohasida og‘riq, burundan qon ketish

Ko‘proq informativ turg‘un mezon-kardit, xoreya kamdan-kam poliartrit hisoblanadi.

Birlamchi revmatizm - ko‘pchilik mualliflar revmatizm diagnozi ikkita asosiy yoki bitta asosiy va ikkita qo‘shimcha mezonlar bo‘lganda to‘g‘ri deb hisoblaydilar. Klinik tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda xatto asosiy belgilar ham nisbiy diagnostik ahamiyat kasb etadi.

A. O‘tkir yoki o‘tkir osti kechish xos. Burun-tomchi infeksiyasidan so‘ng 2-3 haftadan keyin yoki busiz revmatizmning birinchi simptomlari paydo bo‘ladi. Bu bosqichni xabarchilar davri deb atash mumkin, boshlang‘ich ko‘rinishlariga tana haroratining birdaniga ko‘tarilishi, intoksikatsiya simptomlari, artralgiya yoki poliartrit kabilarni kiritish mumkin. Birlamchi revmatizm bilan kasallangan

bemorlarning ko‘p qismida bo‘g‘imlar o‘zgarishi kuzatiladi. Revmatik poliartritda, asosan, simmetrik yirik va o‘rta bo‘g‘imlar shikastlanadi. Shikastlanish uchuvchi, ko‘chuvchi xususiyatga ega bo‘lib, 1-7 haftalar ichida turli bo‘g‘imlarni egallaydi. Kamdan-kam bitta bo‘g‘im zararlanadi. Bo‘g‘imlar shishgan, konturlari silliqlashgan, faol va passiv harakatlar keskin chegaralangan, ustidagi teri qizargan, ushlaganda issiq, lekin davolash natijasida bo‘g‘im sindromi tezda yo‘qoladi, barcha o‘zgarishlar izsiz yo‘qoladi. Yuqori harorat 3-5 kun saqlanadi, bug‘imlar shikastlanishi bilan bir qatorda revmokardit belgilari aniqlanadi va asosiy o‘ringa chiqadi. Karditning birinchi simptomlari kechroq paydo bo‘lishi mumkin, ba’zan poliartrit susayishi fonida paydo bo‘ladi.

Revmokarditda yurakning barcha uch qavati jarayonga tortiladi va u yoki bu klinik simptomlarning ustunligiga qarab jarayonga ularning qaysi biri qo‘shilganligini qayd qilish mumkin. Klinik ko‘rinishlarning og‘irligi miokard zararlanishi bilan aniqlanadi.

Nesterev yaqqol, o‘rta va kam ifodalangan karditni tafovut qiladi. Yaqqol ifodalangan miokarditda bemor juda og‘ir holatda, rangparlik, xansirash, yurak sohasida og‘irlik, yurak tez urib ketishi kabilar kuzatiladi. Cho‘qqi turtkisi susaygan, yurak bo‘g‘iqlik chegaralari chapga siljigan, tonlar bo‘g‘iqlashgan. Ko‘pincha taxikardiya yoki bradikardiya aniqlanadi. Sistolik shovqin revmatik miokarditda turlicha bo‘lishi mumkin. Bu yumshoq, dag‘al bo‘lmagan shovqin eng kuchli 5-nuqtada va cho‘qqida eshitiladi, uzatilmaydi (shovqin disfunksiyasi, p apillyar mushak gipotoniyasi) yoki yurak asosida qon oqish tezligining o‘zgarishi, o‘pka arteriyasining bosimining, qon yopishqoqligining o‘zgarishi, uning hajmi oshishi bilan bog‘liq «zarb shovqini» eshitiladi. Bunday shovqinlar intesivligi vertikal holatda yoki jismoniy yuklamada o‘zgaradi. FKG da bu shovqinlar organizm shovqinlari bilan bog‘liq emasligi, o‘z shaklini va amplitudasini turli koordinatsiyada o‘zgarishi bilan farq qiladi. Shuni esda tutmoq kerakki, bolada revmatizm kasalligigacha yoki unga bog‘liq bo‘lmagan holda chapda 5-qovurg‘alar oralig‘ida jarangdor funksional shovqin yoki bo‘yin tomirlarida sistolik «shum volchka» eshitilishi mumkin.

B. Miokarditni tasdiqlash uchun instrumental tekshiruv ma’lumotlari katta yordam beradi. EKG da quyidagi o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin:

1. Ritm faoliyatining taxikardiya va bradikardiya ko‘rinishida buzilishi, ritm boshqaruvchisi migratsiyasi, ab-disfunksiya, ular bilan bog‘langan.

2. ab o‘tkazuvchanlikning P-R uzayshi ko‘rinishda buzilishi. FKG da quyidagilar kuzatiladi :

a. Cho‘qqida ton amplitudasining uzayishi, bu miokard zararlanishi ham P-R uzayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin;

b. III va IV tonlar amplitudasining oshishi;

v. Funksional va organik sistolik shovqin;

V. Revmokarditda klinik jihatdan kam hollarda yallig‘lanish jarayoniga perikard qo‘shiladi. Odatda u plevra shikastlinishi bilan kechadi (plevroperikardit). Klinik jihatdan yurak sohasida qattiq og‘riq, quruq va cho‘zilgan yo‘tal paydo bo‘ladi, bolalar majburiy oldinga o‘tirgan holatni egalashadi. Quruq fibrinoz perikarditda butun yurak sohasi yoki biror qismi bo‘ylab perikard ishqalanish shovqini eshitiladi (bu yurak tonlari bilan bog‘lanmagan). U doimiy bo‘lmasdan perikard bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planganda kuzatiladi.

1. Oldin aniqlangan yurak sohasida pulsatsiyani va perikard ishqalanish shovqining yo‘qolishi yoki kamayishi.

2. Yurakning tez kattalashuvi.

3. Yurak bo‘g‘iqligi absolyut va nisbiy chegaralarning yaqinlashuvi.

4. Rentgenda yurak soyasi trapetsiya shaklida konfiguratsiyasini o‘zgartiradi. Shu bilan bir vaqtda bemor ahvoli og‘irlashadi ortopnoe, bo‘yin venalari shishi yuzaga keladi. Qorinda og‘riq bo‘lishi mumkin, shishlar, jigar kattalashgan, zichlashgan, og‘riqli. Yurak va bo’g‘imlar zararlanishi bilan birga jarayonga MNS qo‘shiladi (xoreya, ensefalopatiya, meningoensefalit, neyrorevmatizm). Bolalarda ko‘proq xoreya uchraydi (sidengam xoreyasi). Xoreya revmatizm manifestatsiyasi bo‘lishi mumkin va har doim jarayonning faolligidan dalolat beradi, cho‘zilgan va o‘zgargan shakllari ham bo‘lishi mumkin. Xoreya bilan nerv tizimda total yetishmovchiligi bo‘lgan 5-10 yoshdagi bolalar, lekin ko‘pincha pubertat davridagi bolalar kasallanadi. Xoreyaga uzun yashirin davr xos. Bola g‘ayritabiy harakatlar qiladi; bo‘shashadi, xoitirasi, imlosi, yurish-turishi o‘zgaradi, yig‘loqi, qo‘zg‘aluvchan bo‘lib qoladi. Bemorni obyektiv tekshirilganda triada simptomlari xos:

-ixtiyorsiz, distal, cheksiz giperkinezlar;

-mushakli gipotoniya;

-koordinatsiya buzilishi;

Nevrologik statusda pay reflekslari uchraydi, asosan tizza refleksi ("+" Gerdon refleksi), Cherni simptomi (nafas organda qorin old devorining tushishi), Romberg holatida turg‘unsizlik, "ilviragan yelka" simptomi, Filatov ko‘zi va tili (bemor ko‘zini zich qisilgan holatida uzoq vaqt tutib turolmaydi, chiqarilgan tili tortishib turadi). Giperkinezlar hayajonlanganda kuchayadi va uyqu vaqtida to‘la yo‘qoladi. Simptomlar qaytar o‘zgarishlari 1,5 — 3 oy davomida yuzaga keladi. Xoreya retsidivlanadi va uning fonida ko‘pincha yurak nuqsoni shakllanadi.

Kam uchraydigan simptomlarga granulyar toshmalar va revmatik tugunchalar kiradi. Granulyar toshma dumaloq-oqish markazli pushti-qizil rangdagi dog‘ bo‘lib, asosan qorin, ko‘krak qafasining yon yuzalarida, yelka va son ichki yuzasida, bo‘ynida, yurakda joylashadi. Toshma ko‘pincha kasallik boshlanishida hosil

bo‘lib, uzoq saqlanmaydi. U boshqa patologik holatlar (sur. Tonzillit, ORVI) da ham uchraydi, shuning uchun diagnostik ahamiyati kam. Hozirgi vaqtda kamdan-kam holda avvallari kasallikning og‘ir kelgan turida aniqlagan revmatik tugunlarni ko‘rish mumkin. Tugunchalar bir necha kundan bir necha oygacha saqlanib qoluvchi, pay, aponevrozlar soxasida dumaloq, zich bittalab yoki ko‘plab joylashuvchi 2-8 mm og‘riqsiz hosilalardir.

Ba’zan revmatizm abdominal sindromdan boshlanadi. Shiddatli boshlanish, kuchli isitma, qorindagi og‘riqlar, qondagi yallig‘lanish xarakteridagi o‘zgarishlar bemorni xirurgik bo‘limga gospitalizatsiyasiga ko‘rsatma bo‘ladi. Abdominal sindrom o‘tkir boshlangan qorin parda serroz yallig‘lanishi va keyingi aspektik ekssudativ peritonit natijasi hisoblanadi.

Revmatizmda buyrak zararlanishi siydik sindromi: o‘rta darajadagi proteinuriya, leykotsituriya, kam holda eritrotsituriya bilan ifodalanadi.

Bu o‘zgarishlar xavfsizroq hisoblanadi.

G. Klinik belgilar bilan bir qatorda laborator ko‘rsatkichlarda ham xarakterli o‘zgarishlar kuzatiladi. Faol revmatik jarayonida E.Ch.T. 30 mm/s dan oshadi, lekin tezda gormonoterapiya fonida pasayadi. Qon tahlilida leykotsitar formula chapga siljiydi (tayoqcha yadroli neytorfillar miqdori oshadi). Leykotsitlar miqdori oshishi mumkin. Gemoglobin miqdori kamayadi va rang ko‘rsatkich kamayadi, siydikda eritrotsitlar ko‘rish maydonda 10-12 ta va kam hollarda 50-80 bo‘lishi mumkin (nefrit). Siydik bilan chiquvchi oqsil miqdori kam va revmatik infeksiya og‘irligiga bog‘liq, o‘rtacha leykotsituriya kuzatilishi mumkin. Qon immunobioximik taxlillarida: ASL-O, AKS, ASG (norma 250-500) titrlari, DFA reaksiya ko‘rsatkichlari (norma 0,210 YeD optik zichlik), seromukoid (norma 0,180 YeD gacha) ko‘rsatkichlarning oshishi, S-refaol oqsil topilishi (normada yo`q, fibrinogen normada 9,2 mkmmol/l gacha) miqdorning qonning fibrinolitik faolligi susayganda oshishi kuzatiladi. Oqsil fraksiyalari o‘zgarishi: faol globulinlar oshishi xos. Revmatizm diagnostikasida laborator ko‘rsatkichlar emas, klinika muhim ahamiyatga ega.

Qaytalanuvchi revmatizm. Revmatizm bilan kasallangan bemorlarning 25-50% da qayta hurujlar burun-xalqum infeksiyasidan so‘ng yoki paraallergik ta’sirotlar natijasida yuzaga keladi. Revmatizm qo‘zg‘ashi yana hosil bo‘lgan inotoksikatsiya belgilari, harorat oshishi, bo‘g‘im sindromlari tasdiqlashi mumkin. Xorey va boshqa sindromlar retsidivlanishi mumkin. Har qaysi yangi xurujdan keyin ekstrakardial ko‘rinishlar yaqqolligi susayadi, lekin ular baribir jarayon faolligidan dalolat beradi.

Qayta xuruj deb 10-12 oydan kam bo‘lmagan holda yuzaga kelgan xurujni aytish mumkin. Noto‘liq remissiya fonida dastlabki davrda jarayonning qo‘zishini revmatizmning o’zluksiz-retsidivlanuvchi turi deb hisoblash mumkin. Bolalarda

qayta xurujlar natijasida, yurak nuqsonlari shakllanadi. Agar nuqsonlar birinchi xurujdan keyin 14-18% bemorlarda aniqlansa, 2-chi xurujlardan keyin 100% bemorlarda aniqlanadi. Yurak nuqsonlari oddiy (bitta klapan alohida shikastlanishi), qo‘sh (bitta klapan stenozi va yetishmovchiligi) va kombinirlangan (2-3 ta klapan zararlanishi) bo‘ladi. Jarayonga qo‘shilish chastotasi bo‘yicha birinchi o‘rinda mitral klapan, ikkinchi o‘rinda aortal klapan, uchinchi o‘rinda uchtabaqali klapan turadi. Qaytalanuvchi revmokarditda kasallik og‘irligi faqatgina jarayon faolligiga emas, balki klapanlar deformatsiyasi yaqqolligiga ham bog‘liq.

Solishtirma tashxis. Revmatizmni qator yurak, bo‘g‘im, MNS kasalliklari bilan solishtirib ko‘rish zarur. Dekompensirlangan surunkali tonzillitni revmatizm bilan umumiy holsizlik, charchash, poliartrologik subfebrilitet kabilar yaqinlashtiradi, hamda bemorni tekshirganda taxikardiya, sistolik shovqin ekstrasistoliya aniqlanadi. Ba’zan kattalashmagan murtaklar (toksik-allergik) bola organizmiga toksik-allergik ta’sir ko‘rsatib, gipertoniya va yuqori immunobioximik ko‘rsatkichlar bilan kechadi. Tashxis qo‘yishda tonzilitning faqat avj olganda o‘zgarishlar yuzaga kelishi (yashirin oraliq vaqti yo‘q) yordam beradi, yurak organik zararlanish simptomlari bo‘lmaydi. Virusli miokardit revmatizmdan ORVI bilan bog‘liqligi, ekstrakrdial ko‘rinishlari yo‘qligi, kasallik erta (5-6 yoshgacha) boshlanishi bilan farq qiladi, miokardial yetishmovchilik asosiy o‘ringa chiqadi, laborator ko‘rsatkichlar normada bo‘lib, yurak klapanlari nuqsoni shakllanmaydi.

Bolalarda surunkali infeksiya o‘chog‘i, poliartralgiya yoki poliartrit bo‘lganda, funksional shovqin eshitilishi revmatizm giperdiagnostika sabablari bo‘lishi mumkin. Latent revmatizmda faollik belgilarisiz faqat yurak klapan nuqsoni bo‘lganda, yurak nuqsonlarining boshqa sabablarini eslash kerak. Mitral klapan yetishmovchiligi (MKYe) klapanlarning tug‘ma defekti, MK prolapsi, virusli va bakterial endokardit, xordalarning travmatik uzilishi, idiopatik gipertrofik subaortal stenoz bilan bog‘liq. Aortal klapan yetishmovchiligi (AKYe) miksomator degeneratsiya natijasida, tug‘ma klapan rivojlanmasligi, biriktiruvchi to‘qima kasalliklari to‘qima kasalliklari (Elerasa-Danlos, Marfon sindromlari), aorta qatlamli anevrizmasi, arterial gipertoniya natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bo‘g‘im sindromida boshqa kasalliklar haqida eslash kerak. Bolalarda boldir sohasida og‘riq (o‘sish og‘irligi) VSB (vagotoniya) natijasida bo‘ladi; ko‘pincha ular kechasi yuzaga keladi, bo‘g‘imlar o‘zgarmaydi. Tashxis qo‘yishiga vegetativ holatni o‘rganish, vagotoniya, neografiya simptomlarini aniqlash yordam beradi.

Revmatoidli artrit revmatizmdan quyidagilar bilan farq qiladi: kasallik ko‘proq hayotning birinchi yillari (7 yoshgacha) boshlanadi; uzoq vaqt isitma ko‘tarilishi bilan kechadi, jarayonga qo‘l, oyoq panjasidagi, umurtqa pog‘onasidagi mayda bo’g‘imlar qo‘shiladi, bo‘g‘im sindromining davomiyligi bir necha haftagacha yoki oygacha, bo‘lib, bo‘g‘imlar deformatsiyasi, mushaklar atrofiyasi rivojlanishi bilan

davom etadi; bo‘g‘imlar rentgenogrammasida o‘zgarishlar (osteoporoz, ankiloz); ertalabki karaxtlik simptomi kuzatiladi.

Yurak uzoq vaqt jarayonga qo‘shilmaydi. Yallig‘lanishga qarshi terapiya kam samara beradi.

Osteomiyelit antibakterial terapiya qilishga qaramasdan yuqori harorat bilan kechuvchi, travma bilan bog‘liqligi, bitta bo‘g‘imning chegaralangan shikastlanishi, og‘riqni giperemiya va shishli joyda maksimal bo‘lishi, intoksikatsiya belgilari tez o‘sib borishi bilan xarakterlanadi.

Monoartritda, ayniqsa tos-son bo‘g‘imida silning asorati emasligini hisobga olish kerak.

Poliartrit leykozning birinchi ko‘rinishi bo‘lishi mumkin, bunda umumiy qon tahlilida o‘zgarishlar aniqlanmaydi.

Bo‘g‘im sindromi kardit belgilarisiz kechishi, periferik limfa tugunlari, jigar, taloq kattalashishi, anemiya leykozga shubha qilishga yordam beradi. Dignostika stretokokk infeksiyasiga bog‘liq bo‘lmagan, tana harorati oshmaydigan, intoksikatsiya belgilarisiz kechuvchi nevroz harakatlari (tiklar) bilan solishtirma tahlil o‘tkazish kerak. Umumiy holati o‘zgarmagan, proksimal giperkinezlar mavjud, lekin katta amplituda emas, mushakli gipotoniya yo`q. Kasallik oylab va yillab davom etadi, bolani o‘zini tutishida o‘zgarishlar MNS ning organik shikastlanishi belgilari ham bor.

Davolash. Bolalarda revmatizmni davolash erta, kompleks, bosqichli (statsionar, revmatik sanatoriy, dispanser uzoq davom etishi 3-4 oydan kam emas) davolash kerak.

A. 1-bosqich. Statsionar davo-kompleksli terapiyaning birinchi, asosiy bosqichlarini o‘z ichiga oladi.

1. Bolaga moslanuvchi davolovchi gimnastika mashg‘ulotlari bilan davolash - harakatlanuvchi rejimni ta’minlash (funksional reabilitatsiya)

2. Medikamentoz terapiya qo‘llash (patogenetik davo)

3. Surunkali infeksiya o‘choqlarini sanatsiya qilish. Statsionarda o‘tkir revmatizm bilan kasallangan bemorlarni yakkalash maqsadga muvofik, chunki u streptokokk tashuvchisi hisoblanadi. Bo‘limda davolash-harakat rejim aniqlanadi. Yotoq rejimi 2-3 hafta yoki ko‘proqqa (kardit og’irligiga karab) belgilanadi. So‘ng bolani yarim yotoq rejimiga (xojatxonaga, stolga, muolajaga turishga ruxsat beriladi), keyinchalik shug’ullanuvchi rejimga o‘tkaziladi. Birinchi rejimdan ikkinchisiga o‘tkazishda klinik-laborator ko‘rsatkichlar nazoratga olib boriladi. Uzoq vaqt toza havoda yurish katta ahamiyatga ega. Ovqatlanishi to‘la, sifatli bo‘lishi kerak, gormonoterapiyada ovqat tarkibidagi K tuzlarini oshirish, osh tuzini kamaytirish maqsadga muvofiq.

Medikamentoz davo o‘z ichiga antimikrob, yallig‘lanishga qarshi va

immunodepressiv preparatlarni o‘z ichiga oladi. Revmatizm streptokokk tabiatli bo‘lgani uchun sutkasiga 600000 – 2 mln YeD m/o 2 hafta davomida penitsillin buyuriladi. Yallig‘lanishga qarshi, desensibillashtiruvchi, og‘riq qoldiruvchi, isitma tushiruvchi va yengil antikoagulyant xususiyatga ega bo‘lgan aspirin tavsiya etiladi. Dozasi 0,20 g. har bir yoshiga (tax. 3 g/sut) bo‘lib ovqatdan keyin 3-4 marta beriladi. 3-4 hafta davomida beriladi, keyin har bir yoshiga 0,15 g dan kamaytirib 2 hafta beriladi. Keyinchalik bemor 1,5 oy davomida 0,1 g har bir yoshiga qabul qiladi. Pirozonol qatori birikmalari (analgin, amidopirin) aspirin o‘rniga 0,15-0,2 g har bir yoshiga yoki birgalikda har bir preparatdan 0,1-0,15 g dozada har bir yoshiga sutkasiga beriladi.

Butadion aspiringa nisbatan yaqqolroq antirevmatik ta’sirga ega, lekin nojo‘ya ta’sirlari ko‘proq (qayd qilish, gematuriya), shuning uchun 2-3 haftalik qisqa kurslar buyuriladi. 5-7 yoshdagi bolalarga kuniga 3 mahal 0,05 g dan, 8-10 yoshdagilarga 4 mahal 0,05 dan, 11 yosh va undan kattalarga 3 mahal 0,1 g dozada beriladi.

Revmatizmni davolashda bir necha o‘n yillar davomida GKS qo‘llaniladi.

Revmatizm bilan kasallangan bolalar uchun gormonal preparatlar (milligramda) ning sutkalik dozalari

Preparatlar	7-yoshgacha	7-12 yosh	12-19 yosh
Prednizolon	10-12,5	12,5-15	15-20
Triamsinolon	8-10	10-12	12-16
Deksametazon	1,75	2-2,6	2,6-3,0

Nesterov kompleksli terapiyani taklif qiladi (GKS, aspirin), bu esa gormonlarni kichik dozada buyurishga imkon beradi (dorilarning sifatli sinergizmi). Hozirgi vaqtda prednizolonning o‘rtacha miqdori 0,7-0,8 mg/kg. sutkasiga, lekin 1 mg/kg kam bo‘lmagan miqdorlarda tavsiya etiladi. Prepartning to‘liq dozasi yaqqol klinik natija yuzaga chiqquncha 10-14 kun davomida beriladi. Preparatni bekor qilish asta-sekinlik bilan olib boriladi. Shuning uchun davolash kursi 2 oy davom etadi.

Gormonoterapiya vaqtida K+ preparatini kerakli dozada olish kerak. (yaxshisi panangin sutkasiga 3-6 tabletka) YaKNP (voltaren, indometatsin)ga ko‘rsatmalar — GKS terapiyaning uzluksiz retsidivlanuvchi yoki cho‘zilgan sust kechishida noeffektivligi va kam yoki o‘rtacha ifodalangan revmokardit.

Bolalarda revmatizmni davolashda qo‘llaniluvchi nosteroid

Preparatlar	Bola yoshi	Boshlang‘ich sutkalik doza	1kg massaga doza

Voltaren	3 yosh 6 yosh 11oy 7-12 yosh 12 yoshdan yuqori	75 75-100 100-100	2,8-3,5
Indometatsin	3 yosh 6 yosh11oy 7-12 yosh 12 yoshdan yuqori	50-75 75-100 100-125	2,5-3,0

preparatlar dozalari.

Indometatsin bir necha oy davomida sutkasiga 3-4 marta 4-3 mg/kg dan beriladi. Shuni esda tutmoq kerakki, YaKNP ni qo‘llaganda salitsilatlar va pirozolon unumlari preparatlari bekor qilinadi. Surunkali va cho‘ziluvchi kechishda xinolin qatori birikmalari delagil, plakvenil qo‘llaniladi. Ular immunodepressiv xususiyatga ega, ularning yallig‘lanishga qarshi effekti yaqqol emas. Ularning ta’sir effekti davolashdan 3-4 haftadan keyin yuzaga keladi, shuning uchun ularni bir necha oylab (2 yilgacha) gormonal preparatlar bilan birga qo‘llanadi. Immunodepressantlar (6-metiluratsiya, siklofosfan) boshqa hamma usullar noeffektivligida qo‘llaniladi.

Yurak glikozidlari klapan nuqsonli qaytalanuvchi revmatizmda ko‘proq qo‘llaniladi. Bunda qon aylanish yetishmovchiligi gormon va aspirin terapiya bilan bartaraf etiladi. Turg‘un dekompensatsiyada siydik haydovchi preparatlar qo‘llaniladi. Xoreyada antirevmatik davolash bilan birga brom, seduksen, prioksazin, preparatlari, elektrouyqu, o‘tli vannalar, B B_6 vitaminlar qo‘llaniladi. Kompleksli terapiyaning asosiy omillaridan biri surunkali infeksiya o‘choqlarini sanatsiya qilishdir (kariyes tishlar, gaymorit, tonzillit). Tonzill ektomiyani revmatizm qaytarilishini oldini olishdagi ahamiyati bitsillinoprofilaktika kiritilgandan keyin kamaydi. Tonzilektomiya streptokokkli faringit yuzaga kelish xavfini kamaytirmaydi, ko‘pincha streptokokkli infeksiya kechishini o‘zgartirmaydi, u hozirgi vaqtda faqat ba’zi ko‘rsatmalardagina qilinadi. (tonzillitning tez-tez va qat’iy retsidivlari, tonzillogen intoksikatsiya, konservativ terapiya samarasizligi va boshqalar). Tozillektomiya kasallik boshlanishidan 2-2,5 oydan kam bo‘lmagan vaqt o‘tganda, normal laborator ko‘rsatkichlar bo‘lganda qilish mumkin. Operatsiyadan 6-10 kun oldin parenteral antibiotiklar tavsiya etiladi, atsetisalitsil kislota, analgin yoki boshqa preparatlar bilan almashtiriladi. Revmatizm bilan kasallangan barcha bemorlarga uzoq vaqt askorbin kislota va vitaminlar (B guruh), desensibillovchi preparatlar (dimedrol, suprastin, tavegil va

boshka), nikotin kislota qabul qilish buyuriladi. Statsionarda revmatizm bilan kasallangan bemorlar 2 hafta yotishadi, keyinchalik davolash poliklinikada ambulator sharoitda davom ettiriladi.

B. 2-bosqich. Sanatoriyda davolash xurujdan 7-10 oy dan keyin olib boriladi. Sanator davo effektivligi bemorga shifoxonadan to‘g‘ridan- to‘g‘ri sanatoriyga yullanma berilganda yuqori bo‘ladi. Sanatoriy vazifasiga to‘liq remissiyaga erishish, yurak qon-tomir tizimining funksional holatini tiklash kiradi, bu esa davolash-sog‘lomlashtirish rejimi, davolovchi jismoniy tarbiya, chiniqtirish yordamida amalga oshiriladi. Lekin ularni katta ehtiyotkorlik bilan va individual ko‘rsatmalarni hisobga olgan holda qo‘llaniladi. Bolalarda antirevmatik terapiya surunkali infeksiya o‘choqlarini davolash davom ettiriladi.

V.3-bosqich. Dispanser nazorat. Sanatoriydan bola uchastka pediatri va kardiorevmatolog nazoratiga o‘tadi. Bola 2 marta tekshiriladi, boshqa mutaxassislarga yuboriladi, instrumental-laborator tekshiruvlar o‘tkaziladi.

Prognoz. U keyingi o‘n yil ichida streptokokkli infeksiyaga qarshi kurashishning samarali tadbirlari va patogenetik terapiyaning ta’siri munosabati bilan yaxshilanadi. Shiddatli ekssudativ ko‘rinishlar bilan kechuvchi revmatizmning og‘ir turlari kam uchramoqda. Letallik 11-12% dan 0,4-0,1 % gacha kamaydi. Bu esa og‘ir miokardit natijasida yuqori faollikda o‘tkir kechuvchi revmatizmda rivojlanuvchi yurak nuqsonlari natijasida yurak yetishmovchiligi bilan belgilanadi.

Qo‘sh va kombinirlangan yurak nuqsonlari kasallikning qaytar retsidivlar natijasida kuzatiladi. Birlamchi revmokardit 10-15% bemorlarda yurakda klapanli nuqsonlar paydo bo‘lishiga olib kelsa, qaytalanuvchi revmokardit 40% bemorlarda nuqsonlar paydo qiladi.

Profilaktika. Cho‘zilgan va uzluksiz retsidivlanuvchi revmatizmda yuragi zararlangan bemorlar kardiorevmatolog nazoratida turg‘un remissiya yuzaga chiqquncha bo‘lishadi, keyinchalik ular uchastka shifokori va kardiorevmatolog nazoratiga o‘tishadi. Dispanser tekshiruvda profilaktika o‘tkaziladi. Revmatizm profilaktikasi birlamchi va ikkilamchi bo‘ladi. Birlamchi profilaktika revmatizm yuzaga kelishini, ikkilamchi uning retsidivlanishini oldini oladi. Birlamchi o’z ichiga tabiiy immunitetni qaytarish tadbirlarini oladi (chiniqish, yuklama va dam olishning to’g‘ri almashtirishni, to‘la sifatli ovqatlanish, vitamin qabul qilish). Streptokokkli infeksiya bilan kurashish, otolaringologning tizimli ko‘rsatmalari bilan to‘g‘ri davolash, surunkali tonzillitni konservativ davolash, ko‘rsatma bo‘yicha tonzilektomiya qilishni taqozo qiladi. Ikkilamchi profilaktika - revmatizm retsidivini oldini olish, davomiy ta’sirga ega bo‘lgan pensillin preparatlari bitsillin – 3 va bitsillin — 5 qo‘llab amalga, oshiriladi, bundan oldin shifokor pensillinga bo‘lgan allergik reaksiyani aniqlashi kerak.

Bitsillinoprofilaktika mavsumiy va yil davomida bo‘ladi. Mavsumiy profilaktika burun-xalqum infeksiyasi va revmatizmning qayta xurujlari kuzda va bahorda o‘sishini hisobga oladi. Bitsillin-3-6 hafta davomida 7 kunda 1 marta qilinadi. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalarda 600 ming YeD dan, maktab yoshidagilarga 1200 ming YeD dan 0,1 har bir yoshga aspirin bilan birga beriladi. Mavsumiy profilaktika kamchiligi – kurslar oralig‘i burun-xalqum infeksiya kasalliklar soni oshishi, revmatizm retsidivlanishi hisoblanadi. Yil davomidagi profilaktika uchun bitsillin-5 qo‘llaniladi, bunda u 3-4 haftada 1 marta 780 ming YeD, maktab yoshdagi bolalarga 1500 ming YeD-4 hafta beriladi. Yurak nuqsoni shakllangan birlamchi revmokardit va cho‘zilgan -sust kechuvchi xoreyani o‘tkazgan bemorlarga, hamda qaytalanuvchi revmokardit bilan kasallangan bolalarga uzluksiz yil davomida profilaktika 5 yildan ko‘p o‘tkazilishi kerak

Nazorat savollari

1.Birlamchi revmatizm haqida fikr bildiring.

2.Revmatizm diagnozi. Klinik tajribaning asosiy belgilari diagnostikasi ahamiyatini izohlang.

3.Birlamchi revmatizm bilan kasallangan bemorlarning ko‘p qismida bo’g‘imlar qanday o‘zgarishi kuzatiladi.

4.Revmatik poliartritda asosan simmetrik qanday bo‘g‘imlar shikastlanadi.

5. Bug‘imlar shikastlanishi bilan bir qatorda revmokardit belgilari aniqlanadi nima uchun izohlang.

6. Karditning birinchi simptomlari kechroq paydo bo‘lishi mumkin, ba’zan poliartrit susayishi fonida paydo bo‘ladi, izohlab bering.

7.Revmokarditda yurak qanday aniqlanadi.

8.Miokarditni tasdiqlash uchun instrumental tekshiruv ma’lumotlari qanday yordam beradi.

9.Qorinda og‘riq bo‘lishi mumkin, shishlar, jigar kattalashgan, zichlashgan, og‘riq, yurak va bug‘imlar zararlanishini izohlang.

2–Mavzu: Yuvenil revmatoid artrit. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

So'nggi o'n yilliklarda revmatik kasalliklar (RK) rivojlanishining sabablari va mexanizmlari haqidagi g'oyalarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Refaol artropatiya bilan og'rigan bemorlarning soni sezilarli darajada oshdi, bu haqiqatan ham balog'atga yetmagan revmatoid artritga o'tishga tahdid soladi. Klinik

revmatologiya va immunologiyaning ilmiy yutuqlari bolalarda turli tabiatdagi bo'g'im kasalliklarini tashxislash va davolashning yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish imkonini berdi.

Pediatrlar ko'pincha tanadagi tizimli buzilishlar bilan birgalikda bo'g'inlar va mushak-skelet tizimining kasalliklari bilan shug‘ullanishlari kerak. RKda yallig'lanishli me’zonlar degenerativ va metabolik o'zgarishlar bilan birga keladi.

Bolalarda turli xil osteo va xondropatiyalar ham tez-tez kuzatiladi, bu yallig'lanish kasalliklari kabi erta tashxis qo'yish va tegishli davolanishni talab qiladi. So'nggi o'n yillikda RB bo'lgan bolalarda osteopeniya va osteoporozning oldini olish va davolash muammosi ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. Bolalarda immunitet tizimi butun bolalik davrida rivojlanish, shakllanish va shakllanish holatida ekanligi aniqlandi. Shunga ko'ra, immunitet tizimining rivojlanishidagi tanqidiy davrlar (yangi tug'ilgan chaqaloqning yoshi, 3-6 oylik, qon ko'rsatkichlarining "ikkinchi krossoveri" davri, o'smirlik davri), zo'ravon sharoitlar (immunodiateslar) bilan namoyon bo'ladi. Harakatlar va kasalliklar immunopatologik reaksiyalarni qo'zg'atishi mumkin.

Ushbu masalalarni tushunish bilan bolalarda RK rivojlanishida autoimmun diatezning rolini baholash va profilaktika choralarini ishlab chiqish uchun haqiqiy imkoniyat paydo bo'ldi. Tayanch-harakat tizimining ishtiroki bilan yuzaga keladigan tizimli kasalliklar bilan bir qatorda, yallig'lanishli va yallig'lanishsiz bo'g'imlarning boshqa kasalliklari ham juda keng tarqalgan.

Bo'g'imlarning anatomik va funksional xususiyatlari.

Bo'g'im suyaklarning harakatchan birikmasi bo'lib, haftaga bilan qoplangan bo'g'imli suyak sirtlari, sinovial suyuqlikni o'z ichiga olgan bo'g'im bo'shlig'i va artikulyar kapsula mavjudligi bilan tavsiflanadi. Qo'shimchaning anatomik elementlari ligamentlar va haftaga tushadigan menisklardir. Ushbu turdagi bo'g'im diartroz yoki sinovial bo'g'im deb ataladi. Ularning vazifalari vosita va qo'llab-quvvatlashdir. Bo'g'imlarning yana bir turi - amfiartroz. Ularda artikulyar suyak yuzalari tolali haftaga bilan qoplangan, bo'g'im bo'shlig'i umurtqali tanalar orasidagi kabi yo'q yoki pubik bo'g'imdagi kabi tor bo'shliq bilan ifodalanadi. Ushbu bo'g'inlarda sinovial membrana va sinovial suyuqlik yo'q.

Amfiartrozlar (ular ham haftaga tushadigan bo'g'inlar) faol emas, asosan tananing bir qismining barqarorligini ta'minlaydigan funktsiyani bajaradi. Sinartroz - bu suyaklarning uzluksiz bog'lanishi. Bu skeletning qattiqligi va qo'llab-quvvatlanishini ta'minlaydigan sobit bo'g'inlardir.

Suyaklarning artikulyar yuzalarining shakliga ko'ra diartroz yetti turga bo'linadi:

1) tekis bo'g'inlar (masalan, karpal va tarsal), ulardagi harakatlar faqat bitta tekislikda bo‘lishi mumkin;

2) sharsimon bo'g'inlar (masalan, son va yelka). Ular barcha turdagi harakatlarning

ko'proq erkinligini ta'minlaydi (dumaloq harakatlar, fleksiyon va kengayish, o'g'irlashish va tortishish);
3) elliptik bo'g'inlar, bunda bo'g'inli uchlaridan biri ellips shaklida, ikkinchisi esa mos keladigan bo'shliq shaklida bo'ladi. Natijada, bu bo'g'inlardagi harakat doirasi cheklangan, ya'ni sferik bo'g'inlar bilan solishtirganda, ularda dumaloq harakatlar mumkin emas. Bu bo'g'inlar guruhiga metakarpofalangeal va radiokarpal bo'g'inlar kiradi;
Etiopatogenezi: Gastrit – oshqozon shilliq pardasining yallig‘lanish jarayoni bo‘lib, oqibatda mazkur organ patologik o‘zgarishlarga uchraydi. Bu kasallik turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin va turli ko‘rinishda kechadi. Fan oshqozonning birlamchi gastriti tushunchasini ajratadi va u mustaqil patologiyaga ega. Ikkilamchi gastrit esa zaharlanish, infeksiya va boshqa noxush holatlar asnosida paydo bo‘ladi. Xelikobakterioz odatda, qorinda og‘riq bilan bilan boshlanadi va u taom iste’mol qilgandan keyin yoki ovqatlangunga qadar paydo bo‘ladi. Shuningdek, ko‘ngil aynishi, qabziyat, ichburug‘ va jig‘ildon qaynashi singari alomatlar bilan ham kechadi.

Kasallik kechish xaraketriga ko‘ra gastritning quyidagi turlari ajratiladi: O‘tkir gastrit. Shiddat bilan rivojlanadigan yallig‘lanish bo‘lib, organizm kasallik chaqiruvchiga to‘qnashganidan bir necha soat o‘tib alomatlari yuzaga chiqadi.

Aksariyat hollarda bunga ichak infeksiyalari va bakterial tipga taalluqli toksinlardan zaharlanish (masalan, aynigan, buzilgan yegulik tanavvul qilgandan keyin) sababli paydo bo‘ladi. Ba’zan o‘tkir gastritga dori vositalari, kimyoviy vositalar va oshqozon shilliq pardasini yallig‘lantiruvchi boshqa moddalar oqibatida ham yuzaga keladi. Bular sirasiga spirt, o‘yuvchi moddalar va kislotalar kiradi.

Surunkali gastrit. Bu xastalik bir qadar sokin kechsada, oshqozon faoliyatining patologiyasiga olib keladi va ba’zan oshqozon shilliq pardalarining butkul zararlanishi oqibatida batamom yemirilishiga (o‘lishiga) sabab bo‘ladi. O‘tkir gastrit surunkasiga aylanib ketishi mumkin: bunday paytlarda kasallik zo‘rayishi va qaytalanishi navbat bilan kechadi. Inson holatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmagani, boshqa favqulodda alomatlarsiz kechgani sababli, ba’zan kasallikni aniqlash oson bo‘lmaydi. Kasallik zo‘rayishiga noto‘g‘ri ovqatlanish, mahsulotlarga allergik reaksiya, modda almashinuvining cho’zilishi chekish va spirtli ichimliklar ichish kabilar sabab bo‘ladi.

Kasallikka chalingan organizmda qanday jarayonlar sodir bo‘ladi? Kasallik chaqiruvchi bakteriyalar (Helikobakter pilori/Helicobacter pylori) oshqozonda ko‘payib, bosqichma-bosqich oshqozon shilliq pardasini yemiradi. Javob reaksiyasi sifatida shilliq parda yemirilgan hujayralarni davolash maqsadida maxsus modda ajratadi. Oqibatda ichki ziddiyat vujudga kelib, og‘riq paydo bo‘ladi, ishtaha pasayib, jig‘ildon qaynaydi va gastritning boshqa alomatlari namoyon bo‘ladi. Gastrit paydo bo‘lishining endogen sabablari. Gastritga organizmda quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin: oshqozon-ichak kasalliklariga genetik moyillik; duodenal refleks; immun tizimi darajasida hujayralar himoya funksiyasining kuchsizlanishi; gormonal buzilishlar; zararlangan organlardan xastalikning avtomatik ravishda qo‘shnilariga o‘tishi.

Duodenal refleks–o‘n ikki barmoqli ichakdan safroning oshqozonga noto‘g‘ri tushishidir. Oqibatda oshqozon devorlarining yallig‘lanishi sodir bo‘lib, oshqozon shirasi kimyoviy tarkibi o‘zgaradi. Dastlab mazkur patologiya oshqozon antral qismida sodir bo‘ladi va keyin organni butunlay zararlaydi. Hujayralar himoya funksiyasining kuchsizlanishi esa ularning normal faoliyati buzilganini ko‘rsatadi. Bular o‘z navbatida qator salbiy patologik jarayonlarga sabab bo‘lib, oshqozon shirasi rN-balansini o‘zgartiradi va uning devorlarini yallig‘laydi. Oqibatda ichki zaharlanish sodir bo‘lib, oshqozon o‘zi ishlab chiqargan shiraning sho‘rligiga salbiy reaksiya ko‘rsata boshlaydi. Gastrit klinik begilari. Gastritga oshqozonning turli qatlamlaridagi yemirilishlar sabab bo‘ladi. Aksariyat holatlarda, kasallik deyarli sezilmasligi mumkin, ammo bemor taom iste’mol qilganidan so‘ng qorinda og‘irlik, qo‘qqisdan sodir bo‘ladigan sanchiqlar, ko‘ngil aynishi, ishtahaning yo‘qolishi, vazn tushib ketishi va shunga o‘xshash salbiy holatlardan shikoyat qiladi. Gastrit rivojlanishining barchaga taalluqli, yagona alomatlari yo‘q: ular paydo bo‘lishi va

keyin yo‘qolishi, alomatlari va ularning qaytalanishi jarayoni kasallikning qay tarzda kechayotgani va qabul qilinayotgan dori vositalariga qarab o‘zgarib turadi.

Kasallikning o‘tkir shaklida quyidagi alomatlar kuzatiladi: qorin sohasida og‘riq hissi: og‘riq to‘satdan paydo bo‘lib, o‘tib ketishi yoki aksincha, sezilar-sezilmas va davomiy bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda og‘riq ovqat tanavvul qilinganidan keyin paydo bo‘ladi: och qoringa taom yeyilsa va ovqatlanib bo‘lgandan keyin qorinda noxushlik yanada ortadi. Ko‘ngil aynishi (doimiy yoki takrorlanuvchi, odatda ovqat iste’mol qilgandan keyin paydo bo‘ladi); jig‘ildon qaynashi (qizilo‘ngachda achishtiruvchi og‘riqli noxush holat); kekirish (ovqatdan keyin yoki och qorinda ham; ba’zan og‘izda sho‘r hid hosil bo‘ladi); o‘xtin-o‘xtin qayt qilish (avvaliga organizm oshqozondagi yegulik va ichkilikni qabul qilmasdan kishi qayt qilib tashlaydi, keyinchalik qayt massasiga yashil yoki sarg‘imtir tusda shilliq modda aralashadi); ko‘p miqdorda so‘lak ajralishi (tanamiz ovqat hazm qilish jarayonining buzilishiga reaksiya bildiradi); ba’zan og‘iz bo‘shlig‘i quriydi (bu qayt qilish natijasida organizmning suvsizlanishdan darak beruvchi omil hisoblanadi); qabziyat yoki ichburug‘; umumiy darmonsizlik, bosh aylanishi, boshog‘rig‘i, kuchli terlash, daraja, qon bosimining pasayishi, yurakning tez urib qolishi (taxikardiya).

Surunkali Helikobakterioz normal, past yoki yuqori kislotaviylik bilan ham xarakterlanishi mumkin. Bular o‘z navbatida anatsid, giperatsid va gipoatsid gastrit deyiladi.

Kislotaviylik me’yorida yoki yuqori bo‘lsa, bemor og‘riq, jig‘ildon qaynashi va ovqatdan keyingi og‘irlikdan shikoyat qiladi. Aksariyat paytlarda defekatsiya muammolari uchraydi. Surunkali gastrida yuqori kislotaviylik shuningdek, kekirganda og‘izda sho‘r ta’m sezilishi, ko‘ngil aynishi, och qolganda oshqozonda og‘riq va tunda noxushlik singari alomatlar bilan kechishi ham mumkin. Aksincha, past kislotaviylik tilda noxush ta’m, ishtaha buzilishi, qorin quldirashi va ich buzilishi bilan namoyon bo‘ladi. Past kislotaviylik sababli kechuvchi surunkali Helikobakteriozni so‘lakning ko‘p miqdorda ajralishi, qorinda to‘lib ketgandek hissiyot, ovqatlanishga moyillikning yo‘qligi bois anemiya alomatlari bilan ham aniqlash mumkin. Kasallik bir necha yil davom etadigan bo‘lsa, kishi ozib ketib, doimiy behollikni his qiladi.

Gastritni tashxislash. Klinik tadqiqotlar (shifokor bemorning shikoyatlarini eshitadi, kasallik tarixini tuzib chiqadi, bemorni ko‘zdan kechiradi, dastlabki tashxis va bemorga ma’qul keladigan muolajalar rejasini belgilaydi Endoskopik tadqiqotlar biopsiya (organizmda Helikobacter Pilori bakteriyasi bor-yo‘qligi, oshqozon shilliq pardasining o‘ziga xos tuzilishi va shilliq pardasining saraton oldi moyilligi aniqlanadi). Biopsiya kamida 5 biomaterial asosida o‘tkaziladi (2 tasi antral bo‘lmasidan, 2 tasi asosiy bo‘lma va bittasi oshqozon burchagidan olinadi). Laborator tadqiqotlar (bemorning qoni, peshobi va axlati klinik tahlil qilinadi, qon

biokimyo tekshiruvi hamda axlatida yashirin qon mavjudligi tekshiriladi). Bu ham organizmda gastrit bakteriyasi bor-yo‘qligini aniqlash imkonini beradi.



Surunkali gastrit bir necha bosqichda aniqlanadi:

Jigar, oshqozonosti bezi va o‘t pufagi UTT o‘tkaziladi (bular orqali shifokorlar ovqat hazm qilish tizimiga yo‘ldosh boshqa xastaliklarni ham aniqlaydi). Oshqozon ichki rN-metriya (bu muolaja oshqozon shirasi kislotaviyligini va ovqat hazm qilish tizimining kislotaviylikka bog‘liq xastaliklarini aniqlash uchun qo‘llanadi). Elektrogastroenterografiya (bu ovqat hazm qilish tizimi ishlash mexanizmi va duodenogastral reflyuksni aniqlash uchun qo‘llanadi). Ovqat hazm qilish tizimi yuqori bo‘lmalari manometriyasi (reflyuks-gastritni aniqlaydi). Bunday kasalligi bor bemorlarda 12 barmoqli ichak bosimi taxminan suv ustunining 200 mm.ni tashkil etadi. Sog‘lom kishilarda esa bu ko‘rsatkich 130 mm.dan oshmaydi. Gastritni qanday davolash kerak.

Gastrit mutaxassislari uni davolash uchun bir necha tipdagi preparatlarni tavsiya qiladi:

Detoksikatsiyalovchi dorilar (antidotlar)
Antatsidlar;
Dezinfeksiya uchun antiseptiklar;
Ichburug‘ga qarshi vositala;
Tetrasiklin tarkibli antibiotiklar;
Sorbentalar (Filtrum);
Allergiyaga qarshi vositalar (N2 podtip);
Ferment preparatlar («Mikrazim»).



Gastritga qarshi terapiyaning asosiy vazifasi – kasallik sabablarini bartaraf etish hamda uning rivojlanishini rag‘batlantiruvchi va og‘irlashtiruvchi omillarni bartaraf etishdir (masalan, noto‘g‘ri ovqatlanish, infeksion omillar va h.k.). Oshqozon shilliq pardasi tiklanish jarayonini faollashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari qator profilaktika choralari ham mavjud. Shunday qilib, kasallikka qarshi majmuaviy kurash dori-darmon muolajalari, to‘g‘ri ovqatlanish va gastrit xuruj qilganida qo‘llanadigan profilaktika choralarini o‘z ichiga oladi.

Gastritni davolash majmuaviy prinsipga ega bo‘lib, kasallik nima sababdan kelib chiqqanini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Odatda, shifokorlar antibiotiklar ularga parallel ravishda oshqozon shirasi kislotaviyligini pasaytiruvchi vositalar tavsiya qiladi. O‘zbilarmonlik bilan davolanish yaramaydi: terapiya kursi va miqdorini davolovchi shifokorgina belgilashi mumkin. Odatda, sog‘ayish jarayoni 7-14 kunni tashkil qiladi.

Yana bir bor ta’kidlamoqchimiz – kislotaviylik darajasini pasaytirish muolajaning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu shilliq pardani himoyalash, noxush hislarni bartaraf etish, shuningdek, preparatlar umumiy ta’sirchanligini oshirishga ko‘maklashadi.

Nihoyat, gastrit terapiyasi vismut dori vositalarini qabul qilishni ham o‘z ichiga oladi. Ular shilliq pardaning ustki himoya qatlamini shakllantirishga yordam beradi va natijada shillik parda hujayralari oshqozon shirasining yuqori kislotaviyligi va bakteriyalarning salbiy ta’siridan bir muncha uzoq bo‘ladi.

Gastrit asoratlari

Umuman olganda, gastrit xavfli xastaliklar qatoriga qo‘shilmaydi (kasallikning flegmonoz turidan boshqa). Shunday bo‘lsada, gastrit oqibatida quyidagi xavfli holatlar yuzaga kelishi mumkin: oshqozonda ichki qon ketishi; oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralari; oshqozon saratoni.

Yuqoridagi o‘ta salbiy oqibatlardan tashqari, gastrit asosan ovqat hazm qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasallikka chalingan bemorlar oshqozondagi

og‘riq va jig‘ildon qaynashi singari noxush holatlardan cho‘chib, ovqatdan voz kechishga majbur bo‘ladi. Oqibatda kishi ozib ketishi, ba’zan esa organizm taomni qabul qilmasligi, kuchli qayt qilish va jig‘ildon qaynashi mumkin. Bulardan tashqari, gastrit avitaminoz va kamqonlik (anemiyaga) olib keladi.

Gastrit profilaktikasi.

Aslida, har bir inson umri davomida gastritga yo‘liqmaslik uchun zarur choralarni ko‘rishi lozim. Buning uchun esa, zararli odatlar - chekishdan voz kechish va spirtli ichimliklar iste’molini imkon qadar kamaytirish, foydali yeguliklar va mahsulotlarni tanavvul qilishi, me’yorida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi, o‘zini turli stresslardan himoyalashi kerak.

Nazorat savollari.

1.Etiopatogenezi. Gastrit – oshqozon shilliq pardasining yallig‘lanish jarayoni qanday paydo bo‘ladi.

2. Oshqozonning birlamchi gastriti tushunchasini izohlang.

3.Ikkilamchi gastrit esa zaharlanish, infeksiya va boshqa noxush holatlar qanday paydo bo‘ladi.

4.Xelikobakterioz qanday holatda qorinda og‘riq bilan bilan boshlanadi va u taom iste’mol qilgandan keyin yoki ovqatlangunga qadar paydo bo‘ladi.

5.Ko‘ngil aynishi, qabziyat, ichburug‘ va jig‘ildon qaynashi singari alomatlar bilan kechadigan kassalik jarayonmini izohlang.

6.Gastritni turlarini izohlab bering.

7. Surunkali gastritni izohlab bering.

8.O‘tkir gastrit surunkasiga qanday holatda aylanib ketishi mumkin izohlab bering.

4-Mavzu: Yara kasalligi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Etiopatogenezi. Yara kasalligi – oshqozon va 12 barmoqli ichakda yara hosil bo‘lishi bilan kechadigan surunkali qaytalovchi (retsidivli) kasallik. Tarqalishi. Yara kasalligi bolalar va o‘smirlarning 0,7-6,2%ida uchraydi. Kasallik hamma yoshlarda, eng ko‘p 8-12 yoshli o‘quvchilarda uchraydi va bolalardagi boshqa gastroenterologik kasalliklarning 5-7%ini tashkil etadi. Etiologiya va patogenez. Yara kasalligini keltirib chiqaruvchi omillar. Ularga quyidagilar kiradi: 1. Ovqatlanish tartibidagi buzilishlar, shoshilib ovqatlanish, quruq ovqatlr yeyish, ovqatlanishdagi miqdor va sifat buzilishlari (achchiq, ko‘p miqdordagi, issiq yoki sovuq ovqat va suyuqliklar, uzoq muddatli tanaffus bilan tartibsiz ovqatlanishlar). 2.Infeksiyaning surunkali o‘choqlari, intoksikatsiya va oshqozon-ichak yo‘li yoki boshqa a’zo va tizimlarning turli kasalliklari. 3. Nasliy moyillik 4. Ruhiy zo‘riqish. 5. Dori darmonlar ta’siri 6. Helikobakteri pilori ta’siri 7. Nojo‘ya odatlar.

Ba’zi dori vositalari, masalan, atsitilsalitsil kislotasi, analgin, sulfanilamidlar sistostatik va glyukokortikoidlar qabul qilinganda oshqozonning o‘tkir yarasi hosil bo‘lishi mumkin, lekin uning kechishi yara kasalligidan farqlanadi. Dori vositasini qabul qilish to‘xtatilsa, yara tezda tuzaladi. Yara kasalligining nasliy va allergik kelib chiqishi haqida ham taxminlar bor. So‘nggi yillarda yara kasalliklarining paydo bo‘lishida kampilobakterlarning roli haqida munozaralar olib borilyapti. Ushbu mikroorganizm oshqozon shilliq qavati epiteliysiga, ayniqsa, antral qismida (u yerda suyuqlik ishqoriy muhitga ega), adgeziya (ya’ni yopishish) xususiyatiga ega bo‘lib, u yerda oshqozon shilliq shirasining sekretsiyasini buzadi (balki uning tarkibini ham), shilliq qavat xususiy plastinkasi limfotsit va plazmatik hujayralar bilan infiltratsiyalanadi, natijada antral qismida yuzaki gastrit hosil bo‘ladi. Bunda kompilobakteriyaga xos 1S – antitanachalar ishlab chiqariladi. Organizmning javob reaksiyasi natijasida shilliq qavatga juda ko‘p limfotsit, neytrofil, plazmatsidlar migratsiya qilinadi va yallig‘lanish jarayoni kuchayadi, mikrotsirkulyatsiya va regeneratsiya jarayonlari buziladi. Shilliqdan iborat himoya qobig‘ining ishlab chiqarilishi yanada kamayib, oshqozon shirasining deyarli ochiq shiliq qavatga tajovuzi uchun sharoit yaratiladi, natijada nekroz va yara hosil bo‘ladi. Mikroorganizmning uzoq vaqt persistensiyasi yaraning qaytalanishi yoki xurujiga olib keladi. Yara kasalligining rivojlanishida bosh miya qobig‘i va qobiq osti tuzilmalarining fiziologik bog‘liqligining buzilishi, uzoq vaqt ruhiy zo‘riqishda (masalan, maktabdagi zo‘riqish, oila va maktabdagi nizolar) kortiko–visseral mexanizmlarning ishdan chiqishi ham muhim ahamiyatga ega. Destabillashtiruvchi faktorlar ta’sirida markaziy, parasimpatik va simpatik nerv tizimlari, gipotalamo–gipofizar tizimda, ayniqsa ularning yosh organizmda qayta tiklanish davridagi nozik vaqtida, adaptiv o‘zgarishlar buziladi. Adashgan nervning faollashishi natijasida gastrin hosil qiluvchi hujayralardan (s-hujayralardan) gastrin ajralishi va gistamin hosil qiluvchi hujayralardan (Yes1- hujayralardan) gistamin ajralishi kuchayadi. Natijada oshqozon sekretsiyasi va pepsin, oshqozon osti bezi fermentlarining hosil bo‘lishi ko‘payadi. Oshqozon sekretsiyasi, pepsin va oshqozon osti bezi fermentlarining kislota hosil qiluvchi va proteolitik faolligi ham ortadi, o‘t ajralishi kuchayadi. Bu jarayon yana gipotalamo–gipofizar tizim orqali somatotrop, tireotrop, adrenokortikotrop garmonlar ishtirokida ham kuchayadi. AKTG ajralishining kuchayishi buyrak usti bezlarida ko‘proq kortizol ishlab chiqarilishiga olib keladi, natijada kislota hosil bo‘lishi ortib, oshqozon shilliq qavatining reparativ xususiyati susayadi. Kuchli ta’sirlanish ta’sirida katexolaminlar ko‘proq ajraladi, natijada tomirlar tonusi o‘zgaradi, mikrosirkulyatsiya buziladi, oshqozon shilliq qavati gipoksiyasi, trofik buzilishlar hosil bo‘ladi. Mahalliy gormonal mexanizmlarning buzilishi ham ahamiyatga ega: oshqozonda kislota hosil bo‘lishini kamaytiruvchi gastrointestinal garmonlar (sekretik, pankreozimin, xoletsistokinin

va boshqalar) ishlab chiqarilishi kamayadi. Kislota va pepsin hosil bo‘lishiga nerv-gumoral ta’sirlarning pirovard natijasida oshqozon shilliq qavati asosiy va parietal hujayralarining gistamin retseptorlari qo‘zg‘aladi va neyrogumoral ta’sirlarning amalga oshishidagi asosiy hujayra ichidagi faktor - SAMF (ATFdan) ko‘payadi, fosforlanish fermentli jarayonlar, xlorid kislota va pepsinogen sintezi kuchayadi. Yuqori kislotalilik va proteolitik faollik xususiyatiga ega bo‘lgan oshqozon shirasining oshqozon yoki 12 barmoqli ichak shilliq qavati bilan uzoq vaqt aloqasi oshqozon-ichak yo‘li fiziologik jomlarining diskineziyasi, epigastral va intraduodenal bosim va rN ning ortishi natijasida shilliq qavat destruksiyasiga olib keladi (yoki uni kuchaytiradi). Bunda oshqozondan kelgan kislotali muhitga ega bo‘lgan ovqat qoldiqlari o‘z vaqtida oshqozon osti bezi sekreti va shilliq bilan ishqorlanmaydi, shilliq qavatning «himoya barer»i susayadi, (bu vazifani mutsin bajaradi, u xlorid kislotani bog‘laydi, pepsinni adsorbsiya qiladi pepsinli hazm qilishni to‘xtatadi). Ushbu o‘zgarishlar natijasida yara hosil bo‘ladi.

Klassifikatsiyasi

1. Joylashishi bo‘yicha:

Oshqozon: - mediogastral - piloroantral

12 barmoq ichak: - bulbar - postbulbar

Oshqozon va 12 barmoq ichak:

2. Klinik faza va endoskopik bosqich bo‘yicha:

Qo‘zg‘alish:

I – yangi yara

II – epitelizatsiya boshida

Qo‘zg‘alishning kamayishi:

III – yaraning bitishi

- chandiqsiz
- chandiqli
- yara deformatsiyasi

Remissiya:

3. Og‘irlik darajasi. Yengil O‘rtacha og‘irlikda Og‘ir

4. Asoratlanishi bo‘yicha

Qon ketish

Perfaratsiya (teshik hosil bo‘lish)

Penitratsiya

Stenoz (torayish)

Perevisserit

Klinikasi. Yara oshqozon tubi bilan tanasida joylashsa, oshqozon bezlarining funksional yetishmovchiligi kuzatiladi. Yara piloroduodenal qismda joylashsa, shilliq qavatning barcha maxsus funksiyalari kuchayadi. Bolalarda yaralar odatda,

12 barmoqli ichakda joylashadi (oshqozonga qaraganda 6-12 marta ko‘proq). Oshqozon yarasi 12 barmoq ichak yarasi bilan yoki eroziv duodenit bilan birga uchrashi mumkin. Kichik yoshdagi bolalarda kasallik atipik kechadi. Bola qanchalik kichik yoshda bo‘lsa, shikoyatlar shunchalik spetsifik bo‘lmaydi. Kattaroq yoshda belgilar kattalarnikiga o‘xshash, lekin sustroq bo‘ladi. Ko‘p hollarda xarakterli yara anamnezi bo‘lmaydi, chunki bolalar og‘riqni tez unitadilar, uni ajrata olmaydilar, uning joyini va sababini aniqlay olmaydilar. Ba’zan kasallik uzoq vaqt o‘t yo‘llari diskineziyasi, surunkali gastrit va h.z. deb hisoblanadi. Asosiy shikoyat - og‘riq. U bemorning yoshiga, induvidual xususiyatlari, asab va endokrin tizimining holati, yaraning anatomik xususiyatlari, gastroduodenal tizimdagi funksional buzilishlarning namoyon bo‘lish darajasiga bog‘liq. Boshida og‘riq noaniq bo‘ladi. Ba’zan u epigastrit, kindik sohasida joylashib, ba’zan esa butun qorin bo‘ylab tarqaladi. Keyinchalik og‘riq doimiy, kuchliroq, kechasi va och qoringa hosil bo‘ladi. Bolalarda dispeptik o‘zgarishlar (ko‘ngil aynish, qusish) kattalarga nisbatan kamroq uchraydi va sustroq namayon bo‘ladi. Jig‘ildon qaynash, qusish, kekirish va gipersalivatsiya yanada kamroq uchraydi. Kasallik qanchalik uzoq davom etsa, bunda dispeptik o‘zgarishlar ko‘proq kuzatiladi. Ko‘pchilik bolalarning ishtahasi bo‘lmaydi, lekin bemorning deyarli yarmida u sust bo‘ladi. Bunday holatda jismoniy rivojlanishdan orqada qolishi mumkin (ozish). Yara kasalligi rivojlanishi bilan insonning ruhiy xotirjamligi zaiflashadi, og‘riqlar tufayli uyqu buziladi. Tez charchash, astenik holat kuzatiladi. Qabziyat yoki ich ketishi bo‘lishi mumkin. Gipergidroz, arterial gipotoniya dermografizmning o‘zgarishi, ba’zan bradikardiya kuzatilishi vegetativ asab tizimidagi o‘zgarishini, parasimpatik ta’sirning kuchayishini bildiradi. Til karash bo‘ladi, qorinni paypaslaganda piloroduodenal sohada og‘riq bo‘ladi. Bolalarda ko‘pincha yaraning joylashishidan qat’iy nazar, epigastrit, ba’zan o‘ng qovurg‘a osti sohasida ham og‘riq bo‘ladi. Mushak himoyasi belgisi bolalar va o‘smirlarda kamdan-kam, faqat kuchli og‘riqlarda kuzatiladi. Kasallikning xuruj davrida Mendelning musbat «bolg‘achali» simptomi aniqlanadi. Ba’zan VIII-XI ko‘krak umurtqalarining o’tkir o‘simtalari sohasida og‘riq (Oppenxovskiy simptomi) va III bel umurtqasi ko‘ndalang o‘simtalari sohasida og‘riq (Gerbet simptomi) kuzatiladi. Yaradan qon ketganda axlat yashirin qonga tekshirilganda musbat reaksiya bo‘ladi.

Tashxis. Yara kasalligi bilan kasallangan ko‘pchilik bolalarda oshqozonning sekretor faoliyati oshqozon shirasining ishlab chiqarilishi hajmi kislotaliligi, xlorid kislotaning debit–soati, pepsin faolligi faqat zo‘riqish vaqtida emas, balki nahorgi va bazal sekretsiyada ham ortishi kuzatiladi. Umumiy va erkin kislotalilik egri chiziqlari zinapoyali xarakterga ega. Katta yoshdagi, kasalligi uzoq davom etayotgan bolalarda sekretsiya va kislotalilik ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi. Kasallikning xuruj davrida nordon proteinaza, ayniqsa, rN ta’sir doirasi ancha keng

bo‘lgan va natijada pepsin faolligini uzoq vaqt saqlay oladigan miqdori ortadi.

Oshqozon shirasining normal yoki past kislotalilik holatlari kamroq uchraydi. Davolashdan so‘ng og‘riqlar yo‘qolganda, oshqozonning sekretor faoliyati normallashadi. Gipersekretsiya giperxlorgidriyadan avvalroq yo‘qoladi. Asoratsiz yara kasalligida ba’zi bemorlarda eritrotsitlar miqdori ortadi, ammo yashirin qon ketishida asta- sekin qon ketishdan (gemorragiyadan) keyingi kamqonlik, oshqozon rezeksiya qilingandan so‘ng esa ichki faktor ishlab chiqarilishining kamayishi natijasida V12-tanqisligi kamqonligi rivojlanishi mumkin. Leykotsitlar miqdori odatda me’yorida, ba’zi bolalarda leykopeniya kuzatiladi. Nisbatan neytrofilez, eozinofiliya, monotsitoz bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlar davolanishdan keyin yo‘qoladi. SOE (eritrotsitlarning cho‘kish tezligi EChT) me’yorida bo‘ladi, asoratlar (yara penentratsiyasi, malignizatsiyasi) rivojlanganda SOE ortadi. Yarali defektni aniqlash va yara kasalligini tasdiqlashda EGDS (ezofagogastroduodenoskopiya) yetakchi o‘rinni egallaydi. Endoskopiyani bajarishga imkon bo‘lmasa, bariy bilan rentgen tekshiruvi o‘tkaziladi («nisha», burmalar konvergensiyasi, a’zoning chandiqli deformatsiyasi aniqlanadi). Yuqoridagi bevosita belgilardan tashqari bir qator bilvosita rentgen belgilar ham bor: och qoringa gipersekretsiya, 12 barmoqli ichak boshchasi deformatsiyasi, uning ta’sirchanligini bariydan tez bo‘shash bildiradi, piloroduodenospazm, spastik peristaltika va boshqalar. Ko‘pincha yarani aniqlashga mushaklar qisqarishi, shilliq qavatning shishi, yarali defektda ovqat qoldiqlari, qon quyqasi, shilimshiqning borligi to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun rentgen tekshiruvini tinch holatda, aeron, atropin, metatsin kabi dori vositalari ta’sirida, bemorning vertikal yoki gorizontal holatida o‘tkazish tavsiya etiladi. Ko‘pincha yara boshchaning orqa devorida joylashadi. Postbulbar (boshchadan tashqari) holat ham bo‘lishi mumkin - bulboduodenal o‘tish yoki undan distal sohada. Oshqozonda yara ko‘proq subkardial qismda, ba’zan tanasida, eng kam antral va pilorisdan oldingi qismda joylashadi. Qiyosiy tashxis.

Yara kasalligini surunkali gastrit va gastroduodenit bilan qiyoslash kerak. Yara kasalligida ko‘ngil aynishi va qusish ko‘proq uchraydi, og‘riq «och qoringa» bo‘ladi. Tashxisni aniqlashga endoskopiya va rentgen tekshiruvi yordam beradi.

Davolash. Bemor statsionar sharoitida yotoq tartibida 2-3 hafta davomida davolanishi kerak. Ovqat hazm qilish yo‘lining harakat faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy tinchlik holatinigina emas (bunda oshqozon va 12 barmoqli ichak tonusi va motorikasi, oshqozon va 12 barmoqli ichak ichidagi bosim kamayadi, qon biln ta’minlanishi yaxshilanadi). Balki ruhiy xotirjamlikni ham ta’minlash kerak. Bularning hammasi og‘riqning kamayishi va yo‘qolishiga yordam beradi, reparativ jarayonlarni yaxshilaydi. Davolovchi ovqatlanish muhim ahamiyatga ega: kimyoviy va mexanik himoya qilish, termik ta’sirlarni yo‘qotish,

o‘sib boruvchi organizmning yoshiga mos ehtiyojlarni hisobga olgan holda yetarlicha koloriyaga, kerakli barcha ingrediyentlarga ega bo‘lgan oziq moddalarni iste’mol qilish. Tez- tez, kam miqdorda, qismlab ovqatlanish kerak.

Kasallik boshlanishida va xuruj davrida 1 haftacha Pevzner bo‘yicha 1A-parxez tavsiya etiladi: sut, maydalangan tvorog, chala pishirilgan tuxum, vegetarianlik sho‘rvalari, jele, kisel, sabzi sharbati, sariyog‘ va o‘simlik (kungaboqar, zaytun) yog‘i, baliqli sufle (go‘shtli mumkin emas), tuz kam miqdorda. Hozir sutga katta ahamiyat berilyapti, u kuniga bir necha marta iliq holda ichiladi. U yaxshi antatsidlik xususiyatiga ega (katta bufer sig‘imiga ega), shira ajratish xususiyati sust, tez xazm bo‘ladi, oqsil, kalsiy tuzlariga boy, oshqozonning qisqarish faoliyatini kamaytiradi. Gipoatsit holatlarda qatiqdan foydalangan ma’qulroq. Ushbu parxezga rioya qilinsa, oshqozonning sekretor va motor-evakuator faoliyati yengillashadi. Kuniga 5-6 martadan ko‘proq ovqatlanish kerak. Keyin 1-B parxeziga o‘tiladi. Bunda yuqoridagi mahsulotlarga qaynatilgan baliq, maydalangan qiymali go‘sht, quritilgan oq non (suxari), sutli yormali bo‘tqalar, maydalangan bo‘tqalar qo‘shiladi. Ovqatlanish soni kuniga 3 mahal. Bemor yarim yotiq holatga o‘tkaziladi. Parxez 1,5-2 hafta davom etadi. So‘ngra 1-V parxeziga o‘tkaziladi. Bunda bug‘da pishirilgan kotletlar, kartoshka va sabzavotli bo‘tqalar, yangi bo‘lmagan oq non qo‘shiladi. 1-1,5 hafta davot etadi. Bundan keyin 1-parxezga o‘tiladi.

Bunda yuqoridagilarga qaynatilgan yog‘siz go‘sht, tovuq go‘shti va baliq, yangi oq non, makaron, pishloqning o‘tkir bo‘lmagan turlari, shirin mevalar, kompot qo‘shiladi. Bu parxez 1 yil davom etadi. Keyinchalik parxezni kengaytirish mumkin, lekin yara kasalligi qaytarilmasligi uchun bemor o‘zini yaxshi his etsa ham, bir necha yil davomida achchiq taomlar, dudlangan, tuzlangan mahsulotlar, dag‘al kletchatkali yormalar iste’mol qilish mumkin emas.

Himoyalovchi parxezning uzoq vaqt qo‘llanilishi natijasida gipovitaminoz rivojlanishi mumkin. Shuning uchun vitaminlar (ayniqsa, S, A, V guruhi) qabul qilish kerak. Ayniqsa, «U» vitamini yaraga qarshi faktor hisoblanib, muhim ahamiyatga ega. «U» - metioninning faol shakli, shilliq qavat regeneratsiyasiga yordam beradi. «U» vitamini 1 tabletkadan (0,05g) har kuni 3-4 mahal ovqatdan so‘ng 30-40 kun davomida qabul qilinadi. Qon ketganda ovqat suyuq yoki pyure shaklida bo‘lishi kerak. Qaymoq, tuxum sarig‘i, sariyog‘, og‘ir hollarda sovutilgan qaymoq va sut (yoki mo‘zqaymoq) qo‘shiladi. Uyqu yetarlicha bo‘lishi kerak. Ruhiy taranglik, yuqori ta’sirchanlikda sedativ vositalar (valeriana) va trankvlizatorlar (elenium, trioksazin, seduksen) tavsiya etiladi.

Patogenetik davolashda antotsidlar katta ahamiyatga ega. Ular oshqozondagi xlorid kislotani neytrallab, uning shilliq qavatga qo‘zg‘atuvchi ta’sirini kamaytiradi, rNni normallashtiradi va natijada pepsinning faolligini kamaytiradi. Antatsid

sifatida natriy gidrokarbonat (soda) qo‘llaniladi. U oshqozonda NSl ni tez neytrallaydi, lekin uning ta’siri qisqa. Hosil bo‘ladigan karbonat angidrid oshqozonning kengayishiga olib kelishi mumkin, bu esa chuqur yaralarda juda xavfli. Bu preparat ichaklarda yaxshi so‘riladi va tez-tez qo‘llanilganda, ayniqsa buyrak faoliyati bo‘zilganda, alkalozni chaqirib, ishtahani susaytirishi, ko‘ngil aynishi, qusish, (talvasa)ga (qondagi ionlangan kalsiy miqdorining kamayishi natijasida) olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, natriy gidrokorbanat qabul qilingandan keyin oshqozon rN ining tez oshishi oshqozon antral qismidagi S-hujayralarning faollashishiga olib keladi, natijada NSl hosil bo‘lishini kuchaytiruvchi gastrin ajralishi ortadi. Bu antatsid ta’siri to‘xtagandan so‘ng giperxlorgidriya rivojlanishiga olib keladi («qaytarish sindromi»). Shuning uchun bu preparat bilan davolash, (ayniqa, uzoq muddat) maqsadga muvofiq emas. Tizimi z antatsidlardan magniy oksidi (kuydirilgan magneziya), alyuminiy gidroksid, kalsiy karbonat, almagel, fosfalyugel qo‘llaniladi. Ular oshqozondagi NSl ni neytrallab, pepsin faolligini susuaytiradi, reflyuks natijasida 12 barmoqli ichakdan oshqozonga tushgan o‘t kislotalarini bog‘laydi. Ular natriy gidrokorbanatga nisbatan sustroq so‘riladi, oshqozonda hosil bo‘ladigan magniy, kalsiy, alyuminiy xloridlari oshqozon osti bezi gidrokarbonatlari bilan bog‘lanib, ularning miqdorini kamaytiradi va alkalozning oldini oladi. Ular ovqat qabul qilingandan so‘ng 0,5 soatdan keyin qabul qilinadi. Burje aralashmasi (natriy sulfat - 2g, natriy fosfati – 4g, magniy oksidi – 1g, natriy gidrokarbonati – 8g, 1l suvda eritiladi) kuchli antatsid xususiyatiga ega. U har kuni 2 osh qoshiqdan 3 mahal ovqatdan 40 daqiqa-1soat keyin ichiladi. Almagel va almagel-A kabi preparatlar ham keng qo‘llaniladi. Ularning tarkibida gel shaklidagi magniy oksidi va sorbit bilan kombinatsiyadagi alyuminiy gidroksidi bor. Sorbit o‘t ajralishiga yordam beradi va bo‘shashtiruvchi xususiyatga ega. Gel es preparatning shilliq qavat sathida bir tekis tarqalishiga yordam beradi.

Almagel doimiy ishlab chiqariluvchi oshqozon shirasining NSl ini neytrallaydi, uning rN ini 4.0-6,0 gacha pasaytiradi va natijada pepsinning proteolitik faolligi kamayadi. Almagel-A tarkibidagi anestezin anesteziya tufayli og‘riqni kamaytiradi va shu bilan birga gastrin, natijada xlorid kislotaning ham sekretsiyasini kamaytiradi. Og‘riqlar bo‘lsa, 3-6-7 kunga almagel-A tavsiya etilib, keyin oddiy almagel (davolash kursi 3-6 hafta) yoki shu guruhdagi boshqa preparatlar qo‘llaniladi. Almagel-A va oddiy almagel bolalarga preparatning 1 ta maxsus qoshiqchasidan (katta yoshdgi bolalarga 2 ta) kuniga 4 mahal ovqatdan 1-2 soatdan so‘ng va albatta uyqudan avval beriladi. Dori qabul qilingandan keyin yotish va preparatning shilliq qavatida yaxshi tarqalishi uchun vaqti-vaqti bilan yonboshga o‘girilish tavsiya etiladi. Fosfalyugel ham xuddi shunga o‘xshash. Unda qo‘shimcha pektin va agar-agari geli bo‘lib, ular bakteriya, virus, toksik va gazlarni

bog‘lab, qabziyatning oldini oladi. Sulfatlangan polisaxaridlar pepsin faolligini kamaytiradi. U ayniqsa oshqozon shirasining yuqori pepsinogen faolligida samaralidir. U 0,5 stakan suvda eritilgan xaltachadan (yoshiga qarab) kuniga 2-3 mahal ovqatdan 1 soat keyin tavsiya etiladi, davolash kursi1-1,5 oy.

Yara kasalligining xuruj davrida ba’zan M-xolinolitiklar (antropin, platifillin, probaktrin, gastrozepin - yoshiga mos miqdorda) qo‘llaniladi. Ammo ular bugungi kunda 2-darajali ahamiyatga ega, chunki bunday monoterapiya yaraning bitishiga olib kelmaydi, ularning nojo‘ya ta’siri ko‘p, atropin (va unga o‘xshash preparatlar) faqat NSl ishlab chiqarilishini emas, balki oshqozon shilliq qavatidan bikarbonatlar ishlab chiqarilishini ham to‘xtatadi. Bugungi kunda N2-gistaminolitiklar – N2-gistamin retseptorlarining blokatorlari keng qo‘llanilmoqda. Ular NSl ishlab chiqarilishini M-xolinolitiklarga nisbatan samaraliroq to‘xtatadi. Simetidin (tagamet, belomet) - N2- gistaminalitiklarning I avlodi bir sutkada 20-40 mg miqdorda kuniga 3 mahal ovqat vaqtida yoki undan keyin va 4-6 hafta davomida 1 marta beriladi. 7 yoshgacha bolalarga qo‘llanilmaydi. Preparat oshqozon shirasi va NSl sekretsiyasini kamaytiradi, silliq mushaklarning qisqarishini kamaytiradi, og‘riq paydo bo‘lishining oldini oladi. Pepsin sekretsiyasiga kam ta’sir qiladi. Preparatlarning oylar davomida ishlatilishi nojo‘ya ta’sirlarga olib keladi, gonadotropinlar ishlab chiqarilishini kamaytiradi, o‘g‘il bolalarda jinsiy yetilishni kechiktiradi, profilaktik sintezni kuchaytiradi, dorilar ta’siridagi gepatit, nefrit, leykopeniya, agranulotsitoz, aplastik kamqonlik, MNSning funksional buzilishlariga olib kelishi mumkin. N2-gistaminolitiklarning II avlodi – ranitidin (zontak, ranisan), III avlodi – famotin va IV avlodi – nizatidinning samarali ekanligi haqida ma’lumotlar bor. Gistaminolitiklarni uzoq vaqt qo‘llash tavsiya etilmaydi, chunki bu HCl ishlab chiqaruvchi ECl hujayralarnig giperplaziyasiga olib keladi. N2 –blokatorlar to‘xtatilgandan keyin yara kasalligining qaytalanishi (retsidivi) ga bog‘liq bo‘lsa kerak.

Vismut preparatlarini: vikalin, vikair, roter, bisalay, qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Ular 1,5–2 tabletkadan 2-3 mahal ovqatdan keyin 0,5 stakan iliq suv bilan ichiladi. Davolash kursi 1-1,5 oy. Vismut preparatlari xlor ionlarini bog‘lab, shiliq qavat va yara sathida himoya qavatini hosil –qiladi va yarani mexaniq, kimyoviy ta’sirlardan himoya qiladi. Shuningdek, ular adsorbent, yallig‘lanishga qarshi, bo‘shashtiruvchi xususiyatlarga ham ega. So‘nggi yillarda vismutning de-nol-kolloid subsitrati keng qo‘llanilmoqda. U monoterapiyada 6-8 hafta davomida 100% hollarda yaraning bitishiga olib kelmoqda. Boshqa davolash usullariga qaraganda bu preparat qo‘llanilganda retsidivlar kam. Bunda mayda eroziyalarda va yara sathida erimaydigan oqsil-vismut komplekslari (ya’ni himoya qobig‘i) hosil bo‘ladi va shilliq qavatning regeneratsiyasi kuchayadi. U antatsid ta’sirga ega emas. Oshqozon shirasining rNi ortganda preparatning ta’siri kamayadi, shuning uchun

uni antatsidlar bilan birga qo‘llash mumkin emas. Barcha vismut preparatlaridan faqat de-nolgina kampilobakterlarga nisbatan samaralidir.

Alyuminiy sulfati va sulfatlangan saxaroza tsitoprotektor preparat hisoblanadi. Sulfatlangan saxaroza shikastlangan shiliq qavat mushak tolalarining oqsillari bilan bog‘lanib, pepsin, xlorid kislota va o‘t kislotasi ta’siriga qarshi himoya qobig‘ini hosil qiladi; shiliq qavat himoya qobig‘ining yopishqoqligini oshiradi, natijada uning protektiv xussiyati ortadi. Bolalarda yara kasalligini kompleks davolashda shiliq qavat regeneratsiyasi jarayonini faollashtiruvchi vositalar («reperantlar») keng qo‘llanilmoqda. Ularga antipeptik faollikka ham ega bo‘lgan karbenoksolon (biogastron) kiradi. U pepsinogenning pepsinga aylanishini tormozlaydi, sekretor hujayralarda shiliq ishlab chiqarilishini kuchaytiradi, shiliq qavat hujayralari hayotini o‘zaytiradi, ularning eksfoliatsiyasini kamaytiradi, pilorik sfinkterning tonusini yashiradi, natijada duodenogastral reflyuks kamayadi (shuningdek, 12 barmoqli ichakdagi moddalarning – o‘t kislotalarning zararli ta’siri ham kamayadi).

Oshqozon-ichak yo‘li shiliq qavatiga tsitoprotektor ta’sir AMFning hujayra ichidagi miqdorining ortishida (natijada lizosomal fermentlarning ajralishi kamayadi), natriy transportining kuchayishida, Oshqozonda shiliq hosil bo‘lishining ortishida, 12 barmoqli ichakka bikarbonat transportining oshishida, shiliq qavatning qon bilan ta’minlanishining kuchayishida namoyon bo‘ladi. Bo‘larning hammasi Ye2 prostoglandin va prostosiklin faolligining ortishi natijasida sodir bo‘ladi, chunki karbenoqsilon ularning faolligini kamaytiradigan fermentlarni tormozlaydi. U shuningdek ulserogen ta’sirga ega bo‘lgan troboksan hosil bo‘lishini ham tormozlaydi. Karbenoqsilon birinchi haftada 100 mg dan 3 mahal ovqatdan 1 soat keyin, yara bitguncha (3-6 hafta) esa 30 mg dan 3 mahal beriladi. Likviriton - qizil miya ildizi ekstrakti – 1 ta tabletkadan 3 mahal ovqatdan 30-40 daqiqa oldin 3-4 hafta davomida beriladi. Gefarnil trofik va regeneratsiyalovchi ta’sirga ega. U 30 mg dan 3-4 mahal (kattalarga) yoki 30 mg dan har kuni mushak orasiga 3-4 hafta davomida tavsiya etiladi. Gastrofarm – aralash vosita bo‘lib, uning tarkibida quritilgan laktobatsillalar, ular faoliyatining biologik faol mahsulotlari, saxaroza bor.

Nazorat sabvollari.

1.Etiopatogenez nima u haqida haqida tushunchangizni izohlang.

2.Yara kasalligi – oshqozon va 12 barmoqli ichakda yara hosil bo‘lishi bilan kechadigan surunkali qaytalovchi (retsidivli) kasallik haqida ma’lumot bering.

3.Yara kasalligi bolalar va o‘smirlarning nechi foizida uchraydi.

4.Etiologiya va patogenez haqida ma’lumot bering.

5.Yara kasalligini keltirib chikaruvchi omillarni izohlab bering

6.Patogenetik davolashda antotsidlar katta ahamiyatga ega.Shu haqida ma’lumot bering.

7. Oshqozonning kengayishiga olib kelishi mumkin bo’lgan omillarni izohlab bering.

8. Almagel, Vismut preparatlarini izohlab bering qanday holatda ishlatiladi.

5-Mavzu: Pielonefritlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Pielonefrit — turli xil bakteriyalar tufayli rivojlanadigan buyrak infeksion kasalligidir. O’tkir va surunkali pielonefrit bilan og’rigan bemorlar urologik bemorlarning deyarli 2/3 qismini tashkil qiladi. Pielonefrit o’tkir yoki surunkali shaklda kechishi, bir yoki ikkala buyrakni zararlashi mumkin. Surunkali pielonefritda kasallikning alomatlarsiz yoki uncha sezilmaydigan belgilar bilan kechishi ko’p hollarda bemorlarni ushbu kasallika nisbatan befarq bo’lishiga olib keladi, ular kasallik jiddiyligini yetarlicha baholay olmaydilar va davolashga jiddiy yondashmaydilar. Pielonefritni tashxislash va uni davolash nefrolog shifokor tomonidan amalga oshiriladi. Pielonefrit o’z vaqtida davolanmasa, u buyrak yetishmovchiligi, karbunkul yoki buyrak abstsessi, sepsis va bakterial shok kabi jiddiy asoratlarga olib kelishi mumkin.Birlamchi piyelonefrit deyilganda - buyrak parenximasidagi mikrobli yallig’lanish jarayoni tushiniladi. Zamonaviy tekshirish usullarini qo’llagan taqdirda ham mikroorganizmlarni buyrakning tubulointerstitsial to’qimasida fiksatsiyalanishiga nima sharoit tug’dirayotganligining aniq bir sababini bilib bo’lmaydi. Ikkilamchi piyelonefrit - buyrak to’qimasidagi mikrobli yallig’lanish jarayoni. Bu holda yallig’lanishga jarayoniga sharoit yaratuvchi sababini aniqlash mumkin. Odatda obstruktiv va noobstruktiv piyelonefrit farq qilinadi. Ikkilamchi obstruktiv piyelonefrit - siydik yo’llari anomaliyalari, organiq(tug’ma, nasliy, orttirilgan) yoki funksional obstruktiv uropatiyalar bo’lganda shakllanadi. Ikkilamchi noobstruktiv piyelonefrit - modda almashinuvi buzilishlari, tug’ma yoki orttirilgan immunodefitsit xolatlar, endokrin siljishlar (doimiy yoki vaqtincha), siydik yo’llari epiteliysi fermentlarini maxalliy o’zgarishlari bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Piyelonefritning



shakllanishida buyrak dizembriogeneziga muxim ahamiyat beriladi. **Pielonefrit etiologiyasi**. Ushbu kasallik har qanday yoshda paydo bo'lishi mumkin. Pielonefrit quyidagi davrlarda rivojlanadi: 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda (pielonefrit uchrashi ehtimoli bolalarning anatomik tuzilishidagi xususiyatlari tufayli oshadi); 18-30 yosh orasidagi yosh ayollarda (pielonefrit jinsiy faoliyatning boshlanishi, homiladorlik va tug'ish bilan bog'liq); Keksa ekaklarda (prostata bezi adenomasi tufayli siydik chiqarish yo'llari obstruktsiyasida). Siydik normal oqimiga to'sqinlik qiluvchi har qanday organik yoki funktsional sabablar kasallik rivojlanish ehtimolini oshiradi. Pielonefrit ko'pincha siydik-tosh kasalligi bilan og'rigan bemorlarda paydo bo'ladi. Pielonefrit rivojlanishiga turtki bo'luvchi salbiy omillarga qandli diabet, immunitet buzilishlari, surunkali yallig'lanishli kasalliklar va tez-tez sovqotish kiradi. Ba'zi hollarda (odatda ayollarda) pielonefrit o'tkir sistitdan keyin rivojlanadi. Kasallikning alomatlarsiz kechishi surunkali pielonefritning kech tashxislanishiga sabab bo'ladi. Bemorlar buyrak funktsiyasi buzilib bo'lganidan keyin davolanishni boshlashadi. Kasallik ko'pincha siydik-tosh kasalligiga chalingan bemorlarda uchraydi, shuning uchun bunday bemorlarga hatto pielonefrit belgilari kuzatilmaganda ham maxsus terapiya kerak bo'ladi. Dizmetabolik ikkilamchi piyelonefrit - buyrak to'qimasidagi mikrobli yallig'lanish jarayonlarini bir necha variantlarini birlashtiruvchi tushuncha bo'lib, bakteriyalarni kirishi tubulopatiyalarda shavel, siydik kislotalarini metabolizmini buzilishi oqibatida ro'y beradi. Surunkali piyelonefrit - uzoq kechuvchi yallig'lanish jarayoni bo'lib, odatda siydik yo'llarini anatomik anomaliyalari yoki obstruksiyasi fonida, kosacha va jomchalarni deformatsiyasi va fibrozi bilan kuzatiladi. Ahamiyatga molik bakteriuriya- 1 ml siydikda 100 000 mikrob tanachalarini bo'lishi. Bolalarda piyelonefritni shakllanishiga olib keluvchi omillar: Urodinamikaning buzilishi: Qovuq-siydik yo'li reflyuksi Obstruktiv uropatiya Siydik pufagining neyrogen disfunksiyasi Mikroorganizmlarning patogen xususiyatlari: Ichak tayoqchasi (38%), oqsil tabiatli ipsimon kiprikchalarga ega bo'lib, uning yordamida siydik yo'llari uroteliysiga yopishadi va siljib yurish imkoniyatiga ega bo'ladi. Stafilakokk (8.9 %) Ko'proq bolalar hayotining birinchi yilida ajraladi. Stafilakokk shtammlari yuqori antigen faollikka ega. Stafilakokk kirgan joyida plazmani koagulyatsiyasiga, qon aylanishi sekinlashuviga, destruktiv o'zgarishlar fonida mikrosirkulyatsiyaning buzilishiga olib keladi. Stafilakokklarning yuzaki proteinlari fagotsitozni so'ndirish xususiyatiga ega. Bu esa siydikda mikrob assotsiatsiyalarini paydo bo'lishi va uzoq vaqt saqlanishiga sharoit yaratadi. Enterokokklar (12.9 %). Buyrak to'qimalariga nisbatan kuchli tropizm xususiyatiga ega. Bu infeksiya sust, uzoq davom etadigan, surunkali kechishi bilan xarakterlanadi.

17 % bemorlarda bakterial infeksiya qobiqsiz L – shaklda uchraydi. L –

transformatsiya antibakterial terapiya (ayniqsa past dozalarda yuborilganda va yuborishlar orasidagi interval katta bo'lganda) va himoya faktorlari (bakteriofaglar, lizotsim, komplement) ta'sirida vujudga keladi. L–shakllar o'zini: patogenlik xususiyati va antibiotiklarga nisbatan chidamliligini uzoq vaqt saqlab qoladi. Ular yana o'zlarining ilgargi bakterial xolatiga aylanib olish xususiyatiga ega, (sovuq, virusli infeksiyalar, stresslar ta'sirida) bo'lib, kasallikni qaytalanishiga moillik yaratadi;

Mikoplazmali infeksiya

Kandidalar

Xlamidiyalar

Viruslar (adenovirus, enterovirus, gerpes va paragripp viruslari). Ko'proq viruslar buyrak interstitsial to'qimasini o'zgarishlariga olib kelib, bakteriyalarni kirishini birmuncha yengillashtiradi.

Proteus –ureaza ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lib, u siydikchilni parchalaydi, siydik Ph-muxitini 8.0 dan oshiradi, fosfatli toshlarni hosil bo'lishi, kanalchalar epiteliysini shikastlanish xavfini oshiradi.

Klebsiell-spetsifik antitelalarni ajratish xususiyatiga ega emas. Makroorganizm immun tizimi xolati: Makrofag va neytrofillar ishlab chiqaradigan omillar ta'sirida xujayra immunitetini pasayishi. Antitelalarni yetarli ishlab chiqarilmasligi. Modda almashinuv buzilishlari: Qandli diabet Giperuraturiya, giperoksaluriya, nefrokalsinoz. Siydik tosh kasalligi. Normal ich kelishini buzilishi. Buyrak to'qimasini shikastlanishiga olib keluvchi sabablar:

Mikroorganizm persistensiyasi

Makrofag va neytrofillar infiltratsiyasi bilan kechuvchi yallig'lanish jarayoni.

Qon tomirdagi o'zgarishlar- vazoqonstriksiya, ishemiya.

"steril" reflyuks

Bakteriya turlari bilan yallig'lanishni ushlanib turilishi (protoplastlar, L – shakllar).

Patogenezi yaqin kunlargacha piyelonefrit bakteriologik tekshirishlar nuqtai nazaridan qaralib kelingan. Kasallik patogenezini o'rganishda asosan buyrak to'qimasida mikroblarni fiksatsiyalanishiga sharoit yaratuvchi faktorlarga aham iyat berilgan. Eng avvalo siydik tizimining turli qismlarida (nefrondan to uretragacha) siydikni passajini buzilishiga olib keluvchi faktorlarga. Odatda buyrakka infeksiyaning kirish yo'llari gematogen, limfogen, yuqoriga ko'tariluvchi yoki urinogen bo'lishi mumkin. Infeksiyaning gematogen yo'l bilan tarqalishi yangi tug'ilgan bolalar va hayotining birinchi oylariga xosdir. Bolalar yoshiga yuqoriga ko'tariluvchi yo'l ko'proq xosdir. Qiz bolalarda bunga moillik yaratuvchi omil bo'lib uretra stenozi xisoblanadi. O'g'il bolalarda esa uretra klapanlari. Siydik pufagidan infeksiyani siydik yo'llariga va buyrak jomchalariga tarqalishiga qovuq-

siydik yo'li reflyuksi va siydik pufagini neyrogen disfunksiyasi olib keladi. Siydik yo'llarini o'zgarmagan xolatlarida mikroblarni qovuqdan siydik yo'liga o'tishi uchun uretrovezikal toraygan to'siqni yengib o'tishi kerak bo'ladi. Bu to'siq ko'proq tug'ma xarakterga ega bo'ladi. Lekin siydik pufagini neyrogen disfunksiyasi natijasi ham bo'lishi mumkin. Ba'zi xolatlarda to'siqning ikkilamchi yetishmasligi kuzatilishi mumkin. Bu esa uzoq davom etuvchi sistitning oqibati xisoblanadi. Faqatgina reflyuksni batamom davolash, operativ yo'l bilan bo'lsa ham infeksiyani siydik pufagidan jomchalarga va keyinchalik buyrak parenximasiga kirishini oldini olishi mumkin. Keyingi yillarda piyelonefritning patogenezini o'rganishda immun tizimga ham katta ahamiyat berilmoqda. Buyraklardagi mikrobli yallig'lanish jarayonlari makroorganizmning imunologik refaolligi va mikrob omillarining butun patologik jarayonda o'zaro ta'siri natijasida yo'z beradi. Piyelonefrit patogenezining asosiy bo'g'inlari; nasliy moillik (HLA V5 va V7), buyrak to'qimasining yetilmaganligi va o'ziga xos shakllanishini buzilishi, buyrak ichi qon va limfa aylanishini buzilishi, normal siydik chiqishini (oqimini) buzilishi, siydik yo'li mushaklarini diffuz yoki segmentar gipoplaziyasi, maxalliy va umumiy immuntizimini pasayishi, tubulointerstitsial o'zgarishlarga olib keluvchi omillar (kristalluriya, infeksiya, gomeostazning buzilishi, dori moddalarning ta'siri) bakterial allergiya.

Piyelonefrit tasnifi. Piyelonefrit shakli

Kasallik faoligi Buyraklar funksiyasi

O'tkir piyelonefrit Faollashgan bosqich Kasallikni orqaga qaytish davri.

To'liq klinik- laborator remissiya

Buyraklar funksiyasining saqlanishi Buyraklar funksiyasining buzilishi

Surunkali piyelonefrit

Faollashgan bosqich

Buyraklar funksiyasiningsaqlanishi

Birlamchi obstruktiv

Qisman klinik laborator remissiya

Buyraklar funksiyasining buzilishi

Ikkilamchi obstruktiv a) qaytalanuvchi v) latent kechuvchi

To'lik klinik- laborator remissiya

Surunkali buyrak yetishmovchiligi

Piyelonefritning klinik belgilari.

Intoksikatsiya yoki zaxarlanish (kataral belgilarsiz tana haroratining ko'tarilishi, bosh og'rig'i, holsizlik, ishtahaning pasayishi, ko'z tagida soyalar paydo bo'lishi). Qorinda yoki belda og'riq paydo bo'lishi, buyrak soxosini, siydik yo'llari nuqtalarini paypaslaganda, bel soxasiga yengil urib ko'rilganda og'riq paydo bo'lishi. Siydik ajralishning buzilishi (tez- tez yoki kam –kam siyshi, siyshining

turli fazalarida achishish, siydik to'ta olmasligi). Anoreksiya, tana vazning kam qo'shilishi, dispeptik buzilishlar (ko'ngil aynishi, qusish, ich kelishining buzilishi), chanqash. Teri qoplamlarini quruqligi va kulrangnamo-sarg'ish tusdaligi, teri turgori pastligi. O'tkir manifest kechuvida suv elektrolit, oqsil almashinuvi va boshqa almashinuvlar tez buziladi. MNS, yurak qon tomir, jigar, buyrak buzilishlarining belgilari kuzatiladi.

Kechishi: Piyelonefritning kechish variantlar

-O'tkir manifest boshlanishi

-Kasallik belgilarining asta-sekin paydo bo'lishi - latent kam simptomli kechishi.

Asoratlari.

- Apostemtoz nefrit - buyrak karbunqo'li -nefrolitiaz -buyraklarning ikkilamchi bujmayishi -nefrogen gipertenziya Etra yoshdagi bolalarda o'tkir piyelonefrit- asosan intoksikatsiya belgilari bilan kechadi tana haroratining ko'tarilishi, holsizlik, ishtahani pasayishi, ko'z tagida soyalar paydo bo'lishi, dispepsiya belgilari meningial simptomlari bilan. Katta yoshdagi bolalarda surunkali piyelonefrit -intoksikatsiya belgilari bilan kechadi (holsizlik, ishtahani pasayishi, ko'z tagida soyalar paydo bo'lishi subfebril temperatura). Qorinda yoki belda og'riq paydo bo'lishi, buyrak soxasida og'riq paydo bo'lishi. Siydik ajralishning buzilishi (tez- tez yoki kam –kam siyishi, siyishining turli fazalarida og'riq yoki achishish, siydik tuta olmasligi), anoreksiya, dispeptik buzilishlar (ko'ngil aynish, qusish, ich kelishining buzilishi), chanqash. Tashxis: Piyelonefritning tashxishlash mezonlari kasallik belgilari: Anamnez ma'lumotlari (dizuriya, pollakiuriya, yonbosh sohada og'riq va mushaklar taranglashishi, isitma lokal simptomlarsiz giperpirksiya xurujlari).

Buyraklani paypaslaganda og'riq sezilish.

Ammoniy xlorid bilan patologik sinama.

Osmotik konsentratsiya testi bo'yicha buyraklarning konsentratsiyalash xususiyatining buzilishi.

Chin bakteriuriya.

Patologik leykotsituriya.

Siydikning patologik cho'kmasi.

Rengenologik, ekskretor, retrograd urogrofiya, selektiv angiografiya va sistouretrografiya ma'lumotlar bo'yicha o'zgarishlar. Ikkinchi darajali mezonlari: - yuzning oqarishi va shishganligi anoreksiya, - dispeptik belgilar, - gematuriya - anemiya, - leykotsitoz, - AQB ning ko'tarilishi.

Tekshiruv rejasi:

klinik-laborator uslullar

klinik tekshiruv

jismoniy rivojlanishini baholash

AQB ni o'lchash. Qonning klinik tahlili-qonda leykotsitoz neytrofilez chapga siljish bilan, EChT oshgan. Siydikning klinik tahlili- leykotsituriya, ko'rish maydonida 10 tadan ko'p leykotsitlar. Siydik ekmasi –bakteriuriya, 1ml. siydikda 100 000 ortiq mikrob tanachalarining bo'lishi. Qonning biokimyoviy tahlili (S-refaol oqsilning, sial kislotaning oshishi, buyrak funksiyalarning pasayshida-siydikchil miqdorining oshishi). Zimnitskiy sinamasi –siydik ajralish ritmining buzilishi, siydikni konsentratsiyalash va suyultirish xususiyatini buzilishi bo'lishi mumkin. Tuzlarning sutkalik ajralishini tekshirish (oksalatlar, uratlar, kalsiy, fosfor). Maxsus tashxis usullari. -buyrak, siydik pufagi UTT.

Zarur hollarda sistouretrografiya, ekskretor urogrofiya.

Qiyosiy tashxis -Glomerulonefrit -buyraklar sili -tubulopatiyalar -interstitsial nefrit -siydik yo'llari infeksiyasi - sistit, vulvovaginit -balanopastit -o'tkir appenditsit.

Davolash. Piyelonefrit davolash buyrak infeksiyasini oldini olishga, organizm refaolligini oshirishga va ikkilamchi piyelonefritda urodinamikani tiklashga qaratilgan 1) davo-tartib, parhez. 2) AB-terapiya.

Faol fazasida piyelonefritni davolash statsionarda o'tkaziladi. Kasallik o'tkir fazasida ko'p suyuqlik ichiladi (maktab yoshdagi bolalarda umumiy suyuqlik jami 1.5-2.0 l. kuniga.) Parhez; Ekstrarenal belgilarda buyrak stoli tavsiya qilinadi. sutli va o'simlik mahsulotlaridan tashkil topadi, oqsil (1.5 g/kg gacha) va tuzlar (2-3 g/sut) chegaralangan. Ko'proq suyuqlik ichish buyuriladi 7 yoshgacha 500-700 ml, 7-10 yoshga 700-1000 ml, 10 yoshdan kattalarga 1.0-1.5 ml. Ekstrarenal belgilar yo'qolgandan keyin Pevzner bo'yicha № 5 stol buyuriladi. AB terapiya – kam nefrotoksik ta'siriga ega antibakterial dori- vositalaridan tayilanadi; Xozirgacha ham penitsillin qatoridagi antibiotiklar kam nefrotoksik xisoblanadi. Ampitsillin, Oksatsilin, karbenitsillin, metitsillin, ampioks (100- 200mg/kgv/m) Eritromitsin, oleandomitsin (20-50 mg/kg) Amoksiklav, Augmentin, Sefazolin, Sefuroksim, Sefamandol, Unazin, Aminoglikozidlar Gentamitsin, Amikatsin. AB-terapiya asosan bakterial jarayon faol bo'lgan holatda davolanish siydik mikroflorasi sezuvchanligini nazorati ostida 7- 14 kunga tayinlanadi. Ekstrarenal belgilar yo'qolgandan keyin AB tavolash uroseptiklar bilan davom ettiriladi, 10-14 kunga preparatni almashtirish bilan birga. Nalidikson kislota preparatlari Nevigramon, 5-Nok, negram, biseptol. Nitrofuran preparatlari uzoq yillar qo'llanilishiga qarmay effektivligini saqlab qolmoqda. Ular kanalchalarga sekretsiya yo'li bilan tushgani uchun interstitsial to'qima, limfa va siydikda yuqori konsentratsiya hosil qiladi. Furagin, Furadonin 5-7mg/kg sut.

Ushlab turuvchi davo sxemasi. O'z uluksiz davo kursi tugagandan keyin 3-6-9 oy mobaynida uroseptiklar bilan ushlab turuvchi davo o'tkaziladi har oyda 7-10

kun. oy sana uroseptik Yanvar 1-10 Biseptol Fevral 1-10 5-nok Mart 1-10 Furagin Aprel 1-7 Nevigramon may 1-7 Palin iyun 1-7 Gramurin.

Pielonefrit tasnifi, klinik belgilari.

O'tkir pielonefrit uchun kasallikning to'satdan namoyon bo'lishi va tana haroratining 39-40 °C gacha oshishi xosdir. Gipertermiya ko'p terlash, ishtahaning yo'qolishi, kuchli holsizlik, bosh og'rig'i, ba'zan ko'ngil aynishi va qayt qilish bilan birga kechadi. Haroratning ko'tarilishi bilan bir vaqtda bel sohasida o'tmas og'riq (odatda bir tomonlama) paydo bo'ladi. Jismoniy ko'rikda bel sohasi bosib ko'rilganda og'riq namoyon bo'lishi kuzatiladi (Pasternatskiy alomatining ijobiyligi). O'tkir pielonefritning asoratlanmagan shakli siydik chiqarishdagi buzilishlarga olib kelmaydi. Siydik loyqa bo'ladi yoki qizg'ish tus oladi. Laborator siydik tahlilida bakteriuriya, biroz proteinuriya va mikrogematuriya aniqlanadi. Umumiy qon tahlili leykositoz va ECHT oshganini ko'rsatadi. Taxminan 30% hollarda qonning biokimyoviy tahlili natijasida azotli shlaklarning ortganligi aniqlanadi.

Surunkali pielonefrit ko'pincha davolanmagan o'tkir shakldagi kasallikning oqibatidir. Shuningdek bemor anamnezida o'tkir pielonefrit bo'lmay turib, birdan birlamchi surunkali pielonefrit rivojlanishi mumkin. Ba'zan surunkali pielonefrit siydik tahlillari natijasida tasodifan aniqlanadi. Surunkali pielonefrit bilan og'rigan bemorlar ko'pincha zaiflik, ishtahaning pasayishi, bosh og'rig'i va tez-tez siydik chiqarishdan shikoyat qiladi. Ba'zi bemorlarni sovuq, nam havoda kuchayadigan bel atrofidagi to'mtoq og'riq bezovta qiladi. Ikki tomonlama surunkali pielonefritning rivojlanib borishi bilan buyrak faoliyati buziladi, bu esa siydik solishtirma og'irligining ortishiga, gipertoniya va buyrak yetishmovchiligiga olib keladi. Surunkali pielonefritning o'tkirlashganini ko'rsatuvchi belgilari o'tkir shakldagi kasallik klinik tasvirlari bilan mos. **Pielonefrit asoratlari**. Ikki tomonlama o'tkir pielonefrit o'tkir buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Eng og'ir asoratlarga sepsis va bakterial shokni misol qilsa bo'ladi. Ba'zi hollarda o'tkir pielonefrit paranefrit kabi asoratga olib kelishi mumkin. Shuningdek apostenomatoz pielonefrit (buyrakning po'st moddasida va yuzasida bir necha kichik yiringli pufakchalarning shakllanishi), buyrak karbunkuli (ko'pincha kichik yarachalarning birlashishi natijasida yuzaga keladi, yiring-yallig'lanishli, mekrotik va ishemik jarayonlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi), buyrak abstsessi (buyrak parenximasining yemirilish) va buyrak kosachalarining nekrozi rivojlanishi mumkin. Buyrakda yiringli-destruktiv o'zgarishlar kuzatilganda buyrak jarrohligini amalga oshirish talab etiladi. Agar kasallik davolasnmasa, yiringli-destruktiv pielonefritning terminal bosqichi boshlanadi. Bunda pionefroz rivojlanadi, bunda buyrak butunlay yiringli yemirilishga duchor bo'ladi va siydik, yiring va to'qima parchalanishi natijasida qolgan moddalardan tashkil topgan bo'shliqli o'choqqa aylanadi.

Piyelonefrit tashxisi, qiyosiy tashxis

«O'tkir pielonefrit» tashxisini qo'yish odatda, aniq klinik belgilar mavjudligi sababli nefrolog uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. Ko'pincha anamnezda surunkali kasalliklar yoki yaqinda o'tgan o'tkir yiringli jarayonlar mavjud bo'ladi. Klinik tasvir pieltonefrit uchun xos bo'lgan isitma va bel og'riqlari (ko'pincha bir tomonlama), og'riqli siyish va siydikning o'zgarishidan iborat. Siydik xira yoki qizg'ish tusli bo'ladi, o'ziga xos badbo'y hidi mavjud. Tashxisni laboratorik tasdiqlash uchun siydikda bakteriyalar va kichik miqdorda oqsil aniqlanishi xizmat qiladi. Kasallik qo'zg'atuvchisini aniqlash uchun siydik namunasini bakteriyal ekish o'tkaziladi. O'tkir yallig'lanish mavjudligini umumiy qon tahlilida leykotsitoz va ECHTning oshganligi ko'rsatadi. Maxsus test to'plamlari yordamida yallig'lanishiga olib kelgan mikroflora aniqlanadi. Keng ko'lamli urografiya o'tkazilganda bir buyrakning hajmi kattalashgani seziladi. Ekskretor urografiya ortoproba o'tkazilganda buyrak harakatchanligining keskin cheklanganligini ko'rsatadi. Apostematozli pielonefritda zararlangan tomonda sekretor funktsiyasining kamayishi kuzatiladi (siydik yo'llarining soyasi kechikadi yoki kuzatilmaydi). Karbunkul yoki abstsessda ekskretor urogrammada buyrak konturida bo'rtishlar, jom va kosachalarida siqilish va deformatsiyalar aniqlanadi. Pyelonefritdagi tizimli o'zgarishlarning tashxisi buyraklarning ultratovush tekshiruvi yordamida amalga oshiriladi. Buyraklarning konsentratsiya qobiliyati Zimntskiy testi yordamida baholanadi. Buyrak-tosh kasalliklari va anatomik anomaliyalarni istisno qilish uchun buyraklar KT amalga oshiriladi.

Pyelonefritni davolash usullari

Asoratlanmagan o'tkir pielonefritlar shifoxona sharoitida urologiya bo'limida konservativ davolanadi. Antibakterial terapiya olib boriladi. Preparatlar siydikdagi bakteriyalarning sezgirligini hisobga olgan holda tanlanadi. Yallig'lanish jarayonlarini tezda bartaraf etish va pielonefritni yiringli-destruktiv shaklga o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun davolash eng samarali dori bilan boshlanadi. Dezintoksikatsiya terapiyasi, immunitetni mustahkamlash amalga oshiriladi. Isitma kzatilganda past oqsilli tarkibiga ega bo'lgan parhez buyuriladi, harorat me'yorga kelgach bemor o'zida ko'p suyuqlik saqlagan to'laqonli oziq-ovqat ratsioniga qaytadi. Ikkinchi darajali o'tkir pielonefritni davolashning birinchi bosqichida normal siydik chiqarishga to'sqinlik qiluvchi to'siqlar bartaraf etilishi kerak. Siydik chiqarish buzilgan hollarda antibakterial dori-darmonlarni tayinlash istalgan samarani bermaydi va jiddiy asoratlarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Surunkali pielonefritni davolash o'tkir shakldagi kasallikni davolash bilan bir xil tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi, lekin u ko'proq vaqt va mehnat talab qiladi. Surunkali pielonefritni davolash quyidagi terapevtik usullarini o'z ichiga oladi: Siydik chiqishiga to'sqinlik qiluvchi yoki buyrak qon aylanishining

buzilishiga olib kelgan sabablarni bartaraf etish; Antibakterial terapiya (davolash mikroorganizmlarning sezgirligini hisobga olgan holda belgilanadi); Umumiy immunitetni normallashtirish.

To'siqlar mavjud bo'lganda siydikning normal o'tishini tiklash kerak. Siydik chiqarish oqimini tiklash jarrohlik amaliyoti orqali oshiriladi (nefroptozda nefropeksiya, buyraklar va siydik yo'llari toshlarini olib tashlash, prostata bezi adenomasini olib tashlash va boshqalar). Ko'p hollarda siydik yo'lini to'sayotgan to'siqlarni bartaraf etish uzoq muddatli va ishonchli remissiyaga erishishga imkon beradi. Surunkali pielonefritni davolashda antibakterial preparatlar antibiotikogrammani hisobga olgan holda belgilanadi. Mikroorganizmlarning sezgirligi aniqlanguncha keng miqyosli ta'sir doirasiga ega antibakterial preparatlar qo'llaniladi. Surunkali pielonefritli bemorlar kamida bir yil davom etadigan uzoq muddatli tizimli davolanishni talab qiladi. Davolash o'z luksiz 6-8 hafta davom etadigan antibiotiklar bilan boshlanadi. Bu usul buyrakda yiringli jarayonlarni asoratlarsiz bartaraf qilish va chandiq to'qimalar hosil bo'lishini oldini olish imkonini beradi. Buyrak funktsiyasi buzilgan bo'lsa, nefrotoksik antibakterial dorilarning farmakokinetikasini doimiy nazorat qilish talab qilinadi. Agar kerak bo'lsa immunitetni mustahkamlash uchun immunostimulyator va immunomodulatorlardan foydalaniladi. Remissiyaga erishilgach, bemorga o'zgarishi bilan antibakterial terapiya kurslari beriladi.

Remissiya davrida surunkali pielonefritli bemorlarga sanatoriyalarda davolanish tavsiya etiladi. Terapiyaning majburiy davomiyligini esdan chiqarmaslik kerak. Shifoxonada boshlangan antibakterial davo ambulatoriya sharoitida davom ettirilishi kerak. Qo'shimcha davolash usuli sifatida fitoterapiya qo'llaniladi.

Nazorat savollari.

1.Pielonefrit etiologiyasi, patogenezi nima izohlab bering
2. Pielonefrit tasnifi, klinik belgilarini tavsiflang.
3.Pielonefrit tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis usulni izohlab bering.
4. Pielonefrit asoratlari haqida ma'lumot bering
5. Pielonefritni davosi va profilaktikasini izohlang.

6-Mavzu: Glomerulonefritlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi. Profilaktikasi.

1. Glomerulonefrit (GN) — bu infeksion allergiya, noma'lum tabiatli kasallik bo'lib, uning asosida buyrakning koptokcha apparatini diffuz yoki

o‘choqli yiringsiz yallig‘lanishi yotadi, hamda buyrak va buyrakdan tashqari simptomlari bilan xarakterlanadi.

2.Terminologiyasi.

Glomerulonefrit, yoki immun glomerulopatiyalar, getogen kasalliklar guruhi bo‘lib, unga yallig‘lanishning immunologik klinik — morfologik belgilari xos. Bunda birinchi navbatda koptokcha apparati shikastlanadi.

Ko‘p hollarda «nefrit» termini GN ekvivalenti sifatida qo‘llaniladi. Aslida, nefronning turli qismida yallig‘lanishi bo‘lganda nefrit xaqida gapiriladi.

Diffuz Glomerulonefrit — bu klinik termin, asosan glomerulalarning jarayonga birlamchi tartibi bilan kechuvchi, buyrak to‘qimasining ikki tomonlama yallig‘lanishi bilan ifodalaniladi. U koptokchalarning segmentar va faqat Birlamchi GN termini, GNning biriktiruvchi to‘qima sistemali kasalliklarni yoki surunkali infeksiyalar bilan bog‘lik bo‘lmagan xolda aloxida rivojlanishini anglatadi. Diffuz va birlamchi GNlar sinonimlari xisoblanadi. O‘tkir GN — streptokokkli kasalliklardan so‘ng rivojlanadi va siklik kechadi. Surunkali GN to‘lkinsimon cho‘zilgan latent kechuvchi GNning ekvivalenti xisoblanadi. Bunda jarayonning zo‘rayish xarakteriga ega ekanligi va buyrak to‘qimasida distrofik va sklerotik o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘zda tutadi.

«Tez rivojlanuvchi» GN — kasallikning salbiy kechuvchi shakli bo‘lib, o‘tkir boshlanishi va xavfli kechadi va ko‘pincha bir necha oy ichida SBYe ga olib keladi. GNning gematurik shakli klinikaning ko‘rsatgichi bo‘yicha siydik sindromida, eritrotsitlarning bo‘lishi ko‘rsatib o‘tadi. Bu patologik guruhga Ud A —nefrolatil (Berje kasalligi) kiradi. GN gematurik shakli «niqobi» ostida har xil glomerulopatik, tubulointerstinal to‘qimalar va buyrak tomirlari kasalliklari yotadi.

GNning aralash shakli - morfologik asosi koptokchalarning sklerozlanishi bo‘lgan progradiyent xarakteri, yaqqol bo‘lgan renal va ekstarenal ko‘rinishlarda kechuvchi og‘ir kasallik. «Surunkali GN biroz yoki aloxida siydik sindromi bilan» tashxisda biopsiya natijalari bilan tasdiqlanishi shart. Tashxisda morfologik o‘zgarishlar tipi, kechish varianti, jarayon faolligi darajasi va buyraklar disfunksiyasi xarakterini ko‘rsatilishi kerak.

Z. Epidemiologiyasi. «O‘tkir GN» ning ba’zi simtomlarini taxlil qilgan Genatyuk (1980) ning ta’kidlashicha, oxirgi 20 yil ichida kasallik sekin asta, sezilarli darajada oshdi, (1953—1963 yillar 3,5 %; 1970—1975 yillarga kelib 20.8 foizga oshgan). Kasallikning shishlarsiz, gipertenziyasiz kechuvchi monosimptomli xili 3 marta oshgan. Albatta bu bolalarga nisbatan jamlashtiruvchi «Nefrit» terminidan foydalanish mumkin, biroq ularning bir qismida nefritga o‘xshashkasallik bo‘lishi mumkin deb o’ylash mumkin.

GN monifestatsiyasi va xatto rivojlanishning ko‘p darajasi shu regionda

ustunlik qilayotgan u yoki bu infeksiyaga bog‘lik. Xususan malriyadan so‘ng rivojlanuvchi nefrit Afrika kontinentining ko‘p mamlakatlariga xos, poststreptokokksli nefrit 7% Shuni esda tutish kerakki, poststreptokokkli nefrit antibakterial ta’sirlarga chidamli mikrob shakllari kelib chiqaqanligi bilan bog’liq bo‘lishi mumkin.

4. Etiologiyasi. O‘tkir glomerulonefrit (O‘GN) etiologiyasida quyidagilar farqlanadi:

1. Streptokokkli infeksiyaga (ko‘pincha bu beta—gemolitik streptokokkning A guruhi 1:2:4 tiplari). Angina, streptokokkli impetiga va boshqa kasalliklarni o‘tkazgandan so‘ng.

2. Stafillokogen

Z. Pnevmokokk

4. Viruslar: Sitomegaloviruslar, — viruslar (Yapon poletsiyasi yosh bolalarda O‘GN chaqiradi).

5. Malariya plazmodiylari, zaxm qo’zg‘atuvchisi.

b. Shuningdek O‘GN boshqa sabablar natijasida rivojlanish mumkin.

7. Emlashlar, dori vositalari.

8. Ilon va ari chakishlari.

9. Organizm sovuqda kolishi.

O‘GN nasliy tabiyatli bo‘lishi ham mumkin. Bu Alport sindromi va Gudpascher sindromi va Rudpasger sindromi.

4 —tip kollogenning turli variantli zanjirlari bor, ular o‘z navbatida db gacha 4 tip kollagen deb belgilanadi. Har bir zanjirni o‘z geni kodlaydi. Bu genlar juft holda 3 ta turli xromosomalarda joylashadi. 4 tip kollogenining 2 ta zanjiri bilan eng muxim klinik sindromlar bog‘lik: Alport, Gudpasger.

5. GN patogenezi (zamonaviy konepsiyalar). Hozirda O‘GN patogenezi KBN shikastlanishi xaqida avvalgi fikrlar yo‘q. Bunga depozitlar o‘tirishini tushintiruvchi ko‘plab nazariyalar mavjud, ammo biz koptokchalar shikastlanishini yetarli tushuntiruvchi ikkitasida to‘xtab o‘tamiz. Buyrak koptokchalarida yalliglanish reaksiyasi (epitelial va mezenximal xujayralar proliferatsiyasi, ekssudativ o‘zgarishlar) IX.lar ta’sirida rivojlanadi, bunda ikkilamchi patogenetik faktorlar sifatida ivituvchi sistema, komplement tizimi ishtirok etadi.

Nefrotogen streptokokklar patogenlik xususiyatini namoyon qiluvchi ma’lum ANG tutadi Bu ANG geparansulfat— proteoglikanlar hisobiga manfiy zaryadga ega bugan KBM bilan bog‘lanadi. Natijada strukturalar bir —biri bilan birikadi. Bu jarayon davomida biriktiruvchi to‘qima dezorganizatsiyasi ro‘y beradi. Fiksatsiyalangan ANG ga immunoglobulin G ishlab chiqaradi, lekin ba’zan immunoglobulin M, A ishlab chiqarishi mumkin. 3 yoshgacha bo‘lgan

bolalarda KBM tartibiga neonatal tipdagi PNG kiradi, qaysi KBM ning neokollagen strukturasi bilan bog‘langan. Bu ANG ga ANT hosil bo‘lmaydi yoki juda sekin hosil bo‘ladi. Gudpasker sindromini 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchramasligini pgu bilan tushyntirish mumkin.

Ikkinchi mexanizm. Bola organizmiga infeksiya tushadi. Tushgan ANGga nisbatan mos ravishda IgG2, IgG3, IgA hosil bo‘ladi. qonda aylanib yuruvchi IXlar hosil bo‘ladi. Lekin IgG makrofaglar (vazifasi IXlar eliminatsiyasi) retseptori bilan kam uxshashlikka ega, shuning uchun IX lar qonda o’z oqsirkulyatsiyalanadi. IX larni KMBga fiksatsiyasi ham zaryad hisobiga amalga oshishi mumkin. Ya’ni musbat zaryadlangan. r^x KMBga yopishadi. Natijada o‘ta sezuvchanlikning sekin turida KMBda immun yallig‘lanish rivojlanadi. Bu mexanizm o‘tkir va o‘tkir osti GN uchun xarakterli. Agar biriktiruvchi to‘qima ANG sifatida yuzaga chiqsa autoimmun yallig‘lanish rivojlanadi, ya’ni KBM autologik IXlarni tutadi Bunda o‘ta sezuvchanlikning sekin turi namoyon bo‘ladi. U GNning mezenxial shakli bilan ifodalanadi. Xususan immunokompleks mexanizmiga qorinda ko‘prok uchraydi. KBM shikoyatlarining gumoral reaksiyalar javobgar — katta ro’l komplement tizimiga qaratilgan. Buyrak koptokchalarining eng og‘ir shikastlanishi immunologik reaksiyalarining ikkinchi turida bo‘ladi.

Bg Komplement faolatsiyasi— ketma —ket komplementning ma’lum Nta komponenti hosil bo‘ladigan murakkab jarayon AG, AT va komplementdan iborat kompleks ta’sirida membranadan kationlar transporti keskin o‘zgaradi, kaliy xujayradan tashqariga chiqaradi va osmotik lizis kuzatiladi. Jarayonga buyrak to‘qimasini qo‘shilishida asosiy o‘rin komplementining SZ reaksiyasiga qaratilgan.

Komplement faolatsiyasining ikkita yuli mavjud: to‘g‘ri (mumtoz) va aylanma (alternativ) to‘g‘ri yo‘lda IgG va IgM sinfiga kiruvchi AT bilan AG o‘zaro munosabatda bo‘ladi va S1 — SZ orqali SE tomonga kaskad reaksiyalar ketadi. Aylana yo‘l bilan faolatsiyalanganda to‘g‘ridan — to‘g‘ri AG, AT reaksiyasi kuzatilmaydi. Bu xolda limfotsitlar, polisaxaridlar, membranoliz mahsulotlari, plazma oqsillari (properdin) bilan ta’sirlashadi va SZ, qolgan zanjirlar to‘g‘ridan — to‘g‘ri faollanadi. Komplementning aylanma yo‘l bilan faollangan GV, Berje kasalliklari rivojlanishda katta ro’l o‘ynashi xozirda isbotlangan. Qonda sirkulyatsiyalanadigan va kapillyarlar BM ga fiksatsiyalanadigan birinchi navbatda koptokchalar bazan membranaga BMga, immun xujayralar «to‘qimani shikastlashdan saqlash»ga qaratilgan sistemada ketma —ket o‘zgarishlar chaqiradi. Bular ichida muxim o‘rin gemostaz tizimiga qaratilgan. Bu sistema faollanishi lokal giperkoagulyatsiya ko‘rinishida bo‘ladi.

Koptokchalarga fiksatsiyalangan IX lar ta’sirida kapillyarlar endoteliysi

shikastlanadi, trombotsitlar va boshqa shaklli elementlar agregatsiyalanadi, kapillyar stazi kuzatiladi : Progressiya roja fibrinoliz –ivinets va depressiyasi, parakoagulyatsiya kuzatiladi va koptokcha kapsulasi bo‘shlig‘i yonida fibrin to‘planishiga sharoit yaratiladi, bu esa sklerotik shakllari rivojlanishiga sharoit yaratiladi va asos bo‘ladi. Shunga bog‘lik holda GN turli shakllarida turli xarakter va darajadagi DVS — sindrom rivojlanadi. GN da uchrovchi DVS sindrom ko‘rinishi bo‘lib xisoblanadi: koptokchada fibrin topilishi, plazmada, qonda va siydikda PDF va fibrinogen topilishi. Gemostaz buzilishida prostoglandin, kallikrenin — kinin tizimi ishtirok etadi.

6. Patologik anatomiyasi.

Jar topografiyasiga ko‘ra, intra va ekstrakapillyar xillari farqlanadi, yallig‘lanish xarakteriga ko‘ra—ekssudativ, proliferativ va aralash turlari mavjud, kechishiga ko‘ra:

1) o‘tkir; 2) o‘tkir osti; 3) surunkali

Yallig‘lanish jarayoni tarqalganligiga ko‘ra:

1) diffuz; 2) o‘choli.

O‘tkir 1 GN —dastlabki kunlari koptokchalar giperemiyasi ustunlik qiladi, keyinchalik endoteliy va ayniqsa mezenximal xujayralar leykotsitar infiltratsiyasi qo‘shiladi. Shuning uchun quyidagi fazalar farqlanadi:

1. Ekssudativ
2. Ekssudativ — proliferativ
3. Proliferativ

Ba’zan o‘tkir nekrotik GN ko‘rinishida uchrashi mumkin. Buyrak kattalashgan va shishgan. Piramidalar qoramtir va qizil rangda, po‘stloq kulrangsimon qo‘ng‘ir rangda, kesma yuzasida mayda qizil toshmalar ko‘rinadi. Bu o‘zgarishlar qaytar bo‘lishi yoki bir yilgacha saqlanishi va surunkali GN ga o‘tib ketishi ham mumkin.

O‘tkir osti GN—bu tez rivojlanuvchi, xavfli GN. Unga nefroteliy va podotsitlardagi ekstrakapillyar produktiv o‘zgarishlar xos bo‘lib, yarim oysimon hosilalar hosil qiladi. Katta qizil buyrak ko‘rinishida.

Surunkali GN — ikkita shaklida uchraydi:

1) mezangioproliferativ — nisbatn xavfsiz kechadi.

2) mezangiokapillyar glomerulonefrit — tez rivojlanadi va buyrak yetishmovchiligiga olib keladi.

Buyrak ko‘rinishi: A) qattiq, rangpar, po‘stloqda sariq dog‘lar bilan. B) Fibroplastik — sideroz va gialinoz jarayonlari ustunlik qiladi. Bu jarayon diffuz yoki o‘choqli bo‘lishi mumkin.

O‘tkir GNni klinik kechishi, ko‘rinishlari va laborator ko‘rsatkichlarini

qisqacha xarakterlash mumkin emas.

O‘tkir GN, A guruhga kiruvchi betta gemolitik streptokokk chaqirgan, o‘tkazilgan faringitdan 7—14 kundan so‘ng yoki o‘tkazilgan terapiyadan 14 — 21 kundan so‘ng rivojlanadi, shuningdek o‘gkir GN o‘tkazilgan virusli infeksiyadan keyin ham rivojlanadi,ya’ni grippdan keyingi davrdir. Barcha bemorlarda (85 — 95%) O‘GN siklik ketishini ifodalovchi Erta davrdan iborat.

1. Boshlang‘ich davr.

2. Simptomlarii ortga rivojlanish davri.

Z. To‘liq klinika laborator remissiya davri.

10—15% hollarda O‘GN siklik kechmaydi (salbiy) va rivojlanish davomida surunkali shakliga transformatsiyalanish mumkin. (SGN) Shuningdek asorati tufayli letal xolatga olib kelishi ham mumkin. Masalan UBYe asorati tufayli aksariyat bemorlarda 4 — 6 hafta mobaynida yuzini shishganligi, teri koplamlari rang parligini va diurez 200 — 300 ml sutkasiga kamayganligi aniklanadi. Siydik rangi xira, ba’zan go‘sht yuvundisi rangida. AB biroz ko‘tarilgan (130 — 180—150—190 mn sim.ust.), ba’zan qorin va bel soxasida noma’lum og’riqlar, bosh og‘rig‘i va qusish kuzatiladi.

Keyingi 5 — 9 kun maboynida ko‘z tubi o‘zgarmagan xolda gipertenziya oshishi mumkin. Bu davrda gematuriya makrogematuriyaga yetishi mumkin. Proteinuriya 0,5 —3,5gsut yetadi, ba’zi bemorlarda unchaklik katta bo‘lmagan, qisqa muddatli (3 — 5 kun) leykotsituriya (10 — 20 ml sutkasiga) shuningdek eritrotsitar silindruriya kuzatiladi. Ko‘pincha anemiya, leykotsitoz, eozinofiliya bo‘ladi. Buyraklar funksiyasi buzilmagan yoki biroz buzilgan Renal funksiyalarni sezirali buzilganligini ifodalovchi UBYe dagi oliguriyadan farqli o’laroq, bu oliguriya siydik nisbiy zichligi yuqori bo‘ladi (1013 gacha). Koptokchalar kamroq pasaygan (50 — 60 mlmin endogen kreatinin klirensi bo‘yicha). Konsentratsiyalash va N+ionlari ekskretsiya — qilish cheklanishi mumkin, S6n1206 Maksimal reabsorbsiyalanadi. Zardobda mochevina miqdori oshib («o‘tkir davr» giperazotemisi), 3 — 5 kun mobaynida saqlanadi. Kasallik sikli kechganda 2 — 3 hafta oxiridan boshlab simtomlar orqaga qayta boshlaydi, gipertenziya va shish, gemoturiya, proteinuriya asta sekin kamayadi va yo‘qoladi. Aloxida sishggomlarni 6 oydan ko‘p vaqt saqlansa surunkali shakli xaqida gapirish mumkin.

O‘GN boshlangich davrida kuzatiladi :

1)O‘tkir nefrotik sindrom —shishlar, gipertenziya, gematuriya, proteinuriya 2g sut va undan ko‘p.

2) Aloxida siydik sindromi — gematuriya, shish va 1/gipertenziyasiz, proteinuriya.

3) Nefrotik sindrom — shishlar, proteinuriya 2,5g sutdan ko‘p,

giperlipidemiya. Boshlangich davrida gipertenziya fonida va o‘tkir (buyurak yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin, shuningdek UBYe kabi kichik asoratlar ro`y berishi mumkin. RAMN akademigi Shanin ta’riflashicha nefrotik sindrom —bu organizm patologik xolati bo‘lib, siydik bilan o‘rtamolekulali oqsillarni yo‘qotish va uning qon plazmasida konsentratsiyasi kamayishiga qaratilgan gomeostaz tizimi ning reaksiyasi xisoblanadi.

Proteinuriya jarayonida organizm kichik va o‘rta o‘lchamli (5.5 nmg acha) oqsillar, eritropoetin, transport oqsillari. Bunga javoban jigarda lipoprotein ishlab chiqarishi funksiyasi oshadi. Jigar massasi kattalashgan. Bu yerda albumin va transferrin bilan bir qatorda ultrafioletga tushgan yirik oqsillar — apopipoprotein V, Ye fibrinogen hosil bo‘ladi.

Ularning qon zardobidagi miqdori oshadi, qon plazmasi tarkibida butunlay o‘zgargan, ONKO va OSMOtik bosim tushadi. Bu plazmani tomirdan tashqariga—interstitsiyga chiqishni ta’minlaydi. Shish hosil bo‘ladi. Xujayralararo suyuqlik hajmi oshadi, bu buyrakning nartiy uritik garmonga nisbatan arefaolligini, shuningdek parenximasidagi patologik o‘zgarishlar natijasida bo‘ladi. Laborator tekshirishlariki natijasiga ko‘ra, jigarda oqsil hosil bo‘lishi 4 marta oshadi. Shunga qaramasdan oqsil miqdori normaga nisbatan 25% ga tushib ketadi (xususan albumin). Ba’zi oqsillarni yo‘qotish jigarda ular sintezini intensivligini oshirish bilan to‘ldirib bo‘lmaganidek, nefrotik sindrom eritropoetin yetishmovchiligini, transferin yo‘qotishidan anemiya bilan kechadi —IgL yo‘qotilishi natijasida ortirilgan immunodefitsit holati yuzaga keladi. Shuningdek garmonlar tashuvchilari yetishmovchiligidan endokrinopatiyalar vujudga keladi. Albumin bilan bog‘langan estrogen va androgenlarni yo‘qotilishi natijasida klinik jihatdan sezilarsiz gipogonadizm rivojlanishi mumkin. Yana vitaminlar tashuvchi oqsillar ham yo‘qotiladi — raxit rivojlanadi (vitamin D yetishmovchiligi) siydik bilan kichikroq oqsillar (ivish ingibitorlari — antitrombin 111, S va S oqsillar) yo‘qotiladi — gipperkoagulyatsiya rivojlanadi. Buyrak venalari trombozi yuzaga kelishi mumkin. Jigarda lipoproteinlar ko‘p ishlab chiqarilishiga javoban qonda holesterin miqdori oshadi. O‘GN surunkali shaklga (5—15% hollarda) o‘tganda — **surunkal GN deyiladi.**

Surunkali glomerulonefritlar. Etiologiyasi Tasniflash. Klinik formalari, davrlari. Klinik sindromlar. Diagnostik mezonlar. Davosi, profilaktikasi.

Surunkali glomerulonefritlar (SGN) quyidagi kasalliklarda rivojlanadi.

1) Membranoproliferativ GN
2) Membronoz nefropatiya
3) Alport sindromi
4) Sistemali qizil yugurdak (SKYu)

5) Diffuz glomeruloskleroz
6) Gemarrogik vaskulit
7) Tez avj oluvchi GN
8) Berje kasaligi.

SGN ning 3 —ta shakli farqlanadi.

1) Nefropatik shakli—maktab bolalarda retsidivlovchi kechishga ega. Klinik jihatdan turli darajadagi shishlar, 2,5 g/sutd oshgan proteinuriya, disproteinemiya, giperlipidemiyalar bilan ifodalanadi. Morfologik koptokchalarda minimal o‘zgarishlar. Kam hollarda mezangioproliferativ va boshqa o‘zgarishlar. Buyrak funksiyasi saqlangan. Kortikosteroid tsitostatik preparatlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Gematuriya va gipertenziya kuzatilmaydi.

2) Aralash shakli — asosan maktab yoshdagi bolalarda uchraydi. Klinik - nefrotik va gematurik sindromlarni qo‘shilishi bilan xarakterlanadi. Shunindek ularga gipertenziya qo‘shilishi ham mumkin. (Prognoz salbiy). Koptokchalar filtratsiyasi va buyrakning Konsentratsiya funksiyasi barvaqt buziladi buyrak bioptatida. bu shaklni avj olishi tanlangan davolash muddati va usullariga bog‘liq.

3) Gematurik shakli — gematuriya shaklida faqat siydik sindromi bilan namoyon bo‘ladi. Mikro va makrogematuriyaga bir ozgina proteinuriya (1 g sutkagacha) qo‘shilishi mumkin. Buyraklar I funksiyasi saqlangan, AB normal. Buyrak bioptatida uchraydigan xollarida diffuz MPGI, kanalchalar epiteliysi distrofik o‘zgarishlari, interstitsial to‘qima uchoqli sklerozi aniqlanadi. Lyuminissent mikroskopichda Ig G, M, komplement fibrinning oshishi kuzatiladi. 40 — 50% hollarda immunoglobulin A ning oldida yoki total og‘ishi kuzatiladi Ig G normal darajada bo‘lganda zardobda immunoglobulinlar oshadi. Bunday variantli GN, uni birinchi bo‘lib, tariflagan avtor nomi bilan Berje kasalligi deyiladi (yoki IgF —GN). Glyutenning antigen stimulyatsiyasi IgA giperpoduksiyasini inkor etmagan holda, kasallik rivojlanishi persisterlovchi virus infeksiyasi bilan bog‘liq deb tahlil qilinadi.

9.Tashxisi va solishtirma tashxisi.

UGN ni tashxisi yuqorida aytilgan infeksion (ko‘pincha streptokokkli) va neoinfeksion faktorlar ta’sir etgandan so‘ng to‘satdan boshlanishi, shuningdek asosiy simptomlarni qo‘shilib kelishi (shishlar, gipertenziyalar, siydik sindrom)ga ko‘ra qo‘yiladi. UGNni SGN farqlash lozim. SGN 1 yildan ortiq davom etadi, gipomerulyoadtning turli morfologik turlarida ekssudativ komponentlari sust rivojoangan ikkilamchi GNdan, buyraklar tutma displaziyasi natijasida rivojlangan GNdan, piyelonefritdan farqlash lozim. Aloxida siydik sindromi (gematuriya, uncha katta bo‘lmagan proteinuriya) buyraklar funksiyasining saqlanganligi, Ig A va Ig A saqlovchi SIK asosidagi Berje kasalligi glomerulyar

cho‘kmalar, aynan Ig A SGN ning gematurik shakliga tashxis kuyishda asos bo‘ladi. GNning ushbu shaklini gematuriya va proteinuriya, kanallar funksiyasini cheklanishi bilan namoyon bo‘lishi, almashinuv va boshqa tabiatli interstitsial nefritdan farqlash lozim.

GN ga shubxa qilinganda qanday **laborator tekshiruvlar** qilinadi:

Siydik taxlili:

Zardobda komponentni aniqlash (SZ va S4)

Zardobda streptokokkga qarshi antitelolarni aniqlash

Antinuklear omilni topish

Gepatit Vei markyorlarini topish

Antinuklear tsitoplazmatik antitelolar titrini aniqlash, O‘tkir diffuz Gnni buyrakni toksik shikastlanishidan, o‘tkir piyelonefritdan, DVS— sindromi yoki u bilan bog‘lik patologik xolat, — gemolitiko — uremik sindromdan, trombotik, trombotsitopenik purpuradan, SGN zo‘rayishlaridan, irsiy nefritdan differensiyalash lozim.

Bolalarda buyrakni toksik shikastlanishlari, o‘tkir infeksion kasalliklarda mikroorganizmning buyraklar tomir tizimiga toksikosklerotik ta’siri ostida rivojlanadi. Buyrakning toksik shikastlanishi kam ifodalangan siydik sindromi bilan namoyon bo‘ladi (siydiq oqsil izi, mikrogematurik, siydik cho‘kmasida yakka silindr va buyrak epiteliylari) qaysiki infeksion kasalliklar avjida topiladi, keyin yo‘qolib ketadi.

O‘GN ni birlamchi o‘tkir piyelonefritdan farqlash kerak. Lekiy oxirgisiga yaqqol umumiy intoksikatsiya, anoreksiya, ko’ngil aynash, qusish, tana vaznini yo‘qotish, chanqash, yaqqol namoyon bo‘lgan dizo‘riya, neytrofiluriya, bakteruriya xos. O‘GN uchun xarakterli: shish sindromi, arterial gipertenziya, gematuriya, oliguriya buyrakning-konsentratsiyalash funksiyasining buzilishi. Gemolitiko — uremik sindromlilari, oshqozon — ichak o‘tkir kasalliklari, bir qancha dorilar ichish natijasida kelib chiqadi. Kasallik erta yoshda boshlanadi (2—3yoshgacha). Gemolitik—uremik sindrom uchun o‘tkir rivojlanuvchi gemolitik anemiya, gemolitik sindrom bilan birga keluvchi trombotsitopeniya xarakterli. UBY kelib chiqishi mumkin. O‘tkir GN cho‘zilgan formasini surunkali GN —ning o‘tkirlashish davri bilan farqlash kerak. Bunda anamnezi chuqur tekshiriladi. Bundan oldin bemor buyrak kasallikларn bilan og‘riganligi, surunkali o‘choqlar bor yoki yo‘qligi aniklanadi.

Shuni aytib kerakki surunkali GN o‘tkirlashishidan biror infeksiya 2 — 4 kun o‘tgandan so‘ng boshlanadi. O‘tkir GNda boshlanish davri o‘zoqror (14—12 kun), agar o‘tkir GN anamnezida umumiy intoksikatsiya belgilari borligi, arterial gipertenziya, anemiya, disprotein— va gipoproteinuriya, buyrak kanali funksiyasi buzilishi, buyrakda ketayotgan jarayonlar bir yildan ortik davom

etayotgan bo‘lsa — bu surunkali GN ekanligidan dalolat beradi.

10. Davolash (etiotrop va patogenetik)

1. Rejim va elektrolit balansini saqlash
2. Antibakterial terapiya
3. Vitaminoterapiya
4. Gipotenziv terapiya
5. Diuretik moddalar
6. Patogenetik terapiya

6.1 Glyukokortikoidlar

6.2 Immunodepressiv moddalar

1. Rejim va elektrolit balansini aniqlash. O‘tkir GN da kasallik boshlanishidan 1,5 oy ichida yotoq rejim belgilanadi. Yarim yotoq rejimga — verandalarga chiqqanda ruxsat beriladi. Erkin kasalxona rejimida — bola sayir qilishi kerak, massaj va-diyeta belgilanadi. Buyrakka bog‘lik bo‘lmagan davri ekanligidan qat’iy nazar bunday bemorlarga allergiya chaqiruvchi mevalar, ko‘p tuz yeyishi, ekstraktli moddalar qat’iyan man qilinadi. Bunday bemorlarga meva va sabzavot mahsulotlarni, steroid terapiya o‘tkazish davrida esa quritilgan mevalar (K+tutuvchi) tavsiya etiladi. GN o‘tkir fazasi 2 — 3 faol darajasida kasallik o‘tkirlashganda xayvon oqsili, cheklangan tuzsiz ovqatlar beriladi. Shuni yodda tutish kerakki, tuzsiz diyetadagi oziq — ovqat tarkibida Na tytganligi (20 mmol Na) sababli giponatriyemiya kelib chiqmaydi.

Kaliyga boy mahsulotlar

Ovqat nomi	Miqdori	K+(mg)
Mayiz	23	751
Pishirilgan kartoshka	1 dona	503
Kakao	1 st	480

Gipokaliyemiya klinik va fiziologik oqibatlari qanday? Ion muvozanat buzilishi —gipokaliyemiya, bu mushak kuchsizlanishi, parezi, ichak o‘tkazuvchanligi buzilishi, zaporlar, ritm buzilishi, fibrilyatsiyaga olib keladi.

Kaliy eritmalarini yuborish maksimal tezligi konsentratsiyasi? K+ni korreksiya qilish uchun vd yuboriladi. Bunda K+ eritmada 40 mkvl (agar periferik venaga yuborilsa) miqdorda bo‘lishi kerak. Infuziya tezligi bunda 0.3 mkv/kg/s bo‘lishi kerak. Agar tez yuborilsa paresteziya va flebitga, yurak faoliyati to`xtashiga olib kelishi mumkin. Agar bolaning hayoti havf ostida bo‘lsa (ritm buzilishi, fibrilyatsiya) unda 1 mekv/kg/s gacha infuziya tezligini

oshirish mumkin. Giponatriyemiya klinik simptomlari? Korreksiya Natriyniig kamayishi giponatriyemiya deyiladi. Agar klinik simptomlari boshlansa, korreksiya qilinadi. U turlicha bo‘lishi mumkin: oshqozon — ichak buzilishidan tortib, to ruxiy status buzilishi, talvasa va ko’magacha bo‘lishi mumkin. Bu bemorlarga 3%gipertonik eritma yuboriladi. 1 ml eritma yuborganda Na konsentratsiyasi 1 mekv/l ga oshadi. 2 — 2

2. Antibakterial terapiya.

Poststreptokokk GNda faol antibakterial terapiya penitsillin va shu qatorga kiruvchi polusintetik preparatlar bilan kasallik boshlanishidan 1.5 oy ichida o‘tkaziladi.

Kasallik manifestatsiyasi boshlanishdan 1.5 — 2 oy infeksiya o‘choqlari paydo bo‘lsa, surunkali tonzillitda operativ sanatsiya o‘tkaziladi. Uzoq muddat steroid terapiya o‘tkazilishi antimikrob himoya ishlatishga sabab bo‘ladi. Ammo bu asoratlar ichida disbakterioz 1chi o‘rinda turadi. Bunda ichak mikroflorasini saklash uchun kolibakteriya, laktobakteriya, bifidumbakteriya, bifikol kabi preparatlar ichiriladi.

Antibakterial preparatlar ichida GNni davolash uchun nefrotik ta’sirga egalari (monomitsin, kanamitsin) **qo‘llanilmaydi**. Bolalarda penitsillin guruhidagi yarim sintetik ampitsillin, oksatsillin va b. Ta’sirchanlik doirasiga asoslanish. Bolada tonzilloektomiya operatsiyasini to‘g‘ri bajarish uchun operatsiya o‘z vaqtida belgilanishi va 10 kun davomida (operatsiyadan so‘ng) antibiotik va antigistamin preparatlari qo‘llanishi kerak. Z.Vitaminoterapiya Angioprotektiv ta’sir uchun vitamin S kam dozada beriladi. Vitamin A (retinol) biriktiruvchi to‘qima dezorganizatsiyasiga qarshilik qiladi. Vitamin D antiraxitik effekt beradi. V gruppa vitaminlari ham qo‘llaniladi.

4. Gipotenziv terapiya.

Gipotenziv moddalar 4 guruhga bo‘linadi.

1 — guruhga MNSni tinchlantiruvchi preparatlar: valeriana, pustirnik kiradi. Ular giperkortitsizm belgilari paydo bo‘lganda qo‘llaniladi.

2 — guruhga antiadrenergik moddalar: rauvolfin, gangliobloqatorlar kiradi.

Z — shu gruxga nitroprussin va apressin kiradi. Bu moddalar GNni davolashda xozirdan qo‘llanmydi.

GNni davolashda asosan 4 — guruh preparalari diuretiklar ko‘prok qo‘llaniladi. Xozirda gipotenziv moddalar: nifedipin, kalsiy kanallari bloqatorlari: kaptopril qo‘llanilmokda. o‘smirlarda arterial gipertenziyada qanday tekshirishlar o‘tkaziladi? Bunda buyrakning yashirin patologiyasini, xirurgik korreksiyaga olib keluvchi buzilishlarni aniklash uchun tekshiruv olib boriladi. Agar oilaviy anamnezida essensial gipertenziya bo‘lsa tekshiruvlar

natijasiz xisoblanadi.

Tekshiruv: siydik taxlili, kreatin, mochevinani aniqlash, buyraklar KZIsi, agar bolada diastolik bosim 120 mm.sim ust bo‘lgan gipertenziya bo‘lsa— angiografiya o‘tkaziladi.

5. Diuretiklar

Nefrotik xarakterdagi shishlarda gipotenziv moddalar, tuzsiz diyeta, yotoq rejimi qo‘llaniladi. Nefrotik va aralash genezli shishlarda diuretiklar qo‘llaniladi.Diuretiklar ta’sir mexanizmiga ko‘ra 3 turga bo‘linadi.

1 guruhga saluretik moddalar (dixlotiazid, furosemid, uregit, brinaldeks) kiradi. Dixlotiazid GNda shish bo‘lganda qo‘llaniladi. Furosemid— yaqqol yoki unchalik yaqqol bo‘lmagan nefrosklerotik o‘zgarishlarda qo‘llaniladi. Diuretik effekt 4 soat ichida 1—5 mg/kg bola og’irligi dozasida kuzatiladi. Gipotiaziddan farqli ravishda furosemid kam miqdorda K+uretik ta’sir ko‘rsatdi. Buyraklar funksiyasi birdaniga pasayishi — sklerotik jarayonlarda aloxida transport sistemalar buziladi va diuretik moddalarga nisbatan sezgirlik oshadi. 2 guruhga organizmda K+tutib turuvchi moddalar kiradi (aldakton va veropshiron). 3 guruhga tomirda osmatik bosimni o‘zgartiruvchi moddalar kiradi. Ularga mannit, reopoliglyukin kiradi. Osmotik diuretiklarga yana albumin, tuzsiz protein kiradi. Ular tomirga ko‘p miqdorda yuboriladi.

Tiazid guruhi diuretiklari furosemiddan nimasi bilan farq qiladi?

Dixlotiazid distal kanallarda va Genli qovuzlog’iga nisbatan ko‘p xolda Na, CI reabsorbsiyasini ingibitrlaydi. Ta’sir yuborilgandan so‘ng 1 — 2 soat ichida yuzaga siqib eng yuqori ta’siri 4 — 6 soat ichida yuzaga keladi. Ta’siri furosemidga nisbatan uzoqroq davom etadi. Tiazidlar shishlarda kamrok, lekin gipertenziyada effektivroq, giperkalsiuriyada proksimal buyrak kanalchalariga bog’liq atsidoz korreksiyada yaxshi naf beradi. Gipovolemiya va gipokaliyemiyani chaqiradi.

Furosemidning diuretik ta’siri nimaga asoslangan? Furosemid Genli kovo‘zlogining ko‘tariluvchi oyoqchasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu bilan Na, K, C1 ni bloklaydi. Bu bilan Sa va Mp resorbsiyasini susaytiradi. V/i yuborilganda 5 min dan so‘ng va eng yuqori ta’siri 2 soatdan so‘ng boshlanadi.

6. Patogenetik terapiya.

Asosiy rolni immunomodulin o‘ynaydi. Bunda ortiqcha antitelo hosil bo‘lishi 1 lamchi gipoimmun xolat fonida paydo bo‘ladi. Bu bilan birga yallig’lanish mediatori tormozlanishi, komplement, qonda proteazlar faolligi, trombotsitlar, kinin, limfokin, gistbmin, prostoglandinlar tormozlanishi ham bo‘ladi.

6.1 glyukokortikoidlar — mezenximial xujayralarga katabolik ta’siri tufayli GN ni davolashga keng qo‘llaniladi. Bu proliferativ —

sklerotik jarayonlar tormozlanishiga olib keladi. Bu asosan prednizolonni antikougulyantlar va antiagregantlar bilan birga qo‘llanganda ko‘prok namoyon bo‘ladi.

6.2 ta’sir mexanizmiga ko‘ra immunodepressiv moddalar bir necha guruhga bo‘linadi.

1 — guruh antimitotik moddalar (siklofosfan, xlorbutil)

2 — guruh antimetobolitlar (b — merkaptopurin, azatioprin)

3 —guruh fermentlar (asparaginaza).

4 —guruh alkaloidlar (vinblastin, vinkristin, kolxitsin).

5 —guruh antibiotiklar (xloramfenikol (levomitsetin), mitotsin aktinomitsin S va D).

Nefritlarni davolashda patogenetik zamonaviy mollalar ichida Antiagregant — dipiridamol (kurantil) ro’li katta. Bu modda trombotsitlar agregatsiyasini tormozlaydi, mikrosirkulyatsiyani yaxshilaydi, mayda tomirlar tarangligini, spazmini kamaytiradi. Prednizolonni xlorbutil va geparin bilan qushib qo’llash GNda tez diuretik ta’sir kerak bo‘lganda va buyrak to‘qimasini fibroblastik o‘zgarishlari bo‘lganda yaxshi yordam beradi. Shu maqsadda terapevtik moddalar kompleksiga 4 koomponentlar — kurantil ham qo’shiladi. Bu 4 komponentli terapiya ko‘p tarqalgan membranoproliferativ GN ni davolashda yaxshi naf beradi. Sitostatik o‘rinda bu hollarda ko‘pincha xlorbutin o‘rniga azatioprin 2 — 3 mgkg 1 sutkada dozasi qo‘llaniladi. Geparin 150 — 200 yedkg sut parenteral, kurantil 3 — 5mg/kg sut dozada qo‘llaniladi. Prednizolon dozasi 1ml/kg sutdan oshmaydi.

Terapiya davomiyligi

Glyukokortikosteroidlar GN da qarshi ko‘rsatma hisoblanadi. Bundan tashqari buyrak displaziyasini. GNning sklerotik variantlarida, gormonorezistentligi paydo bo‘lganda, gormonal terapiya asoratlarida (qaltirash, katarakta, steroid diabet, osteoparoz, OIS yara kasalligida, arterial, miya ichi gipertenziyalarida] infeksiyalarda qo‘llanilmaydi. GN ni davolashda indometatsin ham ishlatiladi. Bu preparat GN ning faolligi oshganda, buyrak dizembriogenez belgilari yo‘qolganda alohida yoki boshqa preparatlar bilan birga qo‘llaniladi.

11. Asorati.

Azotemiya — asosiy asoratlaridan biri. Bu buyrak yetishmovchiligi tufayli kelib chiqqan qonda azot va mochevina miqdori oshishi bilan xarakterlanadi. Mochevina ajratish tezligi istemol qilingan oqsil miqdoriga bog‘lik. Buyrak patologiyasida mochevina eskretsiyasi buzilib reobsorbsiyasi kuchayadi. Bu o‘z navbatida qonda mochevina ko‘payishiga olib keladi. Lekin boshqa patologik hollarda ham mochevina miqdori oshishi mumkin. Shuning uchun buyrakka

bog‘liq azotemiya ekanligini aniqlash uchun buyrakda kreatinin balansini aniqlash lozim. Kreatinin mushaklarda arginin va metionindan hosil bo‘ladi. Kreatin ma’lum miqdorda kreatininga aylanadi va mushakdan siydikka o‘tadi qonda kislota — ishqor muvozanati o‘zgaradi. Elektrolit balans buziladi. Anemiya yuzaga keladi. Bu sindrom bo‘lgan bola fizik rivojlanishdan orqada qoladi. Shish va gipertenziv sindrom kuchayadi.

12. Nechiporenko usulida peshob yig‘ish.

1 ml siydikda shaklli elementlar (eritrotsitlar, leykotsit, silindr) miqdorini aniqlash. Aniqlash yo‘li: tekshirish uchun ertalabki peshobni o‘rta porsiyasi olinadi, rN aniqlanadi, undan 10 ml olinib 3500 ob/min.da 3 minut davomida tsentrofuga apparatiga qo‘yiladi va hosil bo‘lgan cho‘kmadan 1 ml olinib, xisoblash kamerasiga qo‘yiladi, undagi shaklli elementalr xisoblanadi. Normada 1ml siydikda:

- leykotsitlar soni 2000-4000dan

-eritrotsitlar soni 1 mingdan

-silindrlar Goryayev kamerasida yo‘q yoki 1-4 dan oshishi kerak emas. Addisa-Kakovskiy usulida peshob yig‘ish. Sutkalik yig‘ilgan siydikda elementlar miqdorini aniqlash uchun foydalaniladi. Bemor, ertalab siydik pufagini bo‘shatadi, so‘ng 24 soat mobaynida peshobni bitta idishga yig‘adi. Idishda shaklli elementlarning buzilishini oldini olish uchun 5 tomchi formalin va 2-3 tomchi timol kristalli qo‘shiladi. Siydikni xolodilnikda saqlash maqsadga muvofiq. Siydik yig‘iladigan kun bemorga go‘shtli mahsulot va suyuqlik qabul qilishni chegaralash buyuriladi, shaklli elementlarni xisoblash uchun rNi va zichligini ushlash muxim, ishqoriy muxitda shaklli elementlar tez buziladi. Analiz uchun 10 ml olinib tsentrofuga apparatiga qo‘yiladi va hosil bo‘lgan cho‘kmadan 1 ml olinib, xisoblash kamerasiga solinadi, 12(1/5soat) minutda quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Q- 12 minutda ajratilgan siydik hajmi.

V- tekshirish vaqtida yig‘ilgan siydik hajmi (ml)

t-siydik yig‘ish vaqti

5-1/5 soatda qayta sanalagn koyefitsiyentyu undagi leykotsit, eritrotsit miqdori hisoblanadi. Normada siydik bilan shaklli elementlar sutkalik ekskretsiyasi:

- eritrotsitlar soni 1 milliongacha,

- leykotsitlar soni 2 milliongacha

-silindrlar 20000 gacha

Umumiy peshob tahlili:

Peshobni bakteriyauriyaga tekshirish uchun yig‘ish. Peshobni steril og‘zi qattiq qopqoq bilan yopiladigan bankaga ertalabki peshobni o‘rta yoki oxirgi

porsiyasi yig‘iladi. Laboratoriyaga 2 soat mobaynida olib borilishi kerak. Termostatga qo‘yiladi. Javoblar 3-7 kunda keladi. Olingan natijalarda bakteriyalar bor yoki yo‘qligi va ularni antibiotikka sezgirligi aniqlanadi.

13. Shakllangan bilim va ko‘nikmalar.

Ushbu mavzu o‘rganilib, talaba quyidagilarni bilishi kerak.

1. GN etiologiyasi xaqida tushuncha.
2. GN patogenezi asosiy teoriyalari.
3. GN klinik kechishi va formalari.
4. Nefrotik sindrom paydo bo‘lish mexanizmi.
5. GN surunkali va o‘tkir turlarini etiotrop va patogenetik davolash usullari xaqida tushunchaga ega bo‘lishi kerak.

Nazorat savollari.

1.Glomerulonefrit (GN) — bu infeksion allergiya haqida to’liq tavsif berib izohlang.

2.Terminologiya haqida ma’lumot bering.

3.Glomerulonefrit, yoki immun glomerulopatiyalar, getogen kasalliklar guruhini izohlab bering.

4.Nefrit haqida ma’lumot bering.

5.Diffuz Glomerulonefrit bu klinik terminni izohlang.

6.«Tez rivojlanuvchi» GN — kasallikning salbiy kechuvchi shaklini izohlang.

7.«Surunkali GN yoki alohida siydik sindromi bilan» tashxisda biopsiya natijalarini izohlab bering.

8.Z. Epidemiologiyasi. «O‘tkir GN» ning ba’zi simtomlarini taxlil qilgan Genatyuk (1980) ning nazariy g’oyalarini tavsiflang.

9. Etiologiya. O‘tkir glomerulonefrit (O‘GN) etiologiyasida qanday farqlanadi.

7-Mavzu: Dizmetabolik nefropatiyalar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Buyraklarning asosiy ishchi tizimi – nefronlardir. Nefronlar orqali qon o‘tadi va undan so‘ng qonga o‘xshash suyuqlik kanalchalarga o‘tkaziladi. Har bir buyrakda 1,5 2 millionta nefron mavjud bo‘lib, sog‘lom odamda ular muntazam ishlab turadi. Hatto, zahirada ham bir necha million nefron mavjud. Nefronlar bir kecha-kundo’z da katta insonlarda 2- 2,5 litr suyuqlikni o‘zidan kanalchalar sari

chiqarib yuboradi. Suyuqlik kanalchalarga tushgach, qayta so‘rilish jarayoni kuzatiladi. Ana shu jarayonda kerakli moddalar organizmga so‘rilib, keraksizlari 1,5 2 litr peshob bo‘lib yig‘iladi. Peshob buyrak jomiga yig‘ilib naychalar orqali qovuqqa tushadi. O‘z navbatida esa qovuq peshobni tashqariga chiqarib tashlaydi. Mana shu jarayonda ishtirok etuvchi a’zolar umumiy urologik tizimga kiradi.

– Ma’lumki, bolalarda kasallikning ikki xil turi uchraydi, ya’ni: tug‘ma va orttirilgan kasalliklar. Tug‘ma kasalliklarning ikki foizigina naslga borib taqalishi mumkin. Qolgan qismi orttirilgan kasalliklardir. Tug‘ma urologik kasalliklar asosan onaning homiladorlik davrida paydo bo‘ladi. Homila paydo bo‘lgandan to uch oygacha bo‘lgan davrga nisbatan dastlabki homiladorlik deyilsa, ushbu davrda bo‘lajak onaga katta e’tibor qaratib, uni kuchli parvarishlash talab etiladi. Chunki, turli xil ruhiy zo‘riqish(stress)lar, jismoniy zo‘riqishlar, ma’naviy tazyiqlar avvalambor o‘ta sezgir bo‘lgan homilaga, jumladan, to‘ppa-to‘g‘ri uning buyrak tizimiga ta’sir qiladi. Natijada, buyrak koptokchalari yoki kanalchalarining qisman, butunlay ishlamasligi, bitta buyrakning mutlaqo bo‘lmasligi yoki buyraklarning meyordagidan ko‘proq (3 4 ta bo‘lishi), qovuqning oldingi devori bo‘lmaganligi sababli, oldinga chiqib qolishi kabi noxush holatlar yuzaga keladi. Buning oldini olish uchun homilador onani iloji boricha yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ruhiy va jismoniy zo‘riqishlardan himoya qilish, dastlabki uch oy mobaynida nihoyatda asrash talab etiladi.

Irsiy va tug'ma nefropatiyalar:

1) buyraklar va siydik chiqarish organlari uzilishidagi anatomik anomaliyalar:

a) buyraklarning malformatsiyasi: miqdoriy (ageneziya, aplaziya, yordamchi buyraklar), pozitsion (distopiya, nefroptoz, aylanish), rasmiy (taqa shaklidagi s va l shaklidagi buyraklar);

b) siydik chiqarish kanallarining malformatsiyasi;

v) siydik pufagi va siydik chiqarish kanali tuzilishidagi anomaliyalar;

d) buyrak tomirlari, shu jumladan limfa tizimining tuzilishi va joylashishidagi anomaliyalar;

e) neyrogen siydik pufagi sindromi bilan siydik tizimining innervatsiyasining anomaliyalari;

2) buyraklar tuzilishining buzilishi:

a) kistalar bilan;

b) kistalarsiz;

3) irsiy nefrit (eshitish qobiliyatini yo'qotmasdan, eshitish qobiliyatini yo'qotish bilan);

4) tubopatiyalar;

5) kristalluriya bilan kechadigan dismetabolik nefropatiya (oksalaturiya, uraturiya);

6) xromosoma kasalliklarida nefro- va uropatiya;

7) amiloidoz;

8) embrion o'smalari.

Orttirilgan buyrak kasalliklariga esa buyrak koptokchalarining yallig‘lanishi (glomerulonefrit), buyrak kanalchalarining yallig‘lanishi (piyelonefrit) va qovuqning yallig‘lanishi (sistit), buyrak yoki qovuqda tuz va toshlarning paydo bo‘lishini keltirib o‘tishimiz mumkin. Hozirgi kunda yurtimiz aholisi o‘rtasida glomerulonefrit hamda buyrak-tosh kasalliklari ko‘proq uchramoqda.

– Farzandlarimiz bolaligidan qancha ko‘proq harakatda bo‘lsa, o‘rtoqlari bilan turli harakatli o‘yinlar o‘ynasa, ularda ushbu kasallikning paydo bo‘lish ehtimoli shunchalik kamayadi. Buning sababi bolalar harakatda bo‘lganda, uning tana a’zolari, jumladan, buyraklari ham faol bo‘ladi. Shu harakat natijasida buyrakda endigina paydo bo‘layotgan tuz va toshlar tushib ketadi. Yoki ko‘p harakat qilgani tufayli bola ko‘proq suv ichadi va o‘z-o‘zidan buyraklar tez-tez yuvib turilishi natijasida ularda tosh va tuzlarga o‘rin qolmaydi. Bu jarayonda ovqatlanish meyori hamda sport bilan shug‘ullanish bir maromda olib borilishi quvonarlidir. Sportning naqadar sog‘lom turmush tarziga bevosita aloqadorligini mana shu birgina misol orqali ham bilib olish mumkin.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, qishloqdagi bolalar harakatli o‘yinlarni o‘ynaganliklari, jismoniy mehnat bilan ko‘proq shug‘ullanganliklari bois shaharlik tengdoshlariga qaraganda, ularda buyrak-tosh kasalliklari kamroq uchramoqda.

Bolalarda buyrak va siydik yo'llari kasalliklari - alomatlar va davolash. Bolalarda buyrak kasalligining sabablari: tashxis va davolash

Boladagi buyrak kasalligining asosiy sabablari buyrak kasalligi bilan bog'liq noto'g'ri tashxis qo'yilgan yoki o'z vaqtida aniqlanmagan anomaliyadir.

Bolalardagi buyrak kasalligi ko'pincha aniq belgilar bilan birga kelmaydi, bu esa shifokorga tashrifni kechiktiradi va oxir-oqibat tananing umumiy holatini og'irlashtiradi. Bolalarda buyrak kasalligini faqat kasallik rivojlana boshlaganda va organlarning shikastlanish darajasi keng bo'lganda aniqlash mumkin.

Boladagi buyrak kasalligining asosiy sabablari noto'g'ri tashxis qo'yilgan yoki bu organlarning rivojlanishida o'z vaqtida aniqlanmagan anomaliyalar, yuqumli jarayonlar.

Bunday kasallanishlar buyrak kasalligining surunkali shakli bilan tugaydi. Agar patologiya kech aniqlangan bo'lsa, yo'q edi o'z vaqtida davolash, kasallikning kechishi murakkablashadi, u uzoq davom etadi va og'ir bo'ladi. Buyraklar doimiy ravishda ishlaydigan filtrlar bo'lib, tanani parchalanish mahsulotlaridan tozalaydi va shu bilan birga ba'zi gormonlar ishlab chiqaradi.

Ko'pincha buyraklar bilan bog'liq muammolar homilaning embrion rivojlanishi davrida yoki chaqaloq hayotining birinchi yilida boshlanadi. Agar tana

"pishib" ketsa, ular o'z-o'zidan ketishi mumkin. Bu ko'pincha hayotning birinchi yilida sodir bo'ladi.

Muammoning ildizi bo'lishi mumkin noto'g'ri joylashuv organ yoki g'ayritabiiy shakl, masalan, taqa. Agar kasallik boshlangan bo'lsa, u surunkali bo'lishi mumkin. Bunday kasalliklar tufayli yetti yoshgacha yoki balog'at (o'smirlik) davrida bolalarda aniqlanadi og'ir yuklar, tananing qayta tuzilishi va sekretor funksiyalarning dinamik ishi tufayli organga tushadi.

Bolalarda buyrak kasalligi paydo bo'lganda

Surunkali pielonefrit davolanmagan o'tkir pielonefritning natijasi bo'lishi mumkin, ya'ni kasallikning boshlanishidan boshlab o'tkir hodisalarsiz davom etishi mumkin.

Klinika. Bir tomonlama surunkali pielonefrit ta'sirlangan buyrak tomonida lomber mintaqada zerikarli doimiy og'riqlar bilan namoyon bo'ladi. Ko'pgina bemorlarda dizurik hodisalar yo'q.

Diagnostika anamnez, klinik va laboratoriya ma'lumotlari asosida qo'ying. Qon testida neytrofil leykotsitoz qayd etiladi. Siydik cho'kindisida siydikni tahlil qilishda siydikning boshqa shakllangan elementlariga nisbatan leykotsitlarning ustunligi aniqlanadi. Siydikning nisbiy zichligi normal bo'lib qoladi, kasallikning belgilaridan biri bakteriuriyadir. Agar 1 ml siydikdagi bakteriyalar soni 100 000 dan oshsa, u holda ularning antibiotiklar va kimyoterapiya preparatlariga sezgirligini aniqlash kerak. Arterial gipertenziya surunkali pielonefritning tez-tez namoyon bo'lishi, ayniqsa ikki tomonlama jarayondir. Buyraklarning funktsional holati xromosistoskopiya, ekskretor urografiya va tozalash usullari yordamida tekshiriladi.

Surunkali pielonefritda buyraklarning kontsentratsiya qobiliyati erta buziladi, azotni chiqarish funktsiyasi uzoq yillar davom etadi. Info’z ion urografiya bilan birinchi navbatda buyraklarning kontsentratsiya qobiliyatining pasayishi, radiopak moddaning kechiktirilishi, mahalliy spazmlar va chashka va tos bo'shlig'ining deformatsiyasi aniqlanadi. Keyinchalik spastik faza atoniya bilan almashtiriladi, kosa va tos suyaklari kengayadi.

Differensial diagnostika surunkali glomerulonefrit bilan siydik sindromining tabiati (gematuriyadan leykotsituriyaning ustunligi, faol leykotsitlar mavjudligi, pielonefritda sezilarli bakteriuriya) va ekskretor urografiya ma'lumotlari katta ahamiyatga ega. Nefrotik sindrom glomerulonefrit mavjudligini ko'rsatadi. Arterial gipertenziya bo'lsa, pyelonefrit, gipertenziya va renovaskulyar gipertenziya o'rtasida differentsial diagnostika o'tkaziladi.

Davolash uzoq vaqt davomida amalga oshirilishi kerak. Davolash nitrofuranlar (furadonin, furadantin va boshqalar), 5-NOC, nalidiksik kislota (negram, nevigramon), sulfanilamidlar (urosulfan, atazol va boshqalar), ularni navbatma-navbat tayinlash bilan boshlanishi kerak. Shu bilan birga, kızılcık ekstrakti bilan davolash tavsiya etiladi.

Ushbu dorilarning samarasizligi bilan kasallikning kuchayishi, keng spektrli antibiotiklar qo'llaniladi. Antibiotikni har safar tayinlashdan oldin mikrofloraning unga nisbatan sezgirligini aniqlash kerak.

4. Glomerulonefrit

Glomerulonefrit - glomerulyar tomirlarning asosiy zararlanishi bilan kechadigan immunoallergik kasallik - takroriy kuchayishi va remissiyasi bilan o'tkir yoki surunkali jarayon sifatida davom etadi. Glomerulonefritning turlari:

1) nefritik - gematuriya, proteinuriya, gipertenziya, oliguriya, silindruriya, leykotsituriya, gipovolemiya, gipokomplementemiya, ensefalopatiya bilan namoyon bo'ladi;

2) nefrotik - yuqori proteinuriya, shish, gipoproteinemiya, ehtimol arterial gipertenziya, eritrotsituriya, azotemiya;

3) aralash - aniq nefrotik sindrom, sezilarli gematuriya, gipertenziya;

4) gematurik - siydik sindromida gematuriya ustunlik qiladi;

5) bir oz ifodalangan ekstrarenal simptomlar bilan namoyon bo'lgan izolyatsiya qilingan siydik sindromi.

5. O'tkir glomerulonefrit

O'tkir glomerulonefrit buyrakning kasallik yuqumli-allergik kasalligi bo'lib, u yuqumli kasallikdan (odatda streptokokk etiologiyasi) 1-3 hafta o'tgach rivojlanadi. O'tkir glomerulonefrit har qanday yoshda rivojlanishi mumkin, ammo bemorlarning ko'pchiligi 40 yoshgacha.

Komplement bilan o'zaro ta'sir qiluvchi antigen-antikor komplekslari kapillyarlarning bazal membranasi yuzasida, asosan, glomerullarda to'planadi.

Klinika. Bolalarda glomerulonefritning klinik ko'rinishlari:

1) buyrakdan tashqari:

a) neyrovegetativ sindrom (darmonsizlik, anoreksiya, letargiya, ko'ngil aynishi, qusish, ishtahaning yomonlashishi, bosh og'rig'i);

b) yurak-qon tomir sindromi (gipertenziya, yurak tovushlarining bo'g'ilishi, yurak tovushlarining shovqinlari va aksentlari, jigarning kattalashishi);

v) pastozlik, cheklangan yoki umumiy shish bilan namoyon bo'ladigan shish sindromi;

2) buyrak belgilari:

a) siydik sindromi (oliguriya, proteinuriya, gematuriya, silindruriya, vaqtinchalik limfotsitar-mononukulyar leykotsituriya);

b) og'riq sindromi. Lomber mintaqadagi og'riqlar yoki ajratilmagan qorin og'rig'i bilan namoyon bo'ladi;

v) buyrak yetishmovchiligi sindromi (azotemiya uchta asosiy simptom bilan namoyon bo'ladi - shish, gipertonik va siydik).

Diagnostika. Siydikda oqsil va eritrotsitlar topiladi. Siydikdagi protein miqdori odatda 1 dan 10 g / l gacha, lekin ko'pincha 20 g / l yoki undan ko'pga etadi. Yengil proteinuriya kasallikning boshidanoq bo'lishi mumkin va ba'zi davrlarda u yo'q bo'lishi mumkin. O'tkir nefrit bilan og'rigan bemorlarning siydigida oz

miqdordagi protein uzoq vaqt davomida kuzatiladi va kasallik boshlanganidan 3-6, ba'zi hollarda hatto 9-12 oydan keyin yo'qoladi. Gematuriya o'tkir gpomerulonefritning majburiy belgisidir. Makrogematuriya va mikrogematuriya mavjud, ba'zida qizil qon hujayralari soni ko'rish sohasida 10-15 dan oshmasligi mumkin. Silindruriya gpomerulonefritning majburiy belgisi emas. Leykotsituriya ahamiyatsiz, lekin ba'zida ko'rish sohasida 20-30 va undan ko'p leykotsitlar topiladi. Shu bilan birga, eritrotsitlarning leykotsitlarga nisbatan miqdoriy ustunligi doimo qayd etiladi, bu Addis-Kakovskiy va Nechiporenko usullari yordamida siydik cho'kmasining hosil bo'lgan elementlarini hisoblashda yaxshiroq aniqlanadi. Oliguriya (kuniga 400 - 700 ml siydik) o'tkir nefritning birinchi belgisidir. Qon testida gemoglobin miqdori va eritrotsitlar soni kamayadi, ESR ning oshishi aniqlanadi va yengil leykotsitoz mavjud. Reberg, McClure - Aldrich testini o'tkazing. Proksimal konvolyutsiyali tubulalarning funktsiyasini tekshiring, buyuring ekskretor urografiya, buyraklarning ultratovush tekshiruvi, radioizotop renografiyasi.

O'tkir glomerulonefritning ikki shakli mavjud. **Siklik shakl** shiddat bilan boshlanadi. Shish, nafas qisilishi, bosh og'rig'i, lomber mintaqada og'riq paydo bo'ladi, siydik miqdori kamayadi. Siydik tahlili ko'p miqdorda proteinuriya va gematuriyani ko'rsatadi. BP ko'tariladi. Shish 2-3 hafta davom etadi, kasallik davrida sinish paydo bo'ladi: poliuriya rivojlanadi va qon bosimi pasayadi. Tiklanish davri gipostenuriya bilan kechishi mumkin. Biroq, ko'pincha bemorlarning sog'lig'i yaxshi bo'lsa va mehnat qobiliyati deyarli to'liq tiklanganda, uzoq vaqt, oylar davomida yengil proteinuriya (0,03 - 0,1 g / l) va qoldiq gematuriya kuzatilishi mumkin. **yashirin shakl** kamdan-kam uchraydi va uning tashxisi katta ahamiyatga ega, chunki ko'pincha bu shakl bilan kasallik surunkali holga keladi. Glomerulonefritning bu shakli hech qanday aniq sub'ektiv alomatlarsiz asta-sekin boshlanishi bilan tavsiflanadi va faqat yengil nafas qisilishi yoki oyoqlarda shishish bilan namoyon bo'ladi. Bunday hollarda glomerulonefritni faqat siydikni tizimli o'rganish bilan aniqlash mumkin. Kasallikning yashirin shaklidagi nisbatan faol davrning davomiyligi sezilarli bo'lishi mumkin (2-6 oy yoki undan ko'p).

Differensial diagnostika. O'tkir glomerulonefrit va surunkali glomerulonefritning kuchayishi o'rtasida o'tkaziladi. Bu erda yuqumli kasallikning boshlanishidan boshlab davrga aniqlik kiritish muhimdir o'tkir namoyon bo'lishi nefrit. O'tkir holatlarda bu muddat 1-3 hafta, surunkali jarayonning kuchayishi bilan bir necha kun (1-2 kun) bo'ladi. Siydik sindromi zo'ravonlik darajasida bir xil bo'lishi mumkin, ammo siydikning nisbiy zichligining doimiy pasayishi (1,015 dan past) va buyraklarning filtrlash funksiyasining pasayishi surunkali jarayonning kuchayishi uchun ko'proq xarakterlidir.

Davolash. Kasalxonada kasalxonaga yotqizish, yotoqda dam olish va parhez

belgilanadi. Oziq-ovqat tarkibidagi tuzni keskin cheklash (kuniga 1,5-2 g dan ko'p bo'lmagan) o'z-o'zidan suvning ko'payishiga va shish va gipertenziv sindromlarning yo'q qilinishiga olib kelishi mumkin. Kelajakda ular tarvuz, qovoq, apelsin, kartoshka beradi, ular deyarli butunlay natriysiz dietani ta'minlaydi. Suyuqliklarni kuniga 600 - 1000 ml gacha iste'mol qilish mumkin. Proteinni iste'mol qilishni uzoq muddatli cheklash yetarli darajada asoslanmagan, chunki azotli chiqindilarning saqlanishi, qoida tariqasida, kuzatilmaydi va ba'zida proteinli oziqlanish ta'sirida qon bosimining taxminiy oshishi isbotlanmagan. Proteinli mahsulotlardan, shuningdek, tvorogni ishlatish yaxshiroqdir tuxum oq. Yog'lar kuniga 50 - 80 g miqdorida ruxsat etiladi. Kundalik kaloriyalarni ta'minlash uchun uglevodlar qo'shiladi. Glomerunit va mavjud infeksiya o'rtasida aniq bog'liqlik mavjud bo'lganda, masalan, antibakterial terapiya ko'rsatiladi. surunkali tonzillit. Surunkali tonzillitda tonzillektomiya kasallikning o'tkir belgilari yo'qolganidan keyin 2-3 oy o'tgach ko'rsatiladi. Ukol gormonlar - prednizon, deksametazondan foydalanish kasallikning boshlanishidan 3-4 hafta oldin, umumiy simptomlar (xususan, arterial gipertenziya) kamroq aniqlanganda mumkin. Kortikosteroid gormonlar, shuningdek, o'tkir glomerulonefritning nefrotik shakli yoki uzoq muddatli kursi uchun ham ko'rsatiladi. Kortikosteroid terapiyasi ham shish, ham siydik sindromiga ta'sir qiladi. O'rtacha arterial gipertenziya kortikosteroidlarni qo'llashga qarshi ko'rsatma emas. Vitamin terapiyasi.

Prognoz. To'liq tiklanish.

Oldini olish. Bu o'tkir yuqumli kasalliklarning oldini olish va erta intensiv davolash, o'choqli infeksiyani, ayniqsa bodomsimon bezlarda yo'q qilish bilan bog'liq. Profilaktik qiymat Bundan tashqari, tananing o'tkir hipotermiyasi haqida ogohlantirish mavjud.

6. Subakut diffuz glomerulonefrit

Subakut diffuz glomerulonefrit malign kursga ega.

Klinika. Kasallikning tez boshlanishi shish, kuchli albuminuriya (10-30 g/l gacha), shuningdek, aniq gipoproteinemiya (45-35 g/l) va giperkolesterolemiya (6-10 g/l gacha), ya'ni lipoid-nefrotik sindromning belgilari. Oliguriya bilan bir vaqtda gematuriya kuzatiladi. Siydikni tahlil qilishda nisbiy zichlik faqat boshida yuqori, keyin esa past bo'ladi. Buyraklarning filtrlash funktsiyasi asta-sekin pasayadi. Kasallikning birinchi haftalaridan boshlab azotemiya kuchayishi mumkin, bu esa uremiya rivojlanishiga olib keladi. Nefritning bu shaklidagi arterial gipertenziya juda yuqori bo'lib, fundusdagi jiddiy o'zgarishlar (to'r pardaga qon ketishlar, disk shishi) bilan birga keladi. optik nervlar, ekssudativ oq retinal dog'lar shakllanishi).

Tashxis. Buyrak yetishmovchiligi, og'ir arterial gipertenziya, ko'pincha malign turdagi tez rivojlanishi hisobga olingan holda belgilanadi. Subakut glomerulonefrit shish-yallig'lanish va lipoid-nefrotik sindromlarning yuqori

zo'ravonligidan dalolat beradi.

Davolash. Glomerulonefritning ushbu shakli uchun steroid gormonlar bilan davolash unchalik samarali emas va ba'zi hollarda yuqori va progressiv arterial gipertenziya (BP 200/140 mm Hg dan yuqori) tufayli ko'rsatilmaydi. So'nggi paytlarda qonning morfologik tarkibini diqqat bilan kuzatib borish bilan immunosupressantlardan foydalanish tavsiya etiladi. Immunosupressantlar bilan davolash pastroq dozalarda (kuniga 25-30 mg) buyuriladigan kortikosteroid gormonlar bilan birgalikda samaraliroq bo'ladi. Bu kombinatsiya nafaqat davolash samaradorligiga hissa qo'shadi, balki kortikosteroidlar va immunosupressantlar (xususan, og'ir leykopeniya) asoratlari xavfini kamaytiradi.

Shish va arterial gipertenziya bilan kurashish uchun antigipertenziv dorilar, gipotiazid (50-100 mg / kun) va boshqalar qo'llaniladi.Yurak yetishmovchiligi belgilari bo'lsa, diuretiklar va digitalis preparatlari buyuriladi.

7. Surunkali diffuz glomerulonefrit

Surunkali diffuz glomerulonefrit uzoq muddatli (kamida bir yil) immunologik ikki tomonlama buyrak kasalligi bo'lib, unda siydikdagi o'zgarishlar sezilarli dinamikasiz bir yildan ortiq davom etadi yoki shish va gipertenziya 3-5 oydan ko'proq vaqt davomida kuzatiladi. Bu kasallik (ba'zan ko'p yillar o'tgach) buyraklarning qisqarishi va surunkali buyrak yetishmovchiligidan bemorlarning o'limi bilan tugaydi. Surunkali glomerulonefrit oldingi o'tkir xurujlarsiz ham o'tkir glomerulonefritning natijasi, ham birlamchi surunkali bo'lishi mumkin.

Etiologiyasi, patogenezi. O'tkir glomerulonefritga qarang.

Klinika. O'tkir glomerulonefritda bo'lgani kabi: shish, arterial gipertenziya, siydik sindromi va buyrak funktsiyasining buzilishi. Surunkali glomerulonefritda ikki bosqich ajratiladi:

1) buyrak kompensatsiyasi, ya'ni buyraklarning azotni yetarli darajada chiqarib yuborish funktsiyasi (bu bosqich aniq siydik sindromi bilan kechishi mumkin, lekin ba'zida u uzoq vaqt yashirin bo'lib, faqat yengil albuminuriya yoki gematuriya bilan namoyon bo'ladi);

2) buyraklarning azot chiqarish funktsiyasining yetishmovchiligi bilan tavsiflangan buyrak dekompensatsiyasi (siydik chiqarish belgilari kamroq ahamiyatli bo'lishi mumkin; yuqori arterial gipertenziya mavjud, shish ko'pincha o'rtacha darajada; bu bosqichda gipoizostenuriya va poliuriya ifodalanadi, bu esa azotemicheskiy uremiya rivojlanishi bilan yakunlanadi).

Surunkali glomerulonefritning quyidagi klinik shakllari ajratiladi.

1. **Nefrotik shakl** birlamchi nefrotik sindromning eng keng tarqalgan shaklidir. Bu shakl, sof lipoid nefrozdan farqli o'laroq, nefrotik sindromning yallig'lanishli buyrak shikastlanishi belgilari bilan kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Kasallikning klinik ko'rinishi uzoq vaqt davomida nefrotik sindrom

bilan aniqlanishi mumkin va faqat keyinchalik glomerulonefritning rivojlanishi buyraklar va arterial gipertenziyaning azot chiqarish funktsiyasining buzilishi bilan sodir bo'ladi.

2. **gipertonik shakl.** Alomatlar orasida arterial gipertenziya ustunlik qiladi, siydik sindromi esa juda aniq emas. Ba'zida surunkali glomerulonefrit glomerulonefritning birinchi zo'ravon xurujidan keyin gipertonik turga ko'ra rivojlanadi, lekin ko'pincha o'tkir glomerulonefritning yashirin shakli natijasidir. BP 180/100 - 200/120 mm Hg ga etadi. Art. va turli omillar ta'sirida kun davomida katta tebranishlarga duch kelishi mumkin. Yurak chap qorinchasi gipertrofiyasi buzilgan, aorta ustidagi II ton aksenti eshitiladi. Gipertenziya malign bo'lib qolmaydi, qon bosimi, ayniqsa diastolik, etib bormaydi yuqori darajalar. Neyroretinit shaklida fundusda o'zgarishlar mavjud.

3. **aralash shakl.** Ushbu shakl bilan bir vaqtning o'zida nefrotik va gipertonik sindromlar mavjud.

4. **yashirin shakl.** Bu juda keng tarqalgan shakl; odatda faqat yengil siydik sindromi namoyon bo'ladi, arterial gipertenziya va shishlarsiz. U juda uzoq davom etishi mumkin (10-20 yil va undan ko'p), keyinchalik uremiya rivojlanishiga olib keladi. Gematurik shaklni ham ajratib ko'rsatish kerak, chunki ba'zi hollarda surunkali glomerulonefrit sezilarli proteinuriya va umumiy simptomlarsiz (gipertoniya, shish) gematuriya bilan namoyon bo'lishi mumkin. Surunkali glomerulonefritning barcha shakllari vaqti-vaqti bilan diffuz glomerulonefritning birinchi o'tkir xuruji rasmiga o'xshash yoki butunlay takrorlanishi mumkin. Ko'pincha, alevlenme ko’z va bahorda kuzatiladi va tirnash xususiyati beruvchi, ko'pincha streptokokk infeksiyasi ta'siridan 1-2 kun o'tgach sodir bo'ladi. Har qanday kursda surunkali diffuz glomerulonefrit oxirgi bosqichga o'tadi - ikkilamchi ajinli buyrak.

Tashxis. O'tkir glomerulonefrit tarixi asosida tashkil etilgan va klinik rasm. Biroq, yashirin shaklda, shuningdek, kasallikning gipertonik va gematurik shakllari bilan uni tanib olish qiyin bo'lishi mumkin. Agar anamnezda o'tkir glomerulonefritning o'ziga xos belgilari bo'lmasa, o'rtacha og'ir siydik sindromi bilan ko'plab bir tomonlama yoki ikki tomonlama buyrak kasalliklaridan biri bilan differentsial tashxis qo'yiladi.

Differensial diagnostika. Surunkali glomerulonefritning gipertenziv va aralash shakllarini gipertenziya bilan farqlashda arterial gipertenziya paydo bo'lishi bilan bog'liq holda siydik sindromining paydo bo'lish vaqtini aniqlash muhimdir. Surunkali glomerulonefritda siydik sindromi arterial gipertenziyadan ancha oldin bo'ladi yoki u bilan bir vaqtda paydo bo'ladi. Surunkali glomerulonefrit yurak gipertrofiyasining kamroq zo'ravonligi, past moyilligi bilan tavsiflanadi. gipertenziv inqirozlar (eklampsi bilan yuzaga keladigan kuchayishlar

bundan mustasno) va aterosklerozning, shu jumladan koronar arteriyalarning kamdan-kam yoki kamroq intensiv rivojlanishi.

Surunkali pielonefrit bilan differentsial tashxis qo'yishda surunkali glomerulonefritning mavjudligi foydasiga siydik cho'kindisida eritrotsitlarning leykotsitlardan ustunligi, Sternheimer - Mapbin bo'yicha bo'yalganida faol va rangpar leykotsitlarning yo'qligi, bir xil o'lcham va shaklda namoyon bo'ladi. ikkita buyrak va rentgen tekshiruvi bilan aniqlanadigan tos suyagi va kalikslarning normal tuzilishi. Surunkali glomerulonefritning nefrotik shaklini farqlash kerak lipoid nefroz, amiloidoz va diabetik glomeruloskleroz. Buyraklar amiloidozining differentsial diagnostikasida organizmda o'choqlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega surunkali infeksiya va boshqa lokalizatsiyaning amiloid degeneratsiyasi.

Davolash. Infeksion o'choqlarini yo'q qilish kerak (bodomsimon bezlarni olib tashlash, og'iz bo'shlig'ini sanitariya qilish va boshqalar). Uzoq muddatli ovqatlanish cheklovlari (tuz va oqsil). Kasal surunkali nefrit sovutishdan qochish kerak, ayniqsa nam sovuq, quruq va issiq iqlimga ta'sir qilish tavsiya etiladi. Qoniqarli umumiy holatda va asoratlar bo'lmasa, u ko'rsatiladi Spa davolash. To'shakda dam olish faqat sezilarli shish yoki yurak yetishmovchiligi, uremiya bilan rivojlanishi davrida kerak. Surunkali glomerulonefrit bilan og'rigan bemorlarni davolash uchun kasallikning shakllari va bosqichiga qarab belgilanadigan parhez katta ahamiyatga ega. Nefrotik va aralash shakllarda (shishlar mavjud), natriy xloridni oziq-ovqat bilan birga qabul qilish kuniga 1,5 - 2,5 g dan oshmasligi kerak va ovqatni tuzlashni to'xtatish kerak. Buyraklarning yetarli darajada ekskretor funksiyasi (shishi yo'q) bilan oziq-ovqat tarkibida azot balansini normallashtiradigan va oqsil yo'qotilishini qoplaydigan to'liq fosfor o'z ichiga olgan aminokislotalarga boy bo'lgan yetarli miqdorda hayvon oqsili bo'lishi kerak. Gipertenziv shaklda, dietada oqsillar va uglevodlarning normal miqdori bilan kuniga 3-4 g natriy xloridni iste'mol qilishni o'rtacha darajada cheklash tavsiya etiladi. Kasallikning yashirin shakli bemorlarning ratsionida katta cheklovlarni talab qilmaydi, u to'liq, xilma-xil va vitaminlarga boy bo'lishi kerak. Surunkali glomerulonefritning boshqa shakllari uchun ratsionga vitaminlar (C, kompleks B, A) kiritilishi kerak. Ushbu kasallikdagi patogenetik terapiyaning asosi kortikosteroid preparatlarini tayinlashdir. Davolash kursi uchun 1500 - 2000 mg prednizon ishlatiladi, keyin dozasi asta-sekin kamayadi. Kasallikning kuchayishi yoki qo'llab-quvvatlovchi kichik kurslar uchun takroriy davolash kurslarini o'tkazish tavsiya etiladi. Kortikosteroid gormonlarini qabul qilish fonida yashirin infeksiya o'choqlarining kuchayishi mumkin, shuning uchun antibiotiklar bir vaqtning o'zida yoki infeksiya o'choqlari olib tashlanganidan keyin (masalan, tonzillektomiya) buyuriladi. Surunkali glomerulonefritda kortikosteroidlarni

tayinlashga qarshi ko'rsatma progressiv azotemiya hisoblanadi.

O'rtacha arterial gipertenziya (BP 180/110 mm Hg) bilan davolashga antigipertenziv dorilar qo'shiladi. Yuqori arterial gipertenziya bilan qon bosimining dastlabki pasayishi talab qilinadi. Kortikosteroid terapiyasiga qarshi ko'rsatmalar mavjud bo'lsa yoki u samarasiz bo'lsa, gormonal bo'lmagan immunosupressantlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bular 4-aminokinolin seriyasining dorilari - chingamin (delagil, rezokin, xlorokin), gidroksiklorokin (plaquenil). Surunkali glomerulonefritning aralash shakli (shish va og'ir gipertenziv sindromlar) bilan natriuretiklarni qo'llash ko'rsatiladi, chunki ular diuretik va gipotenziv ta'sirga ega. Gipotiazid 50-100 mg dan kuniga 2 marta, lasix kuniga 40-120 mg, etakrin kislotasi (uregit) kuniga 150-200 mg buyuriladi. Saluretiklar eng yaxshi aldosteron antagonisti aldakton (veroshpiron) bilan birlashtiriladi - kuniga 4 marta 50 mg, bu natriyning chiqarilishini oshiradi va kaliyning chiqarilishini kamaytiradi. Diuretik ta'sir siydikda kaliyning chiqarilishi bilan birga keladi, bu esa rivojlanishi bilan gipokalemiyaga olib keladi. umumiy zaiflik, yurakning zaifligi va kontraktiliyasining buzilishi. Shuning uchun, bir vaqtning o'zida kaliy xlorid eritmasini tayinlang.

Surunkali glomerulonefritning gipertenziv shaklini davolashda antigipertenziv dorilar qo'llaniladi. gipertoniya(rezerpin, adelfan). Shu bilan birga, qon bosimining keskin o'zgarishi va uning ortostatik pasayishiga yo'l qo'ymaslik kerak, bu esa buyrak qon oqimini va buyraklarning filtrlash funksiyasini yomonlashtirishi mumkin.

Nazorat savollari.

1.Buyrak yetishmovchiligini tavsiflang.

2.Agar bola buyrak yetishmovchiligidan aziyat cheksa, uning buyraklari kasallikning og'irligiga qarab, …….izohlang.

3.Nefroptoz nima izohlab bering.

4.Siydikdagi tuz miqdorining oshishi nimaga bog’liq izohlab bering.

5.Metabolik kasalliklarga qo'shimcha ravishda, qo'zg'atuvchi omil tarkibi ortdi siydikdagi tuzlar, bolaning ovqatlanishi to'g'ri muvozanatli bo'lmasligi mumkin, bunda nima qilish kerak.Izohlab bering.

6.Bolalarda buyrak va siydik yo'llari kasalliklarining belgilarini tavsiflab bering.

7.Bolada buyrak kasalligini qanday payqash mumkin. Izohlab bering.

8.Buyrak kasalliklari yashirin shaklni izohlab bering, qanday ro’y beradi.

8-Mavzu: Perinatal va neonatal davr muammolari. Ko‘krak suti bilan oziqlantirish (JSST dasturi). Chaqaloqlarda uchraydigan kasalliklarni diagnostikasi, dispanserizatsiya va profilaktikasi

Chaqaloqlik davrining xususiyatlari, chegaradosh holatlar. Effektiv perinatal parvarishlash. (EPU). Tirik tug'ilganlik ko`rsatkichlari. Neonatal ulimning oldini olish.

Chaqaloqlik davri bola kindigini kesgandan keyin boshlanib tug‘ilganidan to 28 kunligigacha davom etadi. Vaqtida tug‘ilgan chaqaloqlar tana massasi o‘rtacha 2700 dan 4000 gr gacha, bo‘yi 45 sm gacha bo‘ladi. Sog‘lom chaqaloqlarda simmetrik yo'z tuzilishi va taktil qitiqlashlarga yuz ifodasini o‘zgarishi bilan belgilanadi. Bola fleksor holatda bo‘lib bukuvchi mushaklarning fiziologik tonusi yuqori bo‘ladi. Nisbiy boshning kattaligi (kalla qutisi yuz dan katta) normal tug‘ilgan chaqaloqning boshining aylanasi 34-36 sm, ko‘krak aylanasi 1sm kichik bo‘ladi. Katta liqildoq 3x3 sm. Sog‘lom chaqaloqning terisi yumshoq, elastik, toza bo‘ladi. Tug‘ilganda teri tvarogsimon massa bilan qoplangan (vernix caseosa). Yelka va bel terisida yumshoq soch lanugo bilan qoplangan. Ko‘krak qafasi bochkasimon simmetrik, pastga qarab kengayib boradi. Yurak cho‘qqisi turtkisi 4-qovurg‘a orasidan 1-2 sm chapda o‘rta o‘mrov chizig‘idan. Yurak tonlari aniq, baland, tiniq eshitiladi. YuUS tinch holatda 110-140 ta min. YuUS 100 ta dan kam bo‘lsak bradikardiya, 160 dan ko‘p bo‘lsa taxikardiya. Chaqaloqning nafasi pueril (kuchaygan vezikulyar nafas fonida davomiy va baland, past.). Nafas soni 1 min. da 40 - 55 ta, 60 dan yukori bulsa taxipnoe 30 dan kam bo‘lsa bradipnoe. Chaqaloqlarping qorni yumshoq, yumaloq, nafas aktida faol harakatlanadi. Jigar qovurg'a yoyi ostidan 2 sm chiqib turadi. Sog'lom tug'ilgan o'g'il bolada tuxum moyakka tushgan, qizlarda katga lablar kichik labini ko'plab yopib turadi. Chanoq — son bo'g'imi gorizontal holatda, oyoqlari to'g'ri bo`ladi. Bola yorug‘ dunyoga kelgach, uning hayot sharoiti butunlay o'zgaradi, ya'ni u shu zaxoti umuman boshqa bo'lgan past harorat (bachadon ichiga nisbatan) ko'ruv, tovush va boshqa qo'zg‘atuvchilar bo'lgan muhitga tushib qoladi. Bola yangi nafas tipiga, oziq moddalarni o'zlashtirish usuliga moslashishi, bu esa organizm boshqa a'zolarida ham o'zgarishlar bilan kuzatiladi.

Tug'ruqqa, ya'ni hayot sharoitiga moslashish jarayonini aks ettiruvchi holatlar, reaksiyalar chaqaloqning to'yish (chegara, tranzitor yoki fiziologik) holati deb nomlanadi. Bu holatning chegaraviy deb atalishi nafaqat ular ikki hayot chegarasi (homila ichi va tashqi) davrida yuzaga kelishi, balki yangi tug'ilgan chaqaloq uchun fiziologik bo‘lgan holat ma'lum bir sharoitda (tug‘ruqdan keyingi tashqi muhitning noxush sharoiti, parvarishdagi yetishmovchiliklar) patologik holatga o'tishi mumkinligidadir.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda chegara holatiga kiradi:

«Xozirgina tug‘ilgan bola» sindromi tug‘ruq jarayonida bola organizmiga ko‘p miqdorda garmonlar ajralishi hamda tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarning ko‘pligi bilan bog'lik. Bola tug‘ilishi bilan chuqur nafas oladi, baland ovozda

yig’laydi va bukilgan holatni egallaydi.Tug‘ruqdan keyingi 5-10 minut davomida u faol bo‘ladi, so‘rg‘ichni qidiradi va ko‘krakka berilsa shiddat bilan emadi. Bir qancha vaqtdan so‘ng bola tinchlanadi va uxlab qoladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning deyarli hammasida hayotining 1-haftasida terisida o‘zgarishlar aniqlanadi:

Oddiy eritema —Terining qizarishi, hayotining 2-kunida yaqqol ifodalanib, 1-haftasini oxirida to‘liq yo’qoladi.

Toksik eritema — markazida sarg‘ish-kulrang zichlashish bilan dog‘simon toshma bo‘lib, oyoq-qo‘l bo‘g‘imlarining yozuvchi yuzalarida va ko‘krakda joylashadi. Shu bilan birga bola o‘zini yaxshi his qiladi, tana harorati me’yoriy. 1–3kun davomida yangi toshmalar paydo bulishi mumkin, 2–3 kundan keyin toshmalar yo’qoladi. Odatda davolash talab etilmaydi, lekin kuchli toksik eritemalarda qo‘shimchacha suyuqlik ichirish tavsiya etiladi, ba’zida antigistaminlar(allergiyaga qarshi vositalar) buyuriladi.

Teri qatlamining kepaklanishi — hayotining 3-5 kuni yuzaga keladi, ko‘pincha qorinda va ko‘krakda bo‘ladi. Keskin kepaklanish ayniqsa muddatdan o’tib ketgan bolalarda kuzatiladi. Davolash talab etilmaydi, lekin kepaklangan sohalarga yuvintirilgandan so‘ng bolalar kremini surtish mumkin.

Dastlabki tana massasining tranzitor kamayishi. Hayotining dastlabki kunlarida ochlik (sut va suv tanqisligi) natijasida yuzaga keladi. Tug‘ilgandagi tana vaznidan qat’iy nazar hayotining birinchi kunlarida tana vaznning kamayishi kuzatiladi. Dastlabki tana massasining maksimal kamayishi (TMMK) odatda 3—4, ba’zida 5-7 kun kuzatiladi. Sog’lom tug‘ilgan chaqaloqlarda TMMK odatda 6-8 % dan oshmaydi. TMMK yuqori ko’rsatkichlariga olib keluvchi omillar —bu, muddatiga yetmay tug’ilish, katta tana vazni bilan tug’ilish, yuqori harorat va xona (kyuvez) havosi namligining yetarlicha bo’lmasligi va boshqalar. Dastlabki, tana massasining kamayishi patogenezi suvsizlanish (suvning nafas va teri orqali yo’qotilishi) bilan bog’liq. Tug‘ruqda tranzitor kamaygan tana massasi 60— 70% chaqaloqlarda odatda hayotining 6-7 kunlariga kelib tiklansa, 75—85% chaqaloqlarda 10-kuniga va qolgan sog’lom bolalarning hammasida hayotining 2-haftasiga kelib to‘liq tiklanadi. 3-4 daraja muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlar, tug‘ilganda yirik va tana vazni katta bo‘lgan bolalar va kasal bolalarda yo’qotilgan dastlabki tana massasi sekin tiklanadi.

Maqsadga yo’naltirilgan parvarish: optimal issiq rejim, gipogalaktiyani o’z vaqtida aniqlash va ratsional taktika, erta ko‘krakka berish—TMMK erta tiklanishiga olib keluvchi asosiy omil.

Tranzitor giperbilirubinemiya. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning hammasida hayotining 1-kunida rivojlanadi, lekin sariqlik 60—70 % hollardagina kuzatiladi. Kindik qoni zardobida bilirubin konsentratsiyasining me’yoriy ko`rsatkichi 26—34

mkmol/l. Deyarli hamma chaqaloqlarda hayotining 1-kunida qon zardobidagi bilirubin konsentratsiyasi 1,7—2,6 mkmol/ l/soat tezlik bilan oshib boradi, 3-4-kunga kelib 103—137 mkmol/l ga yetadi. Bu holat hayotining 7—10 kuniga kelib o'tib ketadi. Tranzitor sariqlikda bilirubin miqdori uning bog'lanmagan fraksiyasi — bog'lanmagan bilirubin (bog'lanmagan bilirubin) hisobiga oshadi. Terining sarg'ayishi hayotining 2—3 kunida, qachonki bog'lanmagan bilirubin konsentratsiyasi muddatida tug'ilgan chaqaloqlarda 51—60 mkmol/l, muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlarda — 85—103 mkmol/l ga yetganda paydo bo'ladi.

Chaqaloqlarda tranzitor sariqlik patogenezi quyidagi omillarga bog'lik:

1. Bilirubin hosil bo'lishining oshishi: a) fetal gemoglobinni tutgan eritrotsitlar hayotining qiskarishi; b) noeffektiv eritropoez; v) gemm noeritrotsitar va bog'lanmagan bilirubin (mioglobin, jigar tsitoxromi va b.) dan almashinuv katabalik fazasida bilirubin hosil bo'lishining kuchayishi.

2. Jigar funksional xususiyatining pasayishi:

a) gepatotsitlar tomonidan bog'lanmagan bilirubinni ushlab qolishni pasayishi;

b) ona garmonini so'nishi sababli uridindifosfoglyukozodegidrogenaza va glyukuroniltransferaza faolligini pastligi hisobiga balirubinni glyukuronirlanishini pasayishi;

v) gepatotsitlardan bilirubin ekskretsiyasini pasayishi.

3. bog'lanmagan bilirubin ni ichakdan ko'p miqdorda konga tushishi :

a) Ichak devorida betta-glyukuronidaza faolligining yukoriligi;

b) Ichakdan qonning bir kismi venoz aransiyev yuli orqali jigarni chetlab pastki kovak venaga tushishi, bunda bilirubinni gepatoenterogen tasirqo'lyatsiyasi buziladi;

v) Ichaklar sterilligi v aut pegmentlari reduksiyasining kuchsizligi.

Buyrak funksiyalarining tranzitor xususiyatlari.

Erta neonatal oligouriya — deyarli hamma chaqaloqlarning hayotining dastlabki 3 kunligida kuzatiladi. Bola hayotining dastlabki dastlabki kunlaridagi ochlik, nafas bilan ko'p miqdorda suyuqlik — 1 ml/kg/soat atrofida yukotishi fiziologik fon uchun — oliguriya hayotining dastlabki kunlarida o'ta muhim kompensator-moslashuv reaksiyasi hisoblanadi.

Albuminuriya (proteinuriyani aniqrok aytganda) ham barcha chaqaloqlar hayotining dastlabki kunlarida qovuzloq va naycha epiteliylari o'tkazuvchanligining oshishi hisobiga kuzatiladi.

Siydik kislotali infarkt — 25 % muddatiga yetib tug'ilgan, 15 % muddatiga yetmay tug'ilgan chaqaloqlar buyraklari yig'uv naylari bo'shlig'ida siydik kislotani kristall ko'rinishida cho'kishi. Infark siydigi sarg'ish rangda, xira, yo'rgagida rangiga mos dog' qoldiradi va hayotining 1-haftasida kuzatiladi.

5. Ichak tranzitor disbakteriozi —o'tib ketuvchi holat bo'lib, hamma chaqaloqlarda kuzatiladi. Onani suti bifidofloralarni tashuvchisi bo'lib, patogen floralarni siqib chiqishi yoki ular miqdorining kamayishiga olib keladi. Chaqaloqlik davrining o'rtasida bola ichagida bifidum bakteriyalar ustunlik qiladi.

6. Jinsiy kriz (gormonal kriz, sinkainogenez, miniaturada jinsiy yetilish va b.) quyidagi holatlarni o'z ichiga oladi:

Sut bezi dag'allashuvi (fiziologik mastopatiya) odatda hayotining 3—4-kuni boshlanadi, keyinchalik bez o'lchami kattalashadi, hayotining 7—8-kuni (ba'zida 5—6-kuni yoki 10-kuni)ga kelib, maksimum darajaga yetadi. Dag'allashuv bosqichi sekin asta kamayadi;

Deskvamativ vulvovaginit — jinsiy yoriqdan oqish-kulrang shilliqli ajralmaning kelishi, 60—70 % kiz bolalarda dastlabki 3 kunligida kuzatiladi va sekin-asta yo'qoladi;

Qindan qon kelishi (metrorragiya) odatda hayotining 5—8 kuni kuzatiladi. 5—10 % kizlarda uchraydi, davomiyligi 1—3 kun, hajmi 0,5—1,0 ml.

Milia — teri satxidan ko'tarilib turuvchi, o'lchami 2 mmgacha bo'lgan oqish-sarg'ish tugunchalar bo'lib, ko'pincha burun qanotlarida va ustida, peshona sohasida, engakda, ba'zida butun tanada joylashadi. Bu ko'p sekret bilan chiqaruv yo'llari bekilib qolgan yog' bezlaridir..

Moyak pardalari istiskosi (gidrotsele) — 5–10% o'g'il bolalarda uchraydi, chaqaloqlik davrida hech bir davosiz o'tib ketadi.

7. Issilqik balansini tranzitor buzilishi. Chaqaloqlarda termoregulyatsiya jarayonining yetilmaganligi, atrof-muhit haroratining oshishi yoki pasayishi, bola imkoniyatlarining noadekvat moslashuvi natijasida yuzaga keladi:

Tranzitor gipotermiya — tana haroratining pasayishi. Tug'ruqda bolani o'rab turgan muhit harorati 12—15 °S ga pasayadi. Bolani sovuqotishini oldini olish uchun tug'ilishi bilan isitilgan steril yo'rgakka o'raladi va ehtiyotkorlik bilan shu yo'rgak bilan quritiladi, teri bilan homila oldi suvining bug'lanishida issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun turli issiqlik va bog'lanmagan bilirubin ostida isitilgan stolga yotqiziladi. Tug'ruq zalida havo harorati 24—25 °S dan past bo'lmagan holda ushlab turiladi.

Tranzitor gipertermiya hayotining 3-5 kuni paydo bo'ladi va uning chastotasi 0,3—0,5%ni tashkil qiladi. Tana harorati 38,5°—39,5 °S va undan balandga oshishi mumkin. Bola notinch, chanqoqlik bilan suv ichadi, shilliq qavatlarida quruqlanish, shuningdek, suvsizlanishning boshqa belgilari ham kuzatiladi. Tranzitor gipertermiyada terapevtik taktika fizik sovuq o'tishni, qo'shimchacha miqdorda suyuqlik buyurishni va ba'zi holatlarda analgetiklarni yuborishni o'z ichiga oladi.

Shunday holatda biz chaqaloqlik davrida kuzatiladigan asosiy holatlarni sanab o'tdik. Aslida esa ular nisbatan ko'proqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, har bir

chaqaloqda ham homila chegaradosh holatlari rivojlanavermaydi, ulardan ko‘pchiligi—laborator fenomenlardir (tranzitor giperammoniyemiya), lekin shu bilan birga ularni bilish kerak, chunki ular boshqa bir alohida patologik jarayonni rivojlantirishi mumkin.

Tabiiy ovqatlantirish – bu ko‘krak yoshidagi bolalarni ona suti bilan boqish va 6 oydan boshlab ratsionga qo‘shimcha ovqatlar kiritishdir.

Ko‘krak suti bilan boqish, miqdori va sifati bo‘yicha eng qulay oziqa bo‘lib, bolaning oqsil, yog‘lar, uglevodlarga vitaminlarga, minerallarga bo‘lgan extiyojlarini to‘liq qoplaydi Ona sutida mayda dispers oqsillar ko‘p, sigir sutida esa dag‘al dispers oqsillar kazein) ko‘proqdir, oqsil miqdori sigir sutida ko‘pdir. Ko‘krak sutida bir necha barobar ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar bor bo‘lib, yog‘larni bola oshqozonida parchalanishi ko‘krak suti lipazasi ta’siri ostida boshlanadi. Ko‘krak suti uglevodlari ko‘proq b-laktozadan tarkib topgan bo‘lsa, sigir suti uglevodlari a-laktozadan tarkib topgan. Ko‘krak suti laktozasi bifidobakteriyalar o‘sishini stimullaydi.

Ko‘krak suti fermentlarga boy: amilaza (100 marta ko‘p), tripsin, lipaza (15 marta) ko‘p. Bu o‘z navbatida fermentlarni vaqtinchalik faolligi sustligini o‘rnini bosadi va o‘zlashtirilishni ta’minlaydi. Ko‘krak sutida mikroelementlar fermentlar, vitaminlar, miqdori optimal bo‘lib, bolaning ehtiyojlariga mosdir. Ko‘krak suti immunoglobulinlarga boy bo‘lib (A,G), spetsifik va nospetsifik rezistentlik faktorlarini o‘z ichiga olgan. Ona va bola orasida psixologik aloqa shakllanadi, ota-onalik hissiyotlari rivojlanadi.

Gipogalaktiya sabablari. Kech va kam ko‘krak berish, KSB reglamentlash laktatsiya jarayonini nazoratiga tehnik yondoshish, betartiblik, shoshma-shosharlik. Laktatsiyani sustligida tez-tez ovqatlantirish tavsiya etiladi(har 2-2,5 soatda tungi intervalsiz. Onada bolasi uchun yetarli miqdorda sut paydo bo‘ladi, laktotazni oldini olib va laktatsiyani stimullash uchun ikkala ko‘krakni berish lozim. KSBda suv bermasa ham bo‘ladi,chunki ona suti 80% suvdan tarkib topgan va shu sabab chanqovni qondiradi. Emizikli ayolni kun tartibi buzilishi (ortiqcha jismoniy va ruhiy yuklamalar, uyquni kamligi ovqatlanish tartibi buzilishi, kasalliklar, yoshi) laktatsiyani kamaytiradi. Ko‘krak suti bilan bolalarni kamroq yeyishi katta va juda yosh onalar boqishadi. Katta yoshliklarda bunga biologik sabablar bo‘lsa, yoshlarda sotsial va psixologik sabablardir(oilani rejalashni yo’qligi, tasodifiy urug‘lanish, KSBga hohish va intilishni yo‘qligi) Ovqatlantirish texnikasini noto‘g‘riligi**.**

Ona sutini hosil bo‘lishini va ajralishini ko‘paytiruvchi faktorlar

O‘z bolasini ko‘krak suti bilan boqa olishiga ishontirish, onaning betinch holatini bartaraf etish, ona o‘tirib, sutini sog‘ishga urinib ko‘rishi lozim. Ona sutini sog‘ishdan oldin bolani ona qorniga yotqizish maqsadga muvofiq. Issiq sut va choy ichish, ko‘kraklarni issiqda tutish, ko‘krak uchini chimchilash, uqalash. Umurtqalar

atroflarini massaj qilish. Ko‘krak bezi massaji, ovqatlantirishdan oldin(harakatlar bezning tanasidan surg‘ichiga qarab bajariladi). Nikotin kislotasi,vitamin Ye, UFO, UVCh, ultrazvuk, fitoterapiya

Ko‘krak suti bilan oziqlantirish

Bolaning jismoniy va asab-ruxiy tizimi ning rivojlanishida uni o‘rab turgan tashki muhitni to‘g‘ri tashkil qilishdan tashqari, u tug‘ilgan birinchi kundan boshlab mukammal ovqatlantirish tartibini ham tashkil qilish lozim. Bolani fiziologik ehtiyojlarini to‘la qondirgan ovqat, uni garmonik o‘sishini, immunitet hosil bo‘lishini va tashqi muhitning har xil nomaqul sharoitlariga chidamliligini ham oshiradi. Shuning uchun bu mavzuga, bo‘lajak shifokorlar alohida e’tibor berishi va chuqur bilimga ega bo‘lishlari kerak.

Shikoyatlari (onadan yig‘iladi) – bezovtalik, emayotgan paytida uxlab qolishi, to‘sishni yoki ko‘krak sutining xiqichoq bilan qaytarishi. Ona hayoti tarixi (anamnezi) - sotsial xolati, umumiy madaniyati. Iqtisodiy hayoti sharoitlari. Jinsiy kasalliklar. Sog‘likka ziyon yetkazuvchi (ichish, chekish, narkotiklar iste’mol qilishi va x.k.o.) odatlari.

Salomatlikka ta’sir qiluvchi ishlab chiqarish muassasalarida xizmat qilish. Oilaning iqtisodi homilador ayolning shu homila paytida ovqat va kun tartibi, qabul qilingan har xil dori darmonlar, kechirgan kasalliklari. Bola hayoti tarixi (anamnezi) onasidan yig‘iladi. Tug‘ilish jarayoni (o’z okligi, doyalik qo‘llanmalar, asorati), tug‘ilgandagi og‘irligi, bo‘yi, qachon ko‘krak berilganligi, necha soatdan keyin emganligi, chaqaloqning chilla paytida kasalliklari (chaqaloq va ona qonining gruppa va rezus faktori mos kelish-kelmasligi, yiringli kasalliklar va x.k.o.) qachon va qanday og‘irlikda tug‘ruqxonadan chiqqanligi. Bolaning jismoniy o‘sishi-og‘irligi va bo‘yi, ovqatlantirish (emizish) tartibi, vaqti, emish faolligi, bir yoki ikkala ko‘krakdan boqish, emib bo‘lgandan keyin ko‘krakda sut qolish-qolmasligi, qanday sharbatlarni qachondan bera boshladi, ularning miqdori va bola qanday qabul qilganligi, qaysi oydan va qancha miqdorda vitamin "D" berila boshlandi. Obyektiv tekshiruv. Bola og‘irligi va bo‘yining uning yoshiga monandligi (xisoblov formulalarini qo‘llab topiladi). Ovqat hazm qilish a’zolaridagi har xil tug‘ma anotomik o‘zgarishlar (kuyonchik, mikroglossiya, kattik tanglayni bitmay qolishi "bo‘ri tanglay", Robin-Per sindromi, pilorostenoz), asab-ruhiy o‘sishi (emish faolligi, uyqusining davriyligi, ham da o’z oqligi), teri rangi (och qizg‘ish, rangpar), elastikligi (saqlangan yoki past), mushaklar tonusi (saqlangan yoki past).

6. Kontrol (nazorat) o‘lchovlar.

7. Go‘dakning ovqat tarkibiy qismlarga va kalloriyaga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda ovqat miqdorini aniqlash, kerak bo‘lsa qo‘shimcha ovqatlar kiritish.

8. Ovqatlantirish varaqasi (ko‘krakdan boqish kundaligi) - bunda sutkada bola

emayotgan sut miqdorini yetarli - ekanligi obyektiv baholab, yetishmayotgan oqsil, yog', uglevod va kalloriyasi aniqlanishi, ularni korreksiyasi, kiritilgan qo‘shimcha ovqatlar aniq ko‘rsatilishi shart.

Tabiiy ovqatlantirish

Bolani sog‘lom o‘sishi va rivojlanishdagi muhim omillardan biri bu sifat va miqdor jihatidan to‘laqonli ovqatlantirishdir. Sifat va miqdor jihatidan to‘g‘ri ovqatlantirish go‘dakning gormonik o‘sishi va rivojlanishi, tashqi muhitning o‘zgarib boruvchi faktorlariga moslashuvi hamda yuqori immunologik rezistentligining asosiy garovi.

Bolaga beriladigan ovqat tarkibi o‘zining sifati va miqdoriga nisbatan, go‘dak oshqozon-ichak tizimi adaptatsion xususiyatlariga, hamda modda almashinuvi jarayoni darajasiga mos bo‘lishi kerak. Bunday ovqatlantirish A.A. Pokrovskiy tomonidan muvofiq ovqatlantirish konsepsiyasi sifatida talqin qilingan.

Bu konsepsiyaga binoan bola organizmi hayoti faoliyatini nafaqat unga yetarli miqdordagi energiya va oqsil kiritish yo‘li bilan, balki ovqat tarkibida kiritiladigan ko‘p sonli barcha almashtirib bo‘lmaydigan faktorlarning miqdori va ularning o‘zaro miqdor nisbatlarini muvozanatli kiritish hisobiga to‘g‘ri tashkil qilish mumkin, chunki bu faktorlarning miqdori, sifati va o‘zaro nisbati organizmda alohida spetsifik rol o’ynaydi. Ayni paytda kiritilayotgan ovqat sifati va miqdori bola organizmi fuksional va biokimyoviy xususiyatlariga ham mos bo‘lishi shart. Boshqacha qilib aytganda muvofiq ovqatlantirishning asosiy tartibi bu ovqatning kimyoviy tarkibi bola organizmidagi fermentlar konstellyatsiyasiga mos bo‘lishi kerak. Ilk yoshdagi bolalar organizmi fiziologik, morfologik, biokimyoviy xususiyatlariga to‘la mos keladigan ozuqa bu ona sutidir.

Sut bezlarining shakllanish bosqichlari.

Ko‘krak bezlari dastlab homilaning 6 haftalik davrida 4-6 qator hujayralardan tashqari topgan ektodermal bo‘rtiq sifatida shakllanadi. homiladorlikning 15 haftasiga kelib mezenximani qamrab oluvchi xujayralar 15-20 epitelial yo‘lakchalarni hosil qilib bo‘linadi. Kelgusida bu yo‘lakchalardan sut bezlari fermentlari hosil bo‘ladi. Shu davrda bezlarning qon tomirlari va aloxida apokrin " (Montgomeri) bezlari turkumi ham shakllanadi. Homilaning 8 oyligida esa sut bezlarining bosh chikaruv yo‘llari paydo bo‘ladi. Shunday qilib homila tug‘ilganda 1 sut bezlarining faqat bosh chiqaruv kanali shakllanadi xolos. Neonatal davrdagi jinsiy kriz (gormonal) hisobiga bo‘ladigan o‘zgarishlarni nazarga olmaganda ko‘krak bezlari jinsiy rivojlanish davriga qadar o‘sishdan to‘xtaydi. Qiz bolalar -10-12 yoshga kelib, ularda gonadotrop gormonning ajralishi follik ulalar shakllanishi va natijada follik ulalardan esterogenlar ajralib, ular o’z navbatida sut bezlarini o‘sishini, ham da sut yo‘llari shakllanishini stimullaydi. Bu davrda ya’ni 12-13 yoshga kelib so‘rg‘ich atrofi aylanasi ham kattalashadi. Demak, pubertat davrining

dastlabki 2-3 yilida sut bezlarining shakllanishi asosan esgerogen gormoni ta’siri ostida kechsa, ularning qiz bolalar o‘smirlik davridagi shakllanish darajasiga esa shu jumladan so‘rg‘ich oldi pigmentatsiyasi darajasi ham esterogen va progesteron gormonlarining birgalikdagi ta’siri ostida yetadi. Lekin faqat homiladorlik davridagina ko‘krak bezlari sut sintez qilish darajasiga qadar to’liq shakllanadi. Hozirgi paytda laktatsiya jarayonining 4 bosqichi farq qilinadi, ya’ni: (Mammogenez)

1. Laktogenez (sutni sekretsiya qilish davri).
2. Galaktopoez (sekretsiya qilingan sutni yigilish davri)
3. Sut bezlarining avtomatik (o’z -o’z idan) tarzda faoliyat ko‘rsatish boskichi.

Bu boskichlarning to‘liq tavsifi tibbiy adabiyotlarda keng yoritilganligi ufayli ushbu qo‘llanmaga biz ularni kiritishni lozim topmadik. Lekin bu bosqichlardagi ayrim muhim jarayonlarga quyida to‘xtab o‘tamiz.

Sut bezlari xujayralarida sutning hosil bo‘lishi

Laktatsiya jarayonining to‘la shakllangan davridan boshlab, sut, emizilayotan bola extiyojiga mos ravishda doimo ajralib turadi. Sut. epitelial xujayralarda hosil bo‘lib sut bezi alveolalari, sut yo‘llarida yig’iladi va bola emishi bilan ajrala boshlaydi. Bu jarayonining sut hosil bo‘lishi va ajralishidagi o’rni nihoyatda katta. Emish jarayonida neyroendokrin refleks hosil bo‘lib, buning natijasida surg’ichdan gipotalamusga afferent impulsatsiya jo’natiladi. Natijada gipotalamusning paraventriqo‘lyar, suprooptik yadrolaridagi magnotsellyulyar neyronlari ko’zg’alib, uning aksonlari orqali qo’zg’alish potensiali gipofizning orqali tarqaladi va oksitotsin gormonini ajralishiga olio keladi. Bu gormon o’t yo‘llariga qon orqali tushib mayda sut yo‘llari, alveolalar atrofidagi miochitelial xujayralarining kiskarishini, hamda shuni hisobiga sutning alveolalardan sut yo‘liga chikishini ta’minlaydi. Yuqorida keltirrpgan sutni alveolalardan (o’t yo‘llariga oqib chiqishi faqatgina neyroendokrin yo‘l bilan kechishini nazardan chetda qoldirmaslik va bunda emish jarayonining eng muxim omil ekanligini doimo esda tutish lozim. Chunki, sut bezi alveolalardan sutni sut yo‘llariga kelib tutilishini buzilishi doimo sekretsiya qilinayotgan sut miqdorini kamayishiga olib keladi.

Sut tarkibiy kismlarining, ya’ni komponentlarini sekretsiya qilishining bir necha yo‘llari farq qilinadi:

Birinchisi: sutni suvli kismi tarkibiga kiruvchi asosiy komponentlarini shu jumladan kazein, laktoalbumin, laktoza, kalsiy, fosfatlar, tsitratlar va x.k. hosil bo‘lishiga olib keladi. Bu usul bilan sut komponentlarini, ya’ni oqsilni hosil bo‘lishi endoplazmatik retiqo‘lumdan boshlanib, mayda veziqulalar sifatida Goldji apparatiga o‘tkaziladi, Goldji apparatida oqsilga fosfat guruhlarini biriktirish, qo‘shimcha glikolizlanish va x.k. kabi ishlov berilib, sekin asta uning, ya’ni Goldji apparatining tashqi kavatiga o‘tkaziladi, natijada bu yerda kazein mitsellalari hosil

bo‘ladi. Kazeinning fosforlangan molekulalari kalsiy tuzlari bilan birikib, birgalikda tarkibida katta miqdordagi kalsiy va fosfor tutuvchi bir necha ming oqsil molekulalaridan iborat yirik agregatlarni hosil qiladi. Goldji apparatidagi bu birikmalar sekreter vezikulalar sifatida birikadi va ekzotsitoz yo‘li bilan alveolalarga sekretsiya qilinadi. Laktoza ham Goldji apparatida hosil bo‘ladi. Bu uglevod yetarli miqdordagi suyuqlik tarkibida bo‘lganligi uchun ham, ona suti plazmaga nisbatan izotonik xisoblanadi. Buning hisobiga ona suti tarkibi (90% suvdan iborat) bolani suyuqlikka bo‘lgan talabini to‘la qondiradi, xatto issik geografik sharoitli mamlakatlarda ham.

Sut tarkibidagi yog‘ning 80% plazma triglitseridlaridan hosil bo‘ladi (ona sutida nixoyatda kam miqdorda yog bo‘lsa bundan mustasno). Triglitseridlar gidrolizlanib yog‘ kislotalari va glitserin shaklida sut bezlari tomonidan ushlab qolinadi. Bu substratlar yangitdan sut bezidagi xujayrada sintezlangan yog’ kislo-talari va glitserin bilan sutning yog’li globo‘lalarini hosil qilib, xujayraning sut yo‘liga qaragan qutbiga yakinlashib boradi va membranaga yetgandan so‘ng sut yo‘liga, hamma tomonidan plazmatik membrana bilan qoplangan ajralma sifatida so’rib chiqariladi. (2-yo‘l). Bu yog’ koponentini o‘rab turuvchi membrananing ahamiyati yog’ni bir-biri bilan yopishib nihoyatda yirik yog‘ globulinlari hosil bo‘lishini oldini olishi hamda bolani yetarli miqdordagi fosfolipidlar bilan ta’minlashdan iborat.

To‘la shakllangan laktatsiya jarayonida ona suti tarkibidagi natriy, kaliy, xlorid miqdori nihoyatda past konsentratsiyada (20 mM) aniqlanadi. Bu tuzlar ham glyukoza yoki boshqa oz sonli past molekulali metabolitlar singari sut bezi xujayrasiapikal membranasidan erkin o‘tadi (3-yo‘l).

Qon plazmasi yoki sut bezlari interstitsial suyuqligidan hosil bo‘luvchi komponentlari, shu jumladan immunoglobulinlar xujayra yuzasidan maxsus mexanizmlar ta’siri ostida ajraladi. Bu xol immunoglobulinlarni ajralishida qo’yidagicha kuzatiladi, ya’ni sut bezi xujayralarida hosil bo‘ladigan maxsus faktor (retseptor) xujayra bazal membranasiga yakinlashadi va u sut tarkibiga kiruvchi asosiy immunoglobulin bilan bog‘langandan so‘ng xujayra tomonidan endotsitoz qilinadi va membrana bilan bog‘langan vezikula ko’rinishida apikal membrana tomon transport qilinadi, bu yerda sut yo‘liga ajratiladi. Ajratilish davrida retseptorning bir qismi membrana bilan bog‘langan komponentdai ajralib birgalikda sekretsiya qilinadi. Retseptorning bu qismi sekreter komponent nomi bilan atalib, u immunoglobulinni bola oshkozon-ichak tizimida degradatsiya (parchalanishdan) qilinishdan asraydi.

Shunday qilib, laktatsiyaning to‘la shakllangan davrida sut komponentlarini hosil bo‘lishi - bu transsellyulyar jarayonidir, yoki boshkacha qilib aytganda sut tarkibiy kismlarini hosil bo‘lishida ishtirok etuvchi plazma, interstitsial suyuqlik

komponentlari sutga o‘tishdan avval albatta sut bezl alveolyar xujayralariga kirishi, kerak bo‘lsa unda kimyoviy qayta ishlov berilib keyingina) sut suyuqligiga o‘tkaziladi. Xujayralararo kontaktlar ham berk, faqatgina bu kontaktlar orasidan ayrim qon donachalarigina o’ta olishi mumkin xolos. Lekin sut bezining yallig’lanishida shu jumladan homiladorlik, hamda sut hosil bo‘lishni involyutsiya davrlarida bu kontaktlar ochiladi, natijada plazma komponentlari sut yo‘llariga paratsellyular yo‘l bilan o‘tishi kuzatiladi. Buning natijasida sut bezi sekreti tarkibidagi natrny va xlor miqdori ortib 25 mMdan 140 mMga yetadi, sutning asosiy komponentlari miqdori esa, ya’ni laktoza va x.k. bir necha marta pasayadi. shu jumladan sutning miqdori ham.

Yuqorida sut bezining shakllanish bosqichlari zikr qilingan edi. Bu bosqichlar qisqacha quyidagicha kechadi. Homiladorlik paytida sut bezlari sut hosil qiluvchi a’zo sifatida to’liq shakllanadi. Lekin hosil bo‘lgan sekret miqdori nihoyatda kam. Buning sababi ona qornidagi esterogen va progesteron kabi jinsiy gormonlar konsentratsiyasining yuqoriligi bilan tushuntiriladi. Bu holat homila tug‘ilgandagi keyingi dastlabki vaqtdagi o‘g‘iz sutini sekretsiyasi davrida ham kuzatiladi. Ayni paytda bu o‘g‘iz suti miqdori kam bo‘lishiga qaramasdan uning tarkibi himoya faktorlariga, ya’ni laktoferrin, immunoglobulinlarga va h.k. nihoyatda boy.

Sut bezlari xujayralarining gormonlar bilan ingibitsiyalanishi dastlabki 3-5 kun ichida progesteron va esterogen ona qon plazmasidagi konsentratsiyasini kamayishi hisobiga susayadi, natijada sekin asta sekret (sut) miqdori ortib boradi. ya’ni homila tug‘ilgandan keyingi to’rtinchi kuni o’rtacha 550 ml/sutkani tashkil qiladi. Dastlabki 4-5 oy ichida umumiy sutkalik sut miqdori 800 ml dan kam bo‘lmasligi kuzatilgan

Sut bezlari sekretning tarkibiy qismlarini o‘zgarishi ham dastlabki

haftadan boshlanadi. Bunda sekret tarkibidagi natriy miqdori urtacha ko‘rsatkich 50 mM dan 4-kunga kelib 20 mMgacha kamayadi. Bu esa Nevil va boshkalar fikricha sut komponentlarining hosil bo‘lishida transsellyulyar yo‘lining ortib borishi, ya’ni sut bezi xujayralar kontaktlarining (oraliq bo‘shliqlarning) yopilganligi to‘g‘risida dalolat beradi, natijada birinchi oyning oxirida bu ko‘rsatkich, ya’ni natriy miqdori 5 mmgacha kamayadi. Ayni paytda sut tarkibidagi laktoza miqdori agar homila tug‘ilgan kunida 60 mM teng bo‘lsa, 30 kundan keyin esa 200 mMgacha ortadi.

Ona suti tarkibidagi oqsillarni ayniqsa, himoya funksiyasini shakllanishida ishtirok etuvchi immunoglobulinlar, laktoferrin konsentratsiyasi sekret miqdori ertishi bilan kamayib boradi. Lekin ularning umumiy sutkalik miqdori laktatsiya karayonning barcha davrlarida deyarli bir xilda qolishi kuzatiladi, ya’ni laktatsiyaning dastlabki davrida sut miqdori kam, ammo immunoglobulinlarga boy, kelgusida esa sut miqdori ortishi bilan ularning sut o‘lchov birligidagi qiymati

kamayadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, bola har kuni ona suti bilan oladigan himoya faktorlarining umumiy miqdori laktatsiyaning barcha davrlarida deyarli bir xil.

Bizning fikrimizcha laktatsiya jarayonning eng muxim bosqichi bu sut bezlarining avtomatizmidir. Bundan oldingi bosqichlar tibbiy adabiyotlarda mukammal yoritilganligini hisobga olib biz faqat 4-bosqichga mukammalroq to`xtalib o‘tishni lozim deb topdik. Chunki mana shu bosqichni shakllanishi bolani kelgusida to‘laqonli ona suti bilan ta’minlashda alohida o’rin tutadi.

Bu bosqichda agar sut bezlaridagi sekret bir necha kun davomida so’rib olinmasa, sut hosil bo‘lishi intensivligi susayib boradi va to’xtaydi. Sekretning tarkibi ham shu bilan birga o‘zgarib boradi, ya’ni og‘iz suti tarkibiga yaqinlashib boradi (Kulski J.K., Hartmann P.E., 1981). Bo‘lar sut tarkibidagi natriy va xlor miqdorini ortib borishini eng intensiv vaqtini ko‘krakdan emizish to‘xtatilgandan 3-4 kun o‘tgandan keyin kuzatishgan. Demak, bu bosqichda laktatsiyaning yetarli kechishining asosiy omili bu ko‘krakdan emizishdir. Haqiqatdan ham ona organizmi tomonidan laktatsiyaga tasir qiluvchi faktorlar, ya’ni ovqat tarkibi, yoshi, tana tuzilishi, homiladorlik soni va x.k. kabilarni sut hosil bo‘lishida ikkilamchi o’rin tutishi kuzatilgan (Prentis A.M. va boshkalar, 1986).

Sut sekretsiyasini regulyatsiyasida ikki mexanizm farq qilinadi. Ulardan birinchisi bu gormonal regulyatsiya, ya’ni prolaktin bilan ikkinchisi esa sut tarkibida sekretsiya qilinuvchi sut miqdorini kamaytiruvchi oqsil ingibitordir.

Bolaning ko‘krakning emishi ona organizmida prolaktin gormonini hosil qilishdagi, asosiy faktordir. Buning natijasida sut sekretsiyasi miqdori ortadi. Ayni paytda bu prolaktin hisobiga hosil bo‘lgan sut miqdori bolaning kundalik o’sib boruvchi talabiga teng maxfiylik miqdorini yetkazib bera oladigan nozik mexanizmmi? - degan savol tug‘ilishi muqarrar. Ma’lum bo‘lishicha ona organizmidagi prolaktin miqdori sutka davomida o‘zgarib turadi. Bundan tashqari faqat ko‘krakdan bolasini boqayotgan onalar qonidagi prolaktin konsentratsiyasi nihoyatda o‘zgaruvchan. Zunn P.G. va boshqalar fikricha ona qonida prolaktin faolligi uning ovqatlanish statusi bilan bogliq. Bu avtorlar yuqoridagi dalillardan shuni taxmin qiladiki, ovqatlanishi urtachadan past onalarda prolaktinni hosil bo‘lishini stimulyatsiya qiluvchi asosiy omil emizish.

Hozirgi paytdagi ma’lumotlarda ona suti tarkibidagi oqsil faktorning (ingibitor) sekret miqdoriga tormozlovchi ta’siri keng talkin qilinayapti. Ammo bu faktor xanuzgacha toza holda ajratib olinmagan. Bu faktorning xakikatan ham ona suti tarkibida ajralishini, hamda bola emib bo‘lgandan keyin sut bezi alveolalarida qolayotgan sutda ham bo‘lishini va aksincha to’liq emganda bo‘lmasligi hisobiga sut miqdorini kamayishi yoki ortishini nazarda tutilsa, sekret miqdorini regulyatsiya qiluvchi asosiy omil bu bolani ko‘krakdan emizish ekanligini tushunish qiyin emas.

Demak, xulosa qilish mumkinki, tabiiy ovqatlantirilayotgan sog‘lom bolani kundalik ozuqaga bo‘lgan talabiga mos nisbatdagi sut miqdorini faqatgina uning o’zi belgilaydi, agarda bola ona ko‘kragidan to‘g‘ri oziqlantirilsa va u sog‘lom bo‘lsa laktatsiya jarayonini yaxshilash, demak bu sut bezlarini regulyar sut-dan ozod bo‘lib turishidir. Shuning uchun ham bemor va chala tug‘ilgan chaqaloqlarnis kelgusida to’liq ona suti bilan boqish uchun, ona ko‘kragidagi sut regulyar sog’ib olib turilishi kerak.

Ona sutining kimyoviy tarkibi va uning biologik ahamiyati.

Ona suti bola uchun muhim ozuqa omilidir. Ko‘krak suti tarkibidagi komponentlar miqdori va ularning o‘zaro nisbati shunday tizimdaki, bu tizim intensiv o’sib, rivojlanishib borayotgan bolaning talabini to‘la qondira oladi. Tabiiy ovqatlantirilayotgan bolaning gormonik rivojlanishi, hamda uning organizmi immun donachalarining yetarli miqdorda ishlab chiqarishga qodir bo‘lmagan dastlabki oylarda, go‘dakni yuqumli kasalliklardan asrashda asosiy o’rin egallaydi. Faqat ona suti bilan boqilayotgan ko‘krak yoshidagi bolalarning sun’iy, aralash ovqatlantirilayotgan bolalarga nisbatan 2,5 marta kamroq kasallanishi, oshkozon-ichak tizimi kasalliklari bilan esa 25 barobar kam kasallanishi bunga aniq dalildir. Bundan tashqari ona bilan bolaning doimiy jismoniy yangi tug‘ilgan chaqaloqda doimiy himoya, iliqlik tuyg’usini, onada esa onalik mehrini uygonishiga bu esa kelgusida bolani sotsial muhitga, onani esa xomiladorlik davrini homila tug‘ilgandan keyingi davrga moslanishini yengillashtiradi.

Chaqaloq tug‘ilgandan keyin dastlabki 3-4 kun ichida ona ko‘kragidan o‘g‘iz sutini, 6-7 kundan boshlab esa yetuk ona sutini oladi. O‘g‘iz suti yetuk ona sutiga nisbatan quyuqrok och sariq rangdagi suyuqlikdir. Yetuk ona sutiga nisbatan o‘g‘iz suti o’z tarkibida yangi tug‘ilgan chaqaloq qon plazmasi tarkibidagi oqsilga yakin ko‘p mivdordagi oqsilni tutadi. O‘g‘iz suti tarkibida oqsilning albumin, globulin fraksiyalari kazein fraksiyasidan ko‘p bo‘lsa, bu holat yetuk ona sutida deyarli tenglashadi.

Sut	Oqsilning umumiy miqdori	Kazein	Laktaalbumin va globulin	Yog	Laktoza
O‘g‘iz suti, Molozivo	5,6	2.0	3.5	3,2	5,7
O‘tkinchi sut	1,6	0,9	0.8	3,7	6,8
Yetuk ko‘krak suti	1,2	0,6	0,6	3.5	6,5

1-tablitsa. Og‘iz suti va yetuk ona sutnning kimyoviy tarkibi (%).

Og‘iz suti tarkibidagi yog’ning tarkibiy qismi bola tanasilagi yog’ to’qimasi tarkibiga mos. Mikroskop ostida yog’ donachalari bilan bir qatorda " og‘iz suti donachalari" deb nomlanuvchi donachalar ham aniqlanadi. Bu donachalar asosan leykotsitlardan nborat bo‘lib, aniqlanishicha ularning ko‘p qismi funksional faol limfotsitlardan iborat. Dastlabki kundagi og‘iz sutining energetik qiymati 1500 kkall teng bo‘lsa, u 7-8 kunga kelib 600-700 kkal/l gacha pasayadi. Yuqorida keltirilgan dalillardan ko’rinadiki, yangi tug’ilgan chaqaloq uchun eng muxim ovqat bu og’iz suti, chunki u kam miqdorda bola organizmiga tushishiga qaramay, bolani barcha ozuqa asosiy komponentlariga, energiyaga bo‘lgan talabini qondira oladi. Og‘iz suti bilan boqish davri yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun nafaqat trofogen (energiya va plastik materiallar manbai) balki immunologik ahamiyatiga ham ega. Og‘iz suti bilan chaqaloq immunoglobulin va shunga o’xshash bir qator himoya faktorlarini ham oladi. Bola organizmining himoyasida Jg aahamiyati nihoyatda katta. Jg A bola organizmi shilliq qavatlariga (ayniqsa oshqozon-ichak tizimidagi) adsorbsiya qilinishi hisobiga, bu shilliq qavatlarga mikroblarni yopishishini oldini olib, bola organizmiga antigen omillarnn kirishini susaytirib, neytrofillar xemataksisiga tusqinlik qiladi. Bu immunoglobulin yuqorida aytilganidek, oshqozon ichak tizimidagi fermentlar faolligiga chidamli va o’z xususiyatlarini ular ta’siri ostida o‘zgartirmaydi (5a-tablitsaga karang).

Og‘iz suti tarkibida leykotsitlar-limfotsitlar ham aniqlanadi. Bular asosan T va V limfotsitlardan iborat bo‘lib, ularning funksiyasi xujayra immuniteti bola organizmida shakllanishida ishtirok etadi deb taxmin qilinadi. Shu jumladan og’iz sutida makrofaglar va neytrofillar ham bo‘lishi aniqlangan. Bu himoyada ishtirok etuvchi xujayralar ham o’z fiziologik xususiyatlarini bola organizmida saqlab qolishi, hamda ularning mikroblari fagatsitozi jaryonida ishtirok etishi kuzatilgan.

Og‘iz suti tarkibidagi yetuk sutdagiga nisbatan vitamin A va karotin miqdori 2-10, askorbin kislotasi 2-3 barobar ko‘pligi, shu jumladan vitamin V_{12} va E ham, tuzlar esa 1,5 barobar ortiq.

Yuqoridagi keltirilgan dalillardai xulosa qilish mumkinki, ogiz suti bilan ovqatlantirishni yangi tug‘ilgan chaqaloqning dastlabki kunlardagi tashki muxit sharoitlariga moslashuvi jarayonidagi urni nixoyatda katta va bu mahsulotni boshka hech bir hayvon yoki sun’iy mahsulotlar bilan almashtirish mumkin emas

Yetuk ona suti tarkibidagi oqsil, yog, uglevod, mineral moddalar, vitaminlar miqdori optimal nisbatdadir. Yetuk ona suti o’zining kimyoviy tarkibiga nisbatan boshka sutlar, ya’ni xayvonlar sutidan tubdan farq qiladi.

Ona suti tarkibidagi oqsil miqdori sigir suti tarkibidagi oqsildan 2,5 barobar kam, uglevodlari esa 1,5 marta ko‘p bo‘lsa, tuzlar miqdori esa 3.5 marta kamdir.

Ona suti tarkibidagi karbon suvlar, sigir suti tarkibidagi karbon suvlardan

nafaqat miqdori balki sifati bilan ham farq qiladi. Ona suti tarkibidagi β-laktozaning ingichka ichakda α-laktozaga nisbatan surilishi sekinrok bo‘lganligi uchun ham u yo’g’on ichakkacha yetib boradi. Bu xolning bir tomonidan ichak ximusi osmolyar bosimini ingichka ichakning barcha qismida bir xilda saqlab turishidagi urni katta, ikkinchi tomondan esa u yug’on ichakkacha yetib borib u yerda ichaklar saprofit mikroflorasini shakllantiradi va ichaklardan rN muxitini (rN=5,0-5,8) optimal me’yorda ushlab turadi.

Ichak mikroflorasini shakllanishida esa ona suti karbon suvlari tarkibiga kiruvchi poli va olpgo aminokaidlar o’rni kattadir, ya’ni anikrogi beta-galaktozid fruktozani. Shuning uchun ham bu modda ona suti tarkibidagi "bifidus faktor" deb ataladi, chunki boshqa poli va oligo aminosaxarid komponentlari (ular 14 dan ortiqlik) bunday xususiyatga ega emas. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, hozirgi paytda aniklanishicha laktuloza uglevodining ham o’z xususiyatlari bilan bettagalaktozid fruktozaga yaqinligi tufayli uni sun’iy sut mahsulotlarini tayyorlashda ishlatilyapti.

Betta-laktoza ichakda V guruhiga oid vitaminlarni sintezlanishini kuchaytiradi, neytral yog’larni kamaytiradi va nixoyat letsetin miqdorini ortishini taminlaydi.

Ona suti tarkibidagi oqsil miqdori sigir sutidagi oqsilga nisbatan 2-*1.5* barobar kam, lekin bu oqsilpar sifati bilan biri ikkinchnsidan tubdan farq siladi (2-tablitsaga karang). Ona suti tarkibidagi albumin-globulin fraksyalarining kazeinga nisbati 1,5:1 atrofida bo‘lsa, bu ko‘rsatkich sigir sutida 1:4 a teng. Ona sutida mayda disperslanuvchi oqsil fraksiyalarining ko‘pligi, uni mayda bo‘lakchalariga bo‘linadi, bu esa o’z navbatida ona suti tarkibidagi oqsilning oson parchalanishini va so’rilishini ta’minlaydi.

Ona suti oqsilining biologik qiymati sigir suti oqsiliga nisbatan balandligi, uning tarkibidagi aminokislotalar soni va miqdori bilan aniqlanadi Go‘dak yoshdagi bolalar organizmida gistidin sintez qilinmaydi va shuning uchun ulardagi organizmda sintez qilinmaydigan aminokislotalar soni kattalardagi kabi 8 ta emas, balki 9 tadir (8+ gistidin). Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar organizmida dastlabki haftalarda sistin ham sintez qilinmaydi. Quyida keltirilgan tablitsadan (2- tablitsa) korinib turibdiki, barcha sutlar turida kerak bo‘lgan aminokislotalar mavjud, lekin ona sutidagi aminokislotalar soni hayvon sutiga nisbatan deyarli 3 marta kam bo‘lishiga qaramay, bu aminokislotalar nisbatlari bir yoshgacha bo‘lgan bolalar talabiga mos. Shuning uchun ham tabiiy ovqatlantirilayotgan bolalarning aminokislotalarga talabi sun’iy boqiladigan bolalar talabiga nisbatan kam.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ona sutidagi oqsiliing 1/3 qismi parchalanmasdan oshqozon shilliq qavatidan bola organizmiga so’riladi. Bu oqsilning bola qonidagi oqsil bilan deyarli bir xil tizimga ega bo‘lishi, bolada

aldergologik kasalliklarni chaqirmaydi.

Ona suti tarkibidagi immunoglobulinlar va yana bir qator faktorlar borki, bu faktorlar bolani yuqumli infeksion kasalliklarga chalinishini oldiga oladi. Hozirgi paytda ma'lumki, ona organizmida infeksion antigen bilan oshqozon ichak tizimi deyiladi, nafas yo'llarida, terida va x.k. kontaktda bo'lgan limfotsitlar sut bezlari alzeolalariga kirishi va buning natijasida hosil bo'lgan Immun donachalarini, shu jumladan limfotsitlarni ham sut orqali bola organizga o'tishi, undagi immunitet jarayonini, sun'iy ovqatlantirilayotgan bolalarga nisbatan yetuk ekanligini bildiradi. Sut bilan bola oshqozon ichak tizimi tushgan faol leykotsit va limfotsitlar ham o'z himoya funkiiyasini davom qilish xususiyatini saklab qoladi.

Ona suti tarkibidagi fermentativ faoliyatni bajaruvchi oqsillarining ham biologik ahamiyati nihoyatda katta. Ko'krak sutida asparagin, alanin aminotraisferazalar, degidrogenazalar va katapaza faolligi nihoyatda baland. Oqsilni parchalovchi gidropitik fermentlarining ahamiyati esa nihoyatda katta, chunki bola oshqozon va ichak tizimidagi bu fermentlar faolligi past, ayniqsa hayotining dastlabki oylarida ayni paytda ko'krak sutidagi pepsinogen, tripsin, antitripsin faolligi ayniqsa og'iz sutida va laktatsiyaning dastlabki oylarida baland bo'lishi kuzatilgan. Bundan kurinadiki, bola dastlabki oylarigi oshkozon ichak tizimidagi fermentativ yetivmovchiliklar ona suti tarkibidagi fermentlar hisobiga to'ldiriladi, ya'ni ona suti oqsili autopitik yo'l bilan ham parchalanadi. Ona suti tarkibida 19 dan ortiq fermentlar aniqlangan. Bu Fermentlar agar ona sutiga termik ishlov berilsa parchalanadi. Ularning ayrimlarini fiziologik ro'li quyida keltiriladi (5a-tablitsaga qarang).

Ona suti va sigir suti tarkibidagi yog'lar miqdori deyarli teng. Lekin ona ko'krak sutida to'yinmagan essensial yog' kislotalarining (linol, linopen, araxidon) miqdori sigir sutidagiga nisbatai yuqori (5-tablitsa).

Ona va sigir sutidagi yog kislotalarining miqdori (%).

Kislotalar	Ona suti	Sigir suti
Essensial	11,0	2,0
Tuyinmagan yog'lar	51,8	40,9
Tuyingan yog'lar	37,2	57,1

Ona suti tarkibidagi to'yinmagan yog' kislotalari biologik ahamiyati shundaki, ular xujayra membranasining, mitoxondriyalar, nervlar miyelin kobigi va q'shuvchi to'qima kabilar struktura tarkibiga kirib, bola organizmini o'sishida, oksidlanish-qaytarilish jarayonida, xolesterin almashinuvida, qon tomir devorlari o'tkazuvchanligiga, bola organizmini yuqumli kasalliklarga chidamligini oshirishdagi ahamiyati nixoyatda katta. To'yinmagan essensial yog' kislotalari

yetishmovchiligida bola jismoniy rivojlanishdan orqada qoladi, terisi kuriydi, xolesterin va xolin almashinuvi buzilib va bolada ekzema bilan og'rishga moyilik tug'iladi (5a-tablitsaga ham qarang).

Ona suti yog'ining kimmatli sifati yana shundaki, uning tarkibida fosfolipidlar miqdori ortiq va oshkozon ichak tizimi shilliq qavatini kitiklash xususiyatiga ega bo'lgan to'yinmagan yog' kislotalari (kapron, kapril, koprion va boshkalar) miqdorini kamligidir. Sigir sutida esa bu yog' kislotalar miqdori ancha baland (11,7%).

Ona sutidagi yog' sigir sutidagi yog'dan yana o'zining oson parchalanish, surilishi, o'zlashtirilishi kabi xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Bu ona sutidagi yog' kislotalarining qisqa uglerod zanjiriga ega bo'lganligi, hamda bu sutning tarkibida lipaza fermentining mavjudligi bilan tushuntiriladi. Bundan tashqari essensial yog' kislotalari ichaklardan oqsilni surilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ona suti tarkibidagi bu yog' kislotalari (tuyinmagan) MNS tormozlanish jarayonini, araxidon kislotasi esa uni faoliyatini shakllanishida aloxida o'rin tutadi

Ona suti tarkibidagi fosfatidlar, sigir sutidagi fosfatidlar miqdoriga nisbatan laktatsiya jarayonining barcha bosqichlarida bir necha barobar katta. Bu fosfatidlarning biologik ahamiyati shundaki, ular oshqozondan ichakka ovqat massasini bir meyorda evakuatsiya qilinishini, erta va yetarli miqdordagi sushi ajrlishini, yog'ning ichakning proksimal yuqori qismida intensiv surilishin ta'minlaydi.

Ona sutidagi yog' bilan bola organizmiga uning talabini to'la qondiradigan miqdorda yog'da eruvchi vitaminlar tushadi. Shuning uchun ham ayni paytda tabbiy ovqatlantirilayotgan bolalarda raxitni oldini olish uchun beriladigai vitamin D ning profilaktik dozalarini (agar bolaning onasi haftada eng kami 2 soat-dan ortiq insolyatsiya olsa) berish tavsiya etilmaydi. Agar onaning quyosh nuri ostida bo'lishini haftalik muddati 2 soatdan kam bo'lsa 200-300 xalqaro ta'sir birligida vitamin D tavsiya etiladi.

Bolaning vitamin A ga bo'lgan talabini ham toki u 1 -2 yoshga to'lgunga qadar ona suti yetarli miqdorda qondira olishi aniqlangan, ayniqsa dastlabki 4-6 oylar ichida, bunda faqat ona kundalik ratsioni to'g'ri tashkil qilinishi darkor (vitamin A, karotin tutuvchi ozuqalarning yetarli miqdorda bo'lishi). Agar bu ozuqa mahsulotlarni ona ratsioniga kiritishni iloji bo'lmasa, onaga vitamin A ni sof holda kiritish ham tavsiya etilishi mumkin (V. Newman, 1993), ya'ni onaning kundalik mahsulotlari bilan oladigan vitamin A miqdori 660 ER/kuniga (III dunyo mamlakatidagi emizikli ayollar uchun) dan 1540 ER/kun gacha (boy davlatlar ayollari uchun) tavsiya qilinadi. Bolalar uchun esa bu ko'rsatkichning eng quyi chegarasi (VOZ/FAO bo'yicha) 180 ER/kuniga belgilangan. Lekin bola organizmida vitamin A ning yetarli miqdordagi zaxirasini shakllanishi uchuy

hayotining birinchi yoshida kuniga 350 I dan 370 ER/kungacha, 2-3 yoshida 400 ER/kun olish tavsiya etiladi. O'sib kelayotgan bolalarning dastlabki 13-24 oylari uchun esa bu ko'rsatkich kuniga 140 I ER/yoki 160 ER+korotin belgilaigan (V. Newman, 1993).

Yuqorida keltirilgan 1-tablitsadan ma'lumki mineral moddalarning I miqdori sigir sutida ko'prok. Lekin ona suti tarkibidagi minerallar miqdori va sifati bola organizmi o'sish talablariga to'la mos. Alohida minerallar o'rtasidagi nisbatlar optimal, ya'ni oshqozon ichak tizimidan so'rilishiga moyilligi yuqori va shuning uchun ham ular sigir sutidagi mineral moddalarga nisbatan osonroq suriladi. Masalan, ona sutidagi SaR tuzlari nisbati bolaning qon plazmasidagi nisbatiga ya'ni 2 : 1 ga teng bo'lsa - bu ko'rsatkich sigir sutida 1,3 : 1. Ona suti tarkibida temir. mis, rux kabi mikroelementlar miqdori esa sigir sutidagiga nisbatan ko'proq.

Chala tug'ilgan chaqaloqlar onasi sutining xususiyatlari.

Keyingi o'n yillikdagi tibbiy adabiyotlarda talqin qilinayotgan chala tug'ilgan bolalarni ovqatlantirishda yetuk tug'ilgan chaqaloq onasining suti bilan emas, balki chala tug'ilgan chaqaloq onasi o'z suti bilan boqish effektivligi yuqori ekanligi aniqlangan.

Chala tug'ilgan chaqaloqlarning onasini suti bilan, vaqtida tug'ilgan chaqaloq ona suti komponentlari o'rtasidagi farq keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan usul bilan boqilgan bolalar jismoniy rivojlaishi ancha intensiv ekanligi aniqlangan, ya'ni Gross S.I bo'yicha chala tug'ilgan chaqloq onasining suti bilan boqilgan, bu chaqaloqlar (27-33 haftalik) tug'ilgandagi massasini 11,4yo0,8 kunda tiklangan bo'lsa, vaqtida tug'ilgan chaqaloq onasining suti bilan boqilgan chala chaqaloqlar esa, dastlabki massasini 18,8yo1,7 kunda tiklaganlar.

Emizikli onalar kun tartibini va ovqatlantirishni tashkil qilish. Ona ovqatining ko'krak suti miqdori va sifatiga ta'siri.

Ma'lumki, ko'krak sutining tartibi, uning miqdori, laktatsiya jarayonining davomiyligi ko'p hollarda onaning ovqati va kun tartibiga boglik. Shuni qayt qilish lozimki, sutkaning ma'lum vaqtlarida hosil bo'ladigan sut miqdori bir xil bo'lmay, uning miqdori bola talabiga qarab o'zgarib borishi, ya'ni bola qancha sut emsa, kelgusi emishda shuncha miqdorda sut hosil bo'lishi aniqlangan. Onaning kundalik ovqat ratsioni tartibini sut miqdoriga, tarkibiga ta'siri esa yaxshi ovqatlanadigan onalar guruhida ularning suti miqdori va tarkibi o'rtasida bog'liqlik yo'qligi, lekin yomon ovqatlanadigan (ovqat sifati past va kam miqdordagi) onalar suti ayrim o'zaro bog'liqliklar borligi aniqlangan. Bunga ona ratsioni tarkibidagi oqsilning sutkalik sut miqdoriga ta'sir qilishi dalil bo'la oladi. Keragidan ortiq istemol qilinadigan suyuqlik esa sut miqdoriga ta'sir qilmaydi. Laktatsiya davrida onaning energiyaga bo'lgan talabi onaning jismoniy aktivlik darajasnga bog'liq.

Emizikli onalarning to‘la qonli ovqatlanishini ona va bola uchun ularni so‘rab istemol qiladigan tarkibida yetarli ozuqa ingrediyentlarni tutuvchi mahsulotlaridan tanlab olib turish ko‘proq hollarda tavsiya etiladi.

Hamma hollarda quyidagi tartiblarga rioya qilgan ma’qulroq.

A. Kunda eng kamida 3 marta ovqatlanish

B. Har doim bolani emizayotganda sut yoki sharbatlarni iste’mol qilish.

V.Har bir ovqatlanishda eng kamida 1 porsiya sutli mahsulotlar va qo’yidagi mahsulotlardan 2 porsiyadan istemol qilgan ma’qul:

1. Oqsilli mahsulotlar.

2. Non, butka va dukkakli donlardan tayerlangan taomlar

3. Meva va sabzavotlar

Ayniqsa onaning ko’zi yorilgandan so‘ng ishtaxasi past bo‘lsa (ayniqsa dastlabki 2 haftada), bunda yuqori energetik qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarni, ya’ni sutli kokteyl, pishloq, yong’oq, quruq mevalar va pistalarni kiritilgani ma’qulroq.

Ayrim hollarda emizikli onalar kundalik ratsionni kengaytirish hisobiga (ayrim hollarda kam harakat evaziga) ularning massa ko‘rsatkichlari ortib ketishidan shikoyat qiladi. Bunday hollarda quyidagi tadbirlarni taklif qilish mumkin.

Oqsil tutuvchi mahsulotlarni qoplash uchun:

Baliq va parranda gushti boshqa gushtlardan afzal va ularni istemol qilmasdan avval albatta terisini olib tashlash. Barcha qovurilgan ovqatlardan voz kechish (ayniqsa balik, parranda gushti kotletalari va x.k.) Faqat yog’siz go’shtlarni istemol qilish. Ozuqa mahsulotlarini faqat qaynatib yoki dimlab pishirish (qovurmaslik). Tarkibida ko‘p miqdorda yog’ tutuvchi va qayta ishlov berilgan go’sht mahsulotlarni (kolbasa, sosiska, tushenka) istemol qilmaslik. Kundalik ratsionidagi yeryong’oq, yeryong’oq yog’i, yong’oq va pistalarni miqdorini cheklash.

Sut maxulotlaridan:

Tarkibidan yog’i olingan yoki yog’i kam sut istemol qilish

Yog’sizlantirilgan sutdan tayyorlangan pishloq

Kundalik ratsionda shirin sut mahsulotlari - mevali yogurt, shokolad, sut, muzqaymoq, puding kabilarni kamaytirish.

Non, krupa, va don mahsulotlaridan:

Faqat dondan tayyorlangan non va krupalar shirin non mahsulotlarini kamaytirish;

Yog` qo’shilgan mahsulotlarni kamaytirish (krekerlar, shirinliklar, shakolad va x.k.).

Meva va sabzavotlar:

Sharbatidan ko`ra mevasini iste’mol qilish ma’qulroq.

Qand qo’shilgan meva sharbatlarini kamaytirish.

Yog’ yoki margarin qo’shilgan meva va sabzavotlarni kamaytirish.

Qovurilgan sabzavotlarni iste’mol qilmaslik (masalan kartoshka). Yog’ va shirinliklar:

Saryog’ va margarinni istemol qilishni kamaytirish

Qovurilgan gazzaklarni kamaytirish.

Shirinliklarni cheklash

Tarkibida qand tutuvchi gazlangan suv va ichimliklarni kamaytirish.

Tabiiyki tug‘ilgandan so‘ng onaning tana og‘irligi kamayadi. Agar onaning tana og‘irligi homila tug‘ilgandan keyingi dastlabki hafta ichida 8 kg dan ko‘prokka yoki birinchi oyda 9 kg dan ko‘proqqa, hamda bir oydan keyingi oylarda 2 kg oydan ko‘proqqa kamayib borsa, bunday hollar patologik hisoblanish lozim.

Shuning uchun ham homila tug‘ilgandan keyingi haftalarda ona tana og‘irligi o’tacha har haftada agar 0,5-1 kg ga pasaysa, bu xol meyor hisoblanadi va ona homiladorchilikkacha bo‘lgan dastlabki massasiga bir necha oydan so‘ng qaytadi. Lekin bu davrda tana og‘irligini ilgarigi ko‘rsatkichiga tez qaytarish uchun maxsus parxez taomlar istemol qilish tavsiya etilmaydi, chunki bu nafaqat ko‘krak suti tarkibi miqdoriga, ayni paytda emizikli ona sog’lig’iga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ovqatlanishdan taqashri onaning sutkadagi kun tartibi ham laktatsiya effektivligiga oz ta’sirini ko‘rsatadi. Shuning uchun ona vaqtida dam olishi, uxlashi, uyda toza havoda bo‘lishi, shu jumladan yengil jismoniy mehnat bilan shug’ullanishi tavsiya etiladi. Laktatsiyaning davomiyligiga ko‘p hollarda ona ruxiy-asab tizimi holati, emizikli ona yashayotgan atrof muhitdagi. ayniqsa oiladagi salbiy faktorlar ta’siri katta. Shuning uchun ham emizikli ona va bola atrofida ijobiy ruxiy ekologik muxit yaratish lozim.

Ma’lumki, sut bezi xujayralari moddalarni tanlab o‘tkazuvchi xususiyatiga ega. Ayrim moddalar esa yuqorida aytilganidek, transsellyulyar yoki paratsellyulyar yo‘l bilan yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri sut yo‘llariga tushishi mumkin. Bu hol ayniqsa onaning qo‘llansa hid beruvchi mahsulotlarni (piyoz, sarimsok va x.k.) istemol qilish natijasida ko‘krak sutidan qo‘llansa hid chiqishi kabi, hamda ayrim dori moddalarini konsentratsiyasini qondagiga nisbatan bir necha barobar yuqori bo‘lishi bilan kuzatiladi. Natijada, bu oxirgi zikr etilgan sharoit bolaning sog’lig’iga zarar yetkazishi mumkin.

Bu holatni ona quyidagi dorilarni istemol qilganda kuzatish mumkin. Bu dori moddalarni sanab o’tmasdan avval, umuman dori moddalarning ta’siriga qarab ularni 4 guruhga shartli bo‘lish mumkin, ya’ni:

1. Emizikli onalarga qatiyan man qilingan yoki bu dorilarni ona iste’mol qilganda ko‘krakdan boqmaslik.

2. Potensial xavfli - bu dori-darmonlar nihoyatda ehtiyotkorlik bilan tayin

qilinishi kerak.

3. Davolovchi dozalari bo‘yicha qo‘llanilgandagiga nisbatan xavfsiz.

4. Davolovchi dozalari xavfsiz, oxirgi ikki holda ham barcha extiyot choralariga rioya qilish, boladagi o‘zgarishlarni nazardan kochirmaslik kerak, ayniqsa bolada allergologik anamnez, asoratli bo‘lsa va x.k.

Birinchi guruhga quyidagilar kiradi:

Amantadin-X xavfli usmalarga qarshi ishlatiladigan dorilar, amiadoron, urom, kokain, xloramfenikop-XX, dipiron, optin (tilla) tutuvchi dorilar, yod maxalliy ishlatilganda ham, yod tutuvchi kontrast moddalar ular ishlatilgan davrda ko‘krakdan boqmasdan turish, indaidion, antikoagulyantlar (masalan, ferindion), metronidazol-XX, radiofaol moddalar (ishlatilsa ko‘krakda boqmaslik), katta dozadagi salitsilatlar

2. Ikkinchi guruhga kiruvchi moddalar.

Atsebutamol, katta dozadagi spirtli ichimliklar, atenolol, antigistaminar va shishlarga qarshi ishlatiladigan dorilar-X, ko‘pchilik benzodiazeninlar, lortalidon-X, tsimetidin, xliidamitsin, klonidin-X, esterogen tuguvchi homilani oldini oluvchi dorilar-X doksepin, ergotamin, etosuksemid, flyuoksetin, litin. metimazol, nadol, narkotiklar, nikotin chekish-X, nitrofurontogen, fenobarbital, xinolon qatoriga kiruvchi bakteriotsid moddalari (masalan: tsiprofloxsain), rezerpin, sulfanilamidlar (ayniqsa ta’siri o’z ok etuvchi), tiazid diuretikar-X.

3. Uchinchi guruhga esa aminoglikozid qatoriga kiruvchi antibiotiklar. aniatsid moddalar, antixolinergik dorilar, shaytonlashda ishlatiladigan moddalar etosuksimid va fenobarbitaldan tashqari), antigistaminlar: azotioprin, barbiuratlar, butirofenonlar (masalan: galoperidol), og’iz orqali yuboriladigan shishga qarshi dorilar-X, ergonovin-X. metaklopromid (10-14kun), yallig’lanishga qarshi ishlatiladigan steroidlanmagan dorilar, proniltiouratsil, fenotnazinar, xinidin, salitsilatlarni vaqti-vaqti bilan qabul qilish, spironolakton, ulfizoksazol, tetrasiklinlar, tiazidli diuretiklar, trisiklik antidepresantlar (doksepindan tashkari), verapamil

4. Nixoyat turtinchi guruhga adetominofen, antiatsid moddalar. kofein tsefalosporinlar, progestin tutuvchi qontratseptiv moddalar, digoksin, eritromitsin, geparin, insulin, labetalol. ichni yumshatuvchi (ksillium, dokuzat), lidokain, magniy sulfat, metildofa, metilergonovin (qisqa kurslari), metoprolol, penilllinpar, propranolop, teofillin. tireoid gormonlarni o’rnini bosuvchi dorilar, vaksinalar, vankomitsin va varferin kiradi.

Eslatma:

S-belgisi ostida keltirilgan dorilar laktaiiyani susaytirishi ham mumkin. XX-elgisi ostidagi dorilar agar bola suniy sut bilan so’rg’ich yordamida boqilsa nixoyatda xavfli, extiyot choralarini saqlab ko‘krakdan boqish mumkin. Manbaa: 1

Farmatsevtika doktori F.O. Anderson bo‘yicha keltirildi. San-Diyego Universiteta meditsina tadqiqotlari markazi, 1992 i.

Shunday qilib, sutkadagi ko‘krak suti miqdori ko‘p hollarda onaning somatik xolati ovqatlanishidan tashqari, uning kun tartibini tuzilishiga, oiladagi emizikli ona atrofida tashkil qilingan ijtimoiy-ruxiy muxitga, bundan tashqari boshqa oila a’zolarining ham bolani ko‘krakdan boqish naqadar muximligini bilishi kabi, hamda ularning tibbiy madaniyati (onaning ham) ta’siri nixoyatda katta. Shuning uchun emizikli bolalar va onalarga ham kundalik varaqa tutilgani va varaqada bola va onadagi barcha o‘zgarishlar doimo birgalikda kiritilib borishi kerak. Bu varaqalar o’rnida WELLSTART INTERNATIONAL taklif qilgan kundaliklarni keltiramiz (ayrim bizning qo‘shimchalar bilan).

Ko‘krak suti bilan oziqlantirish (JSST) dasturi. Bolalarni ovqatlantirish

Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘krakdan boqish. Yangi tug‘ilgan sog‘lom chaqaloqni ko‘krakdan boqishni u tugulgandan so‘ng dastlabki 30 minut ichida boshlagan ma’qul. Barcha sut emizuvchi hayvonlarning yangi tug‘ilgan bolalari singari yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan ham dastlabki 2-2,5 soat ichida shunga o‘xshash deyarli bir xil harakatlarni kuzatish mumkin. Bu harakatlarda asosan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda (shu jumladan boshqa sut emizuvchilarda ham) tug‘ma ovqat qidiruv programmasi elementlarini, ya’ni ona ko‘krak bezi surgichini axtarib topishda, og’iz va qo‘lchalarining bir-biriga mos harakatlarini va ko‘krak bezi surgichini topgandan so‘ng uyga maxkam surib yopishib olishini va uyquga ketgunga qadar to’yib emishini kuzatish mumkin.

A.M. Widstrom fikricha yuqorida keltirilgan holatlarni yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda dastlabki 120 - 150 minut ichida kuzatish mumkin. Shuning uchun ham yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda artib, quritib ona qorniga yalong‘och holda yotqizish va boqish tavsiya etiladi, bu esa bir tomondan bola bilan ona o‘rtasidagi jismoniy kontaktni erta shakllanishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa ona umumiy axvolini tezrok tiklanishiga, hamda eng muximi onada "onalik mexrini" erta shakllanishiga, bu esa bolani tug‘ilgan davrdan boshlab bolani o’z ovaqt davomida yetarli miqdordagi ona suti bilan boqishga muxim dalil bo‘ladi. Erta ko‘krakdan boqish muxim tomoni bola emishi natijasida ona organizmida prolaktin va oksitotsin gormonlari miqdori ortadi. Bu gormonlar o’z navbatida. bir tomondan sut hosil bo‘lishi va ajralishini kuchaytirsa, ikkinchi muxim tomoni shundaki oksitotsin bachadon sillik mushaklarini ham kisqartirib, natijada bachadondan qon ketishini oldini oladi va uning chaqaloq tug‘ilgandan keynigi involyutsiya vaqtini tezlashtiradi. Ayni paytda ona bilan bola o‘rtasidagi teri orqali, teri orqali va x.k. bo‘lgan qontaktlarni kelgusida ham saqlanib qolishi, onada bola parvarishiga oid qoidalarni tezrok o‘zlashtirib olishga va tug‘ruqxonadan chiqqandan so‘ng bolani to‘g‘ri parvarishlashiga muxim omil bo‘ladi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqni dastlabki 20-30 minut ichida ko‘krakdan boqish barcha tug‘ruqxonalarda ham tabiiy bir hol sifatida qabul qilinishi shart deb o’ylaymiz. Tug‘ilgandan keynigi vaqtda esa ma’lum bir soatlarda boqish bolani ozuqa mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish uchun emas, balki bu ko‘proq tug‘ruqxonadagi tibbiyot xodimlari manfaati ko’zlanib yo‘lga. Shuning uchun ham bolani ko‘krakdan emizish vaqti, intervali va x.k. ma’lum bir tartib ostiga olinmagani, ya’ni bolani o’zi emish vaqtini, sut miqdorini belgilagani ma’qulroq.

Onaning ko‘kragidagi sut miqdoridan qatiy nazar, agar bolada ochlik bilan bog’lik bezovtalik paydo bo‘lsa, uni albatga ko‘krakdan boqish shart. Chunki, tez-tez emish hisobiga propaktin, oksitotsin gormonlarining qondentradiyasini ortishiga, hamda sut bezi alveolalarini sutdan to’liq bo’shashini hisobiga qoldiq sut miqdorini kamayishi, natijada bu qoldiq sut tarkibida aniqlanadigan laktatsiyani ingibitsiyalovchi oqsil faktorining konsentratsiyasini kam bo‘lishi hisobiga kelgusi boqishlaridagi sut miqdori ortib boradi.

Pediatrlar orasida ona va bolaning chaqaloq tug‘ilgan davrdan birga bo‘lishi, ularning teri kontaktni hisobiga neonatal infeksiya tarqalishi ortadi degan tushuncha ham yo’q emas. Vaxolanki, ona-bola xonasidagi mikroblar peysaji berk, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar bo‘limidagi mikroblar peysajidan kamroq. Ayni paytda sog‘lom ona organizmida asosan saprofit mikroblar turkumi ko‘proq, ikkinchi tomondan esa mana shu mikroblarga qarshi ona qoni zardobida, sutida ham antitelolar mavjud.

Bundan ko‘rinadiki ona va bolaning chaqaloq tug‘ilgandan boshlab birga bo‘lishi, yangi tug‘ilgan chaqaloq terisida, oshkozon-ichak tizimida, teri koplamida saprofit mikroblar kolonniyalarini shakllanishi uchun ham ahamiyatlidir.

Sog‘lom chaqaloqqa ona sutidan bo‘lak hech narsa (suv, utlar damlamalari, energetik komponentpar va x.k.) bermaslik kerak. Chunki ona suti bolani dastlabki kunlardai, toki u 4-6 oy bo‘lgunga qadar suyuqlik bilan va boshqa barcha ozuqa ingridnentlari bilan to’liq ta’minlaydi. Suyuqliklarni berilishi esa "yolg’on to’qlik" hissini paydo bo‘lishiga va natijada bu esa o’z navbatida hosil bo‘layotgai sut miqdorini kamayishiga olib kepadi. Bola ko‘krakni emish jarayonining avvaldagi sut tarkibida suyuqlik va laktoza miqdori ortiq bo‘lsa, oxirida esa yog’ miqdori ko‘p bo‘ladi. Shuning uchun ham onalarni har bir ko‘krak bezini sutdan tug’a boshla-ganiga qadar bolani emizish kerakligiga o’rgatish lozim. Naxordagi sut miqdori va sifatini kunning ikkinchi yarmidagi sutdan farq qiladi. Agar naxorda sut miqdori ko‘p bo‘lsa kunning ikkinchi yarmida esa kam, lekin uning tarkibidagi oziqlantiruvchi moddalar konsentratsiyasi baland bo‘lishi kuzatilgan

Tabiy ovqatlantirilayotgan bolalar sutka davomida 6-10 marta, hatto dastlabki vaqtlarda 12 martagacha emishi mumkin.

Bola emish vaqtining dastlabki 2 - 3 minutida bir martalik olishi kerak bo‘lgan

sutning deyarli 50 % ni. 4-5 minutida esa 80 - 90% teng miqdordagi sutni surib oladi. Shuning uchuy bolani ko‘krakdan emishni 15-20 minutdan ortiq vaqt ushlab turilishi uchun asos yo’q. Har bir boqishda ikkala ko’krakdan boqish, laktatsiya jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki ikkala ko‘krakda ham hosil bo‘layotgai sut miqdori bir xil ulardan birontasining tuda boshlamasligi kelgusida sut miyorini kamayishiga olib keladi.

Bolani ko‘krakdan uzoq emib turishiga asosiy sabab bu bolaga ko‘krak so’rg’ichini noqulay yoki butunlay noto‘g‘i berish ham bo‘lishi mumkin. Bu esa bolani to’ymasdan uzoq emishga, natijada sut bezi surg‘ichlarini shikastlanishiga olib keladi. Shuning uchun ham homiladorlikning oxirgi haftalarida yoki homila tug‘ilgandan so‘ng emizikli onalarga bolani ko‘krakdan to‘g‘ri boqish usulini o‘rgatib borish kerak.

Bola ko‘krakni emayotganda uning faqat so‘rgich soxasi emas, balki so‘rg‘ich uchidan 2,5 - 5 sm atrofidagi masofani fiksatsiya qilsagina sutni sut sinuslardan yo‘llariga to‘liq tushishini ta’minlandi. Bunda ko‘krak bezini bola emayotganda ona barmoqlari orasida ushlab turishi shart emas, ushlab turish esa sut yo‘lidan sutni evakuatsiyasiga to‘sqinlik qilishi, natijada sut bezlari u yoki bo‘lagini patologik qattiqlashishiga olib kelishi kuzatilgan

Sut bezlarida bola to‘yib emgandan keyin qolayotgan sutni sog‘ib tashlash tavsiya etilmaydi. Faqatgina onalarga sut bezlaridagi bosimni ortishini oldini olish tavsiya etilgani ma’qulroq, bunga esa bolani emizish yo‘li bilan va siynabandlar hamda tor kiyim kiymaslik yo‘li bilan erishiladi.

Ko‘krak bezidan sutni turib qolish esa, qachonki bolaning quvvati kamligi, kasalligi tufayli oxirgacha emaolmasa, hamda sut bezi yo‘llarida sut dimlanib qolsa, yoki sut hosil bo‘lishini stimulyatsiya qilish maqsadlaridagina o‘tkaziladi. Ko‘krak bezidagi sutni sog‘ishni qo‘l bilan yoki maxsus sut sog’ib oluvchi moslamalar bilan o‘tkaziladi. Qo‘l bilan sog‘ib olish sut bezi surg‘ichlarinn shikastlanishini oldini olishda ikkinchi usullari afzalroq.

Ona bolani ko‘krakni emizib bo‘lgandan keyni sut bezi surg‘ichlariga u yoki u malhamlar surish tavsiya etilmaydi. Aksincha bolani emizib bo‘lgandan so‘ng 1 - 2 tomchi sutni sog‘ib, surg‘ichga so’rib, uni quriguncha ushlab turish va undan so‘ng toza yumshoq (doka) material qo‘yish tavsiya etiladi. So’rg‘ichlarni hech qachon emizikli ona terini qurituvchi moddalar bilan (sovun, spirt va x.k.) yuvmasligi, artmasligi kerak, bu surgichlarni yedirilishiga olib keladi. Ko‘krak bezi sohasidagi ona kiyimlari metall yoki boshqa ko‘krak beziga botuvchi elementlari tutmasligi kerak.

Bolani esa ko‘krakdagi emizib bo‘lgandan so‘ng, sut bilan yutib yuborgan havoni chikaqib yuborish uchun uni vertikal holda bir necha daqiqa ushlab turgan ma’qulroq. Ayrim hollarda bu muolajani emizish davrida bir necha marta qaytarish

mumkin va bundan keyingina chaqaloqni uning yonboshiga yoki qorniga yotqizib qo'yiladi (qaytarib chiqarilgan sutni yoki bola qusganda aspiratsiyani oldini olish maqsadida).

Quyidagi bolani faqat ko'krakdan boqishni to'g'ri tashkil qilish JSST va (YUNISYEF 1989) tomonidan taklif etilgan 10 ta asosiy qoidani keltiramiz.

JSST/ YUNISYEF taklif etgan tabiy ovqatlantirishnnng 10 eng muxim prinsiplari.

1. Tabiiy ovqatlantirishning barcha qoidalariga rioya qilish va bu qoidalarni ham ma tibbiyot xodimlari diqqatiga yetkazish.

2. Barcha tibbiyot xodimlarini tabiiy ovqatlantirish qoidalari bilan tanishtirish va ularni o'z faoliyatida qo'llash uchun amaliy o'rgatish.

3. Barcha homilador ayollarni ko'krakdan boqish afzalliklari bilan tanishtirish.

4. Ko'zi yorgan barcha onalarga chaqaloq tug'ilgandan keyingi yarim soat vaqt ichida bolani ona ko'kragidan boqishga yordamlashish.

5. Barcha onalarni ko'krakdan to'g'ri boqish texnikasini va laktatsiya jarayonini uzoq saqlab qolish usullarini o'rgatish, xatto ona va bola alohida bo'lgan hollarda ham.

6. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarga ona sutidan bo'lak xech qanday ovqat yoki suyuqlik bo'lmaslik. Bundan. Tibbiy sabablarga ko'ra kiritiladigan mahsulotlar mustasno.

7. Ona va bolani sutka davomida birga bo'lishini ta'minlash.

8. Ona suti bilan boqilayotgan barcha yangi tug'ilgan chaqaloqlarni ona ko'kragini immitatsiya qiluvchi yoki tinchlantiruvchi sun'iy mahsulotlarni bermaslik.

9. Bolani ona ko'kragidan, uning talabiga mos boqish, ya'ni ko'kradan boqilayotganda boqishlar o'rtasidagi interval, boqish soni va sut miqdorini bolaninig o'zi belgilaydi.

10. Ko'krakdan boqishni targ'ib qiluvchi guruhlarni tashkil qilshini keng yo'lga qo'yish va bu guruhlarga homilador ayollarni, ko'krakdan boqayotgan onalarni yo'llash.

Nazorat savollari.

1.Chaqaloqlik davrining xususiyatlari, chegaradosh holatlarni izohlang.

2. Effektiv perinatal parvarishlashni tavsiflab bering.

3.Ko'krak suti bilan oziqlantirish (JSST) dasturi haqida fikr bildiring.

4.Bolalarni to'g'ri ovqatlantirish usulini izohlab bering.

5.Emizikli onalar kun tartibini va ovqatlantirishni tashkil qilish usulini izohlang.

6.Ona ovqatining ko'krak suti miqdori va sifatiga ta'siri qanday.

7.Chala tug'ilgan chaqaloqlar onasi sutining xususiyatlarini izohlang.

8.Ona sutining kimyoviy tarkibi va uning biologik ahamiyatini izohlang.
9.Sut bezlari xujayralarida sutning hosil bo‘lishi haqida Sizning fikringiz.

1- AMALIY MASHG’ULOT.

Yuvenil revmatoid artrit. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga Yuvenil revmatoid artrit tushuntirish va kasallikning tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Yuvenil revmatoid artrit bilan og’rigan bemorlarni muxokama qilish.
2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. Yuvenil revmatoid artrit qiyosiy tashxisini namoyish qilish.
4. Yuvenil revmatoid artrit davolash usullarini tanlash.
5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1. Qon aylanish tizimining AFX bilish.
2. Yuvenil revmatoid artrit etio-patogenezi.
3 Yuvenil revmatoid artrit diagnostik mezonlari.
4. Yuvenil revmatoid artrit davolash va profilaktika prinsiplari.
6.Kardiorevmatolog maslaxatiga ko‘rsatma.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.
2.Ushbu kasallik bo‘yicha klinik, laborator, EKG natijasini baxolash.
3.Qon aylanish tizimi kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.
4.Ushbu kasalliklarda ko‘krak qafasi palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.
5. Yuvenil revmatoid artrit klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.
6. Yuvenil revmatoid artrit bilan og’rigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Etiologiyasi va patogenezi - YRAning asosiy etiologik omili bo'lgan yagona tahdid aniqlanmagan, shuning uchun YRA polietiologik, ya'ni. heterojen kasallik. YRA rivojlanishiga moyil bo'lgan omillarni va YRAni amalga oshirishga yordam beradigan omillarni (agar moyil bo'lganlar mavjud bo'lsa) ajrating.

YRA rivojlanishiga moyil bo'lgan omillarning ushbu pozitsiyalaridan organizmda doimiy bo'lganlar guruhiga kiruvchi bir qator viruslar ko'rib chiqiladi. Bular, asosan, DNK-p PI IK ni o'z ichiga olgan viruslar (onkornaviruslar, retroviruslar, parvaviruslar va boshqalar) bo'lib, ular xromosomalardagi genomik

hududlarni almashtira oladilar, uzoq vaqt davomida faol bo'lmaydilar va faqat har qanday qo'zg'atuvchi omillar bilan boshlanganidan keyin mutagen funktsiyalarni bajaradilar. Ularning harakatlarining tashabbuskorlari immunitet mexanizmlarini zaiflashtiradigan tez-tez kasalliklar, gipotermiya, insolyatsiya, travma, noqulay ekologik omillar (radiatsiya ta'siri, og'ir metallar va boshqalar), surunkali stress bo'lishi mumkin. YRA genezisida sitomegalovirus va Ebshtein-Barr virusining roli aniqlandi. Bu viruslar aniq mutagen xususiyatga ega, immunokompetent moddalar uchun yuqori tropizmga ega. Ushbu viruslarning ta’sirini jadal o'rganish ularning tanadagi ko’plab immunologik o'zgarishlarning rivojlanishida ishtirok etishini isbotlaydi, bu esa bemorning individual xususiyatlari, shu jumladan HLA tizimida bir qator markerlarning mavjudligi bilan sharoit yaratadi. revmatik, onkologik va gematologik kasalliklarning rivojlanishi uchun. Hozirgi vaqtda artrotropik (HLA-B27 bilan bog'liqlik mavjud bo'lganda) epterokolitik va urogenital infeksiyalarga (salmonellyoz, shigelloz, yersinioz, xlamidiya, mikoplazmoz va boshqalar) alohida ro’l beriladi. YRA ning mumkin bo'lgan etiologik omili nuqtai nazaridan, qizilcha virusi ham ko'rib chiqiladi, u artikulyar tuzilmalarda tropiostaga ega bo'lib, sinovitning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Immunitetning "kichik" anomaliyalari mavjudligi ham muhokama qilinadi: IgA va lizozimning selektiv yetishmovchiligi, fagotsitozning kamayishi, komplement C2 va C4 komponentlarining yetishmasligi va boshqalar.

Kasallikning HLA tizimining antijenlarini (B12, B27 B35, DR1, DR2, DR4, DR5, DW14, D)C2 va boshqalarni tashish bilan bog'lanishiga alohida ro’l beriladi. Umuman olganda, YRA jinsga moyil bo'lgan kasallik sifatida tasniflanadi. Kasallikning rivojlanishini boshlaydigan omillarning heterojenligi JRA ning klinik polimorfizmini belgilaydi. JRA kursining har bir varianti o'z amalga oshirish mexanizmiga ega, bunda yuqumli omillar va immunogenetik holatning xususiyatlari rol o'ynaydi. Predispozitsiya qiluvchi fon biriktiruvchi to'qima displaziyasining kichik sindromlari bo'lishi mumkin.

YRA bilan kasallangan bemorlarni HLA tizimiga ko'ra fenotiplash kasallikning bir qator shakllarini turli antigenlarni tashishning ustun chastotasi bilan bog'lash imkonini berdi.

YRA bilan og'rigan bemorlar va ularning oila a'zolarida HI A uchun fenotipik xususiyatlarni o'rganish ushbu kasallikning asosiy va ikkilamchi prognozi uchun istiqbollarni ochadi. So'ralganlarning oilalarida JRA bilan og'rigan bir nechta bolalar yoki yaqin qarindoshlar kamdan-kam uchrasa ham, HLA gaplotiplarini o'rganish natijalari ushbu kasallikka tug'ma moyillikni taxmin qilish imkonini beradi. Ego, o'z navbatida, turmush tarzini (sport, qo'shimcha yuklamalar, ovqatlanish va boshqalar), qattiqlashuv, profilaktik emlashlar va boshqalarni tashkil etishga yondashuvlarda individuallashtirishni nazarda tutadi.

Shunday qilib, JRA irsiy moyillikka ega bo'lgan multifaktorial kasallik bo'lib, uning genezisida immunogenetik omillar, doimiy virusli infeksiyalar, atrof-muhitning salbiy ta'siri va psixoemotsional stress rol o'ynaydi. Klinik polimorfizm kasallikning etiologik va patogenetik hotirjamligi bilan belgilanadi.

Klinikasi va tasnifi. JRA ning klinik ko'rinishi ko'plab omillarga bog'liq - bolaning yoshi, irsiyat, jinsi, immunitet tizimining boshlang'ich holati, uning atrof-muhit sharoitlari, hayotning psixo-emotsional holatining xususiyatlari, bolalarga munosabat. bemor va yaqin qarindoshlari kasallik, tashxisning o'z vaqtida, terapiyaning yetarliligi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 80% hollarda JRA ertami-kechmi nogironlikka olib keladigan qaytalanuvchi va progressiv kurs bilan og'ir surunkali kasallikdir. Kasallikning asosiy klinik ko'rinishlari bo'g'imlarning shikastlanishi, ko'zning o'ziga xos shikastlanishi va umumiy revmatoid sindrom bo'lib, isitma, tipik revmatoid toshmalar, poliserozit va tizimli revmatoid vaskulit tufayli yuzagakeladigan ichki organlarning shikastlanishi bilan tavsiflanadi.

Artikular sindromi JRAning amalda eng erta alomatidir. Ba’zan, artrit boshlanishidan oldin, bola artralgiya bilan bezovtalanadi, keyinchalik sinovitning rasmi rivojlanadi, ya'ni. sinoviumdagi yallig'lanish jarayoni. Shu munosabat bilan u shishiradi (shishadi), giperemik bo'ladi, ko'proq suyuqlik hosil qiladi, uning tarkibi oddiy suyuqlikdan sezilarli darajada farq qiladi. Suyuqlik past viskoziteye ega, yengil somon yoki loyqa sariq bo'lishi mumkin, sitozning kuchayishi, leykotsitlar, neytrofillar ustunlik qilishi mumkin, oqsil kamayadi lizosomal fermentlar Bu sizga erta tashxis qo'yish, yetarli davolanishni belgilash imkonini beradi.

Klinik jihatdan, o'tkir sinovit bosqichida, bola og'riyotgan og'riq va shish haqida tashvishlanadi, uning harakatchanligini cheklaydi va tana harorati odatda ko'tariladi. Jarayon davom etar ekan, sinovial membrananing mikrovillous proliferatsiyasi pannus (granulyatsiya to'qimalarining to'planishi) shaklida sodir bo'ladi. U artikulyar sirtga tarqaladi va B haftaga kirib, unda distrofik va destruktiv o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, bu hujayralilik va periartikulyar osteoporoz bilan rentgenologik jihatdan namoyon bo'lishi mumkin. Keyinchalik kapsulaning fibrozi va bo'g'imdagi tolali yopishishlar rivojlanadi. Suyaklarning epifizlari eroziyalanadi va yo'q qilinadi. Bu jarayon odatda o'sib boradi va fibrozning yanada rivojlanishi qo'shilish konfiguratsiyasining o'zgarishiga, uning harakatchanligi va ankilozning cheklanishiga olib keladi.

JRA uchun revmatoid tugunlarning mavjudligi xarakterlidir. Ular asosan tendon, bursalar bo'ylab tirsak, tizza va oyoq bo'g'imlarda lokalizatsiya qilinadi. Tugunlar odatda qattiq, harakatchan va palpatsiya paytida og'riqli. O'tkir jarayonning susayishi bilan ular yo'qoladi.

JRA bilan og'rigan bemorlarda ichki organlarning jarayonida ishtirok etish har

doim aytadi kuchli immun yallig'lanishi haqida, ya'ni. yuqori klinik va immunologik faollik bilan kechadigan revmatoid tizimli vaskulitning umumiy ko'rinishlari haqida. Ko'pincha yurak-qon tomir tizimi ta'sir qiladi. Miyokarditning klinik ko'rinishi odatda torpid kurs bilan rivojlanishi mumkin, ammo kamdan-kam hollarda yurak yetishmovchiligining rivojlanishiga olib keladi. Jarayon endokard va perikardni o'z ichiga olishi mumkin, bu revmatizm bilan JRA ning differentsial tashxisini talab qiladi.

O'pka kamdan-kam hollarda jarayonda ishtirok etadi. Ko'pincha, bu pnevmonit yoki past simptomli plevrit bilan namoyon bo'ladi, bu esa keyinchalik n plevra bitishmalarining shakllanishiga olib keladi.

Gepatosplenomegali ko'pincha JRA ning visseral va artikulyar-visseral variantlari bilan birga keladi. Splenomegali odatda kasallikning birinchi yillarida tez-tez aniqlanadi va umumiy yallig'lanish faolligi darajasi bilan bog'liq. Uzoq muddatli splenomegaliya (kasallik boshlanganidan keyin 1,5-2 yildan ortiq) bo'lsa, bu uning amiloid infiltratsiyasining belgisi sifatida qaralishi kerak.

Gepatomegali har doim bolalarda tizimli JRAning birinchi belgilaridan biri hisoblanadi. Jigar jarayonning faolligi pasayishi bilan parallel ravishda kamayadi. Tizimlilikning boshqa belgilari bo'lmasa, doimiy gepatomegaliya terapiyaning ta'sir qilish ehtimolini istisno qilishni va ba'zi hollarda asosiy tashxisni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Og'ir va tabiatan to'liq aniq bo'lmagan jarayonda ko'rish organining ishtiroki bilan YURL variantidir. Bolalardagi kasallikning o'ziga xos belgisi surunkali uveit bo'lib, u erta yoki maktabgacha yoshda tez-tez kasal bo'lib qolgan qizlarga xosdir. Ularda ko'pincha ijobiy DND mavjud. Ba'zi hollarda yallig'lanish jarayoni ìrsíy va siliyer tanasiga tarqalishi mumkin, bu esa iridotsiklitning rivojlanishiga olib keladi. Jarayonning boshlanishi odatda asemptomatik bo'lib, faqat bir nechta bolalar yengil ko'z og'rig'i, qizarish, fotosensitivlikning kuchayishi va ko'rishning buzilishidan shikoyat qilishlari mumkin. Ko'pincha uveit artritdan bir necha yil oldin bo'lishi mumkin. Ikki tomonlama uveit ko'proq uchraydi. Uning rivojlanishi ìrísíning linzaga yopishishiga va ko'rishning to'liq yo'qolishiga olib kelishi mumkin.

JRA bo'lgan bolalarda kech oftalmopatiya rivojlanishi mumkin, ular orasida tarmoqli shaklidagi keratopatiya, ikkilamchi katarakt va glaukoma mavjud.

Bolalardagi JRAning yuqoridagi barcha belgilari ma'lum darajada bir-biri bilan birlashtirilgan.

JRA tizimli shakli. Tizimli shakl JRAning barcha holatlarining 10-20% ni tashkil qiladi. Bu har qanday yoshda, biroz ko'proq 2-6 yoshli bolalarda kuzatiladi. Morfologik jihatdan bu poliserozit va og'ir organlarning shikastlanishi bo'lgan tizimli vaskulyitdir. Boshlanishi o'tkir yoki subakut.

Ushbu shaklning klinik ko'rinishi febril yoki qizg'in isitma bo'lib,

intervalgacha xarakterga ega, ertalab yoki erta tongda tana haroratining maksimal ko'tarilishi, ko'pincha titroq bilan birga keladi, haroratning pasayishi, terlash mumkin.

Ushbu guruhning ko'p tomonlama ta'siri natijasida preparator matritsaning mexanik va elastik fiziologik yaxlitligini tiklaydi, bu esa qo'shma harakatchanlikni yaxshilaydi. Umumiy osteoporozning oldini olish va davolashni o'z vaqtida buyurish juda muhimdir. Osteoporozda D vitamini faol metabolitlari (baliq yog'i ulanishi mumkin) va miakalsik (losos kalsitonin) ni burun spreyi shaklida o'z ichiga olgan kompleksni tayinlash samarali bo'ladi.

Davolash uzoq (4-6 oy) bo'lishi kerak. Kimyoviy tarkibiga ko'ra, qalqonsimon bezning C-hujayralari tomonidan ishlab chiqarilgan 32 aminokislotali peptid gormoni kalsitonin 15 dan ortiq hayvon turlaridan ajratilgan. Ularning o'ziga xosligi aminokislotalarning gaplotipidagi farqlar bilan belgilanadi. Cho'chqa go'shti, inson va qizil ikra kalsitonini amaliy foydalanish uchun eng mos bo'lib chiqdi va ikkinchisi birinchi ikkitasiga qaraganda 20-30 baravar faolroq bo'lib chiqdi.

Kaltsitoninning ta'sir qilish mexanizmlari kaltsiy gomeostazini tartibga solishga, suyak rezorbsiyasini bostirishga, kollagen parchalanishini sekinlashtirishga, suyaklarga kaltsiy va fosfor etkazib berishni ko'paytirishga va yallig'lanishga qarshi sitokinlarning faolligini bostirishga qaratilgan. og'riqning pasayishi. Kundalik doz 200 IU / kun Preparat 14 yoshdan oshgan bolalar va kattalarda qo'llaniladi.

YRAda bolalarni dispanserlashtirish va reabititasiya.

Ambulatoriya sharoitida revmatologning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: jarayonning faolligini bostiradigan terapiya ta'sirini mustahkamlash, klinik va immunologik remissiyani qo'llab-quvvatlash, bolaning funktsional buzilishlarini reabilitatsiya qilish usullarini aniqlash va amalga oshirish.

Ushbu vazifalar JRA bilan og'rigan har bir bemor uchun individual ravishda tanlangan umumiy chora-tadbirlar majmuasini o'tkazishda hal qilinadi, chunki ular bolaning yoshiga, kasallikning shakli va davomiyligiga, tayanch-harakat tizimi kasalliklarining tabiatiga bog'liq.

1 yil davomida shifoxonadan chiqarilgandan so'ng, nazorat har 3 oyda, keyingi yillarda, agar remissiya barqaror bo'lsa, har 6 oyda bir marta amalga oshiriladi. (agar kerak bo'lsa, tez-tez).

Tibbiy nazoratga quyidagilar kiradi: pediatr, revmatolog, tegishli mutaxassislar (otorinolaringolog, oftalmolog, ortoped, stomatolog, nevropatolog, immunolog va boshqalar).

Laboratoriya nazorati jarayonning dinamikasini erta aniqlashni ta'minlaydi: umumiy qon ro'yxati, siydik, biokimyoviy qon testi va iloji bo'lsa, immunologik tadqiqot.

Revmatologning funktsional vazifalari. Bolaning shikoyatlarini, ularning tabiatini, dinamikasini, tekshiruvdan oldingi davr uchun anamnezini baholang.

Surunkali infeksiya o'choqlarining sanitariya holatini kuzatib boring (KBB a'zolari, tishlar). Qo'shimchalarning funktsional holatini baholash (qattiqlik, og'riq, sinovit, yaxshilanish yoki rivojlanish belgilari). Artritning rentgenografik bosqichini aniqlang (yilda bir marta bo'g'imlarning rentgenogrammasi). Osteoporozning mavjudligi, tabiati va darajasini aniqlang (yiliga bir marta rentgen). Og'irlikning ortishi (6 oy davomida, 1 yil davomida) va tana massasining dinamikasini baholang, agar kerak bo'lsa, anemiya va yashirin temir tanqisligini tuzating. Asosiy terapiya samaradorligini baholang (ijobiy dinamika, uning yo'qligi, yomonlashuvi), bolaning ahvoli yomonlashishini kutmasdan, asosiy preparatni boshqasiga o'z vaqtida almashtirish to'g'risida qaror qabul qiling. Asosiy preparatning yetarli dozasini tanlang (GCS, metotreksat, IVIG, MAT). Metabolizmni yaxshilash uchun dori-darmonlarni (B, C, A, E, D vitaminlari, baliq yog'i, eikonol va boshqalar), ferment terapiyasini (vobenzim, flogenzim, mulsal) davom ettiring yoki tezda buyuring. Osteoporozning oldini olish va o'z vaqtida davolash. Immunostimulyatsiya qiluvchi dori sifatida sikloferon (sxema bo'yicha), likopid buyurilishi mumkin; agar kerak bo'lsa, 1-2 oy davomida o'rtacha dozalarda angioprotektorlar va disaggregantlar (dipiridamol, mildronat, pentoksifilin va boshqalar) buyuriladi. Oligoartritning o'rtacha kuchayishi belgilari bilan, GCS ni intraartikulyar yuborish - diprospan (1 oylik interval bilan 2-3 in'ektsiya). Antifibrotik ta'sir ko'rsatish uchun 3-4 oy davomida zaditen (ketotifen) bilan davolash kursini tavsiya qilish mumkin, chunki bu preparat biriktiruvchi to'qimada fibroz shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi mast hujayra degranulyatsiyasini inhibe qilish qobiliyatiga ega. Mahalliy davolash (DMSO, malhamlar, jellar, lidaza bilan elektroforez), massaj, mashqlar bilan davolash, qattiqlashuv. Kasbiy terapiyani tavsiya eting (haykaltaroshlik, tikuvchilik, rasm chizish va boshqalar). Kurslarda lazer terapiyasini (lazer magnitoterapiyasini) tayinlang, faqat tashqi lazer nurlanishi ko'rsatiladi (SBSTni tibbiy reabilitatsiya qilish protokollari, shu jumladan Yu R A, 25-bobda keltirilgan).

JRA bilan og'rigan bemorlarni reabilitatsiya qilish uchun so'nggi yillarda fizioterapiya, massaj, mehnat terapiyasi, revmatik ortopediya bilan bir qatorda keng qo'llanila boshlandi. Konservativ va jarrohlik ortopediya mavjud (tibbiy reabilitatsiya protokollari 25-bobda keltirilgan).

Konservativ revmatik ortopediya JRAda artikulyar deformatsiyalar ortopediyasini ta'minlaydi. Statik arteziyalar (shinalar, shinalar, tagliklar) va dinamik bo'lganlar yengil olinadigan qurilmalar ko'rinishida qo'llaniladi, ular bo'g'inni barqarorlashtirish qobiliyatini ta'minlaydi, buning uchun normal eksenel aylanishni yaratadi. Ortopediya uchun teflon, polistirol va poliuretan kabi plastmassa, polimer va termoplastik materiallar ishlatiladi. Ular immobilizatsiyaning o’z ilishini ta'minlashi muhimdir. Ular jismoniy tarbiya, kasbiy terapiya va boshqalar paytida olib tashlanishi mumkin. JRA bilan og'rigan

bemorlarni konservativ ortopedik davolashda tizza bo'g'imlarining fleksiyon kontrakturalarini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun yuk bilan yotqizish, Bolqon ramkalari yordamida ishlov berish, gipsli gipslar bilan bosqichma-bosqich kiyinish qo'llaniladi.

Jarrohlik revmatik ortopediya faol artritning dastlabki bosqichlarida sinovektomiyani, keyinchalik esa tenotomiya, kapsulotomiyani o'z ichiga oladi. Bolalarda osteoplastik operatsiyalar hali ishlab chiqilmagan, chunki bu aralashuvlar har doim quvurli suyaklarning o'sish zonalariga zarar etkazish xavfini tug'diradi. Artroskopiya usuli diagnostika maqsadida ham, minimal invaziv jarrohlik aralashuvi sifatida ham keng qo'llanilgan. JRA bo'lgan bolalarni kompleks davolashda psixoterapevtik yordam alohida ahamiyatga ega, chunki bu bemorlarning barchasida yuqori darajadagi shaxsiy va vaziyatli tashvish belgilari mavjud.

Bemorning va uning ota-onasining psixologik portretini yetarlicha baholagan holda, ularni kasallikning mohiyati va uni davolashning zamonaviy usullari bilan tanishtirish juda muhimdir. JRA, afsuski, hayot uchun kasallik bo'lib, shifokorning vazifasi bemorni u bilan yashashga o'rgatishdir. Bunday yondashuv shifokor va bemorning hamjihatligini mustahkamlaydi, natijada bu eng yaxshi samarani beradi. Axborotning etishmasligi va shifokordan norozilik ba'zi bemorlar (va ularning qarindoshlari) muqobil tibbiyotda ekstrasenslardan, sehrgarlardan yordam so'rashi, kelib chiqishi shubhali turli "dorilar" dan, yopishqoq qo'shimchalardan foydalanishidan dalolat beradi. asosiy terapiyani mustaqil ravishda bekor qilish, keyinchalik sog'lig'ining sezilarli darajada yomonlashishi bilan shifokorga qaytish. JRA bilan og'rigan bolalar uchun shifokor bilan ishonchli munosabatlar muhim ahamiyatga ega, chunki ularning ko'plari uchun davolanishning samaradorligi va psixo-emotsional holat bu bilan bog'liq. Bu amaliyot shifokorlari - revmatologlar, pediatrlar va terapevtlar orasida tibbiy psixologiya bo'yicha bilimlarni kengroq joriy etish zarurligini asoslaydi.

Bemor va uning ota-onasi kasallikning asosiy klinik belgilarini, kuchayishini qo'zg'atuvchi omillarni, shuningdek, qo'llaniladigan dorilarning nojo'ya ta'sirini bilishlari kerak. Shuningdek, bemorlarning o'zlari va ularning ota-onalari kundalik mashg'ulotlar va fizioterapiya mashqlari ko'nikmalariga o'rgatish kerak.

JRA prognozi. Bolalarning 50 foizida JRA ning tizimli variantlari bilan prognoz juda qulay: bir necha oydan bir necha yilgacha davom etadigan remissiyaga erishish mumkin, uni simptomatik davolash va reabilitatsiya choralari bilan birgalikda tegishli asosiy terapiya bilan qo'llab-quvvatlash mumkin. Biroq, shunga qaramay, JRAning kuchayishi yillar davomida barqaror remissiyadan keyin rivojlanishi mumkin. Bemorlarning 1/3 qismida kasallikning doimiy qaytalanuvchi kursi qayd etilgan. Uzoq muddatli glyukokortikosteroid terapiyasini qabul qiladigan

doimiy isitma, trombotsitozli bolalarda eng noqulay prognoz.

Bemorlarning 50 foizida og‘ir destruktiv artrit, 20 foizida amiloidoz balog‘at yoshida, 60 foizida esa tayanch-harakat apparatining og‘ir funksional yetishmovchiligi rivojlanadi. JRA ning poliartikulyar seronegativ varianti erta boshlangan bolalarda prognoz noqulay hisoblanadi. Oligoartrit bilan og'rigan bemorlarning 30-40 foizida, ayniqsa erta yoki maktabgacha yoshda boshlangan, halokatli simmetrik poliartrit shakllanadi. Kech boshlangan bemorlarda kasallik ankilozan spondilitga aylanishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, bolalar va o'smirlardagi qo'shma kasalliklar nafaqat pediatrlar va terapevtlar, balki ko'plab tor mutaxassislar: nevrologlar, oftalmologlar, endokrinologlar, ortopedlar, mashqlar terapiyasi shifokorlari uchun juda dolzarb muammodir. psixoterapevtlar va reabilitatsiya bo'yicha mutaxassislar.

Erta tashxis qo'yish masalalari, o'z vaqtida va eng adekvat terapiya taktikasi, ayniqsa bo'g'imlarning yallig'lanish kasalliklarini bilish ko'p hollarda kasallikning barqarorlashuvi va remissiyasiga erishishga imkon beradi.

2- AMALIY MASHG’ULOT.

Surunkali gastrit va gastroduodenitlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga Surunkali gastrit va gastroduodenitlarni tushuntirish va kasallikning tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar bilan ogrigan bemorlarni muxokama qilish.
2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar qiyosiy tashxisini namoyish qilish.
4. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar davolash usullarini tanlash.
5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1. Oshqozon ichak s-sining AFX bilish.
2. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar etio-patogenezi.
3 Surunkali gastrit va gastroduodenitlar diagnostik mezonlari.
4. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar davolash va profilaktika prinsiplari.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.
2.Ushbu kasallik bo‘yicha klinik, laborator, FGDS natijasini baxolash.
3. Oshqozon ichak s-sining tizimi kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.
4.Ushbu kasalliklarda palpatsiya,perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.

5. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.
6. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar bilan ogrigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Etiopatogenezi: Gastrit – oshqozon shilliq pardasining yallig‘lanish jarayoni bo‘lib, oqibatda mazkur organ patologik o‘zgarishlarga uchraydi. Bu kasallik turli sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin va turli ko‘rinishda kechadi. Fan oshqozonning birlamchi gastriti tushunchasini ajratadi va u mustaqil patologiyaga ega. Ikkilamchi gastrit esa zaharlanish, infeksiya va boshqa noxush holatlar asnosida paydo bo‘ladi. Xelikobakterioz odatda, qorinda og‘riq bilan bilan boshlanadi va u taom iste’mol qilgandan keyin yoki ovqatlangunga qadar paydo bo‘ladi. Shuningdek, ko‘ngil aynishi, qabziyat, ichburug‘ va jig‘ildon qaynashi singari alomatlar bilan ham kechadi. Gastrit turlari

Surunkali gastrit. Bu xastalik bir qadar sokin kechsada, oshqozon faoliyatining patologiyasiga olib keladi va ba’zan oshqozon shilliq pardalarining butkul zararlanishi oqibatida batamom yemirilishiga (o‘lishiga) sabab bo‘ladi. O‘tkir gastrit surunkasiga aylanib ketishi mumkin: bunday paytlarda kasallik zo‘rayishi va qaytalanishi navbat bilan kechadi. Inson holatiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmagani, boshqa favqulodda alomatlarsiz kechgani sababli, ba’zan kasallikni aniqlash oson bo‘lmaydi. Kasallik zo‘rayishiga noto‘g‘ri ovqatlanish, mahsulotlarga allergik reaksiya, modda almashinuvining buzilishi chekish va spirtli ichimliklar ichish kabilar sabab bo‘ladi.

Kasallikka chalingan organizmda qanday jarayonlar sodir bo‘ladi? Kasallik chaqiruvchi bakteriyalar (Xelikobakter pilori/Helicobacter pylori) oshqozonda ko‘payib, bosqichma-bosqich oshqozon shilliq pardasini yemiradi. Javob reaksiyasi sifatida shilliq parda yemirilgan hujayralarni davolash maqsadida maxsus modda ajratadi. Oqibatda ichki ziddiyat vujudga kelib, og‘riq paydo bo‘ladi, ishtaha pasayib, jig‘ildon qaynaydi va gastritning boshqa alomatlari namoyon bo‘ladi.

Gastrit paydo bo‘lishining endogen sabablari

Gastritga organizmda quyidagi omillar sabab bo‘lishi mumkin:

-oshqozon-ichak kasalliklariga genetik moyillik;

-duodenal refleks;

immun tizimi darajasida hujayralar himoya funksiyasining kuchsizlanishi;

-gormonal buzilishlar;

-zararlangan organlardan xastalikning avtomatik ravishda qo‘shnilariga o‘tishi.

Duodenal refleks – o‘n ikki barmoqli ichakdan safroning oshqozonga noto‘g‘ri tushishidir. Oqibatda oshqozon devorlarining yallig‘lanishi sodir bo‘lib, oshqozon shirasi kimyoviy tarkibi o‘zgaradi. Dastlab mazkur patologiya oshqozon antral qismida sodir bo‘ladi va keyin organni butunlay zararlaydi.

Hujayralar himoya funksiyasining kuchsizlanishi esa ularning normal faoliyati buzilganini ko‘rsatadi. Bular o‘z navbatida qator salbiy patologik jarayonlarga sabab bo‘lib, oshqozon shirasi rN-balansini o‘zgartiradi va uning devorlarini yallig‘laydi. Oqibatda ichki zaharlanish sodir bo‘lib, oshqozon o‘zi ishlab chiqargan shiraning sho‘rligiga salbiy reaksiya ko‘rsata boshlaydi.

Gastrit klinik begilari. Gastritga oshqozonning turli qatlamlaridagi yemirilishlar sabab bo‘ladi. Aksariyat holatlarda, kasallik deyarli sezilmasligi mumkin, ammo bemor taom iste’mol qilganidan so‘ng qorinda og‘irlik, qo‘qqisdan sodir bo‘ladigan sanchiqlar, ko‘ngil aynishi, ishtahaning yo‘qolishi, vazn tushib ketishi va shunga o‘xshash salbiy holatlardan shikoyat qiladi. Gastrit rivojlanishining barchaga taalluqli, yagona alomatlari yo‘q: ular paydo bo‘lishi va keyin yo‘qolishi, alomatlari va ularning qaytalanishi jarayoni kasallikning qay tarzda kechayotgani va qabul qilinayotgan dori vositalariga qarab o‘zgarib turadi.

Kasallikning o‘tkir shaklida quyidagi alomatlar kuzatiladi :

-qorin sohasida og‘riq hissi: og‘riq to‘satdan paydo bo‘lib, o‘tib ketishi yoki aksincha, sezilar-sezilmas va davomiy bo‘lishi mumkin. Aksariyat holatlarda og‘riq ovqat tanavvul qilinganidan keyin paydo bo‘ladi: och qoringa taom yeyilsa va ovqatlanib bo‘lgandan keyin qorinda noxushlik yanada ortadi.

-ko‘ngil aynishi (doimiy yoki takrorlanuvchi, odatda ovqat iste’mol qilgandan keyin paydo bo‘ladi);

-jig‘ildon qaynashi (qizio‘ngachda achishtiruvchi og‘riqli noxush holat);

-kekirish (ovqatdan keyin yoki och qorinda ham; ba’zan og‘izda sho‘r hid hosil bo‘ladi);

-o‘xtin-o‘xtin qayt qilish (avvaliga organizm oshqozondagi yegulik va ichkilikni qabul qilmasdan kishi qayt qilib tashlaydi, keyinchalik qayt massasiga yashil yoki sarg‘imtir tusda shilliq modda aralashadi);

-ko‘p miqdorda so‘lak ajralishi (tanamiz ovqat hazm qilish jarayonining buzilishiga reaksiya biliradi); ba’zan og‘iz bo‘shlig‘i quriydi (bu qayt qilish natijasida organizmning suvsizlanishdan darak beruvchi omil hisoblanadi);

-qabziyat yoki ichburug‘;

-umumiy darmonsizlik, bosh aylanishi, boshog‘rig‘i, kuchli terlash, varaja, qon bosimining pasayishi, yurakning tez urib qolishi (taxikardiya).

Surunkali Xelikobakterioz normal, past yoki yuqori kislotaviylik bilan ham xarakterlanishi mumkin. Bular o‘z navbatida anatsid, giperatsid va gipoatsid gastrit deyiladi.

Kislotaviylik me’yorida yoki yuqori bo‘lsa, bemor og‘riq, jig‘ildon qaynashi va ovqatdan keyingi og‘irlikdan shikoyat qiladi. Aksariyat paytlarda defekatsiya muammolari uchraydi.

Surunkali gastrida yuqori kislotaviylik shuningdek, kekirganda og‘izda sho‘r

ta’m sezilishi, ko‘ngil aynishi, och qolganda oshqozonda og‘riq va tunda noxushlik singari alomatlar bilan kechishi ham mumkin.

Aksincha, past kislotaviylik tilda noxush ta’m, ishtaha buzilishi, qorin quldirashi va ich buzilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Past kislotaviylik sababli kechuvchi surunkali Xelikobakteriozni so‘lakning ko‘p miqdorda ajralishi, qorinda to‘lib ketgandek hissiyot, ovqatlanishga moyillikning yo‘qligi bois anemiya alomatlari bilan ham aniqlash mumkin. Kasallik bir necha yil davom etadigan bo‘lsa, kishi ozib ketib, doimiy behollikni his qiladi.

Gastritni tashxislash

Surunkali gastrit bir necha bosqichda aniqlanadi:

Klinik tadqiqotlar (shifokor bemorning shikoyatlarini eshitadi, kasallik tarixini tuzib chiqadi, bemorni ko‘zdan kechiradi, dastlabki tashxis va bemorga ma’qul keladigan muolajalar rejasini belgilaydi

Endoskopik tadqiqotlar + biopsiya (organizmda Xelikobakter Pilori bakteriyasi bor-yo‘qligi, oshqozon shilliq pardasining o‘ziga xos tuzilishi va shilliq pardasining saratonoldi moyilligi aniqlanadi). Biopsiya kamida 5 biomaterial asosida o‘tkaziladi (2 tasi antral bo‘lmasidan, 2 tasi asosiy bo‘lma va bittasi oshqozon burchagidan olinadi).

Laborator tadqiqotlar (bemorning qoni, peshobi va axlati klinik tahlil qilinadi, qon biokimyo tekshiruvi hamda axlatida yashirin qon majudligi tekshiriladi). Bu ham organizmda gastrit bakteriyasi bor-yo‘qligini aniqlash imkonini beradi.

Jigar, oshqozonosti bezi va o‘t pufagi UTT o‘tkaziladi (bular orqali shifokorlar ovqat hazm qilish tizimiga yo‘ldosh boshqa xastaliklarni ham aniqlaydi).

Oshqozon ichki rN-metriya (bu muolaja oshqozon shirasi kilotaviyligini va ovqat hazm qilish tizimining kislotaviylikka bog‘liq xastaliklarini aniqlash uchun qo‘llanadi).

Elektrogastroenterografiya (bu ovqat hazm qilish tizimi ishlash mexanizmi va duodenogastral reflyuksni aniqlash uchun qo‘llanadi).

Ovqat hazm qilish tizimi yuqori bo‘lmalari manometriyasi (reflyuks-gastritni aniqlaydi). Bunday kasalligi bor bemorlarda 12 barmoqli ichak bosimi taxminan suv ustunining 200 mm.ni tashkil etadi. Sog‘lom kishilarda esa bu ko‘rsatkich 130 mm.dan oshmaydi.

Gastrit mutaxassislari uni davolash uchun bir necha tipdagi preparatlarni tavsiya qiladi:

Detoksikatsiyalovchi dorilar (antidotlar)

Antatsidlar;

Dezinfeksiya uchun antiseptiklar;

Ichburug‘ga qarshi vositala;

Tetrasiklin tarkibli antibiotiklar;

Sorbentalar (Filtrum);
Allergiyaga qarshi vositalar (N2 podtip);
Ferment preparatlar («Mikrazim»).

Gastritga qarshi terapiyaning asosiy vazifasi – kasallik sabablarini bartaraf etish hamda uning rivojlanishini rag‘batlantiruvchi va og‘irlashtiruvchi omillarni bartaraf etishdir (masalan, noto‘g‘ri ovqatlanish, infeksion omillar va h.k.). Oshqozon shilliq pardasi tiklanish jarayonini faollashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari qator proiflaktika choralari ham mavjud. Shunday qilib, kasallikka qarshi majmuaviy kurash dori-darmon muolajalari, to‘g‘ri ovqatlanish va gastrit xuruj qilganida qo‘llanadigan profilaktika choralarini o‘z ichiga oladi.

Gastritni davolash majuaviy prinsipga ega bo‘lib, kasallik nima sababdan kelib chiqqanini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Odatda, shifokorlar antibiotiklar ularga parallel ravishda oshqozon shirasi kislotaviyligini pasaytiruvchi vositalar tavsiya qiladi. O‘zbilarmonlik bilan davolanish yaramaydi: terapiya kursi va miqdorini davolovschi shifokorgina belgilashi mumkin. Odatda, sog‘ayish jarayoni 7-14 kunni tashkil qiladi.

Yana bir bor ta’kidlamoqchimiz – kislotaviylik darajasini pasaytirish muolajaning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu shilliq pardani himoyalash, noxush hislarni bartaraf etish, shuningdek, preparatlar umumiy ta’sirchanligini oshirishga ko‘maklashadi.

Nihoyat, gastrit terapiyasi vismut dori vositalarini qabul qilishni ham o‘z ichiga oladi. Ular shilliq pardaning ustki himoya qatlamini shakllantirishga yordam beradi va natijada shillik parda hujayralari oshqozon shirasining yuqori kislotaviyligi va bakteriyalarning salbiy ta’siridan bir muncha uzoq bo‘ladi.

Gastrit asoratlari. Umuman olganda, gastrit xavfli xastaliklar qatoriga qo‘shilmaydi (kasallikning flegmonoz turidan boshqa). Shunday bo‘lsada, gastrit oqibatida quyidagi xavfli holatlar yuzagakelishi mumkin:

oshqozonda ichki qon ketishi;
oshqozon va 12 barmoqli ichak yaralari;
oshqozon saratoni.

Yuqordagi o‘ta salbiy oqibatlardan tashqari, gastrit asosan ovqat hazm qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasallikka chalingan bemorlar oshqozondagi og‘riq va jig‘ildon qaynashi singari noxush holatlardan cho‘chib, ovqatdan voz kechishga majbur bo‘ladi. Oqibatda kishi ozib ketishi, ba’zan esa organizm taomni qabul qilmasligi, kuchli qayt qilish va jig‘ildon qaynashi mumkin. Bulardan tashqari, gastrit avitaminoz va kamqonlik (anemiyaga) olib keladi.

Gastrit profilaktikasi

Aslida, har bir inson umri davomida gastritga yo‘liqmaslik uchun zarur choralarni ko‘rishi lozim. Buning uchun esa, zararli odatlar - chekishdan qoz

kechish va spirtli ichimliklar iste'molini imkon qadar kamaytirish, foydali yeguliklar va mahsulotlarni tanavul qilishi, me'yorida sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi, o'zini turli stresslardan himoyalashi kerak.

3 -AMALIY MASHG'ULOT.

Yara kasalligi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi.

Talabalarga Surunkali gastrit va gastroduodenitlarni tushuntirish va kasallikning tekshirish usullari haqida ma'lumot berish.

Amaliy mashg'ulotning vazifalari.

1. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar bilan ogrigan bemorlarni muxokama qilish.
2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar qiyosiy tashxisini namoyish qilish.
4. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar davolash usullarini tanlash.
5. Sog'lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1. Oshqozon ichak s-sining AFX bilish.
2. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar etio-patogenezi.
3 Surunkali gastrit va gastroduodenitlar diagnostik mezonlari.
4. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar davolash va profilaktika prinsiplari.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to'g'ri yig'ish.
2.Ushbu kasallik bo'yicha klinik, laborator, FGDS natijasini baxolash.
3. Oshqozon ichak s-sining tizimi kasalliklarini xolisona ko'ruvdan o'tkazish.
4.Ushbu kasalliklarda palpatsiya,perkussiya va auskultatsiya o'tkaza bilish.
5. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar klinik ko'rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.
6. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar bilan ogrigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Etiopatogenezi. Yara kasalligi – oshqozon va 12 barmoqli ichakda yara hosil bo'lishi bilan kechadigan surunkali qaytalovchi (retsidivli) kasallik. Tarqalishi. Yara kasalligi bolalar va o'smirlarning 0,7-6,2% ida uchraydi. Kasallik hamma yoshlarda, eng ko'p 8-12 yoshli o'quvchilarda uchraydi va bolalardagi boshqa gastroenterologik kasalliklarning 5-7% ini tashkil etadi. Etiologiya va patogenez. Yara kasalligini keltirib chikaruvchi omillar. Ularga quyidagilar kiradi: 1. Ovqatlanish tartibidagi buzilishlar, shoshilib ovqatlanish, quruq ovqatlr yeyish, ovqatlanishdagi miqdor va sifat buzilishlari (achchiq, ko'p miqdordagi, issiq yoki sovuq ovqat va suyuqliklar, uzoq muddatli tanaffus bilan tartibsiz ovqatlanishlar).

2. Infeksiyaning surunkali o‘choqlari, intoksikatsiya va oshqozon-ichak yo‘li yoki boshqa a’zo va tizimlarning turli kasalliklari. 3. Nasliy moyillik 4. Ruxiy zo‘riqish. 5. Dori darmonlar ta’siri 6. Xelikobakteri pilori ta’siri 7. Nojo‘ya odatlar.

Ba’zi dori vositalari, masalan, atsitilsalitsil kislotasi, analgin, sulfanilamidlar sistostatik va glyukokortikoidlar qabul qilinganda oshqozonning o‘tkir yarasi hosil bo‘lishi mumkin, lekin uning kechishi yara kasalligidan farqlanadi. Dori vositasini qabul qilish to‘xtatilsa, yara tezda tuzaladi. Yara kasalligining nasliy va allergik kelib chiqishi haqida ham taxminlar bor. So‘nggi yillarda yara kasalliklarining paydo bo‘lishida kampilobakterlarning roli haqida munozaralar olib borilyapti. Ushbu mikroorganizm oshqozon shilliq qavati epiteliysiga, ayniqsa, antral qismida (u yerda suyuqlik ishqoriy muhitga ega), adgeziya (ya’ni yopishish) xususiyatiga ega bo‘lib, u yerda oshqozon shilliq shirasining sekretsiyasini bo‘zadi (balki uning tarkibini ham), shilliq qavat xususiy plastinkasi limfotsit va plazmatik hujayralar bilan infiltratsiyalanadi, natijada antral qismida yuzaki gastrit hosil bo‘ladi. Bunda kompilobakteriyaga xos 1S – antitanachalar ishlab chiqariladi. Organizmning javob reaksiyasi natijasida shilliq qavatga juda ko‘p limfotsit, neytrofil, plazmatsidlar migratsiya qilinadi va yallig‘lanish jarayoni kuchayadi, mikrotsirqo‘lyatsiya va regeneratsiya jarayonlari buziladi. Shilliqdan iborat himoya qobig‘ining ishlab chiqarilishi yanada kamayib, oshqozon shirasining deyarli ochiq shiliq qavatga tajovo’z i uchun sharoit yaratiladi, natijada nekroz va yara hosil bo‘ladi.

Mikroorganizmning uzoq vaqt persistensiyasi yaraning qaytalanishi yoki xurujiga olib keladi. Yara kasalligining rivojlanishida bosh miya qobig‘i va qobiq osti tuzilmalarining fiziologik bog‘liqligining buzilishi, uzoq vaqt ruhiy zo‘riqishda (masalan, maktabdagi zo‘riqish, oila va maktabdagi nizolar) kortiko–visseral mexanizmlarning ishdan chiqishi ham muhim ahamiyatga ega. Destabillashtiruvchi faktorlar ta’sirida markaziy, parasimpatik va simpatik nerv tizimlari, gipotalamo–gipofizar tizimda, ayniqsa ularning yosh organizmda qayta tiklanish davridagi nozik vaqtida, adaptiv o‘zgarishlar bo‘ziladi. Adashgan nervning faollashishi natijasida gastrin hosil qiluvchi hujayralardan (s-hujayralardan) gastrin ajralishi va gistamin hosil qiluvchi hujayralardan (Yes1- hujayralardan) gistamin ajralishi kuchayadi. Natijada oshqozon sekretsiyasi va pepsin, oshqozon osti bezi fermentlarining hosil bo‘lishi ko‘payadi. Oshqozon sekretsiyasi, pepsin va oshqozon osti bezi fermentlarining kislota hosil qiluvchi va proteolitik faolligi ham ortadi, o‘t ajralishi kuchayadi. Bu jarayon yana gipotalamo–gipofizar tizim orqali somatotrop, tireotrop, adrenokortikotrop garmonlar ishtirokida ham kuchayadi.

Yuqori kislotalilik va proteolitik faollik xususiyatiga ega bo‘lgan oshqozon shirasining oshqozon yoki 12 barmoqli ichak shilliq qavati bilan uzoq vaqt aloqasi oshqozon-ichak yo‘li fiziologik jomlarining diskineziyasi, epigastral va intraduodenal bosim va rN ning ortishi natijasida shilliq qavat destruksiyasiga olib

keladi (yoki uni kuchaytiradi). Bunda oshqozondan kelgan kislotali muhitga ega bo‘lgan ovqat qoldiqlari o‘z vaqtida oshqozon osti bezi sekreti va shilliq bilan ishqorlanmaydi, shilliq qavatning «himoya barer»i susayadi, (bu vazifani mutsin bajaradi, u xlorid kislotani bog‘laydi, pepsinni adsorbsiya qiladi pepsinli hazm qilishni to‘xtatadi). Ushbu o‘zgarishlar natijasida yara hosil bo‘ladi.

Klinikasi. Yara oshqozon tubi bilan tanasida joylashsa, oshqozon bezlarining funksional yetishmovchiligi kuzatiladi. Yara piloroduodenal qismda joylashsa, shilliq qavatning barcha maxsus funksiyalari kuchayadi. Bolalarda yaralar odatda 12 barmoqli ichakda joylashadi (oshqozonga qaraganda 6-12 marta ko‘proq). Oshqozon yarasi 12 barmoq ichak yarasi bilan yoki eroziv duodenit bilan birga uchrashi mumkin. Kichik yoshdagi bolalarda kasallik atipik kechadi. Bola qanchalik kichik yoshda bo‘lsa, shikoyatlar shunchalik spetsifik bo‘lmaydi. Kattaroq yoshda belgilar kattalarnikiga o‘xshash, lekin sustroq bo‘ladi.

Ko‘p hollarda xarakterli yara anamnezi bo‘lmaydi, chunki bolalar og‘riqni tez unitadilar, uni ajrata olmaydilar, uning joyini va sababini aniqlay olmaydilar. Ba’zan kasallik uzoq vaqt o‘t yo‘llari diskineziyasi, surunkali gastrit va h.z. deb hisoblanadi.



Asosiy shikoyat - og‘riq. U bemorning yoshiga, induvidual xususiyatlari, asab va endokrin tizimining holati, yaraning anatomik xususiyatlari, gastroduodenal tizimdagi funksionl buzilishlarning namoyon bo‘lish darajasiga bog‘liq. Boshida og‘riq noaniq bo‘ladi. Ba’zan u epigastrit, kindik sohasida joylashib, ba’zan esa butun qorin bo‘ylab tarqaladi. Keyinchalik og‘riq doimiy, kuchliroq, kechasi va och qoringa hosil bo‘ladi. Bolalarda dispeptik o‘zgarishlar (ko‘ngil aynish, qusish) kattalarga nisbatan kamroq uchraydi va sustroq namayon bo‘ladi. Jig‘ildon qaynash, qusish, kekirish va gipersalivatsiya yanada kamroq uchraydi. Kasallik qanchalik uzoq davom etsa, bunda dispeptik o‘zgarishlar ko‘proq kuzatiladi. Ko‘pchilik bolalarning ishtahasi bo‘lmaydi, lekin bemorning deyarli yarmida u sust bo‘ladi. Bunday holatda jismoniy rivojlanishdan orqada qolishi mumkin (ozish). Yara kasalligi rivojlanishi bilan insonning ruhiy xotirjamligi zaiflashadi, og‘riqlar tufayli uyqu buziladi. Tez charchash, astenik holat kuzatiladi. Qabziyat yoki ich ketishi

bo‘lishi mumkin. Gipergidroz, arterial gipotoniya dermografizmning o‘zgarishi, ba’zan bradikardiya kuzatilishi vegetativ asab tizimidagi o‘zgarishni, parasimpatik ta’sirning kuchayishini bildiradi. Til karash bo‘ladi, qorinni paypaslaganda piloroduodenal sohada og‘riq bo‘ladi. Bolalarda ko‘pincha yaraning joylashishidan qat’iy nazar, epigastrit, ba’zan o‘ng qovurg‘a osti sohasida ham og‘riq bo‘ladi. Mushak himoyasi belgisi bolalar va o‘smirlarda kamdan-kam, faqat kuchli og‘riqlarda kuzatiladi. Kasallikning xuruj davrida Mendelning musbat «bolg‘achali» simptomi aniqlanadi. Ba’zan VIII-XI ko‘krak umurtqalarining uchkir o‘simtalari sohasida og‘riq (Oppenxovskiy simptomi) va III bel umurtqasi ko‘ndalang o‘simtalari sohasida og‘riq (Gerbet simptomi) kuzatiladi. Yaradan qon ketganda axlat yashirin qonga tekshirilganda musbat reaksiya bo‘ladi. Tashxis. Yara kasalligi bilan kasallangan ko‘pchilik bolalarda oshqozonning sekretor faoliyati oshqozon shirasining ishlab chiqarilishi hajmi kislotaliligi, xlorid kislotaning debit–soati, pepsin faolligi faqat zo‘riqish vaqtida emas, balki nahorgi va bazal sekretsiyada ham ortishi kuzatiladi. Umumiy va erkin kislotalilik egri chiziqlari zinapoyali xarakterga ega. Katta yoshdagi, kasalligi uzoq davom etayotgan bolalarda sekretsiya va kislotalilik ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi. Kasallikning xuruj davrida nordon proteinaza, ayniqsa rN ta’sir doirasi ancha keng bo‘lgan va natijada pepsin faolligini uzoq vaqt saqlay oladigan miqdori ortadi.

Oshqozon shirasining normal yoki past kislotalilik holatlari kamroq uchraydi. Davolashdan so‘ng og‘riqlar yo‘qolganda oshqozonning sekretor faoliyati normallashadi. Gipersekretsiya giperxlorgidriyadan avvalroq yo‘qoladi. Asoratsiz yara kasalligida ba’zi bemorlarda eritrotsitlar miqdori ortadi, ammo yashirin qon ketishida asta- sekin qon ketishdan (gemorragiyadan) keyingi kamqonlik, oshqozon rezeksiya qilingandan so‘ng esa ichki faktor ishlab chiqarilishining kamayishi natijasida V12-tanqisligi kamqonligi rivojlanishi mumkin. Leykotsitlar miqdori odatda me’yorida, ba’zi bolalarda leykopeniya kuzatiladi. Nisbatan neytrofilez, eozinofiliya, monotsitoz bo‘lishi mumkin. Bu o‘zgarishlar davolanishdan keyin yo‘qoladi. SOE (eritrotsitlarning cho‘kish tezligi EChT) me’yorida bo‘ladi, asoratlar (yara penentratsiyasi, malignizatsiyasi) rivojlanganda SOE ortadi. Yarali defektni aniqlash va yara kasalligini tasdiqlashda EGDS (ezofagogastroduodenoskopiya) yetakchi o‘rinni egallaydi. Endoskopiyani bajarishga imqon bo‘lmasa, bariy bilan rentgen tekshiruvi o‘tkaziladi («nisha», burmalar konvergensiyasi, a’zoning chandiqli deformatsiyasi aniqlanadi). Yuqoridagi bevosita belgilardan tashqari bir qator bilvosita rentgen belgilar ham bor: och qoringa gipersekretsiya, 12 barmoqli ichak boshchasi deformatsiyasi, uning ta’sirchanligini bariydan tez bo‘shash bildiradi, piloroduodenospazm, spastik peristaltika va boshqalar. Ko‘pincha yarani aniqlashga mushaklar qisqarishi, shilliq qavatning shishi, yarali defektda ovqat qoldiqlari, qon quyqasi, shilimshiqning

borligi to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun rentgen tekshiruvini tinch holatda, aeron, atropin, metatsin kabi dori vositalari ta’sirida, bemorning vertikal yoki gorizontal holatida o‘tkazish tavsiya etiladi. Ko‘pincha yara boshchaning orqa devorida joylashadi. Postbulbar (boshchadan tashqari) holat ham bo‘lishi mumkin - bulboduodenal o‘tish yoki undan distal sohada. Oshqozonda yara ko‘proq subkardial qismda, ba’zan tanasida, eng kam antral va pilorisdan oldingi qismda joylashadi. Qiyosiy tashxis.

Yara kasalligini surunkali gastrit va gastroduodenit bilan qiyoslash kerak. Yara kasalligida ko‘ngil aynishi va qusish ko‘proq uchraydi, og‘riq «och qoringa» bo‘ladi. Tashxisni aniqlashga endoskopiya va rentgen tekshiruvi yordam beradi.

Davolash. Bemor statsionar sharoitida yotoq tartibida 2-3 hafta davomida davolanishi kerak. Ovqat hazm qilish yo‘lining harakat faolligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan jismoniy tinchlik holatinigina emas (bunda oshqozon va 12 barmoqli ichak tonusi va motorikasi, oshqozon va 12 barmoqli ichak ichidagi bosim kamayadi, qon biln ta’minlanishi yaxshilanadi). Balki ruhiy xotirjamlikni ham ta’minlash kerak. Bularning hammasi og‘riqning kamayishi va yo‘qolishiga yordam beradi, reparativ jarayonlarni yaxshilaydi. Davolovchi ovqatlanish muhim ahamiyatga ega: kimyoviy va mexanik himoya qilish, termik ta’sirlarni yo‘qotish, o‘sib boruvchi organizmning yoshiga mos ehtiyojlarni hisobga olgan holda yetarlicha koloriyaga, kerakli barcha ingrediyentlarga ega bo‘lgan oziq moddalarni iste’mol qilish. Tez- tez, kam miqdorda, qismlab ovqatlanish kerak. Kasallik boshlanishida va xuruj davrida 1 haftacha Pevzner bo‘yicha 1A-parxez tavsiya etiladi: sut, maydalangan tvorog, chala pishirilgan tuxum, vegetarianlik sho‘rvalari, jele, kisel, sabzi sharbati, sariyog‘ va o‘simlik (kungaboqar, zaytun) yog‘i, baliqli sufle (go‘shtli mumkin emas), tuz kam miqdorda. Hozir sutga katta ahamiyat berilyapti, u kuniga bir necha marta iliq holda ichiladi. U yaxshi antatsidlik xususiyatiga ega (katta bufer sig‘imiga ega), shira ajratish xususiyati sust, tez xazm bo‘ladi, oqsil, kalsiy tuzlariga boy, oshqozonning qisqarish faoliyatini kamaytiradi. Gipoatsit holatlarda qatiqdan foydalangan ma’qulroq. Ushbu parxezga rioya qilinsa, oshqozonning sekretor va motor-evakuator faoliyati yengillashadi. Kuniga 5-6 martadan ko‘proq ovqatlanish kerak. Keyin 1-B parxeziga o‘tiladi. Bunda yuqoridagi mahsulotlarga qaynatilgan baliq, maydalangan qiymali go‘sht, quritilgan oq non (suxari), sutli yormali bo‘tqalar, maydalangan bo‘tqalar qo‘shiladi. Ovqatlanish soni kuniga 3 mahal. Bemor yarim yotiq holatga o‘tkaziladi. Parxez 1,5-2 hafta davom etadi. So‘ngra 1-V parxeziga o‘tkaziladi. Bunda bug‘da pishirilgan kotletlar, kartoshka va sabzavotli bo‘tqalar, yangi bo‘lmagan oq non qo‘shiladi. 1-1,5 hafta davot etadi. Bundan keyin 1-parxezga o‘tiladi.

Bunda yuqoridagilarga qaynatilgan yog‘siz go‘sht, tovuq go‘shti va baliq, yangi oq non, makaron, pishloqning o‘tkir bo‘lmagan turlari, shirin mevalar,

kompot qo‘shiladi. Bu parxez 1 yil davom etadi. Keyinchalik parxezni kengaytirish mumkin, lekin yara kasalligi qaytarilmasligi uchun bemor o‘zini yaxshi his etsa ham, bir necha yil davomida achchiq taomlar, dudlangan, tuzlangan mahsulotlar, dag‘al kletchatkali yormalar iste’mol qilish mumkin emas. Himoyalovchi parxezning uzoq vaqt qo‘llanilishi natijasida gipovitaminoz rivojlanishi mumkin. Shuning uchun vitaminlar (ayniqsa, S, A, V guruhi) qabul qilish kerak. Ayniqsa, «U» vitamini yaraga qarshi faktor hisoblanib, muhim ahamiyatga ega. «U» - metioninning faol shakli, shilliq qavat regeneratsiyasiga yordam beradi. «U» vitamini 1 tabletkadan (0,05g) har kuni 3-4 mahal ovqatdan so‘ng 30-40 kun davomida qabul qilinadi. Qon ketganda ovqat suyuq yoki pyure shaklida bo‘lishi kerak. Qaymoq, tuxum sarig‘i, sariyog‘, og‘ir hollarda sovutilgan qaymoq va sut (yoki mo‘zqaymoq) qo‘shiladi. Uyqu yetarlicha bo‘lishi kerak. Ruhiy taranglik, yuqori ta’sirchanlikda sedativ vositalar (valeriana) va trankvlizatorlar (elenium, trioksazin, seduksen) tavsiya etiladi. Patogenetik davolashda antotsidlar katta ahamiyatga ega. Ular oshqozondagi xlorid kislotani neytrallab, uning shilliq qavatga qo‘zg‘atuvchi ta’sirini kamaytiradi, rNni normallashtiradi va natijada pepsinning faolligini kamaytiradi. Antatsid sifatida natriy gidrokarbonat (soda) qo‘llaniladi. U oshqozonda NSl ni tez neytrallaydi, lekin uning ta’siri qisqa. Hosil bo‘ladigan karbonat angidrid oshqozonning kengayishiga olib kelishi mumkin, bu esa chuqur yaralarda juda xavfli. Bu preparat ichaklarda yaxshi so‘riladi va tez-tez qo‘llanilganda, ayniqsa buyrak faoliyati bo‘zilganda, alkalozni chaqirib, ishtahani susaytirishi, ko‘ngil aynishi, qusish, (talvasa)ga (qondagi ionlangan kalsiy miqdorining kamayishi natijasida) olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, natriy gidrokorbanat qabul qilingandan keyin oshqozon rN ining tez oshishi oshqozon antral qismidagi S- hujayralarning faollashishiga olib keladi, natijada NSl hosil bo‘lishini kuchaytiruvchi gastrin ajralishi ortadi. Bu antatsid ta’siri to‘xtagandan so‘ng giperxlorgidriya rivojlanishiga olib keladi («qaytarish sindromi»). Shuning uchun bu preparat bilan davolash, (ayniqa, uzoq muddat) maqsadga muvofiq emas. Tizimi z antatsidlardan magniy oksidi (kuydirilgan magneziya), alyuminiy gidroksid, kalsiy karbonat, almagel, fosfalyugel qo‘llaniladi. Ular oshqozondagi NSl ni neytrallab, pepsin faolligini susuaytiradi, reflyuks natijasida 12 barmoqli ichakdan oshqozonga tushgan o‘t kislotalarini bog‘laydi. Ular natriy gidrokorbanatga nisbatan sustroq so‘riladi, oshqozonda hosil bo‘ladigan magniy, kalsiy, alyuminiy xloridlari oshqozon osti bezi gidrokarbonatlari bilan bog‘lanib, ularning miqdorini kamaytiradi va alkalozning oldini oladi. Ular ovqat qabul qilingandan so‘ng 0,5 soatdan keyin qabul qilinadi. Burje aralashmasi (natriy sulfat - 2g, natriy fosfati – 4g, magniy oksidi – 1g, natriy gidrokarbonati – 8g, 1l suvda eritiladi) kuchli antatsid xususiyatiga ega. U har kuni 2 osh qoshiqdan 3 mahal ovqatdan 40 daqiqa-1soat keyin ichiladi. Almagel va almagel-A kabi preparatlar

ham keng qo‘llaniladi. Ularning tarkibida gel shaklidagi magniy oksidi va sorbit bilan kombinatsiyadagi alyuminiy gidroksidi bor. Sorbit o‘t ajralishiga yordam beradi va bo‘shashtiruvchi xususiyatga ega. Gel es preparatning shilliq qavat sathida bir tekis tarqalishiga yordam beradi. Almagel doimiy ishlab chiqariluvchi oshqozon shirasining NSl ini neytrallaydi, uning rN ini 4.0-6,0 gacha pasaytiradi va natijada pepsinning proteolitik faolligi kamayadi. Almagel-A tarkibidagi anestezin anesteziya tufayli og‘riqni kamaytiradi va shu bilan birga gastrin, natijada xlorid kislotaning ham sekretsiyasini kamaytiradi. Og‘riqlar bo‘lsa, 3-6-7 kunga almagel-A tavsiya etilib, keyin oddiy almagel (davolash kursi 3-6 hafta) yoki shu guruhdagi boshqa preparatlar qo‘llaniladi. Almagel-A va oddiy almagel bolalarga preparatning 1 ta maxsus qoshiqchasidan (katta yoshdgi bolalarga 2 ta) kuniga 4 mahal ovqatdan 1-2 soatdan so‘ng va albatta uyqudan avval beriladi. Dori qabul qilingandan keyin yotish va preparatning shilliq qavatida yaxshi tarqalishi uchun vaqti-vaqti bilan yonboshga o‘girilish tavsiya etiladi. Fosfalyugel ham xuddi shunga o‘xshash. Unda qo‘shimcha pektin va agar-agari geli bo‘lib, ular bakteriya, virus, toksik va gazlarni bog‘lab, qabziyatning oldini oladi. Sulfatlangan polisaxaridlar pepsin faolligini kamaytiradi. U ayniqsa oshqozon shirasining yuqori pepsinogen faolligida samaralidir. U 0,5 stakan suvda eritilgan xaltachadan (yoshiga qarab) kuniga 2-3 mahal ovqatdan 1 soat keyin tavsiya etiladi, davolash kursi – 1-1,5 oy. Yara kasalligining xuruj davrida ba’zan M-xolinolitiklar (antropin, platifillin, probaktrin, gastrozepin - yoshiga mos miqdorda) qo‘llaniladi. Ammo ular bugungi kunda 2-darajali ahamiyatga ega, chunki bunday monoterapiya yaraning bitishiga olib kelmaydi, ularning nojo‘ya ta’siri ko‘p, atropin (va unga o‘xshash preparatlar) faqat NSl ishlab chiqarilishini emas, balki oshqozon shilliq qavatidan bikarbonatlar ishlab chiqarilishini ham to‘xtatadi. Bugungi kunda N2-gistaminolitiklar – N2-gistamin retseptorlarining blokatorlari keng qo‘llanilmoqda. Ular NSl ishlab chiqarilishini M-xolinolitiklarga nisbatan samaraliroq to‘xtatadi. Simetidin (tagamet, belomet) - N2- gistaminalitiklarning I avlodi bir sutkada 20-40 mg miqdorda kuniga 3 mahal ovqat vaqtida yoki undan keyin va 4-6 hafta davomida 1 marta beriladi. 7 yoshgacha bolalarga qo‘llanilmaydi.

Preparat oshqozon shirasi va NSl sekretsiyasini kamaytiradi, silliq mushaklarning qisqarishini kamaytiradi, og‘riq paydo bo‘lishining oldini oladi. Pepsin sekretsiyasiga kam ta’sir qiladi.

Preparatlarning oylar davomida ishlatilishi nojo‘ya ta’sirlarga olib keladi, gonadotropinlar ishlab chiqarilishini kamaytiradi, o‘g‘il bolalarda jinsiy yetilishni kechiktiradi, profilaktik sintezni kuchaytiradi, dorilar ta’siridagi gepatit, nefrit, leykopeniya, agranulotsitoz, aplastik kamqonlik, MNSning funksional buzilishlariga olib kelishi mumkin. N2-gistaminolitiklarning II avlodi – ranitidin (zontak, ranisan), III avlodi – famotin va IV avlodi – nizatidinning samarali ekanligi

haqida ma’lumotlar bor.

Gistaminolitiklarni uzoq vaqt qo‘llash tavsiya etilmaydi, chunki bu HCl ishlab chiqaruvchi ECl hujayralarnig giperplaziyasiga olib keladi. N2 –blokatorlar to‘xtatilgandan keyin yara kasalligining qaytalanishi (retsidivi) ga bog‘liq bo‘lsa kerak. Vismut preparatlarini: vikalin, vikair, roter, bisalay, qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Ular 1,5–2 tabletkadan 2-3 mahal ovqatdan keyin 0,5 stakan iliq suv bilan ichiladi. Davolash kursi 1-1,5 oy. Vismut preparatlari xlor ionlarini bog‘lab, shiliq qavat va yara sathida himoya qavatini hosil –qiladi va yarani mexanik, kimyoviy ta’sirlardan himoya qiladi. Shuningdek, ular adsorbent, yallig‘lanishga qarshi, bo‘shashtiruvchi xususiyatlarga ham ega. So‘nggi yillarda vismutning de-nol-kolloid subsitrati keng qo‘llanilmoqda.

U monoterapiyada 6-8 hafta davomida 100% hollarda yaraning bitishiga olib kelmoqda. Boshqa davolash usullariga qaraganda bu preparat qo‘llanilganda retsidivlar kam. Bunda mayda eroziyalarda va yara sathida erimaydigan oqsil-vismut komplekslari (ya’ni himoya qobig‘i) hosil bo‘ladi va shilliq qavatning regeneratsiyasi kuchayadi. U antatsid ta’sirga ega emas.

Oshqozon shirasining rNi ortganda preparatning ta’siri kamayadi, shuning uchun uni antatsidlar bilan birga qo‘llash mumkin emas. Barcha vismut preparatlaridan faqat de-nolgina kampilobakterlarga nisbatan samaralidir.

Alyuminiy sulfati va sulfatlangan saxaroza tsitoprotektor preparat xisoblanadi. Sulfatlangan saxaroza shikastlangan shiliq qavat mushak tolalarining oqsillari bilan bog‘lanib, pepsin, xlorid kislota va o‘t kislotasi ta’siriga qarshi himoya qobig‘ini hosil qiladi; shiliq qavat himoya qobig‘ining yopishqoqligini oshiradi, natijada uning protektiv xussiyati ortadi. Bolalarda yara kasalligini kompleks davolashda shiliq qavat regeneratsiyasi jarayonini faollashtiruvchi vositalar («reperantlar») keng qo‘llanilmoqda.

Ularga antipeptik faollikka ham ega bo‘lgan karbenoksolon (biogastron) kiradi. U pepsinogenning pepsinga aylanishini tormozlaydi, sekretor hujayralarda shiliq ishlab chiqarilishini kuchaytiradi, shiliq qavat hujayralari hayotini o‘zaytiradi, ularning eksfoliatsiyasini kamaytiradi, pilorik sfinkterning tonusini yashiradi, natijada duodenogastral reflyuks kamayadi (shuningdek, 12 barmoqli ichakdagi moddalarning – o‘t kislotalarning zararli ta’siri ham kamayadi).

Oshqozon-ichak yo‘li shiliq qavatiga tsitoprotektor ta’sir AMFning hujayra ichidagi miqdorining ortishida (natijada lizosomal fermentlarning ajralishi kamayadi), natriy transportining kuchayishida, Oshqozonda shiliq hosil bo‘lishining ortishida, 12 barmoqli ichakka bikarbonat transportining oshishida, shiliq qavatning qon bilan ta’minlanishining kuchayishida namoyon bo‘ladi.

Bo‘larning hammasi Ye2 prostoglandin va prostosiklin faolligining ortishi

natijasida sodir bo‘ladi, chunki karbenoqsilon ularning faolligini kamaytiradigan fermentlarni tormozlaydi.

U shuningdek ulserogen ta’sirga ega bo‘lgan troboksan hosil bo‘lishini ham tormozlaydi. Karbenoqsilon birinchi haftada 100 mg dan 3 mahal ovqatdan 1 soat keyin, yara bitguncha (3-6 hafta) esa 30 mg dan 3 mahal beriladi. Likviriton - qizil miya ildizi ekstrakti – 1 ta tabletkadan 3 mahal ovqatdan 30-40 daqiqa oldin 3-4 hafta davomida beriladi.

Gefarnil trofik va regeneratsiyalovchi ta’sirga ega. U 30 mg dan 3-4 mahal (kattalarga) yoki 30 mg dan har kuni mushak orasiga 3-4 hafta davomida tavsiya etiladi. Gastrofarm – aralash vosita bo‘lib, uning tarkibida quritilgan laktobatsillalar, ular faoliyatining biologik faol mahsulotlari, saxaroza bor.

4 AMALIY MASHG’ULOT.

Surunkali gepatitlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga Surunkali gepatitlar tushuntirish va kasallikning tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Surunkali gepatitlar bilan ogrigan bemorlarni muxokama qilish.
2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. Surunkali gepatitlar qiyosiy tashxisini namoyish qilish.
4. Surunkali gepatitlar davolash usullarini tanlash.
5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1. Jigar, o’t pufagi va o’t yo’llari s-sining AFX bilish.
2. Surunkali gepatitlar etio-patogenezi.
3 Surunkali gepatitlar diagnostik mezonlari.
4. Surunkali gepatitlar davolash va profilaktika prinsiplari.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.
2.Ushbu kasallik bo‘yicha klinik, laborator, FGDS natijasini baxolash.
3. Jigar, o’t pufagi va o’t yo’llari s-sining tizimi kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.
4.Ushbu kasalliklarda palpatsiya,perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.
5. Surunkali gepatitlar klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.
6. Surunkali gepatitlar bilan ogrigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Surunkali gepatit (CH) - 6 oy yoki undan ko'proq davom etadigan

yallig'lanishli jigar kasalligi. Tarqalishi. JSST ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 2 milliardga yaqin odam gepatit B virusi bilan kasallangan, ulardan 400 milliondan ortig'i ushbu infeksiyaning surunkali tashuvchisi, shu jumladan 5 millionga yaqini Rossiyada yashaydi. Chet ellik mualliflarning fikriga ko'ra, surunkali infeksiyani tashuvchilarning uchdan bir qismi perinatal infeksiyaga chalingan. Turli hududlarda sog'lom yuklarni taqsimlash bir xil emas. Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorodda 1,5% gacha, Sharqiy Sibirda esa 10-15% aholi (Uchaikin V.F., 1997). Turli mualliflarning fikriga ko'ra, surunkali tashishdan og'ir jigar kasalligiga o'tish xavfi 10 dan 25% gacha. Dunyo bo'ylab har yili 1 milliondan ortiq odam gepatit B bilan bog'liq kasalliklardan vafot etadi. Dunyoda gepatit C virusining 500 millionga yaqin tashuvchisi mavjud bo'lib, ularning 65-75 foizida surunkali gepatit S rivojlanadi, surunkali gepatit C bilan og'rigan bemorlarning 10-20 foizida jigar sirrozi, 15 foizida gepatit mavjud.

Etiologiya Ko'pincha surunkali gepatitli bolalarda gepatit C virusi - HCV (30-50%), kamroq - gepatit B virusi - HBV (15-20%), qoida tariqasida, Δ-virus (gepatit D-) bilan bir vaqtda aniqlanadi. HDV virusi), kamroq tez-tez gepatit F, G viruslari va juda kamdan-kam hollarda - sitomegali, gerpes, qizilcha viruslari, enteroviruslar, Epstein-Barr virusi. HBV DNK virusi, qolganlari RNK. HDV HBV sirt antijeni HBsAg bilan o'ralgan dumaloq gibrid zarrachadir. HCV, HDV, HFV, HGV - faqat parenteral yo'l bilan o’z atiladi, ya'ni. qon va uning tarkibiy qismlarini quyishda, ifloslangan ignalar, shpritslar bilan in'ektsiya qilishda. HBV parenteral, maishiy (masalan, tupurik orqali) va jinsiy (shuning uchun onaning tug'ilish kanali ifloslanganida perinatal) yo'l bilan yuqadi. Shunday qilib, CG asosan parenteral yuqadigan viruslardan kelib chiqadi. V.F.Uchaykin boshchiligidagi klinikaning ma'lumotlariga ko'ra, CG B bo'lgan bolalarda infeksiya ko'p hollarda (63,7%) parenteral aralashuvlar paytida, ko'pincha uy sharoitida (24,5%) va kamroq (9,3%) - qon quyish orqali sodir bo'lgan.

HAV va HEV fekal-og'iz va suv-oziq-ovqat yo'li bilan yuqadi, ammo ular surunkali gepatitga olib kelmaydi. HBV va HCV jigar sirrozi va gepatokarsinoma uchun xavf omillari hisoblanadi. Gepatokarsinomalar (hatto kattalarda ham) perinatal infeksiyaning natijasidir, deb ishoniladi. HBsAg tashuvchisi onada bolani yuqtirish xavfi 5-10% dan oshmaydi, HBeAg tashuvchisida esa 40-75% ni tashkil qiladi. Agar ona homiladorlikning oxirgi trimestrida o'tkir gepatit B bilan kasallangan bo'lsa, onaning kasalligining og'irligi va tabiatiga qarab, bolani yuqtirish xavfi 50-75-90% ni tashkil qiladi.

Bolalarda surunkali gepatit rivojlanishining sababi (tetiklashuvchi omil), kattalardagi kabi, izoniazid, sulfanilamidlar, valpik kislota va karbamazepin preparatlari, fenitoin (difenin), androgenik gormonlar, metildopa, asetomifen (paratsetamol) bilan davolash paytida preparatning shikastlanishi bo'lishi mumkin,

tomonlama), og'riqli siyish va siydikning o'zgarishidan iborat. Siydik xira yoki qizg'ish tusli bo'ladi, o'ziga xos badbo'y hidi mavjud. Tashxisni laboratorik tasdiqlash uchun siydikda bakteriyalar va kichik miqdorda oqsil aniqlanishi xizmat qiladi. Kasallik qo'zg'atuvchisini aniqlash uchun siydik namunasini bakteriyal ekish o'tkaziladi. O'tkir yallig'lanish mavjudligini umumiy qon tahlilida leykotsitoz va ECHTning oshganligi ko'rsatadi. Maxsus test to'plamlari yordamida yallig'lanishiga olib kelgan mikroflora aniqlanadi. Keng ko'lamli urografiya o'tkazilganda bir buyrakning hajmi kattalashgani seziladi. Ekskretor urografiya ortoproba o'tkazilganda buyrak harakatchanligining keskin cheklanganligini ko'rsatadi. Apostematozli pielonefritda zararlangan tomonda sekretor funktsiyasining kamayishi kuzatiladi (siydik yo'llarining soyasi kechikadi yoki kuzatilmaydi). Karbunkul yoki abstsessda ekskretor urogrammada buyrak konturida bo'rtishlar, jom va kosachalarida siqilish va deformatsiyalar aniqlanadi.Pyelonefritdagi tizimli o'zgarishlarning tashxisi buyraklarning ultratovush tekshiruvi yordamida amalga oshiriladi. Buyraklarning konsentratsiya qobiliyati Zimntskiy testi yordamida baholanadi. Buyrak-tosh kasalliklari va anatomik anomaliyalarni istisno qilish uchun buyraklar KT amalga oshiriladi. **Pielonefritni davolash.** Asoratlanmagan o'tkir pielonefritlar shifoxona sharoitida urologiya bo'limida konservativ davolanadi. Antibakterial terapiya olib boriladi. Preparatlar siydikdagi bakteriyalarning sezgirligini hisobga olgan holda tanlanadi. Yallig'lanish jarayonlarini tezda bartaraf etish va pielonefritni yiringli-destruktiv shaklga o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun davolash eng samarali dori bilan boshlanadi. Dezintoksikatsiya terapiyasi, immunitetni mustahkamlash amalga oshiriladi. Isitma kuzatilganda past oqsilli tarkibiga ega bo'lgan parhez buyuriladi, harorat me'yorga kelgach bemor o'zida ko'p suyuqlik saqlagan to'laqonli oziq-ovqat ratsioniga qaytadi. Ikkinchi darajali o'tkir pielonefritni davolashning birinchi bosqichida normal siydik chiqarishga to'sqinlik qiluvchi to'siqlar bartaraf etilishi kerak. Siydik chiqarish buzilgan hollarda antibakterial dori-darmonlarni tayinlash istalgan samarani bermaydi va jiddiy asoratlarni rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Surunkali pielonefritni davolash o'tkir shakldagi kasallikni davolash bilan bir xil tamoyillarga asoslanib amalga oshiriladi, lekin u ko'proq vaqt va mehnat talab qiladi. Surunkali pielonefritni davolash quyidagi terapevtik usullarini o'z ichiga oladi: Siydik chiqishiga to'sqinlik qiluvchi yoki buyrak qon aylanishining buzilishiga olib kelgan sabablarni bartaraf etish; Antibakterial terapiya (davolash mikroorganizmlarning sezgirligini hisobga olgan holda belgilanadi); Umumiy immunitetni normallashtirish. To'siqlar mavjud bo'lganda siydikning normal o'tishini tiklash kerak. Siydik chiqarish oqimini tiklash jarrohlik amaliyoti orqali oshiriladi (nefroptozda nefropeksiya, buyraklar va siydik yo'llari toshlarini olib tashlash, prostata bezi adenomasini olib tashlash va boshqalar). Ko'p hollarda siydik

yo’lini to’sayotgan to’siqlarni bartaraf etish uzoq muddatli va ishonchli remissiyaga erishishga imkon beradi. Surunkali pielonefritni davolashda antibakterial preparatlar antibiotikogrammani hisobga olgan holda belgilanadi. Mikroorganizmlarning sezgirligi aniqlanguncha keng miqyosli ta’sir doirasiga ega antibakterial preparatlar qo’llaniladi. Surunkali pielonefritli bemorlar kamida bir yil davom etadigan uzoq muddatli tizimli davolanishni talab qiladi. Davolash uzluksiz 6-8 hafta davom etadigan antibiotiklar bilan boshlanadi. Bu usul buyrakda yiringli jarayonlarni asoratlarsiz bartaraf qilish va chandiq to’qimalar hosil bo’lishini oldini olish imkonini beradi. Buyrak funktsiyasi buzilgan bo’lsa, nefrotoksik antibakterial dorilarning farmakokinetikasini doimiy nazorat qilish talab qilinadi. Agar kerak bo’lsa immunitetni mustahkamlash uchun immunostimulyator va immunomodulatorlardan foydalaniladi. Remissiyaga erishilgach, bemorga o’z ilishlar bilan antibakterial terapiya kurslari beriladi. Remissiya davrida surunkali pielonefritli bemorlarga sanatoriyalarda davolanish tavsiya etiladi. Terapiyaning majburiy davomiyligini esdan chiqarmaslik kerak. Shifoxonada boshlangan antibakterial davo ambulatoriya sharoitida davom ettirilishi kerak. Qo’shimcha davolash usuli sifatida fitoterapiya qo’llaniladi. **Zimnitskiy sinamasi nima.** Cho'kishni (tozalashni) o'rganishga asoslangan diagnostika usuli an'anaviy ravishda yanada ishonchli va ishonchli deb hisoblanadi. Tozalash yoki tozalash koeffitsienti ma'lum bir vaqt ichida ma'lum bir moddaning buyraklari tomonidan tozalanishi mumkin bo'lgan qon plazmasining hajmi (ml) sifatida belgilanadi. Bu to'g'ridan-to'g'ri bir nechta omillarga bog'liq: bemorning yoshi, buyraklardagi kontsentratsiya funktsiyasi va filtrlash jarayonida ishtirok etadigan o'ziga xos modda. Rasmiylashtirishning to'rtta asosiy turi mavjud: **Filtratsion.** Bu bir daqiqada glomerular filtratsiya yordamida so'rilmaydigan moddalardan to'liq tozalangan plazma hajmidir. Bu kreatininning tozalash koeffitsienti, shuning uchun ko'pincha buyraklardagi glomerulyar filtr orqali filtratsiya miqdorini o'lchash uchun foydalaniladi. **Chiqarish.** Moddaning filtratsiya yoki ekskretsiya bilan to'liq chiqarilishi (ya'ni, moddalar glomerulyar filtratsiyadan o'tmasa, ammo perikanal kapillyarlarning qonidan naycha bo'shlig'iga kirsa). Buyrak orqali o'tgan plazma miqdorini o'lchash uchun dioderast - maxsus modda ishlatiladi, chunki u maqsadlarga javob beradigan uning tozalash koeffitsienti. **Reabsorbtsiya.** Filtrlangan moddalar buyrak kanallarida to'liq rezorbsiya qilinib, glomerular filtratsiya orqali chiqariladi. O'lchash uchun nol tozalash koeffitsienti bo'lgan moddalar qo'llaniladi (masalan, glyukoza yoki oqsil), chunki qonda yuqori konsentratsiya bo'lganida ular naychalarning reabsorbtsiya funktsiyasini baholashga yordam beradi. **Aralash.** Agar filtrlovchi modda siydikchil singari qisman reabsorbtsiyaga qodir bo'lsa, unda tozalash jarayoni aralashtiriladi. Bir moddaning tozalash omili bu moddaning siydikdagi va plazmadagi bir daqiqadagi

farqidir. Koeffitsientni hisoblash uchun (tozalash) quyidagi formula qo'llaniladi: C = (U x V): P, bu erda S - klirens (ml / min), U - siydikdagi moddaning konsentratsiyasi (mg / ml), V - minutli diurez (ml / min), P - bu moddaning konsentratsiyasi. plazma (mg / ml). Ko'pincha kreatinin va karbamid buyrak patologiyalarini differentsial tashxislashda va naychalar va glomerulalarning ishlashini baholashda ishlatiladi. Agar qonda kreatinin va siydikchil konsentratsiyasi mavjud buyrak yetishmovchiligi bilan ko'tarilsa, bu buyrak yetishmovchiligi rivojlana boshlaganining xarakterli belgisidir. Ammo kreatinin kontsentratsiyasi karbamidga qaraganda ancha oldinroq ko'payadi va shuning uchun uni tashxislashda qo'llash eng aniq ko'rsatkich hisoblanadi.

Tahlilning asosiy maqsadi

Zimnitskiy usuliga ko'ra siydik sinovi buyraklardagi yallig'lanish jarayoniga shubha tug'ilganda amalga oshiriladi.Laboratoriya tadqiqotining ushbu usuli siydikda erigan moddalarning miqdorini aniqlashga, ya'ni buyraklardagi kontsentratsiya funktsiyasini baholashga imkon beradi. Odatda, tanaga juda oz miqdordagi suyuqlik kirganda, siydik qoldiq metabolik mahsulotlar bilan to'ldiriladi: ammiak, oqsil va boshqalar. Shunday qilib, tana suyuqlikni "tejashga" va barcha ichki organlarning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan suv muvozanatini saqlashga harakat qiladi. Aksincha, agar suv tanaga ortiqcha miqdorda kirsa, buyraklar zaif konsentratsiyalangan siydik chiqaradi. Buyraklar kontsentratsiyasi funktsiyasi umumiy gemodinamikaga, buyraklardagi qon aylanishiga, nefronlarning normal ishlashiga va boshqa ba'zi omillarga bog'liq. Umumiy siydik tahlilining barcha afzalliklariga qaramay, u faqat ma'lum bir vaqtdagi buyraklar holati to'g'risida tushuncha beradi va turli omillar ta'sirida ularning ishidagi o'zgarishlarni aks ettirmaydi. Ushbu etishmovchilikni qoplash uchun olimlar siydikni o'rganishning boshqa usullarini ishlab chiqdilar, ular bu tananing ishlashi haqida kengroq ma'lumot beradi. Ushbu usullardan biri Zimnitskiy usuliga ko'ra siydikni tahlil qilish. Ushbu tahlil kun davomida buyrakning ekskretsiya va kontsentratsion funktsiyasini sinchkovlik bilan o'rganishga imkon beradi - an'anaviy umumiy o'rganishdan foydalanib, chiqaradigan a'zolarning ishlash ko'rsatkichlarini o'rganish deyarli mumkin emas. Garchi ushbu tahlilni bajarish murakkabroq bo'lsa va odamga muayyan noqulayliklar tug'dirsa ham, uning yordami bilan olingan ma'lumotlar buyrakning turli kasalliklarini tashxislashga bebaho hissa qo'shadi.

Zimnitskiy usuli bo'yicha siydikni tekshirish juda ehtiyotkorlik bilan tayyorgarlikni talab qiladi. Tadqiqotdan bir kun oldin sakkizta idish tayyorlanadi. Odatda ularning har birida shaxsning ismi va familiyasi, tahlil qilingan sana va siyish vaqti - 9:00, 12:00, 15:00, 18:00, 21:00, 00:00, 03:00, 6:00 yoziladi. Kundalik tayyorlanadi, unda iste'mol qilingan suyuqlik miqdori ko'rsatiladi. Buyraklar faoliyatiga bevosita yoki

bilvosita ta'sir ko'rsatadigan har qanday dori-darmonlarni qabul qilish bilan bir kundan kechiktirilmaydi. Buning uchun odam davolovchi shifokorni o'zi qabul qilgan barcha dorilar to'g'risida xabardor qilishi kerak. Bunday holatda ularni bekor qilish zarurligi to'g'risida qaror mutaxassis tomonidan qabul qilinadi. Darhol mashg'ulot kunida mavzu ertalab soat oltida qovuqni bo'shatishi kerak. Ushbu barcha manipulyatsiyalar va tayyorgarliklardan so'ng siz tahlil qilish uchun material to'plashni boshlashingiz mumkin. Ushbu diagnostika usulining mohiyati shundaki, odam soat to'qqizdan boshlab barcha siydikni tayyorlangan idishlarga to'playdi. Birinchi qism "9:00" ni ko'rsatadigan bankada to'plangan. Keyingi siyish kunning ikkinchi yarmida va hokazo. Kichkina ehtiyojni idishda yoki boshqa vaqtda qilmaslik taqiqlanadi - faqat har uch soatda. Belgilangan vaqtda siydik to'plashning iloji bo'lmaganligi sababli, idish bo'sh qoladi, keyingi siyish yana uch soatdan keyin keyingi idishda o'tkazilishi kerak. Shu bilan birga, bir kishi yoki tayinlangan tibbiy mutaxassis qabul qilingan suyuqlikni hisobga olishlari kerak. Birinchi kurslarda, ba'zi meva va sabzavotlarda yuqori suv tarkibini hisobga olish muhimdir. Olingan raqamlar tayyorlangan kundalikka kiritiladi. Oxirgi siydik to'planganidan so'ng (ertasi kuni ertalab soat oltida), barcha sakkizta idishlar laboratoriyaga tekshirish uchun etkazilgan.

Tahlil natijalarini shifrlash

Zimnitskiyning fikriga ko'ra siydikni tahlil qilish boshqacha, chunki ushbu tadqiqot natijalari aniq raqamlar emas, balki ularning bir-biriga nisbati juda muhimdir. Ular buyraklarning kontsentratsiyasi va ekskretor funktsiyasini aks ettiradi. Sog'lom odamda ushbu organlarning ishi kun davomida ma'lum bir tebranishlarni boshdan kechiradi, bu siydikning xususiyatlariga ta'sir qiladi. Turli xil qoidabo’z arliklar uchun ushbu tebranishlar o'zgarishi yoki silliqlashi mumkin, bu ushbu tahlil doirasida aniq ko'rinadi. Zimnitskiy usuliga ko'ra tahlil ko'rsatkichlarining qisqacha tavsifi Kundalik diurez - bu kuniga chiqarilgan siydik miqdori. Ushbu tadqiqot doirasida barcha sakkiz porsiyadagi suyuqlik hajmini oddiy qo'shilishi bilan aniqlanadi.

Diurezning olingan suyuqlik miqdoriga nisbati - bu mezon siydikning kunlik hajmini kundalik ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi, bu tadqiqot davomida inson kuniga qancha suyuqlik ichganligini ko'rsatdi. Odatda, siydik chiqarish miqdori tanadagi suv miqdoridan bir oz kamroq - 75-80%. Suyuqlikning qolgan qismi terlash, nafas olish va boshqa mexanizmlar orqali tanani tark etadi.

Ko'rsatkich	Norm
Kundalik diurez	1200 - 1700 ml

Diurez hajmining olingan suyuqlik miqdoriga nisbati	75 – 80%
Kecha va kunduzgi diurezning nisbati	1: 3
Bitta siyish hajmi	60 - 250 ml
Siydikning zichligi (o'ziga xos tortishish kuchi)	1,010 – 1,025
Turli xil qismlarda siydikning o'ziga xos tortishish darajasidagi maksimal farq	0,010 dan kam emas
Bir siyish hajmi o'rtasidagi maksimal farq	100 ml dan kam emas

Kecha va kunduzgi diurezning nisbati - bu kabi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun material to'plash uchun idishlarda siyish vaqtini hisobga olish muhimdir. Odatda, buyraklar kun davomida qorong'ilikka qaraganda ancha faol ishlaydi, shuning uchun sog'lom odamda kunduzgi siydik chiqarish miqdori kechadan uch baravar ko'p. Buyrak funktsional holatining buzilishida bu nisbat bajarilmasligi mumkin. Odatda bitta siyishning hajmi taxminan 60-250 ml ni tashkil qiladi. Ushbu indikatorning boshqa qiymatlari ekskretsiya organlarining beqaror ishlashini ko'rsatadi. Siyish hajmi o'rtasidagi maksimal farq - kun davomida bir vaqtning o'zida chiqariladigan siydik miqdori o'zgarishi kerak. Bundan tashqari, kun davomida hajmning eng katta va eng kichik qiymatlari orasidagi farq kamida 100 ml bo'lishi kerak. Siydikning zichligi (o'ziga xos tortishish darajasi) buyraklarning siydikda turli xil tuzlar va metabolik mahsulotlarni to'plash qobiliyatini tavsiflovchi Zimnitskiy tahlilining muhim ko'rsatkichlaridan biridir - bu ajralib chiqadigan organlarning kontsentratsion funktsiyasining mohiyati. Ushbu mezon uchun normal ko'rsatkichlar 1.010 - 1.025 g / ml raqamlardir. Turli xil qismlarda maksimal zichlik farqi - siydik hajmi, uning o'ziga xos tortishish darajasi ham o'zgarishi kerak. Ushbu farqning minimal qiymati 0,010 g / ml ni tashkil qiladi. Qoida tariqasida, sog'lom odamda tunda chiqariladigan siydik (21:00 dan 3:00 gacha) ko'proq konsentratsiyalangan bo'ladi. Zimnitskiyning fikriga ko'ra siydikni tahlil qilishning aniq murakkabligiga qaramay, bu buyraklarning funktsional holatini o'rganish uchun eng aniq va shu bilan birga minimal invaziv usul. Shuning uchun u o'n yillar davomida o'z dolzarbligini yo'qotmadi va ko'plab mamlakatlar mutaxassislari bilan xizmatda bo'lib kelmoqda.

7- AMALIY MASHG’ULOT.

O’tkir infeksion glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga O’tkir infeksion glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari va kasallikning tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. O’tkir infeksion glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Og’rigan bemorlarni muxokama qilish.

2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.

3. O’tkir infeksion glomerulonefritlar qiyosiy tashxisini namoyish qilish.

4. O’tkir infeksion glomerulonefritlar davolash usullarini tanlash.

5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1.Buyrak tizimining AFX bilish.

2. Otkir infeksion glomerulonefritlar etio-patogenezi.

3 Otkir infeksion glomerulonefritlar diagnostik mezonlari.

4. Otkir infeksion glomerulonefritlar davolash va profilaktika prinsiplari.

6. Nefrolog maslaxatiga ko‘rsatma.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.

2.Ushbu kasallik bo‘yicha qon, siydikning klinik, biohximik, kreatinin, mochevina, laborator, Zimniskiy, Addis Kakovskiy, Nechiporenko, UTT, Ekskritor urografiya, MSKT, EKG, natijasini baxolash.

3. Buyrak tizimining kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.

4.Ushbu kasalliklarda ko‘krak qafasi palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.

5. Buyrak tizimining klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.

6. Buyrak tizimining bilan ogrigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

1. Glomerulonefrit (GN) — bu infeksion allergiya, no’malum tabiatli kasallik bo‘lib, uning asosida buyrakning koptokcha ! apparatini diffuz yoki o‘choqli yiringsiz yallig‘lanishi yotadi, hamda buyrak va buyrakdan tashqari simptomlari bilan xarakterlanadi.

2.Terminologiyasi.

Glomerulonefrit, yoki immun glomerulopatiyalar, getogen kasalliklar guruhi bo‘lib, unga yallig‘lanishning immunologik klinik — morfologik belgilari xos. Bunda birinchi navbatda koptokcha apparati shikastlanadi.

Ko‘p hollarda «nefrit» termini GN ekvivalenti sifatida qo‘llaniladi. Aslida,

nefronning turli qismida yallig‘lanishi bo‘lganda nefrit xaqida gapiriladi.

Diffuz Glomerulonefrit — bu klinik termin, asosan glomerulalarning jarayonga birlamchi tartibi bilan kechuvchi, buyrak to‘qimasining ikki tomonlama yallig‘lanishi bilan ifodalaniladi. U koptokchalarning segmentar va faqat Birlamchi GN termini, GNning biriktiruvchi to‘qima sistemali kasalliklarni yoki surunkali infeksiyalar bilan bog‘lik bo‘lmagan xolda aloxida rivojlanishini anglatadi. Diffuz va birlamchi GNlar sinonimlari xisoblanadi. O‘tkir GN — streptokokkli kasalliklardan so‘ng rivojlanadi va siklik kechadi. Surunkali GN to‘lqinsimon cho‘zilgan latent kechuvchi GNning ekvivalenti xisoblanadi. Bunda jarayonning zo‘rayish xarakteriga ega ekanligi va buyrak to‘qimasida distrofik va sklerotik o‘zgarishlar bo‘lishini ko‘zda tutadi.

«Tez rivojlanuvchi» GN — kasallikning salbiy kechuvchi shakli bo‘lib, o‘tkir boshlanishi va xavfli kechadi va ko‘pincha bir necha oy ichida SBYe ga olib keladi. GNning gematurik shakli klinikaning ko‘rsatgichi bo‘yicha siydik sindromida, eritrotsitlarning bo‘lishi ko‘rsatib o‘tadi. Bu patologik guruhga Ud A —nefrolatil (Berje kasalligi) kiradi. GN gematurik shakli «niqobi» ostida har xil glomerulopatik, tubulointerstinal to‘qimalar va buyrak tomirlari kasalliklari yotadi.

GNning aralash shakli - morfologik asosi koptokchalarning sklerozlanishi bo‘lgan progradiyent xarakteri, yaqqol bo‘lgan renal va ekstarenal ko‘rinishlarda kechuvchi og‘ir kasallik. «Surunkali GN biroz yoki aloxida siydik sindromi bilan» tashxisda biopsiya natijalari bilan tasdiqlanishi shart. Tashxisda morfologik o‘zgarishlar tipi, kechish varianti, jarayon faolligi darajasi va buyraklar disfunksiyasi xarakterini ko‘rsatilishi kerak.

Z. Epidemiologiyasi. «O‘tkir GN» ning ba’zi simtomlarini taxlil qilgan Genatyuk (1980) ning ta’kidlashicha, oxirgi 20 yil ichida kasallik sekin asta, sezilarli darajada oshdi, (1953—1963 yillar 3,5 %; 1970—1975 yillarga kelib 20.8 foizga oshgan). Kasallikning shishlarsiz, gipertenziyasiz kechuvchi monosimptomli xili 3 marta oshgan. Albatta bu bolalarga nisbatan jamlashtiruvchi «Nefrit» terminidan foydalanish mumkin, biroq ularning bir qismida nefritga o‘xshashkasallik bo‘lishi mumkin deb o’ylash mumkin.

GN monifestatsiyasi va xatto rivojlanishning ko‘p darajasi shu regionda ustunlik qilayotgan u yoki bu infeksiyaga bog‘lik. Xususan malriyadan so‘ng rivojlanuvchi nefrit Afrika kontinentining ko‘p mamlakatlariga xos, poststreptokokksli nefrit 7% Shuni esda tutish kerakki, poststreptokokkli nefrit antibakterial ta’sirlarga chidamli mikrob shakllari kelib chiqganligi bilan bog’liq bo‘lishi mumkin.

4. Etiologiyasi. O‘tkir glomerulonefrit (O‘GN) etiologiyasida quyidagilar farqlanadi:

1. Streptokokkli infeksiyaga (ko‘pincha bu beta—gemolitik streptokokkning

A guruhi 1:2:4 tiplari). Angina, streptokokkli impetiga va boshqa kasalliklarni o‘tkazgandan so‘ng.

2. Stafillokogen

Z. Pnevmokokk

4. Viruslar: Sitomegaloviruslar, — viruslar (Yapon poletsiyasi yosh bolalarda O‘GN chaqiradi).

5. Malariya plazmodiylari, zaxm qo’zg‘atuvchisi.

b. Shuningdek O‘GN boshqa sabablar natijasida rivojlanish mumkin.

7. Emlashlar, dori vositalari.

8. Ilon va ari chakishlari.

9. Organizm sovuqda qolishi.

O‘GN nasliy tabiyatli bo‘lishi ham mumkin. Bu Alport sindromi va Gudpascher sindromi va Rudpasger sindromi.

4 —tip kollogenning turli variantli zanjirlari bor, ular o‘z navbatida db gacha 4 tip kollagen deb belgilanadi. Har bir zanjirni o‘z geni kodlaydi. Bu genlar juft holda 3 ta turli xromosomalarda joylashadi. 4 tip kollogenining 2 ta zanjiri bilan eng muxim klinik sindromlar bog‘lik: Alport, Gudpasger.

6. Patologik anatomiyasi.

Jar topografiyasiga ko‘ra, intra va ekstrakapillyar xillari farqlanadi, yallig‘lanish xarakteriga ko‘ra—ekssudativ, proliferativ va aralash turlari mavjud, kechishiga ko‘ra:

1) o‘tkir; 2) o‘tkir osti; 3) surunkali

Yallig‘lanish jarayoni tarkalganligiga ko‘ra:

1) diffuz; 2) o‘choqli.

O‘tkir 1 GN —dastlabki kunlari koptokchalar giperemiyasi ustunlik qiladi, keyinchalik endoteliy va ayniqsa mezenximal xujayralar leykotsitar infiltratsiyasi qo‘shiladi. Shuning uchun quyidagi fazalar farqlanadi:

1. Ekssudativ
2. Ekssudativ — proliferativ
3. Proliferativ

Ba’zan o‘tkir nekrotik GN ko‘rinishida uchrashi mumkin. Buyrak kattalashgan va shishgan. Piramidalar qoramtir va qizil rangda, po‘stloq kulrangsimon qo‘ng‘ir rangda, kesma yuzasida mayda qizil toshmalar ko‘rinadi. Bu o‘zgarishlar qaytar bo‘lishi yoki bir yilgacha saqlanishi va surunkali GN ga o‘tib ketishi ham mumkin.

O‘tkir osti GN—bu tez rivojlanuvchi, xavfli GN. Unga nefroteliy va podotsitlardagi ekstrakapillyar produktiv o‘zgarishlar xos bo‘lib, yarim oysimon hosil alar hosil qiladi. Katta qizil buyrak ko‘rinishida.

8- AMALIY MASHG’ULOT.

Surunkali glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga Surunkali glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari va kasallikning tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Surunkali glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Og’rigan bemorlarni muxokama qilish.

2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.

3. Surunkali glomerulonefritlar qiyosiy tashxisini namoyish qilish.

4. Surunkali glomerulonefritlar davolash usullarini tanlash.

5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1.Buyrak tizimining AFX bilish.

2. Surunkali glomerulonefritlar etio-patogenezi.

3 Surunkali glomerulonefritlar diagnostik mezonlari.

4. Surunkali glomerulonefritlar davolash va profilaktika prinsiplari.

6.Nefrolog maslaxatiga ko‘rsatma.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.

2.Ushbu kasallik bo‘yicha qon, siydikning klinik, biohximik, kreatinin, mochevina, laborator, Zimniskiy, Addis Kakovskiy, Nechiporenko, UTT, Ekskritor urografiya, MSKT, EKG, natijasini baxolash.

3. Buyrak tizimining kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.

4.Ushbu kasalliklarda ko‘krak qafasi palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.

5. Buyrak tizimining klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.

6. Buyrak tizimining bilan ogrigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

Surunkali GN — ikkita shaklida uchraydi:

1) mezangioproliferativ — nisbatn xavfsiz kechadi.

2) mezangiokapillyar glomerulonefrit — tez rivojlanadi va buyrak yetishmovchiligiga olib keladi.

Buyrak ko‘rinishi: A) qattiq, rangpar, po‘stloqda sariq dog‘lar bilan. B) Fibroplastik — sideroz va gialinoz jarayonlari ustunlik qiladi. Bu jarayon diffuz yoki o‘choqli bo‘lishi mumkin.

O‘tkir GNni klinik kechishi, ko‘rinishlari va laborator ko‘rsatkichlarini

qisqacha xarakterlash mumkin emas.

O‘tkir GN, A guruhga kiruvchi betta gemolitik streptokokk chaqirgan, o‘tkazilgan faringitdan 7—14 kundan so‘ng yoki o‘tkazilgan terapiyadan 14 — 21 kundan so‘ng rivojlanadi, shuningdek o‘tkir GN o‘tkazilgan virusli infeksiyadan keyin ham rivojlanadi, ya’ni grippdan keyingi davrdir. Barcha bemorlarda (85 — 95%) O‘GN siklik ketishini ifodalovchi Erta davrdan iborat.

1. Boshlang‘ich davr.

2. Simptomlarii ortga rivojlanish davri.

Z. To‘liq klinika laborator remissiya davri.

10—15% hollarda O‘GN siklik kechmaydi (salbiy) va rivojlanish davomida surunkali shakliga transformatsiyalanish mumkin. (SGN) Shuningdek asorati tufayli letal xolatga olib kelishi ham mumkin. Masalan UBYe asorati tufayli aksariyat bemorlarda 4 — 6 hafta mobaynida yuzini shishganligi, teri qoplamlari rang parligini va diurez 200 — 300 ml sutkasiga kamayganligi aniqlanadi. Siydik rangi xira, ba’zan go‘sht yuvundisi rangida. AB biroz ko‘tarilgan (130 — 180—150—190 mn sim.ust.), ba’zan qorin va bel soxasida noma’lum og’riqlar, bosh og‘rig‘i va qusish kuzatiladi.

Keyingi 5 — 9 kun maboynida ko‘z tubi o‘zgarmagan xolda gipertenziya oshishi mumkin. Bu davrda gematuriya makrogematuriyaga yetishi mumkin. Proteinuriya 0,5 —3,5g sut yetadi, ba’zi bemorlarda unchaklik katta bo‘lmagan, qisqa muddatli (3 — 5 kun) leykotsituriya (10 — 20 ml sutkasiga) shuningdek eritrotsitar silindruriya kuzatiladi. Ko‘pincha anemiya, leykotsitoz, eozinofiliya bo‘ladi. Buyraklar funksiyasi buzilmagan yoki biroz buzilgan Renal funksiyalarni sezirali buzilganligini ifodalovchi UBYe dagi oliguriyadan farqli o’laroq, bu oliguriya siydik nisbiy zichligi yuqori bo‘ladi (1013 gacha). Koptokchalar kamroq pasaygan (50 — 60 mlmin endogen kreatinin klirensi bo‘yicha). konsentratsiyalash va N+ionlari ekskretsiya — qilish cheklanishi mumkin, S6n1206 Maksimal reabsorbsiyalanadi. Zardobda mochevina miqdori oshib («o‘tkir davr» giperazotemisi), 3 — 5 kun mobaynida saqlanadi. Kasallik sikli kechganda 2 — 3 hafta oxiridan boshlab simtomlar orqaga qayta boshlaydi, gipertenziya va shish, gem0turiya, proteinuriya asta sekin kamayadi va yo‘qoladi. Aloxida sishggomlarni 6 oydan ko‘p vaqt saqlansa surunkali shakli xaqida gapirish mumkin.

O‘GN boshlangich davrida kuzatiladi :

1) O‘tkir nefrotik sindrom —shishlar, gipertenziya, gematuriya, proteinuriya 2g sut va undan ko‘p.

2) Aloxida siydik sindromi — gematuriya, shish va 1/gipertenziyasiz, proteinuriya.

3) Nefrotik sindrom — shishlar, proteinuriya 2,5g sutdan ko‘p, giperlipidemiya. Boshlang’ich davrida gipertenziya fonida va o‘tkir (buy rak

yetishmovchiligi kuzatilishi mumkin, shuningdek UBYe kabi kichik asoratlar ro`y berishi mumkin. RAMN akademigi Shanin ta'riflashicha nefrotik sindrom —bu organizm patologik xolati bo‘lib, siydik bilan o‘rtamolekulali oqsillarni yo‘qotish va uning qon plazmasida konsentratsiyasi kamayishiga qaratilgan gomeostaz tizimi ning reaksiyasi xisoblanadi.

Proteinuriya jarayonida organizm kichik va o‘rta o‘lchamli (5.5 nmg acha) oqsillar, eritropoetin, transport oqsillari. Bunga javoban jigarda lipoprotein ishlab chiqarishi funksiyasi oshadi. Jigar massasi kattalashgan. Bu yerda albumin va transferrin bilan bir qatorda ultrafioletga tushgan yirik oqsillar — apopipoprotein V, Ye fibrinogen hosil bo‘ladi.

9- AMALIY MASHG'ULOT.

Otkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi etiopatogenezi, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari va kasallikning tekshirish usullari haqida ma'lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.

Og'rigan bemorlarni muxokama qilish.

2. Kasallikning tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi qiyosiy tashxisini namoyish qilish.
4. O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi davolash usullarini tanlash.
5. Sog‘lomlashtirish tadbirlar rejasini tuzis

Talaba bilishi kerak.

1.Buyrak tizimining AFX bilish.
2. O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi etio-patogenezi.
3 O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi diagnostik mezonlari.
4. O‘SBYgi davolash va profilaktika prinsiplari.
6. Nefrolog maslaxatiga ko‘rsatma.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.
2.Ushbu kasallik bo‘yicha laborator tekshiruvini qon, siydikning klinik, biohximik analizlari, Kreatinin, mochevina, Zimniskiy, Addis Kakovskiy, Nechiporenko, UTT, Ekskritor urografiya, MSKT, EKG, natijasini baxolash.
3. Buyrak tizimining kasalliklarini xolisona ko‘ruvdan o‘tkazish.

4.Ushbu kasalliklarda ko‘krak qafasi palpatsiya, perkussiya va auskultatsiya o‘tkaza bilish.

5. Buyrak tizimining klinik ko‘rinishiga qarab davolash muolajalarini buyurish.

6. Buyrak tizimining bilan og’rigan bemorlarni dispanserizatsiya va reabilitatsiya rejasini tuzish.

O’tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi. Buyrak yetishmovchiligi - buyraklar tomonidan organizm ichki muhitining doimiyligini saqlash xususiyatini to’liq yoki qisman yo`qotishi bilan kechadigan patologik holat. Natijada organizmda suv va tuz miqdori, hamda ularning taqsimlanishi buziladi, kislotalar va modda almashinuvining azo’tli mahsulo’tlari organizmda ushlanib qoladi. Arterial gipertenziya, kamqonlik, qon ketishlar, vitamin D yetishmovchiligi uchun sharoit yaratiladi, gormonal regulyasiya o’zgaradi (bolalarda boy osishi, jinsiy rivojlanish sekinlashadi). Buyrak funksiyasining 70% va undan ko’proq turg’un buzilishi uremiyaga, ya'ni modda almashinuvining ikkilamchi buzilishi va progressirlanuvchi umumiy distrofiya bilan kechuvchi organizmning o'z-o'zini zaharlashiga olib keladi.

O’tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi farqlanadi. O’tkir buyrak yetishmovchiligi (OBE) shiddatli boshlanishi, nisbatan qisqa davriy kechishi va, aksar to’liq orqaga qaytishi bilan kechadi. Og’ir buyrak yetishmovchiligi qaytmas bo’lishi mumkin va bunda u surunkali shakliga o’tadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi (SBE), odatda sekin-asta boshlanadi va progressirlanuvchi xususiyatga ega; SBE ning oxirgi bosqichlarida bemor hayo’tini saqlash uchun qonni tozalash uslublari qo'llaniladi yoki buyrak transplantasiyasi amalga oshiriladi. O’tkir buyrak yetishmovchiligining eng ko’p sababalaridan biri shok, qonning tomir ichi ivishining patologik tezlashuvi (masalan, homila atrofi suvlarining qonga tushishi, mushaklar shikastlanishlarida mushaklar parchalanishi mahsulotlarining qonga tushishi va boshq) hisoblanadi. Buyrak funksiyasi buzilishiga organizmning og’ir suvsizlanishi va tuzlarni yo’qotishi, simob yo‘ki tort xlorli uglerod bilan zaharlanishi, oksidlangan tetrasiklin qabul qilish, gentamisin yo’ki indometasin dozasining oshib ketishiga olib kelishi mumkin. Ba'zi xollarda o’tkir buyrak yetishmovchiligi o’tkir immun (glomerulonefrit) yoki infeksion (pielonefrit) tabiatli yallig’anish, buyrak arteriyasi tiqilishi yoki siydik yo’llari o’tkazuvchanligi buzilishi bilan bog’liq bo’ladi. O’tkir buyrak yetishmovchiligi buyrakning qon bilan ta'minlanishi buzilganida, nefro’toksik zaharlar ta'sirida buyrak hujayralari shikastlanishi yo’ki siydik o’tishiga tosqinlik mavjud bo’lgan yuzaga chiqadi. O’tkir buyrak yetishmovchiligining shok holatida rivojlanishi buyrak qon aylanishining pasayishi, qonning reologik hossalari o’zgarishi bilan bog’liq, bu kuchli shishga va buyrakning naychalari va mayda qon tomirlari siqilishi bilan kechuvchi shikastlanishiga olib keladi. Bunda buyrak kalavalarining bir qismi qaytmas

ravishda oladi. Siydik hosil bo'lishiga buziladi, nisbiy poluriya boshlanadi, og'ir xollarda esa - oliguriya va anuriya. Nefrotoksik zaharlar ta'siri ostida hujayralar nobud bo'lishiga va naychalar funksiyasi buzilishi bilan tugaydigan buyrak hujayralari membranalari shikastlanishi sodir bo'ladi. Amalda barcha qo'llarda buyrak funksiyasining o'tkir buzilishi uremiya rivojlanishi bilan kechadi. Bir necha kun ichida hayot uchun xavfli modda almashinuvi buzilishi, birinchi navbatda osmo'tik erkin suv (suvli zaharlanish), kaliy, uchuvchan bo'lmagan kislo'talar (asidoz) bilan to'yinish paydo bo'ladi. Azo'temiya, odatda ancha kech yuzaga chiqadi va koma sababi bo'lishiga mumkin.
Funksional va organik o'tkir buyrak yetishmovchiligi farqlanadi. Funksional o'tkir buyrak yetishmovchiligi og'ir isitmada, insultda, neyroxirurgik operasiyalardan keyin normal ishlayotgan buyraklar tomonidan organizmni tozalash imqoniyatidan ustun keluvchi shlaklar hosil bo'lishiga va almashinuvining haddan tashhari tezlashishi oqibatida rivojlanadi. Yetarlicha miqdordagi siydik ajratiladi, u yuqori zichlikka ega, ammo qonda mochevina konsentrasiyasi oshadi. Bemorlarda yomon ishtaha, og'izdagi quruqlilik, ko'ngil aynishi, uyquchanlik qayd qilinadi. Funksional o'tkir buyrak yetishmovchiligi hayo't uchun xavfli emas va buzilgan modda almashinuvini davolashni taqoza etadi (glyukozaning 40% eritmasini kuniga 600-800 ml yuborish,). Organik o'tkir buyrak yetishmovchiligi buyrak parenximasi zarralanishi bilan bog'liq. U yengil shaklda kechishi mumkin, lekin yetarlicha katta diurez bilan, ammo qonning buyraklar tomonidan yaxshi tozalanmasligi uremiya uchun tipik shikoyatlar: ko'ngil aynishi, hansirash paydo bo'lishigaa olib keladi. Suv toplanishida va tana vazning ortishida o'pkalarda nam xirillashlar, arterial gipertenziya, yurak urishi aniqlanadi. Og'ir holatlarda intoksikasiya belgilari erta boshlanadi - chanqash, og'izdagi quruqlilik va achishish, turg'un hansirash, hushini yo'qotish, harakatli no'tinchsizlilik, xushini yo'qotish bilan mushaklarning xurujli tortishishi, qon tekshirilganda ifodalangan uremiya belgilari aniqlanadi: mochevina konsentrasiyasi 100-150 mmol/l gacha ko'tarilgan, kreatinniki 1800-2000 mkmol/l gacha. Ko'pincha xavfli giperlikemiya - 7,5-9 mekv/l - aniqlanadi. Anuriyadan keyin diurezning tiklanish davri boshlanadi: bir necha kun ichida ajralib chiqarilayotgan siydik miqdori 4-10 l va undan ko'proq bo'ladi. Bunda ko'pincha organizm suvsizlanishi belgilari paydo bo'ladi: arterail bosim pasayadi, tana harorati ko'tariladi. qonda azotli shlaklar miqdori sekin-asta me'yorlashadi, lekin to'liq sog'ayish faqat 3-6 oydan keyin sodir bo'ladi. Keng buyrak infarklari hosil bo'lishi bilan birga kechgan og'ir o'tkir buyrak yetishmovchiligidan so'ng dag'al chandiqli va sklero'tik o'zgarishlar qoladi. Agar og'ir asosiy kasallik mavjud bemorda har kuni diurezni nazorat qilish va azo'temiya darajasini aniqlash amalga oshirilsa o'tkir buyrak yetishmovchiligini tashxislash kamdan-kam xollarda qiyinchilik tug'diradi. Buyrak yetishmovchiligining sababini aniqlash esa

mushkulroq. O’tkir buyrak yetishmovchiligini o’tkir siydik tutilishi va siydik pufagining qorinparda ichida yorilishi bilan differensial tashxis qilish ahamiyatga ega.

Davolash stasionarda olib boriladi. Bjshlang’ich stadiyalarda davolash buyrak yetshmovchiligini keltirib chihargan sabablarni davolashga haratilgan. Gemosirkulyasiya buzilishida, shokda shokga qarshi terapiya o’tkaziladi, o’tkir zaharlanishlarda - zaharni organizmdan chiqarib tashlashga qaratilgan tadbirlar (oshqozonni yuvish, gemodializ, gemofiltrasiya, gemosorbsiya, plazmaferez) bajariladi. Oliguriyaning boshlang’ich davrida diurez stimulyasiyasi amalga oshriladi. Agar uremiya kuchaysa bemor gemodializ bo’limiga yuborilishi kerak, u yerda sun'iy buyrak qo’llanilishi mumkin. Bashorati o’tkir buyrak yetishmovchiligi sababi va buyrak strukturalaridagi o’zgarishlarga bog’liq. Ko’pchilik qo’llarda o’tkazilgan o’tkir buyrak yetishmovchiligidan keyin sog’ayish boshlanadi.

Surunkali buyrak yetishmovchiligi ko’pincha surunkali glomerulonefrit va pielonefrit, modda almashinuvi kasalliklari, shu jumladan qandli diabet, amiloidoz, shuningdek podagra va boshq. bilan bog’liq. Surunkali buyrak yetishmovchiligi ko’pincha tizimli qizil boricha, revmatoid artrit, trombositopenik purpura, qonning boshqa kasalliklarida, asosan mielom kasalligida rivojlanadi. Ba'zi holatlarda surunkali buyrak yetishmovchiligi tug’ma kasalliklar (buyrak polikistozi va gipoplaziyasi) bilan, irsiy nefrit, ionlantiruvchi nurlanish ta'siri, qo’rg’oshin bilan zaharlanish, alkogol surrogatlari, analgetiklar, oltin va platina dorilari, antibio’tiklarni qo’llash bilan bog’liq. Surunkali buyrak yetishmovchiligi rivojlanishini funsiyasi yo’qotilmagan nefronlar sonining progressiv kamayishi, saqlangan nefronlarning oshib boruvchi yuklamasi va keiynchalik atrofiyasi bilan bog’lashadi. Bunda suv-tuz almashinuvi va kislota-ishqor barqarorligi izdan chiqishi ortib boradi, azotli shlaklar to’planishi ancha ortadi, bu uremiya simptomlari namoyon bo’lishigaa sharoit yaratadi. Asosiy kasallikga bog’liq ravishda surunkali buyrak yetishmovchiligida suv va tuz ushlanib qolishiga moyillik, aretrial gipertenziya, yo’ki, aksincha, suv va tuz yo`qotilishiga moyillik va arterial bosim pasayishi ustun kelishi mumkin. Buyrak funksiyasining 10-15% saqlanganda uremiya rivojlanishini maxsus parhez yo’rdamida saqlab turish mumkin. Funksiyaning 10% dan kami saqlanganda, hatto parhezning eng qat'iy tartibi belgilangan bo’lsa ham uremiya simptomlari progresslanishi mumkin, qonni ekstrakorporal tozalashga zaruriyat tug’iladi.

Morfologik o'zgarishlar surunkali buyrak yetishmovchiligining barcha turlarida nefroskleroz bilan xususiyatlanadi, u asosiy kasallikga nisbatan qator spesifik belgilariga ega. Masalan, glomerulonefritning oxirgi bosqichlarida kalavalarning chandiqli o’zgarishi kuzatiladi, bu buyraklar vazni va o’lchamlari

o’zgarishiga olib keladi. Pielonefritda buyrak parenximasida o’choqli zichlashishlar, chandiqli kapsula bilan oralgan yiringli bo’shliqlar, ko’sacha va jom shilliq qavatida chandiq va yaralar, buyrak so’rg’ichlarining nekrozi kuzatiladi. Buyrak yetishmovchiligi bilan bog’langan birinchi sezgi kech paydo bo’lishiga mumkin, ya'ni ifodalangan uremik o’zgarishlar sodir bo’lganda. Erta shikoyatlar umumiy xususiyatga ega (masalan, holsizik, tez charchashlik, og’izdagi quruqlik, pasayishi, ishtaha kamayishi, chanqash ba'zida, tez-tez siyish). Bemor ko’zdan kechirilganda yuz shishiganligi, teri rangparligi, nafas chiqarishda havoning mochevina hidiga o’xshashi diqqatni tortadi. Ko’pincha boldir mushaklarida tortishishlar, suyaklardagi og’riqlar, uyqu buzilishi qayd qilinadi. Azo’temiyaning bora-bora ortishi natijasida go’shtli ovqatlarga ijirg’anish, ko’ngil aynishi va och qoringa chusish, bosh og’rishi, tinch holatda hansirash, yuqori arterial bosim paydo bo’ladi. Ayo’llarda hayz sikli buzilishlari erta paydo bo’ladi, bachadon qon ketishlari mumkin, erkaklarda impotensiya rivojlanadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichiga kelib diurez ko’pchilik holatlarda kamayadi, ovqatlanishning turg’un jodal chiqishi yuzaga keladi - bemorlar katastrofik ravishda ozishadi, bunda ko’pincha katta shishlar shakllanadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligining terminal bosqichiga o’tganida perikardit vujudga keladi. Bunda tosh ortida va epigastral sohada og’irlik hissi, og’riq seziladi, bemorlar tushakda majburiy holatni egallashadi, o’tirgan yo’ki biroz engashgan holatda yoki chap yonboshida yuzi bilan pastga yotgan holda. Ahvoli yomonlashgan sari qushini yo’qotish bilan birga tirishish xurujlari, kuchayib boruvchi uyquchanlik, harakat bezovtalanishi, alahlash, koma kuzatiladi. Surunkali buyrak yetishmovchiligini davolashning asosiy tamoyili qonni buyrak tomonidan tozalanishi kamayganligi holatiga bemor hayot tarzini va ovqatlanish tartibini moslashtirishdan iborat. Buning uchun qabul qilinayotgan oqsil miqdori asta-sekin kamaytiriladi, kislotalar, kaliy, va ko’rsatmalar bo’yicha natriy qabul qilish pasaytiriladi. Oqsil parchalanishi sekinlashtiruvchi dori vositalari qo’llaniladi, masalan anabolik steroidlar. Ovqatning umumiy kaloriyaligi ko’paytiraladi. Suv va tuzni yo’qotishga moyillik bo’lganda ularni ko’p miqdorda qabul qilish tavsiya qilinadi. Terminal bosqichda qonni tozalash uslublari (gemodializ, gemofiltrasiya, peritoneal dializ) va buyraklar transplantasiyasi qo’llaniladi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi terminal bosqichida davolash tadbirlari olib borilmasa tezda o’lim bilan tugashi sodir bo’ladi.

Buyrak yetishmovchiligining bolalardagi xususiyatlari. Bolalardagi buyrak yetishmovchiligining asosiy sabablari operasiyadan keyingi shok (asosan chaqaloqlarda), qusish bilan kechuvchi kasallik, ich ketishi, suvsizlanish, o’tkir infeksiyalar, sepsis, o’tkir gemoliz, anafilaktik reaksiyalar, nefro’toksik zaharlar bilan zaharlanish, buyraklarning tug’ma zararlanishi, buyrak venalari trombozi,

og’ir kasalliklarda suyuqlik va elektrolitlarning haddan tashqari ko’p kiritilishi hisoblanadi. Tug’ilganidan keyin o’tkir buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi buyraklarning postloq nekrozi bilan bog’liq bo’lishiga mumkin. Konservativ davolash bola yoshi va uning tana vaznini hisobga olgan holda olib boriladi, info’zion terapiya dori vositalarini kiritishning qat'iy ketma-ketligi saqlangan holda (avval geparin, keyin eufillin, glyukokortikoidlar, glyukoza insulin bilan, xlorid natriyning izo’tonik eritmasi, kokarboqsilaza, yurak vositalari) amalga oshiriladi. Giperkaliemiyada - kalsiy glyukonati, anabo’lik gormonlar (glomerulonefrit yoqligida); asidozda - natriy gidrokarbonati; alkalozda - glyukokortikoidlar, geparin, veroshpiron (giperkaliemiya bo’lmaganida).

O’tkir buyrak yetishmovchiligida bolalarda, asosan hayotining birinchi ikki kunligida bashorat juda ham jiddiy. Profilaktikasi tug'ma va irsiy buyrak kasalliklarni erta tashxislashdan iborat. Bunday bemorlarni turli stress holatlaridan asrash kerak, ularga emlashlar mumkin emas; zarurat bo’lganda infeksion kasalliklarni faol davolash zarur.

Surunkali buyrak yetishmovchiligi erta bolalik yoshida juda ham kam ho’llarda tipik kechadi. Surunkali buyrak yetishmovchiligi uzoq vaqt kompenasasiyalangan bo’ladi. Ammo tana vazni ortishi bilan dekompensasiya darajasi ham ortadi. Interkurrent kasalliklar, asosan infeksion, terminal bosqichning erta kelishiga imkon yaratadi. Maxsus ko’rsatmalar asosida buyrak ko’chirishi amalga oshiriladi.

10- AMALIY MASHG’ULOT.

Chaqaloqlik davri fiziologiyasi. Moslashuv jarayonini aks ettiruvchi xolatlar (chegara, tranzitor yoki fiziologik xolatlar).

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga chaqaloqlik davri fiziologiyasi, moslashuv jarayonini aks ettiruvchi xolatlar (chegara, tranzitor yoki fiziologik xolatlar) haqida ma’lumot berish va tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Chaqaloqlik davri fiziologiyasi, moslashuv jarayonini aks ettiruvchi xolatlar (chegara, tranzitor yoki fiziologik xolatlar) haqida ma’lumot berish va tekshirish usullari haqida ma’lumot berish, muxokama qilish.
2. Chaqaloqlik davrida tekshirish usullarini muxokama qilish.
3. Chaqaloqlik davrida tranzitor xolatlarni tashxisini namoyish qilish.
4. Chaqaloqlarni nazorati tadbirlar rejasini tuzish.

Talaba bilishi kerak.

1. Chaqaloqlik davri fiziologiyasi AFX bilish.
2. Tranzitor xolatlarni baholash (fiziologik sariqlik, tana vaznini tushishi, siydik nordon diatezi, jinsiy kriz va b.)
3. Chaqaloqlarda tug‘ma shartsiz reflekslar.
4. APGAR shkalasi bo‘yicha baholashni bilish diagnostik mezonlari.
6. Neonatolog maslaxatiga ko‘rsatma.

Talaba bajarishi kerak.

1.Anamnez va kasal shikoyatini to‘g‘ri yig‘ish.
2.Ushbu holatlar bo‘yicha laborator tekshiruvini qon, siydik, ahlatning klinik, biohximik ALT, AST analizlari, natijasini baxolash.
3. Chaqaloqni antropometriyasi, ko‘ruvdan o‘tkazish.
4.Tug‘ma reflekslarni aniqlash

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda chegara holatiga kiradi:

1. «Hozirgina tug‘ilgan bola» sindromi tug‘ruq jarayonida bola organizmiga ko‘p miqdorda garmonlar ajralishi hamda tashqi va ichki qo‘zg‘atuvchilarning ko‘pligi bilan bog’lik. Bola tug‘ilishi bilan chuqur nafas oladi, baland ovozda yig’laydi va bukilgan holatni egallaydi.Tug‘ruqdan keyingi 5-10 minut davomida u faol bo‘ladi, so‘rg‘ichni qidiradi va ko‘krakka berilsa shiddat bilan emadi. Bir qancha vaqtdan so‘ng bola tinchlanadi va uxlab qoladi.

2. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning deyarli hammasida hayotining 1-haftasida terisida o‘zgarishlar aniqlanadi:

Oddiy eritema —Terining qizarishi, hayotining 2-kunida yaqqol ifodalanib, 1-haftasini oxirida to‘liq yo’qoladi.

Toksik eritema — markazida sarg‘ish-kulirang zichlashish bilan dog‘simon toshma bo‘lib, oyoq-qo‘l bo‘g‘imlarining yozuvchi yuzalarida va ko‘krakda joylashadi. Shu bilan birga bola o‘zini yaxshi xis qiladi, tana harorati me’yoriy. 1–3kun davomida yangi toshmalar paydo bulishi mumkin, 2–3kundan keyin toshmalar yuqoladi. Odatda davolash talab etilmaydi, lekin kuchli toksik eritemalarda qo‘shimcha suyuqlik ichirish tavsiya etiladi, ba’zida antigistaminlar (allergiyaga karshi vositalar) buyuriladi.

Teri qatlamining kepaklanishi — hayotining 3-5kuni yuzagakeladi, ko‘pincha qorinda va ko‘krakda bo‘ladi. Keskin kepaklanish ayniqsa mudatdan utib ketgan bolalarda kuzatiladi. Davolash talab etilmaydi, lekin kepaklangan soxalarga yuvintirilgandan so‘ng bolalar kremini surtish mumkin.

2. Dastlabki tana massasining tranzitor kamayishi. Hayotining dastlabki kunlarida ochlik (sutva suv tanqisligi) natijasida yuzaga keladi. Tug‘ilgandagi tana vaznidan qat’iy nazar hayotining birinchi kunlarida tana vaznining kamayishi kuzatiladi. Dastlabki tana massasining maksimal kamayishi (TMMK) odatda 3—4, ba’zida 5-y kun kuzatiladi. Sog’lom

tug‘ilgan chaqaloqlarda TMMK odatda 6-8 %dan oshmaydi. TMMK yuqori ko`rsatkichlariga olib keluvchi omillar —bu, muddatiga yetmay tug’ilish, katta tana vazni bilan tug’ilish, yuqori harorat va xona (kyuvez) havosi namligining yetarlicha bo’lmasligi va b. Dastlabki tana massasining kamayishi patogenezi suvsizlanish (suvning nafas va teri orqali yo`qotilishi) bilan bog’liq. Tug‘ruqda tranzitor kamaygan tana massasi 60— 70 % chaqaloqlarda odatda hayotining 6-7 kunlariga kelib tiklansa, 75—85 % chaqaloqlarda 10-kuniga va qolgan sog’lom bolalarning hammasida hayotining 2-haftasiga kelib to‘liq tiklanadi. 3-4 daraja muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlar, tug‘ilganda yirik va tana vazni katta bo‘lgan bolalar va kasal bolalarda yo’qotilgan dastlabki tana massasi sekin tiklanadi.

Maqsadga yo‘naltirilgan parvarish: optimal issiq rejim, gipogalaktiyani o‘z vaqtida aniqlash va ratsional taktika, erta ko‘krakka berish—TMMK erta tiklanishiga olib keluvchi asosiy omil.

4. Tranzitor giperbilirubinemiya. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning hammasida hayotining 1-kunida rivojlanadi, lekin sariklik 60—70 % hollarda gina kuzatiladi. Kindik qoni zardobida bilirubin konsentratsiyasining me’yoriy ko`rsatkichi 26—34 mkmol/l. Deyarli hamma chaqaloqlarda hayotining 1-kunida qon zardobidagi bilirubin konsentratsiyasi 1,7—2,6 mkmol/ l/soat tezlik bilan oshib boradi, 3-4-kunga kelib 103—137 mkmol/l ga yetadi. Bu holat hayotining 7—10kuniga kelib utib ketadi. Tranzitor sariqlikda bilirubin miqdori uning bog’lanmagan fraksiyasi — bog’lanmagan bilirubina (bog‘lanmagan bilirubin) hisobiga oshadi. Terining sarg‘ayishi hayotining 2—3kunida, qachonki bog‘lanmagan bilirubin konsentratsiyasi muddatida tug‘ilgan chaqaloqlarda 51—60 mkmol/l, mudatiga yetmay tug‘ilgan chaqaloqlarda — 85—103 mkmol/l ga yetganda paydo bo‘ladi.

11- AMALIY MASHG’ULOT.

Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish (JSST) tamoyillari. Ko‘krak sutining afzalliklari.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi.

Talabalarga Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari, ko‘krak sutining afzalliklari haqida ma’lumot berish va tekshirish usullari haqida ma’lumot berish.

Amaliy mashg‘ulotning vazifalari.

1. Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari, ko‘krak sutining afzalliklari haqida ma’lumot berish va tekshirish usullari haqida ma’lumot berish muxokama qilish.

2. Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari, ko‘krak sutining afzalliklari (JSST) haqida usullarini muxokama qilish.

Sog‘lom tug‘ilgan chaqaloq

3. Onada laktatsiyani erta rivojlantirish, bola va onaning ruxiy bog‘lanishi.

4. Onani emizishga umuman ruxsat etilmaydigan ko‘rsatmalar.

Talaba bilishi kerak.

1. Sut bezlarining shakllanish bosqichlari

2. Og‘iz suti, ona suti tarkibini.

3. Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari, ko‘krak sutining afzalliklarini.

4.Onani emizishga absolyut va nisbiy moneliklarda.

5. Gipogalaktiya sabablari.

Talaba bajarishi kerak.

1. Og‘iz sutini, ona suti miqdorin aniqlash.

2. Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish texnikasi.

3. Go‘dakka ko‘krakni qanday qilib to‘g‘ri berish kerakligini o‘rgatish

Ko‘krak suti bilan oziqlantirish (JSST) dasturi. Bolalarni ovqatlantirish

Yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘krakdan boqish. Yangi tug‘ilgan sog‘lom chaqaloqni ko‘krakdan boqishni u tug’ulgandan so‘ng dastlabki 30 minut ichida boshlagan ma’qul. Barcha sut emizuvchi xayvonlarning yangi tug‘ilgan bolalari singari yangi tug‘ilgan chaqaloqlardan ham dastlabki 2-2,5 soat ichida shunga o‘xshash deyarli bir xil harakatlarni kuzatish mumkin. Bu harakatlarda asosan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda (shu jumladan boshqa sut emizuvchilarda ham) tug‘ma ovqat kidiruv programmasi elementlarini, ya’ni ona ko‘krak bezi surg’ichini axtarib topishda, ogiz va qo‘lchalarining bir-biriga mos harakatlarini va ko‘krak bezi surg’ichini topgandan so‘ng uyga maxkam surib yopishib olishini va uyquga ketgunga qadar to’yib emishini kuzatish mumkin.

Muddatiga yetmay tug‘ilgan chaqaloqlarni yetuklik darajasiga ko‘ra qoshik yordamida yoki zond bilan yoki pipetka bilan ovqatlantirish mumkin. Og‘ir darajalardagi chala tug‘ilgan chaqaloqlarni zond yordamida ovqatlantiriladi.

Muddatiga yetib tug‘ilgan chaqaloqlarga zarur bo‘lgan ovqat hajmini xisoblash

Muddatiga yetib tug‘ilgan chaqaloqlarga zarur bo‘lgan ovqat hajmini xisoblash uchun maxsus usullardan foydalanamiz.

7 kungacha bo`lgan chaqaloqlarga kerak bo‘lgan ovqat miqdorini xisoblash uchun quyidagi usuldan foydalanamiz.

Muddatida tug‘ilgan chaqaloqlarga ko‘krak sutining hajmi va vena ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va ko‘krak sutining hajmi

	Hayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
Har 3 soatdagi ovqatlanish hajmi (ml⁄kg og’irligiga) 8 maxal	60	80	100	120	140	150	160

Masalan: chaqaloq 4 kunlik, tana og’irligi 3.4 kg. 120x3.4= 408 ml. (1 kunlik sut mikdori). Har emganda 408:8=51 ml 1 martada emishi kerak

Keyingi kunlardan boshlab hajmiy usulga o’tiladi. 8 kunlikdan 6 haftagacha - tana vaznini 1/5 qismini tashkil qiladi: 6 haftadan - 4 oygacha - 1/6 qismini 4-6 oygacha - 1/7 qismini tashkil qiladi. Masalan: 15 kunlik chaqaloq, tana og‘irligi - 3500gr. 1 kunlik sut miqdori: = 3500 : 5 = 700 ml. har emganda 700 : 7 = 100 ml 1 martada emishi kerak

Muddatiga yetmay tug‘ilgan chaqaloqlarga zarur bo‘lgan ovqat hajmini hisoblash.

Chala tug‘ilgan chaqaloqqa zarur bo‘lgan ovqatning sutkalik hajmi VOZ taklif etgan tablitsalardan foydalaniladi:

Tana vazni 1.25 kg dan kam bo‘lgan chaqaloqlarning vena ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va ko’krak sutining hajmi

	Hayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi (ml/s yoki mikrotomchi/min)	4	4	3	3	2	2	0
Har 2 soatdagi ovqatlanish hajmi (ml⁄ovqatlantirish) 8-10 maxal	0	0	3	5	8	11	15

Tana vazni 1.25-1.49 kg bo‘lgan chaqaloqlarning vena

ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va ko’krak sutining hajmi

	Hayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi (ml/s yoki mikrotomchi/min)	3	3	3	2	2	0	0
Har 2 soatdagi ovqatlanish hajmi (ml⁄ovqatlantirish) 8-10 maxal	0	6	9	16	20	28	30

Tana vazni 1.5-1.749 kg bo‘lgan chaqaloqlarning vena ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va ko’krak sutining hajmi

	Hayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi (ml/s yoki mikrotomchi/min)	4	4	3	2	2	0	0
Har 2 soatdagi ovqatlanish hajmi (ml⁄ovqatlantirish) 8-10 maxal	0	6	13	20	24	33	35

Tana vazni 1.75-2.5 kg bo‘lgan chaqaloqlarning vena ichiga yuboriladigan suyuqlik tezligi va ko’krak sutining hajmi

	Hayot kunlari						
	1	2	3	4	5	6	7
v/i ga yuboriladigan suyuqlik tezligi (ml/s yoki mikrotomchi/min)	5	4	3	2	0	0	0
Har 2 soatdagi ovqatlanish hajmi (ml⁄ovqatlantirish) 8 maxal	0	6	14	22	30	35	38

Masalan: chaqaloq 4 kunlik, tana og’irligi 1,8 kg. Jadval yordamida kerakli bo‘lgan ovqat hajmini topamiz. Har 2 soatda beriladigan ko‘krak suti 22 ml. 22 ml x 8 = 176 ml

Suyuqlik xisobi - 5 x 24 = 48 ml

Bola tavsiya etilgan sut miqdorini qabul qilayotgan bo‘lsa, suyuqlik yetishmovchiligi 48 ml ni tashkil etadi. Tavsiya etilgan sut miqdoridan kam qabul qilayotgan bo‘lsa, qolgan miqdorini suyuqlik shaklida berishimiz kerak.

8 kunlikdan boshlab kaloriya usulida aniqlanadi – 10 kkal x n x TV

Masalan: 10 kunlik chala tug‘ilgan bola. TV - 1800 gr.
1 kunda ichishi kerak sut miqdori 10 kkal x 1,8 x 10 = 180 kkal kerak.
100 ml ona sutida 70 kkal bo‘lsa,
X - 180 kkal X = 100 x 180 : 70 = 255 ml.
255 ml 8 martaga bo‘lsak 1 martalik sut hajmi 32 ml ni tashkil qiladi

Chala tug‘ilgan chaqaloqlarni zond orqali ovqatlantirish

Chaqaloqlarni to‘g‘ri parvarishda ularni to‘g‘ri ovqatlantirish ham muxim ahamiyatga ega. Ayniqsa chala tug‘ilgan chaqaloqlarni zond orqali ovqatlantirish kerak. Zond orqali asosan 1500gdan kam tug‘ilgan chaqaloqlar, MNS shikastlanishi bilan, og‘ir asfiksiyada va boshka og‘ir xolatlarda tug‘ilgan chaqaloqlar ovqatlantiriladi.

Ko‘rsatmalar: Chaqaloqda emish refleksi yo‘q bo‘lsa, chala tug‘ilgan chaqaloqlar, MNS shikastlanishi bilan, og‘ir asfiksiyada, tug’ma anomaliyalarda va boshqa og‘ir xolatlarda tug‘ilgan chaqaloqlar.

Jixozlar: me’da zondlari (har xil o‘lchamli maxsus plastik zondlari), shpritslar – 2-3 ta (10,0-20,0 ml), steril perchatkalar, lotok, leykoplastir, sterillangan ona suti. Muolaja ham shira yoki shifokor tomonidan bajarilishi mumkin.

Bemor xolati: chaqaloqlar yotgan xolda.

Bajarilishi: Kiritilishi lozim zond uzunligi aniqlanadi – zond uzunligi burun ustidan qo‘loq suprasigacha, undan epigastral soxasigacha o‘lchanadi va zondga belgilanadi (quyidagi rasmga qaralsin).



1. Chaqaloqka belgilangandan biroz ko‘prok sut miqdori tayorlanadi. Buning uchun sog‘ilgan ona sutini steril shishaga quyiladi.

2. Zond uchini vazelin yoki usimlik moyi bilan yog‘lanadi. So‘ng og‘iz orqali yoki burun teshigi orqali asta sekin zond kiritiladi. Zondni oshqozonga to‘g‘ri tushgan yoki tushmaganligini bilish uchun zondni erkin uchini stakandagi suvga solib qo‘yiladi. Agar zond traxeyaga o‘tib ketsa suvdagi uchidan havo pufakchalari chiqa boshlaydi. Bunday xolatda zondni tez qaytarib tortib olinadi.

3. Zond oshqozonga tushganligini bilish uchun erkin uchiga shpritsni ulab oshqozon suyuqligi sekin tortib ko‘riladi, tiniq suyuqlik bo‘lsa, mo’ljallangan sut miqdori yuboriladi (sut o‘zi oqib tushishi kerak).

4. Agar oshqozonda sut qoldiqlari mavjud bo‘lsa shprits yordamida so‘rib tortiladi va fiziologik eritmada toza suv chiqquncha yuviladi. Shundan so‘ng sut yuboriladi.

5. Zondni uchi ezilgan xolda astalik bilan sug’urib olinadi (bola qayt qilib yubormaslik uchun). Ayrim hollarda zond 1 sutkaga qoldirib qo‘yish mumkin.

6. Bola axvoli yaxshilangandan so‘ng, faol emish, yutish reflekslari paydo bo‘lgandan so‘ng bolani so‘rgich orqali emizishga o‘tkaziladi.

Egizak chaqaloqlarni ovqatlantirish.

Egizak chaqaloqlarni emizishda quydagi qoidalarga amal qilish kerak:

- egizaklarning bezovta bo‘layotganini birinchi bo‘lib emizish kerak;
- chaqaloqlar ortiqcha bezovta bo‘lmaganda birinchi bo‘lib kichik vazndagi yoki bo‘shashkanrok bolani emizish kerak.
- har bir chaqaloqga aloxida ko‘krak berish;
- emizib bo‘lgan chaqaloqlarga qo‘shimcha sog’ilgan ona sutini qoshiq yordamida berish kerak;
- buning uchun har emizgandan so‘ng kantrol og‘irlikni aniqlash kerak;
- ona suti yetarli bo‘lmasa pediatr maslaxati bilan qo‘shimcha ovqat sifatida moslashtirilgan suniy aralashmalar berish mumkin

har bir emizgada kantrol og‘irlikni aniqlash kerak;

Chaqaloq og‘irligini aniqlab boorish.

Kantrol og‘irlikni aniqlash usuli chaqaloqni qancha sut emayotganligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi. Buning uchun bolani emizishdan avval va emizib bo‘lgan dan so‘ng tortiladi. Ikkala ko‘rsatkich ning orasidagi tafovut bolaning emgan sut miqdorini ko‘rsatadi. Bu usulni o‘tkazishda quydagi qoidalarga amal qilishimiz kerak

1. kantrol og‘irlikni aniqlash usuli kunning har xil vaqtlarida (ertalab, tushda, kechqurun) bir necha marotaba (3-4 marta) o‘tkazish lozim;

2. kantrol tortish vaqtida (mexanik tarozilar ishlatilganda) taroziga tegmaslik, yani ishlatmay turish lozim;

3. kantrol og‘irlikni aniqlashni avvalgi ovqatlantirilgandan kamida 2 soat o’tgach o‘tkazish shart;

4. kantrol og‘irlikni aniqlash mobaynida ona bolani 20-25 minut, bola faol emsa – 15-20 minut, sust emsa – 25-30 minut emizishi kerak;

5. kantrol og‘irlikni o‘tkazish davrida bolani kiyim yoki yo‘rgagi almashtirilmaydi (ichi kelsa yoki siysa).

6-mavzu. Fiziologik shartsiz reflekslar tekshirish texnikasi.

Bolaning funksional yetukligini baxolash uchun fiziologik shartsiz reflekslar tekshiriladi. Shartsiz reflekslar turlari juda ko‘p, lekin asosiylari quyidagi lardir:

1) so‘rish refleksi - bolaning ogziga so‘rgichni solganda bola darxol ema boshlaydi;

2) izlash refleksi (Kusmaul) - og‘iz burchagi soxasida teri silanganda bola boshini o‘sha tarafga buradi;

3) xartumcha refleksi - lablariga qo‘l tekizganda bola lablarini cho‘zadi;

4) kaft-og‘iz refleksi (Babkin) - kaftning tenor soxasiga ezganda bola ogzini ochadi, boshi engashtiradi, yelka va bilagini bukadi;

5) tepa ushlash refleksi (Robinson) - bolaning kaftiga ko‘rsatkich barmoqni berganda bola uni maxkam ushlab oladi, xatto bolani biroz

ko‘tarish mumkin;

6) pastki ushlash refleksi (Verkom) - 2-3 barmoq soxasidagi tovon

yostiqchasiga ezganda barmoqlar bukiladi;

7) Babinskiy refleksi – tovonni qitiqlaganda katta barmoq tepaga, qolgan barmoqlar pastga bukiladi (yoki yelpigichsimon yoyiladi);

8) Moro refleksi – 2 fazadan iborat: 1 - fazada bola ko‘llarini tashqi tomonga yozib, kaftlarini ochadi; 2 - fazada qo‘llarini qayta ko‘krak qafasiga yig’ib oladi; bu refleksni 3 xil ko‘zgatuvchi bilan chaqirish mumkin: yo‘rgak stoliga bexosdan qattiq urganda, qo‘llaridan tortib qo‘yib yuborganda, bolani tepaga ko‘tarib pastga tushirganda ushbu refleks chaqiriladi;

9) himoya refleksi – bolani dum tushirib yotqizilganda nafas olish qiyinlashganligidan boshini biroz ko‘taradi yoki yonboshga burib oladi;

10) Emaklash refleksi (Bauer) - bolani qorniga yotkizib, oyoqlariga kaft qo‘yilsa bola tepinib emaklashga harakat qiladi;

11) Tayanch va avtomatik yurish refleksi – bolani qo‘ltiqlaridan ushlab bostirganda bola oyoqlari bilan tik turib yurib ketadi.

12) Peres refleksi – chaqaloq qorniga yotkizilib, paravertebral soxada ko‘rsatkich barmoq bilan tepadan pastga yo‘naltirganda chaqaloq qarshi tomonga yoysimon yg’iladi.

13) Galant refleksi - chaqaloq qorniga yotkizilib, umurtka pog‘onasining o‘tkir o‘simtalar bo‘ylab ko‘rsatkich barmoq bilan pastdan tepaga yo‘naltirganda chaqaloq oldinga yoysimon egiladi(opistotonus xolat

Chaqaloqlarda nafas sonini aniqlash

Nafas sonini chaqaloqlarda asosan uxlayotgan xolatda, stetoskopni burun oldiga qo‘yib yoki ko‘krak qafasiga qo‘lini qo‘yib sanaladi. Bu usul bilan ba’zida bronxdagi xirillashlarni ham eshitish mumkin. Nafas sonini to‘liq 1 minutda

xisoblash lozim, ayrim hollarda birozdan so‘ng yana bir bor xisoblash mumkin. Chunki chaqaloqlarda normada ham nafas olishi noritmik bo‘lishi mumkin.

Chaqaloqlarda nafas soni normada 1 daqiqada - 30-60; bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda - 30-35 ta, 5-6 yoshda - 20 - 25 ta, 10 yoshda – 18 - 20 ta.

Nafas chastotasi va puls nisbatini aniqlash turli nafas tizimi kasalliklarida katta aham iyatga ega. Normada bola hayotini birinchi yilida bu nisbat 3-3,5:1 ta, katta yoshdagi bolalarda esa 4:1 bo‘ladi.





Pnevmoniyada esa bu nisbat 1:2 ni tashkil qiladi. Patologik xolatlarda nafas ritmi tezlashadi - taxipnoye, yoki sekinlashishi - bradipnoye kuzatiladi.

Chaqaloqlarni kuvezda parvarish qilish.

Kuvez chala tug‘ilgan yoki og‘ir xolatdagi tug‘ilgan chaqaloqlarni parvarish qilish uchun mo‘ljallangan inkubator. Kuvez plessiglass oyna bilan qoplangan bo‘lib, unda chaqaloqni doimiy kuzatib turish imkoniyatini beradi. Kuvez ichida harorat, namlik va kislorod bilan boyitilgan havo bir me’yorda ushlab turiladi. Kuvezda asosan III va IV darajali chala tug‘ilgan chaqaloqlar, va og‘ir axvoldagi chaqaloqlar (miya shikastlanishlari bilan tug‘ilgan chaqaloqlar va x.k.) parvarish qilinadi. Chaqaloq hayotining 1 kunlarida kuvezning harorati 34-35^0 va namligi 90% ni tashkil qilinishi kerak. Keyingi kunlarda harorat va namlikni asta sekin pasaytirib boriladi. Og‘ir darajadagi chala tug‘ilgan chaqaloqlarga barcha muolajalar kuvezni o‘zida o‘tkaziladi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni emlash.

Chaqaloqlarga birinchi sutkada VGV qarshi vaksinatsiya qilinadi. VGV qarshi vaksinasi chaqaloq sonining yuqori qismiga mushak orasiga 0,5 ml vaksina qilinadi.

BSJ vaksinatsiyasi chaqaloq hayotining 3-5 kunlari, maxsus tayyorgarlik kursini o‘tagan ham shira tomonidan bajariladi. BSJ quruq vaksina - oq kukundan iborat bo‘lib uni 2 ml natriy xlor eritmasi bilan eritiladi va bolaga 0,1 ml eritma chap

yelkaning yuqori qismiga tuberqulin shpritsi bilan teri ichiga qilinadi. Ya'ni bola 1 mg vaksina qabul qiladi. 1 ampulada 20 doza bo‘ladi. Agar eritma oshib qolsa uni qaynatgan xolatda yoki dezinfeksiyalovchi moddalar yordamida yo‘qotiladi.

BSJ vaksinasi bilan birga poliomiyelit vaksinasi (OPV – oral poliomiyelit vaksina) ham qilinadi – og‘izga 2 tomchi tomiziladi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar. APGAR SHKALASI boyicha baxo berish

Chaqaloqlar tug‘ilgandan so‘ng akusher-ginekolog va pediatr-neonatolog chaqaloq xolatini quyida ko`rsatilgan Apgar jadvaliga kura beshta klinik belgi bilan baxolaydi.

Apgar shkalasi

Simptomlar	Ballar bilan baxolash		
	0	1	2
1. Yurak urishi tezligi	Yo‘q	100 dan kam	100 dan ortiq
2. Nafas olishi	Yo‘q	Bradipnoe, noritmik (chinqirig'i sust)	Normada chinqi-rig'i kuchli
3. Muskul tonusi	Qo‘l-oyoqlari shalviragan	Qo‘l-oyoqlari sal bukilgan xolda	Faol harakatlar mavjud
4.Reflektor qo'z g'aluvchanlik	Javob yo‘q	Sust namoyon bo‘ladi (yo'z i bujmaygan)	Yo`tal, aksirish, yig'lash
5.Teri rangi	Keng tarqalgan ko'karish yoki oqarish	Tana rangi pushti, qo‘l-oyoqlar ko'kargan	Tana va qo‘l-oyoqlari pushti.

Bola hayotining 1- va 5- minutlarida 6 - 7 ball – yengil asfiksiya;
1 minutda 4-6 ball, 5-chi minutda 8 - 10 ball – o‘rtacha og‘irlikda asfiksiya;
1 – minutda 4 ball va 5-chi minutda 7 balldan kam bo‘lsa, og‘ir asfiksiya deb hisoblanadi.

Asfiksiya xolatida tug‘ilgan chaqaloqlarga o‘tkaziladigan reanimatsion chora-tadbirlarning samarasi ularning boshlangan muddati bilan belgilanib, qancha erta boshlansa shuncha yaxshi bo‘ladi. Chaqaloqda mustaqil nafas faoliyatini tiklash asfiksiya xolatidan chiqarishning asosiy vazifasi bo‘lib xisoblanadi.

Yuqori nafas yo‘llarini shilliqdan tozalash asfiksiyaga qarshi kurashdagi dastlabki va eng muxim tadbirlardan biri bo‘lib xisoblanadi. Bola boshi bilan kelgan paytda uning ko‘krak qafasi tug’iish yo‘llarining eng tor soxasida bo‘ladi va uning qisilishi natijasida nafas yo‘llariga ketib qolgan massa yuqori nafas yo‘llariga qaytib keladi va olib tashlash ancha osonlashadi.

Burun va og‘iz bo‘shlig’i doka salfetka bilan tozalanadi yoki yarim qattiq rezina balonchig’i bilan so‘rib tashlanadi, yoki kateter yordamida shprits orqali surib tashlash mumkin. Bola tug‘ilganidan keyin elektrootsos yordamida yuqori nafas yo‘llari yana bir marta diqqat bilan tozalanadi va bola IVL apparatiga ulanadi. Agar yuqori nafas yo‘llaridagi shilliq quyuq va yopishqoq bo‘lsa, kateter orqali natriy gidrokarbonat eritmasida yuvib yuboriladi. Traxeya va bronxlardagi shilliq esa, IVL uchun o‘tkazilgan intubatsiya paytida olib tashlanadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda «A-V-S-D» reanimasiya asoalari

AVSD - reanimatsiya prinsipi asfiksiyada tug‘ilgan chaqaloqlarda qo‘llaniladi.

A- airway – nafas yo‘llarini tozalash va havo o‘tkazuvchanligini ta’minlashdan iborat.

V – breath – nafas ya’ni ventilyatsiyani ta’minlash (sun’iy (IVL) yoki yordamchi (VVL) usulida)

S – cardial. Circulation – yurak faoliyatini tiklash yoki saqlash va gemodinamikani yaxshilash.

D – drags –medikamentы – dorivor moddalar qo‘llash

1.Chaqaloqqa birlamchi yordam ko‘rsatishning asosiy prinsiplari:

1.reanimatsion yordamni planli o‘tkazish

- xodimlarni tayyor turishi
- joy va narsalarni tayyorlash
- medikamentlarni tayyorlash.

2.Chaqaloqqa kerakli temperatura sharoitini yaratish

3.Apgar baxosini qo‘ymay turib chaqaloqqa birinchi yordam ko‘rsatish

4.AVSD- reanimatsiyani “qadamma qadam” o‘tkazish va har bir qadamni baxolash

- muolajalarni o‘tkazayotganda aseptikaga rioya qilish
- nevrologik tomonga ahamiyat berish
- medikamentoz terapiyani minimallashtirish
- muhim ko`rsatma bo‘lganda infuzion terapiyaga astalik bilan yondoshish
- iloji boricha ertaroq enteral ovqatlanishni ta’minlash
- postasfiksik sindrom davrida monitor kuzatuvni tashkil qilish.

A (1)- etap reanimatsiya – tug‘ruq yo‘llaridan boshi ko‘rinishi bilan kateter yordamida agar homila oldi suvlari iflos bo‘lsa, og‘iz bo‘shlig’ini tozalash lozim, agar homila oldi suvlari toza bo‘lsa salfetka yordamida tozalanadi. Kindikni 1 – 1,5

minutdan so‘ng kesish tavsiya etiladi. 1-etap 20-25sek davom etib, uni oxirida nafasni baxolash kerak bo‘ladi. Adekvat nafas tiklangandan so‘ng, yurak urishi soni aniqlanadi va u 100 dan ortiq bo‘lishi kerak, teri qoplamlari pushti rangda bo‘ladigan bo‘lsa reanimatsion tadbirlarni to‘xtatib kuzatish kerak bo‘ladi. Shu bilan birga tug‘ruq zalida asfiksiya yoki kardiorespirator sindrom bilan tug‘ilgan chaqaloqlarga vitamin K qilinadi. Agar bola tug‘ilgandan so‘ng nafas olmaydigan bo‘lsa, yurak urishi 100 dan kam, teri qoplamlari meqoniy bilan qoplangan bo‘lsa, nafas yo‘llari va traxeya tozalanadi. Bunday bolalar tug‘ilishi bilan intubatsiya qilinadi va IVL yoki VVL ga olinadi. Intubatsiyani albatta kindik bog’langandan so‘ng, bola reanimatsion stolga olingandan so‘ng o‘tkaziladi.

V – etapni vazifasi tashki nafasni tiklashdan iborat, o‘pka ventilyatsiyasini tiklash, gipoksemiyani bartaraf etish, mustaqil nafas bo‘lmaganda o‘tkaziladi. O‘pka ventilyatsiyasi maska yordamida o‘tkaziladi. Optimal kislorod-havo oqimi 5-8 ml/min. tashkil qiladi. Ko‘krak qafasini ekskursiyasi alveolalar ventilyatsiyasini bildiradi. O‘pkada ventilyatsiya kuzatilmasa intubatsiya qilinadi. **S –** etap gemodinamik va metobolik buzilishlarni bartaraf qilishdan iborat. Agar yurak urish soni 60 dan kam bo‘lsa 100% kislorod maska orqali berilib, yurak massaj qilinadi. Agar 30 sek. davomida natija bo‘lmasa intubatsiya qilinib IVL apparatiga ulanadi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri massaj qilishda to‘shning 1/3 qismi ikkala barmoq bilan eziladi 3:1 nisbatda 90 sek davomida. Xanjarsimon o‘siqni ustida emas, chunki jigar yorilishi mumkin. Mustakil yurak urishi 80 dan ortik bo‘lsa massaj to‘xtatiladi. D– Agar 30 sek davomida natija bo‘lmasa yurak faoliyatini tiklash uchun 0,01% adrenalin 0,1ml/kg (0,01-0,03mg/kg) endotroxeal yoki t/i yuboriladi. Adrenalin teng miqdorda fiziologik eritmada eritilib so‘ngra junatiladi, yuborishni 5 minutdan so‘ng qaytarish mumkin 3 martagacha. IVL va massaj davom ettiriladi. Adrenalin beta adrenomimetik bo‘lib, tomirlar vazokonstriksiyasi hisobiga miya va yurakning qon bilan ta’minlanishini, yurak faoliyatini yaxshilaydi. Soda – bikarbonat natriya, atsidozni bartaraf etish maqsadida, 4% li eritma – 1,0-2,0 ml/kg vena ichiga yuboriladi.

Fiziologik yoki Ringer eritmasi – gipovolemiyani bartaraf qilish uchun 10ml/ kg ga vena ichiga yuboriladi.

Nalokson – narkotik analgetiklar antagonistq bo‘lib, nafas markazini qitiqlaydi. Ampulada 1,0 mlda 1,0 mg – 0,1 mg/kg yani 0,1 ml/kg v/ichiga, mushak orasiga, endotraxealno yoki teri ostiga qilish mumkin.

Kindik venasi kateterizatsiyasi chaqaloqka, vena ichiga ineksiya qilish imkoniyati bo‘lmaganda, zudlik bilan vena ichiga suyuqlik yuborish zaruriyati tug‘ilganda o‘tkaziladi. Bunday zaruriyat chaqaloqka reanimatsion yordam ko`rsatish zaruriyati tug‘ilganda - asfiksiyaning og‘ir darajasi, miya shikastlanishlari, chaqaloqlar gemolitik kasalligida qon almashtirish usuli bilan qon

quyish kerak bo‘lgan da va boshqa og‘ir xolatlarda, qachonki davomli infuzion terapiya o‘tkazish kerak bo‘lganda.

Kerakli jixozlar: steril perchatkalar, 1 martalik kindik polivinil kateteri №3,5-5 F, bir martalik shpritslar (5,0 va 10,0 ml) va kapelnitsa, paxta shariklari, steril salfetkalar, lezviye, kindikni bog’lash uchun steril ipak ip, leykoplastir.

Texnika. Kindik cho‘ltogi va atrof teri 70% li etil spirtida ishlov berib kindik cho‘ltogini 1 – 2 sm qoldirib lezviya bilan to‘g‘ri kesib olinadi. Kindik qoldig’ida 3 ta tomir ko‘rinadi – bosh tomonda kattaroq bo‘lgan tomir va ochiq turgan xolda, rangi och tusda – bu kindik venasi. Pastroqda ikkita kichikroq, berk turgan xolda (spazmga uchragan) – bu ikkita kindik arteriyalari. Kateter suyuqlik bilan to‘ldirgan xolda bir uchiga berk shprits ulangan bo‘lishi kerak (xafo emboliyasini oldini olish maqsadida). Pinset yordamida kindik venasini ochib asta sekinlik bilan kateterni bosh tarafga va unga qaratgan xolda kirgizamiz. Kateter oxista kuch ishlatilmagan xolda kirgiziladi. Vaqti-vaqti bilan shpritsni tortib turamiz. Shpritsga qon chiqa boshlaganda – bu taxminan 5-7 sm kirgazilganda, kateterni kirgizishni to‘xtatamiz. So‘ng kateterni siljib ketmasligi va qon ketishni oldini olish maqsadida kindik qoldig’ida steril ipak ip bilan bog’lab qo‘yamiz. Kateterni uchi qorinning devoriga leykoplastir yordamida maxkamlab (fiksatsiya) qo‘yiladi. Manipulyatsiyalar bajarib bo‘lgandan so‘ng kateter uchi rezina kalpachok yordamida berkitiladi. Kateterni doim kuzatib turish kerash, kindik atrofi qizarib, shishib qolsa kateterni chiqarib olish lozim. Barcha muolajalar chaqaloq rivojlanish kartasiga belgilab qo‘yiladi.

Yurakning bilvosita massaji va sun’iy nafas texnikasi.

Maqsad: Yurakning bilvosita massaji va sun’iy nafas yurak urishi va nafas olishi to‘xtab qolganda (chaqaloqlar asfiksiyasida, neyrotoksikoz xolatlarida va boshka reanimatsion xolatlarda) yurak va nafas faoliyatini tezkor tiklash maqsadida o‘tkaziladi.

Bajarilishi: Bolani qattik joyga yoki qattik matrasga yotkiziladi. Muolaja yordamchi shifokor yoki ham shira bilan birgalikda bajariladi, biri yurakni massaj qiladi, ikkinchisi sun’iy nafas beradi. Katta yoshdagi bolalarda ko‘krak qafasini pastki 1/3 qismiga o‘rta chiziq bo‘ylab qo‘lni qo’yib masajj qilinadi.

Rasm 3. Yurakning bilvosita massaj nuqtasi va qilish usullari.

kafti bilan qo‘yiladi. Ikkinchi qo‘l kafti esa birinchi qo‘lni kafti ustiga



ko‘yiladi. Sung ritmik ravishda ko‘krak kafasining yurak soxasi 4-5 sm chuqurlikda eziladi. Massaj 1 daqiqada 70-90 marta bajarilishi kerak. Qovurg’alar sinmasligi uchun ko‘krak qafasini yonboshini, xanjarsimon o‘sig’ini ezib bo‘lmaydi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda yurak massaji ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlar bilan ezish orqali amalga oshiriladi. Ezish ko‘krak qafasini xanjarsimon o’simtaning yuqori chekkasi soxasida ritmik ravishda 1,5-2 sm chuqurlikda **1** daqiqada 100-120 marta o‘tkaziladi.

Yana bir usulda ko‘krak qafasi kaft orasiga olinib - 2-5 barmoqlar ko‘krak qafasi tagida joylashadi va bosh barmoq bilan yurak soxasi eziladi. Yurakning bilvosita massaji sun’iy nafas berish bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ikkinchi shifokor har 4 yurak ezishiga bitta nafas beradi (“og‘iz-og‘iz” ga, “og‘iz-burunga”, Ambu kopchasi, kislorod yostikchasidan yoki boshka usulda).

Chaqaloqqa suniy nafas berish “og‘iz-og‘iz” ga, “og‘iz-burunga”, Ambu kopchasi, kislorod yostikqchasidan yoki boshka usulda amalga oshiriladi. Yengil asfiksiyalarda chaqaloq tug‘ilgan zaxoti dumba soxasiga urib yuborish, yoki yuziga suv sepib yuborilsa chaqaloq nafas olib yuborib nafasi meyerlashadi. Ayrim hollarda “og‘iz-og‘iz” ga, “og‘iz-burunga” usulida puflab yuborilsa yaxshi natija berishi mumkin. Agar chaqaloq nafas olish soni 1 min da 20 tadan kam bo‘lsa, yoki nafas olmasa, yoki perioral va umumiy tsianoz kuzatilsa, to‘sh suyagining ichiga tortilishi, nafas olishda granting (yani xirillab nafas olish) kuzatilsa chaqaloqqa suniy nafas berish muolajasi Ambu qopchasi, kislorod yostikchasidan yoki boshqa o‘tkaziladi. Buning uchun chaqaloqni yurgakka o‘rab isitiladigan stol ustiga chalqancha yotkiziladi. Nafas yo‘llarini ochish uchun boshini biroz orqaga qilib,

yelkasini tagiga yumshoq yostiqcha qo‘yiladi (shunday xolatda nafas olish yo‘llari ochiladi). Og‘iz bo‘shligida shilliq bo‘lsa uni balonchik yordamida so‘rib tashlanadi, so‘ng burundan ham so‘rib tashlanadi. Og‘iz va burunni berkitgan xolda respirator maska o‘rnatiladi (muddatida tug‘ilgan chaqaloqlar uchun 1-chi o‘lchamda, chala tug‘ilgan chaqaloqlar uchun O-o‘lchamda). Respitator maska burun-og‘iz uchburchagini maxkam berkitib turishi lozim. Va shundan so‘ng qopcha eziladi. Kopchani ezganda qo‘lingizga yetarli qarshilik bo‘lsa, biling-ki davleniye yetarli. Minutda 40 marta ezish kerak. Shu davrda ko‘krak qafasi ekskursiyasini kuzatib boramiz. Suniy nafas to‘g‘ri olib borilganda ko‘krak qafasi ekskursiyasi kuzatiladi. Bir necha daqiqadan so‘ng to‘xtatib kuzatamiz. Chaqaloq mustaqil nafas olishni boshlasa suniy nafas berishni to‘xtatish mumkin. Agar nafas tiklanmasa suniy nafas muolajasini davom ettiramiz. Og‘ir hollarda suniy nafas traxeya intubatsiyasini o‘tkazib suniy nafas ventilyatsiyasi apparatiga ulanadi.

Qon guruhini va rezus omilini aniqlash.

Qon guruhini aniqlash uchun standart zardoblardan foydalanamiz.

Qon guruhini aniqlash usuli vujudga keladigan eritrotsitlar agglyutinatsiyasini aniqlashga asoslangan, bunda tekshirilayotgan qon eritrotsitlari standart zardobdagi antitelolar bilan agglyutinatsiya hosil qiladi.

Qon gruppasini aniqlash uchun maxsus likopchalar (tarelkalar), 2 seriyali standart zardoblar kerak.

Qon gruppasini aniqlashda chapdan o‘ngga likopga ikki seriyali O (I), A (II) va V (III) zardoblar tomiziladi. Shunday qilib tekshirilayotgan likopchada 6 tomchi paydo bo‘ladi va uning yoniga 0,05 ml keladigan (1 tomchi) tekshirilayotgan qon tomchisi tomiziladi. Qon tomchisini olish uchun tekshiriluvchi barmog’idan bir marta ishlatiladigan igna (lanset) bilan teshiladi va zardoblar oldiga tomiziladi. So‘ng shisha tayokqcha bilan har bir tomchini zardob bilan aloxida aralashtiradi. Tekshirilayotgan qon miqdori va standart zardobning hajmi 1:10 ga teng kelishi kerak. Likobchani qo‘lga olib, 5 min davomida qon bilan zardob yaxshi aralishishi uchun asta sekin chayqatib turiladi. So‘ng reaksiya natijasi xisobga olinadi. Agglyutinatsiya hosil bo‘lishi bilan (3–4 min o‘tgach) aralashmaga 0,05 ml xajmda natriy xloridning izotonik eritmasi tomiziladi. Qon gruppasini aniqlashda quyidagi variantlar bo‘lishi mumkin.

a) standart zardobning uchala gruppasida ham eritrotsitlar agglyutinatsiyaga uchramasa, demak, eritrotsitlar A va V agglyutinogenlar saqlamaydi va tekshirilayotgan qon 0 (I) gruppaga xosdir.

b) 0 (I) va V (III) gruppalarining standart zardoblari eritrotsitlarni g’uj bo‘lib yig’ilishi, ammo A (II) zardobi bilan agglyutinatsiya hosil kilmasa, demak bu tekshirilayotgan qonda A agglyutinogeni borligini bildiradi, ya’ni qon A (II) gruppaga mansub ekan.

v) 0 (I) va A (II) gruppalarining standart zardoblari agglyutinatsiyaga uchrasa, V (III) zardobi bilan bu reaksiya kuzatilmasa, demak tekshiriladigan qonda V agglyutinogeni bor – qon gruppasi V (III) ekan.

g) Standart zardoblarning uchalasida ham agglyutinatsiya sodir bo‘lsa, demak tekshirilayotgan qon A va V agglyutinogenni o‘z ichiga oladi va bu gruppa to‘rtinchi AV (IV) qon gruppasiga mansubdir. Ammo aniq xulosaga kelish uchun bu qon gruppasini to‘rtinchi AV (IV) standart zardobi bilan qayta tekshirish kerak.

Qonning rezus omili aniqlashning bir necha usullari mavjud. Amaliyotda asosan quydagicha aniqlanadi. Qon rezusi aniqlash uchun maxsus antirezus zardob bo‘lishi kerak. Buning uchun steril probirka devoriga tekshiralayotgan qonning 2 tomchisi quyiladi va shunga 2 tomchi antirezus zardob qo‘shiladi. Probirka asta sekin chayqatiladi. 3-4 minutdan so‘ng 2-3 ml fiziologik eritma sekin quyiladi va natija yoruqqa qarab kuzatiladi. Probirkadagi suyuqlikda eritrotsitlar agglyutinatsiyasi kuzatilsa – qon rezus musbat deb xisoblanadi. Fiziologik eritma qo‘shilgandan so‘ng probirkadagi suyuqlik pushti rangga kirib, agglyutinatsiya kuzatilmasa bu qon rezus manfiy deb xisoblanadi. Agglyutinatsiyani yaqqolrok tekshirish uchun bu muolajani ikkita seriyali zardob bilan tekshirish kerak.

Qonni almashlab quyish texnikasi

Qonni almashlab quyish (zamennoye perelivaniye krovi) muolajasi chaqaloqlar gemolitik kasalligi bilan tug‘ilgan chaqaloqlarga o‘tkaziladi.

Maqsad: Organizmdan ortiqcha bilirubinni chiqarish, bilirubin ensefalopatiyani oldini olish. Sensibillashgan eritrotsitlar va antitelolarni chiqarish, gemodinamika va oksigenatsiyani yaxshilash uchun.

Muolajaga ko`rsatmalar:

1. Kindik qonida bilirubin miqdori 80-85 mkmol/l dan yuqori;
2. Umumiy giperbilurubinemiya 342 mkmol/l dan yuqori (asosan bog’lanmagan bilirubin hisobiga);
3. Bilirubinni soat sayin o‘sishi 8,5 mmol/l/soat dan yuqori (norma = 2-3 mmol/l/soat);
4. ChGK og‘ir anemik shakli – Nv chaqaloq hayotining birinchi sutkasida <100 g/l kam bo‘lsa.
5. Homiladorlik anamnezi (anamnezda avvalgi bolalarda ChGK, bola tashlash, o‘lik tug‘ilish, chala tug‘ilish, gipoksiya, atsidoz va x.k.);

Qonni almashlab quyish uchun kerak bo‘lgan jixozlar: steril perchatkalar, kindik kateteri, pinsetlar – 2, 5,0 va 10,0 ml li shpritslar - 5 tadan, donor qoni chaqaloq guruhi bilan bir guruh bo‘lgan rezus-manfiy – 150-200 ml/kg og‘irligiga (qon miqdori OSK ning 2 hajmi yani 80ml/kg x 2 muddatida tugilgan chaqaloqlarga 90ml/kg x 2 – chala tug‘ilgan chaqaloqlarga, tayyorlanganligiga 3 kundan ortik bo’lmagan bo‘lishi kerak, qon 30^0 gacha isitilgan bo‘lishi kerak), yangi muzlatilgan

plazma, lotok, doka tamponlar, dorilardan – fiziologik eritma, kalsiy glyuqonat 10%-5,0, shoqqa qarshi va reanimatsion choralar -adrenalin 0,01%-1,0, prednizolon 3%-1,0, ampitsillin 0,5, dimedrol 1%-1,0, kordiamin, kislorod. Ham shira shpritslarga qon va plazma olib tayyorlab qo‘yishi kerak - 2:1 qilib – 2 ta shpritsga qon va 1 ta shpritsga plazma, muddatida tugilgan chaqaloqlarga – 20 mldan, chala tugilgan chaqaloqlarga – 10 mldan.

Bu muolajani o‘tkazishda uchun 2 ta shifokor va 1-2 ta ham shira katnashadi. Texnikasi: Qon almashlab kuyish muolajasi sanitariya-gigiyenik koidalarga kat’iyan rioya kilgan xolda bajarilishi kerak. Kindik venasini kateterizatsiya kilib kateter 5-7sm kiritiladi, ligatura bilan kindik o‘qiga boglanadi. Avval shpritsga 2-3 ml qon olib laboratoriyaga jo‘natiladi – umumiy bilirubin, glyukozы, Hb, Ht, eritrotsitlar miqdorini aniqlash uchun. So‘ng shpritsga 4,0-5,0 ml fiziologik eritma olib kindik kateteridan asta-sekinlik bilan junatiladi, jo‘natib bo‘lgach shu shpritsga juda sekinlik bilan chaqaloq kindik qoni tortiladi. Boshka 10,0 ml shpritsga donor qoni olinib, birinchi shpritsni chikarib shpritsdagi qonni asta sekinlik bilan yuboriladi, jo‘natish tezligi 2-3 ml 1 minutda. Shu tarzda 100 ml qon yuborguncha o‘tkaziladi. Har 100ml qon quyilgandan so‘ng 1ml 10% kalsiy glyuqonat yuboriladi. Muolaja oxirida yana 2-3 ml qon laboratoriya taxlili uchun – umumiy bilirubin, glyukozы, Hb, Ht, Sa miqdorini aniqlash uchun olinadi va 30 ml qon yuboriladi. So‘ng 1ml 10% kalsiy glyukonat, 100-150mg/kg ampitsillin, prednizolon 3% - 1 mg/kg og‘irligiga (0,1-0,15 ml), va m/o 1% - 0,5 ml dimedrol yuboriladi. Muolaja davomiyligi 2,5-3,0 soat davom etadi. Muolajadan so‘ng chaqaloqni asoratlarni oldini olish uchun nazorat kilib turish lozim – nafas va yurak urishi soni, tana temperaturasi, teri rangi, arterial bosim. muolaja samarasini kuzatib borish uchun 8 soatdan so‘ng qondagi bilirubin miqdori, glyukoza, umumiy qon taxlili – 12 soatdan so‘ng.

Fototerapiya

Fototerapiya (FT) - chaqaloqlar sargaymalarida bilirubin miqdorini kamaytiruchi eng samarali usul bo‘lib xisoblanadi.

FT muolajasini o‘tkazganda, havo rang nur ta’sirida teri qatlamining 2 mm ostida erkin (bog‘lanmagan) bilirubin notoksik, suvda eruvchi shaklga aylanib, qondan ichaklar va buyraklar orqali chiqib ketadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar qonida bog‘lanmagan bilirubin miqdorini oshib ketishi yadrolik sariklik rivojlanishiga xavf soladi.

Maqsad: Qondagi bog‘lanmagan bilirubin miqdorini kamaytirish.

Fototerapiya o‘tkazishga ko‘rsatmalar: Tablitsa asosida:

Chaqaloq yoshiga ko‘ra qondagi umumiy bilirubin konsentratsiyasi (mkmol/l)

Yoshi	Fototerapiya	
	Muddatida tug‘ilgan	Xavf omili bo‘lganda*
1-chi kun	Har qanday ifodalangan sariqlik	
2-chi kun	260	220
3-chi kun	310	270
4-chi kun va keyin	340	290

*Xavf omillar: chala tug‘ilish, Sepsis, gipoksiya, atsidoz, gipoproteinemiya.

Kerakli jixozlar:

Ko‘k maxsus lampa (to‘lkin uzunligi 425-470 nm) yoki lyuminissent lampa (to‘lkin uzunligi 550- 600 nm). Lyuminissent lampalarning effektivligi pastligini xisobga oliиц kerak;

Maxsus ko‘zoynak;

Inkubator (kyuvez), yoki isitiladigan stol yoki krovatka;

Fototerapiya rejimlari:

O’z luksiz FT **-** kun davomida o‘tkaziladi, ovqatlantirishga va boshqa muolajalarga tanafus qilinadi. Sariqlik kuchli ifodalanganda ko‘llanadi.

O’z lukli FT **-** intervallar bilan o‘tkaziladi.

Texnikasi:

Fototerapiya kuvezda o‘tkazilishi maksadga muvofik.

Chaqaloq yalangoch yotkiziladi;

Chaqaloqning ko‘zlariga ko‘zoynak taqiladi va jinsiy a’zolari yopiladi.

Lampa chaqaloq tepasiga 30 - 50 sm masofada o‘rnatiladi;

Bolaning xolati har 2-4 soatda o‘zgartirib turiladi;

Har 1-2 soatda tana harorati o‘lchanadi. Agar elektron datchik bo‘lsa, tana harorati o’z luksiz o‘lchanadi.

Chaqaloq vazni kuniga 2 marta o‘lchanadi;

FT asoratlari:

Suvsizlanish rivojlanishi;

Gipertermiya;

Ich kelishini o‘zgarishi va axlat o‘zgarishi;

Ko‘zlarni zararlanishi;

Terida tranzitor toshma paydo bo‘lishi;

Uyquchanlik;

«Bronza bola» sindromi (qonda mis fotodestruksiyasi mahsulotlarining ortishi va terida to‘planishi hisobiga);

Trombotsitopeniya.

Nafas buzilish sindromini baholashda Silvermana – Andersen jadvalidan foydalanamiz. Bunda chaqaloqning xolati 5 ta ko‘rsatkich bo‘yicha baxolanadi, har biri 0, 1, 2 ball bilan baxolanadi

Silvermana – Andersen jadvali (shkalasi)

0 ball	1 ball	2 ball
Ko‘krak qafasining yuqori qismi (bola orkasi bilan yotganda) va qorinning oldingi devori nafas aktida sinxron ishtirok etmokda	Nafas olganda ko‘krak qafasining yuqori qismi va qorinning oldingi devori nafas aktida ishtirokining sinxronli-gini buzilishi, yoki qorin devori kutarilganda ko‘krak qafasining yuqori qismi pasayishi	Nafas olganda qorin devori ko‘tarilganda ko‘krak qafasining yuqori qismi pasayadi (xalunchalak simptomi)
Nafas olganda kovurgalar oraligi tortilmaydi	Nafas olganda kovurgalar oraligining yengil tortilishi kuzatiladi	Nafas olganda kovurga-lar oraligining yakkol tortilishi kuzatiladi
Nafas olganda xanjarsimon o‘simta tortilmaydi	Nafas olganda xanjar-simon o‘simtaning yengil tortilishi kuzatiladi	Nafas olganda xanjar-simon o‘simtaning yakkol tortilishi kuzatiladi
Nafas olganda iyak ishtiroki kuzatilmaydi	Nafas olganda iyak pastga tushgan, ogzi berk	Nafas olganda iyak ishtiroki yakkol kuzatiladi ogzi ochik (salomlashish simptomi)
Nafas olganda shovkinlar eshitilmaydi	Nafas olishda shovkinlar auskultatsiyada eshitiladi	Nafas olganda ekspirator shovkinlar masofada fonendoskopsiz eshitilad

Silverman jadvali bilan chaqaloqka 0-3 ball berilsa nafasa buzilish sindromining (NBS) I darajasi, 4 – 7 ball ko‘yilsa NBS ning II darajasi, 8 – 10 ball bilan baxolansa NBS III (og‘ir) darajasi qo‘yiladi.

Kliments “Ko‘pik testi”

“Ko‘pik testi” - buning uchun homila oldi suvi yoki tug‘ilgandan so‘ng birinchi soatlarda oshqozondan kateter yordamida suyuqlik olinadi. So‘ng homila oldi suvidan yoki oshqozon suyuqligidan 0,5ml olib + 0,5ml 95% etanol spirti probirkaga aralashtiriladi, shisha probirka 15 sek. davomida chayqaladi va baxolanadi. Agar suyuqlik yuzasida ko‘pikchalardan xalqa hosil bo‘lsa test “musbat” xisoblanadi, agar

pufakchalar hosil bo‘lmasa test “manfiy”. Test musbat bo‘lganda NBS - 4%, manfiy bo‘lsa - 60% hollarda rivojlanishi mumkin.

Chaqaloqlar tana haroratini o‘lchash texnikasi

Tana temperaturasi Selsiy shkalasida graduirlangan tibbiy maksimal termometrda, shuningdek elektrotermograflar yordamida o‘lchanadi. Tana t sini o‘lchashda tibbiy termometr 10 minutga qo‘ltik osti chuqurchasiga joylashtiriladi, ba’zida tanaga paralel xolda. Termometr tanaga zich yopishib turishi kerak. Chaqaloqlar tana haroratini o‘lchaganda qo‘llari maxkam ushlab turiladi.

Tana temperaturasi og‘iz bo‘shligida ham o‘lchanadi. Bu xolda aloxida termometr og‘iz bo‘shligida 5-10 minut ushlab turiladi.

Tana temperaturasi to‘g‘ri ichak orqali ham o‘lchanishi mumkin. Bu xolda termometr uchiga vazelin surtib 5-10 minutga to‘g‘ri ichakka kirgiziladi va bola yonboshlatib yotkiziladi. To‘g‘ri ichak t rasi qo‘ltik osti temperaturasidan yuqori bo‘ladi. To‘g‘ri ichakda o‘lchagan termometr aloxida turishi kerak. Harorat 2 marta, ertalab soat 7-8 da kechkurun 16-17 da o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkichlar harorat varakasiga belgilanadi. Normada tana temperaturasi 36,6 S dan 37 S gacha bo‘ladi.

APT testi

Chin va yolgon melenaning kiyosiy tashxisot kilishda Apt sinamasi o‘tkaziladi. Buning uchun qon aralashgan qusuq moddasini yeki axlatni suv bilan aralashtiriladi va tsentrifuga qilinadi. Eritmaning yuqori qismidan 5 ml olinib 1 ml 1% okis natriyning gidrati qo‘shiladi. Agar eritma sarik — jigarrang tusga kirsa - bu gemoglobin A (onasining eritrotsitlari), yani yolg‘on melena yeki qon yutish sindromi bo‘ladi.

Agar eritmaning rangi pushti rangda kolsa - bu gemoglobin F (bolaning eritrotsitlari), yani melenaning chin turidan dalolat beradi.

Dezo bog‘lamini qo‘yish.

Dezo bog’lami asosan umrov suyagi singanda qo‘llaniladi. Shikastlangan qo‘lni fiziologik xolatda tutgan xolda, qo‘ltikka paxtalik gardish (valik- bolishcha) qo‘yiladi va tirsak bo‘gimi to‘g‘ri burchak hosil qilgan xolda buqiladi, ko‘krakka tekkuncha keltiriladi va shu xolatda ko‘krak qafasiga bintlash yo‘li bilan maxkamlanadi. Birinchi bintlashda bint sog‘ tomondan shikastlangan soxa tomonga tsirqulyar yo‘l bilan yelkani ko‘krak qafasiga fiksatsiya qilinadi. Ikkinchi bog‘lam sog‘ qo‘ltikdan bemor qo‘l, yelkasi ustiga bintni yo‘naltirilib, yelka ustidan orqaga va pastga tushiriladi. Uchinchi yo‘naltirishda bint bog‘lami tirsak bo‘gimini aylanib o‘tib, bilakni ushlab turiladi, so‘ngra qiyshiq yunalishda yuqoriga sog‘ tomonning qo‘ltigiga o‘tkaziladi. Undan ko‘krak qafasining orqasiga boglam yuritiladi. To‘rtinchi yo‘l shikastlangan yelka usti satxidan tirsak bo‘gimiga o‘tkaziladi. U bilakning yuqori qismidan aylanib, ko‘krak qafasining orqa tomoniga utadi va sg‘g

tomonining qo‘ltigidan boglam chikadi. Aytib o‘tilgan to‘rt bint yo‘nalishi takroran bir necha marta shikastlangan qo‘l yaxshi qotirilguncha yuritiladi.

“Shans yoqasi” bog‘lamini qo‘yish texnikasi

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda orqa miya tug‘ruq jaroxatlariga tug‘ruq cho‘zilib ketgan hollarda akusherlik yordam ko‘rsatishda, homila yelkasi yoki dumbasi bilan tug‘ilganda, yoki noto‘g‘ri kelishlarida bolani tortib tug‘dirgan hollarda rivojlanishi mumkin. Bunday xolda tug‘ilgan chaqaloqlarda turli klinik simptomlarni kuzatishimiz mumkin: og‘riq sindromi – chaqaloqni qo‘lga olganda yoki yo‘rgaklaganda bola bezovta bo‘lib yiglaydi. Bundan tashkari bolada mushak gipotoniyasi, gipodinamiya, gipo- arefleksiya, pay reflekslari sust chaqiriladi yoki so‘ngan, parez va paralichlar, aritmik nafas, xolatini o’z gartirganda xansirash, ko‘karish xurujlari, paradoksal nafas va shu kabi nevrologik simptomlar aniqlanishi mumkin.

Bunday chaqaloqlarga birinchi yordam sifatida bosh va buyin umurtqa pogonasi soxasini immobilizatsiya qilish kerak. Buning uchun umurtqa pogonasining bo‘yin qismiga paxta-dokali “Shans yoka”sini qo‘yish tavsiya etiladi. Buning uchun chaqaloq bo‘yniga dokaga o‘ralgan paxtadan yoka qo‘yiladi (bola bo‘ynini qimirlatmasligi uchun). Va shu yoka bilan chaqaloqni boshi yelka soxalari bilan katta yo‘rgakka o‘raladi.

Chaqaloqlarga dori moddalarni yuborish yo‘llari

Yangi tug‘ilgan chaqaloqka dori moddalar mushak orasiga, yelkaning yuqori qismiga va dumba soxasini tashki yuqori 1/4 qismiga terisi 70%li etil spirti bilan ishlov berilib yuboriladi. Manipulyatsiyadan so‘ng shu soxaga etil spirtli paxtali sharik qo‘yiladi. Bu dori moddalarni parenteral yuborish usuliga kiradi. Yetilgan chaqaloqlarga dori moddalar enteral yani rer os (og‘iz orqali) ham yuboriladi dori moddalar tabletka xolida bo‘lsa ona suti yerdamida suyultiriladi.

Dori moddalarni davolovchi klizma bilan rer rectum yoki shamcha (svecha) shaklidagi dorilarni yuborish mumkin. Bunda chaqaloq chap yonboshga yotkizilib oyoqlari chanok son bo‘gimi soxasida buklanadi chap qo‘l bilan dumbalar biroz ochiladi ung qo‘l bilan svecha anal teshikka kiritiladi Dumbalar 1/2-1min.bir-birigayopishtirilib turiladi.

Dori moddalarni ingalyatsiya xolatida yuborish.

Bugli ingalyatsiya uchun oddiy ingalyator kerak bo‘ladi unda suv uchun temir bachok u spirtovka yoki isitish uchun elektr spiral urnatiladi. Bug yo‘lida dori preparatli stakanchik joylashtiriladi. Bug t si $50\text{-}60^0$ ni tashkil qiladi.

Surtish: Teriga dori moddalarni yuborishdan oldin agar zararlangan teri soxasida tuk, soch bo‘lsa ular olinadi. Protsedurani boshlashdan oldin qo‘llar yaxshilab yuviladi. Dori moddani 1 qismi zararlangan teri soxasiga siqiladi yoki qo‘yiladi va qo‘l bilan teri yuzasiga bir xilda surtiladi.

Vitamin K yuborish texnikasi.

Barcha chaqaloqlarga tug‘ilgandan keyin birinchi soatlarda gemorragik kasallikni oldini olish uchun vitamin K qilinadi. Buning uchun vitamin 1 mg (yoki vikasol 1 mg/kg) mushak orasiga qilinadi.

Mushak orasiga qilinadigan ineksiyalar sonning oldingi yuqori qismiga yoki dumbaning yuqori tashki 1-4 qismiga qilinadi.

Bajarilishi. 1.Qo‘lingizni yuving

2. 1,0 ml li shpritsga vikasol 0,3-0,4 ml tortib oling.

3. In’eksiya qilinadigan joyni spirt bilan yaxshilab arting.

4. Shpritsni teriga perpendiqulyar ravishda ushlab, mushakka ignaning 2/3 qismini kiriting, dori vositasini yuboring.

5. In’eksiya kilingan joyni tampon bilan ushlab, ignani chikaring.

Fototerapiya

Fototerapiya (FT) - chaqaloqlar sargaymalarida bilirubin miqdorini kamaytiruchi eng samarali usul bo‘lib xisoblanadi.

FT muolajasini o‘tkazganda, havo rang nur ta’sirida teri qatlamining 2 mm ostida erkin (bog‘lanmagan) bilirubin notoksik, suvda eruvchi shaklga aylanib, qondan ichaklar va buyraklar orqali chiqib ketadi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar qonida bog‘lanmagan bilirubin miqdorini oshib ketishi yadrolik sariklik rivojlanishiga xavf soladi.

Maqsad: Qondagi bog‘lanmagan bilirubin miqdorini kamaytirish.

Fototerapiya o‘tkazishga ko‘rsatmalar: Tablitsa asosida:

Chaqaloq yoshiga ko‘ra qondagi umumiy bilirubin konsentratsiyasi (mkmol/l)

Yoshi	Fototerapiya	
	Muddatida tug‘ilgan	Xavf omili bo‘lganda*
1-chi kun	Har qanday ifodalangan sariklik	
2-chi kun	260	220
3-chi kun	310	270
4-chi kun va keyin	340	290

*Xavf omillar: chala tug‘ilish, Sepsis, gipoksiya, atsidoz, gipoproteinemiya.

Kerakli jixozlar:

Ko‘k maxsus lampa (to‘lkin uzunligi 425-470 nm) yoki lyuminissent lampa (to‘lkin uzunligi 550- 600 nm). Lyuminissent lampalarning effektivligi pastligini xisobga oliщ kerak;

Maxsus ko‘zoynak;

Inkubator (kyuvez), yoki isitiladigan stol yoki krovatka;

Fototerapiya rejimlari:

O’z luksiz FT - kun davomida o‘tkaziladi, ovqatlantirishga va boshqa muolajalarga

tanafus qilinadi. Sariqlik kuchli ifodalanganda ko‘llanadi.
O’z lukli FT - intervallar bilan o‘tkaziladi.
Texnikasi: Fototerapiya kuvezda o‘tkazilishi maksadga muvofik.
Chaqaloq yalangoch yotkiziladi;
Chaqaloqning ko‘zlariga ko‘zoynak taqiladi va jinsiy a’zolari yopiladi.
Lampa chaqaloq tepasiga 30 - 50 sm masofada o‘rnatiladi;
Bolaning xolati har 2-4 soatda o‘zgartirib turiladi;
Har 1-2 soatda tana harorati o‘lchanadi. Agar elektron datchik bo‘lsa, tana harorati o’z luksiz o‘lchanadi.
Chaqaloq vazni kuniga 2 marta o‘lchanadi;
FT asoratlari: Suvsizlanish rivojlanishi; Gipertermiya; Uyquchanlik;
Ich kelishini o‘zgarishi va axlat o‘zgarishi; Ko‘zlarni zararlanishi;
Terida tranzitor toshma paydo bo‘lishi;
«Bronza bola» sindromi (qonda mis fotodestruksiyasi mahsulotlarining ortishi va terida to‘planishi hisobiga);
Trombotsitopeniya.

Umumiy qon, siydik najas taxlili iterpritatsiyasi

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda najas taxlili birinchi kunlari fizioligik dispepsiya xolati kuzatiladi. Hayotining 1-3 kunlari meqoniy kuzatiladi. Bunda chaqaloq najasi ko‘yikroq, cho‘ziluvchan, biroz shilimshiq, jigarrang-ko‘qimtir tusda bo‘ladi. Keyingi 1-2-3 kunda chaqaloq najasi ko‘proq keladi (1 kunda 4-5-6 maxal) va suyuq kashasimon, shilimshiq bilan, burda-burda, rangi sargimtir, ko‘kimtir, xatto oqish rangda ham bo‘lishi mumkin. Mikroskopiyada shilliq, leykotsitlar – 30 tagacha ko‘rish maydonida, yog kislotalari aniqlanishi mumkin. 5-6 kundan boshlab chaqaloqning najasi kuniga 3-4 marta, kashasimon sariq rangda, aralashmalar (shilimshiq, burda-burda) aniqlanmaydi va mikroskopiyada patologik aralashmalar bo‘lmaydi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni ommaviy tekshirish (neonatal skrining) yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda eng ko‘p uchraydigan tug‘ma va irsiy kasalliklarni aniqlashning eng samarali usullaridan biridir.

Kasalliklarni erta aniqlash va ularni o‘z vaqtida davolash, nogironlikka olib keladigan kasalliklarning og‘ir ko‘rinishlarini (fenilketonuriya, mukovistsidoz, konjenital hipotiroidizm, adrenogenital sindrom, galaktozemiya) rivojlanishini to‘xtatish imkonini beradi

Umumiy peshob tahlili:

Peshobni bakteriyauriyaga tekshirish uchun yig‘ish. Peshobni steril og‘zi qattiq qopqoq bilan yopiladigan bankaga ertalabki peshobni o‘rta yoki oxirgi porsiyasi yig‘iladi. Laboratoriyaga 2 soat mobaynida olib borilishi kerak. Termostatga qo‘yiladi. Javoblar 3-7 kunda keladi. Olingan natijalarda bakteriyalar

bor yoki yo‘qligi va ularni antibiotikka sezgirligi aniqlanadi.

Peshob klinik taxlili

Peshob (urina) — tarkibida organizmdagi moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlarini ajratuvchi, biologik suyuqlik. Peshob buyrak koptokchalarida qon plazmasining filtratsiyasidan va plazmadagi ko‘plab erigan moddalarning, kanalchalarda suvning qayta qo‘rilishidan hosil bo‘ladi.

Peshobning fizik xususiyatlari

Oddiy, aralash ovqatlanishdagi, bolalarda, peshobning sutkalik miqdori – sutkalik diurez(diuresis) 500 - 1000 ml atrofida tebranib turadi. Sutkalik diurezni aniqlash uchun, sutka davomida qabul qilinayotgan suyuqlik miqdori va peshob miqdori taqqoslanadi. Normada qabul qilinayotgan suyuqlik hajmidan 60-80%i chiqariladi.

Poliuriya (polyuria) — sutkalik siydik miqdorining ortishi (sutkada 2000 mldan ortiq). Fiziologik:

ko‘p suyuqlik qabul qilish, nerv qo‘zg‘alishlari.

Patologiyada quyidagi xolatlarda kuzatiladi: shishlar,transsudat,ekssudatlar tarqaganda; surunkali buyrak yetishmovchiligi (SBYe); o‘tkir buyrak yetishmovchiligi tuzalayotganida (O‘BYe). O‘BYe ning poliurik bosqichida; qandsiz diabetda (4–6 l va undan ko‘p), gipofizning kanalchalardagi reabsorbsiyani rag‘batlantiruvchi antidiuretik gormoni ta’siri kamayadi. Osmotik poliuriyada, birlamchi siydikdagi yuqori osmotik bosim, kanalchalarda suvning reabsorbsiyasiga to‘sqinlik qiladi (qandli diabet, natriy tuzlari, aminokislotalar, glyukoza, mochevina, mannitol ta’sirida); amiloidoz, sarkoidoz, miyelom kasalligida (SBYe ga olib keluvchi, nefropatiya rivojlanganda); ba’zi dori preparatlari ta’sirida (diuretik, kofein, angishvona preparatlari, etanol, atsetilsalitsil kislota, litiy, gipoglikemik preparatlar).

Oliguriya (oliguria) — peshobning sutkalik miqdorining kamayishi (sutkada 500 ml dan kam).

Fiziologik: suyuqlik rejimini cheklash; issiq havoda yoki jismoniy zo‘riqishda ter orqali suyuqlik ajralishining ortishi. Patologiyada oliguriya kuzatiladi: yurak dekompensatsiyasida; buyrakdan tashqari yo‘llar bilan suyuqlik yo‘qotilganda (temperatur reaksiyalarda ter bilan, profo’z ich ketishlar, kuyish, qusish,qon ketish); shok, kollapsda; buyraklar shikastlanishida: O‘tkir nefritda (sutkalik diurez 200–300 ml gacha kamayishi mumkin), nefrotik sindrom shish fazasida, O‘BYe da (gemolitik, toksik buyrak va x.k); nefrotoksik moddalar ta’siri (qo‘rg‘oshin, margimush, vismut, etilenglikol).

Anuriya (anuria) — siydik ajralishining butunlay to‘xtashi (sutkada 200 ml dan kam): o‘tkir buyrak yetishmovchiligining erta, asosiy klinik belgisi.

Quyidagi hollarda ham kuzatilishi mumkin: nefritning o‘tkir shakllari; yurak

yetishmovchiligining terminal bosqichida; o‘tkir qon yo‘qotishda; to‘xtamasdan qayd qilish; siydik yo‘llariga tosh tiqilganda, siydik yo‘llari o‘smalar bilan bosilganda (bachadon, siydik pufagi saratoni).

Ishuriya (ischuria) — erkin siydik ajratolmaslan, siydik pufagida peshobning ushlab qolinishi.

Kuzatiladi; predstatel jeleza kasalliklari (adenoma, rak); prostatit; paraproktit; MNS ning qator funksional va organik zararlanishlari; qorin bo‘shlig‘idagi va kichik chanoqdagi ba’zi o‘tkir xirurgik xolatlar, skelet mushaklari shikastlanishlarida siydik pufagining nerv-mushak apparatining zararlanishi;

Nikturiya (nycturia)— kechki diurezni kundo’z gidan ko‘payishi: turli xil buyrak kasalliklarining simptomlaridan biri xisoblanadi; predstatel jeleza gipertrofiyasi; qandsiz diabetda kuzatiladi.

Pollakiuriya (pollakiuria) — tez-tez siyish — ko‘p suyuqlik qabul qilinganda, siydik ajratish a’zolarida yallig‘lanish jarayonlarida kuzatiladi.

2. bitta, chap tizza bo'ginida ogriq, bo'g'im zonal giperemiyasi,

3. qorin og'riqi, allergik toshma, yurak chegaralarini kengaytirish

4. yurak chegaralarini kengaytirish

5. **Bolalarda Yuvenil revmatoid artritning artikulyar-visseral shaklining (JRA) allergik-septik varianti** bilan yurak shikastlanishida tez-tez namoyon bo'ladi:

1. endokardit +

2. miokardit

3. perikardit

4. pankardit

6. Surunkali Yuvenil revmatoid artrit tashxisining kriteriyalari:

1. uch oydan ortiq kechayotgan artrit, uch oydan keyin yallig'lanishga boshqa bo'g'im qo'shilishi, mayda bo'g'imlarnini simmetrik yallig'lanishi, bo'g'im ichida suyuqlik paydo bo'lishi, bo'g'im kontrakturasi, tendosinovit yoki bursit, mushak regionar atrofiyasi, ertalabki taranglik. +

2. bir oydan ortiq kechayotgan artrit, mayda bo'g'imlarnini nosimmetrik

yallig'lanishi, bo'g'im ichida suyuqlik paydo bo'lishi, bo'g'im kontrakturasi, tendosinovit yoki bursit, mushak regionar atrofiyasi.
3. kasallikning o'tkir boshlanishi, mayda bo'g'imlarnini simmetrik yallig'lanishi, bo'g'im ichida suyuqlik paydo bo'lishi, bo'g'im kontrakturasi.
4. kasallikning boshlanishini bir yil davomida aniqlab bo'lmaydi, mayda bo'g'imlarnini simmetrik yallig'lanishidan boshlanadi, bo'g'im kontrakturasi yuzaga keladi.

Surunkali gastrit, Yara kasalligi

1. HP infeksiyasini tashxisini qo'yish uchun qo'llanilmaydi:
1. me'da shilliq qavatining biopsiyasi bilan ureaza tekshiruvi
2. ureaz nafas olish testi
3. serologik diagnostika
4. biokimyoviy qon tekshiruvi +

2. Surunkali gastritda abdominal og'riq:

1. kechasi yuzaga keladi
2. kech shomda yuzaga keladi
3. kech va kechasi yuzaga keladi
4. ertalab yuzaga keladi +

3. Surunkali gastroduodenitda qorin og'rig'i:

1.ertalab yuzaga keladi
2.kech shomda yuzaga keladi
3.kechasi shomda yuzaga keladi
4.erta va kech yuzaga keladi +

4. Helicobacter Pilorik bilan assotsirlangan gastritni davolashda qaysi sxema qo'llaniladi:

1. PPI + de-nol + antibiotik + trichopol +
2. antatsid + de-nol + trichopol
3. PPI + antasidlar + de-nol
4. venter + trichpolum + antibiotic

5. Helicobacter Pilorik infeksiyasi bilan bolani davolashda quyidagi chora - tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etilmaydi:
1. Pilorik Helicobacterga yaqin qarindoshlarni tekshirish.
2. Helicobacter pilorik bilan kasallangan qarindoshlarini davolash
3. bolalarni izolyatsiya qilish +
4. oiladagi sanitariya - epidemiologiya choralari.

6. HP Qaysi dori vositasiga tez rezistentlik rivojlanadi:

1. de nol
2. amoksitsillin

3. furazolidon
4. Trichopol +

7. Gastroduodenitdagi og'riqning xarakterli joylashuvini ko'rsating:

1. epigastrium
2. o'ng hipokondriyum
3. kindik yaqinida
4. piloroduodenal zona +

8. Oshqozon ichak kasalliklarida tekshiruvlarning eng informativ usuli:

1. Ultratovush
2. Intraventrikulyar pH metri
3. Oshqozon rentgenogrammasi
4. Oshqozon endoskopiyasi (FGDS) +

9. Oshqozon yarasi uchun etiologik davolash usulini tanlang:

1. Antibiotiklar +
2. Ranitidin
3. Omeprazol
4. Almagel

10. Oshqozon yarasi kasalligining qanday patogenetik omillari "agressiv" deb tasniflanadi?

1. xlorid kislotasi ishlab chiqarishning oshishi +
2. gipergastrinemiya
3. somatostatinning ko'payishi,
4. glikozaminoglikanlar va glikoproteinlar yetishmasligi

11. Piloroduodenal soxasidagi kech, tungi, "och" og'riqlar quyidagilar uchun xarakterlidir:

1. Oshqozon yarasi
2. O'n ikki barmoqli ichak yarasi +
3. Surunkali gastritning kuchayishi
4. Surunkali gepatit

12. Oshqozon yarasi kasalligini davolash uchun protonli nasos blokatorlarini tanlang:

1. Kvamatel
2. Gastrocepin
3. Omeprazol +
4. De nol

Surunkali gepatitlar

1. Gepatit B uchun xos bo'lgan infeksiya yuqish yo'llarini tanlang:

1. Enteral
2. Parenteral+

3. Havo orqali
4. Najas-og'iz

2. 17 yoshli bemor uzoq vaqtdan beri umumiy holsizlik, o'ng qovurga ostidagi sohada og'irlik, og'izda takroriy achchiqlanish va ko'ngil aynishi, ko'proq ertalab shikoyatlari bilan shifokorga murojaat qildi. Tekshiruvda: sklera subikterik. Qon testlarida: albumin - 35 g / L, umumiy bilirubin - 47 mkmol / L, AST - 75 U / L, ALT - 98 U / L. Virusli gepatit belgilari: HBsAg - musbat, Anti -HBc Ig G - musbat, Anti -HBc Ig M - manfiy, Anti -HBe - musbat, HCVga qarshi - manfiy. **Bemorning tashxisini quyidagicha shakllantirish mumkin.**

1. O'tkir virusli gepatit B
2. Surunkali virusli gepatit B +
3. Surunkali virusli gepatit C
4. Jigar sirrozi

3. "Surunkali gepatit" tashxisida kasallik davomiyligi:

1. Klinik yoki laborator belgilari aniqlangan holda bir oydan ortiq
2. Klinik yoki laborator belgilari aniqlangan holda uch oydan ortiq
3. Klinik yoki laborator belgilari aniqlangan holda olti oydan ortiq +
4. Klinik yoki laborator belgilari aniqlangan holda 1 yildan ortiq

4. Surunkali xoletsistit uchun xarakterli emas:

1. Moynigam tipdagi og'riqlari +
2. o't pufagi devorlarining qalinlashishi, ultratovush tekshiruvida safro zichligi oshishi
3. safroning ko'p ajratilishi
4. umumiy qon tahlilida yallig'lanishli o'zgarishlar mavjudligi.

5. Surunkali xoletsistitda infeksiyani eng ko'p zararlash yo'li:

1. gematogen
2. ko'tariluvchi +
3. limfogen
4. aloqa

6. Oddi sfinkteridagi og'riq va spazmni yo'qotish uchun qo'llanilmaydi:

1. Analgin,
2. Atropin
3. Noshpa, dyuspatalin
4. Dimedrol +

Piyelonefritlar

1. Piyelonefritning eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchisi?

1. stafilokokklar
2. streptokokklar
3. Escherichia coli +

4. Mikoplazma

2. Qaysi laboratoriya parametrlari pielonefrit uchun xos emas?

1. 1 g / l gacha proteinuriya
2. leykotsituriya
3. eritrotsituriya
4. bakteriuriya

Holatiy masalalar. Gastritlar

1.Masala.

10 yoshli bola. Qoniqarli sharoitda o‘sib ungan. Keyingi vaqtlarda bosh og‘rig‘idan, bo‘shashishdan,tez charchashdan,bosh aylanishdan,ishtaxa kamayishidan shikoyat qiladi. Qorin soxasidagi og‘riqdan, ko‘ngil aynishdan ayniqsa ovqat yegandan keyin pado bo‘ladi. Og‘riq burab oluvchi, ba’zan kuchli bo‘ladi. Qorin soxasi paypaslanganda epigastral soxada og‘riq bilinadi. 1. Sizning tashxisingiz? 2. Gastritning ushbu shaklida oshqozon sekretor faoliyati qanday o‘zgaradi? 3. Ushbu kasallikda qanday tibbiy preparatlar zarur?

2.Masala.

12 yoshli bola. Anamnez ma’lumotlariga ko‘ra 3 yildan buyon oshqozon xastaligi bilan og‘riydi. Bir necha marta yashash joyidagi bolalar kasalxonasi gastroenterologiya bo‘limida yotib davolangan. Surunkali gastrit tashxisi qo‘yilgan. Keyingi vaqtlarda bo‘shashishdan, oshqozon soxasida kuchsiz og‘riqdan, ishtaxa kamligidan, ozib ketishdan, ko‘pincha ko‘p ovqat yegandan keyin ich buzilishdan shikoyat qiladi. Ko‘ruv davrida: Teri va shilliq qavatla rangparligi, paypaslaganda: epigastral soxada og‘riqdan shikoyat qiladi.

1. Sizning tashxisingiz?
2. Gastritning ushbu shaklida oshqozon sekretor faoliyati qanday o‘zgaradi.
3. Ushbu kasallikda qanday tibbiy preparatlar tavsiya etiladi?
4. Oshqozon shirasini stimullaydigan moddalar (plantaglyutsid, podorojnik shirasi) 3-4 hafta mobaynida ovqatdan oldin beriladi. O‘rindosh terapiv (abomin, atsidin-pepsin, betazid, festal, panzinorm, mezim-forte)

Antixelikobakterioz terapiya. BlokatorыN+K+ATFazы omeprazol, anseprazol, pantoprazol) odnokratno nanoch. Antibiotik (amoksitsillin, klaritromitsin ili sumamed) Kurs davomiyligi 2 haftani tashkil etadi.

3.Masala.

10 yoshli bola. Qorin soxasida og‘riqdan, ich buzilishdan, o‘ta bo‘shashishdan, ishtaxa kamayishidan, ozib ketishdan, ichi qora kelishdan, qon qusishdan shikoyat qiladi. Ko‘ruv davrida teri va shilliq qavatlari rangparligi ko‘zga tashlanadi.

1.Sizning tashxisingiz?

2.Qanday qo‘shimcha tekshirish usullari o‘tkazish zarur?
3.Gastrofibroskopi va Gregersen sinamalaridan qanday natija kutiladi?

4. Masala.

13 yoshli bola. Bolalar kasalxonasi gastroenterologiya bo‘limidan uyga javob berilgan. Qo‘yilgan tashxis: Surunkali tarqalgan gastrit. Davolash to‘la kursini shifoxonada qabul qilgan. Klinika-laboratoriya ko‘rsatkichlari me’yorlashgan. Ko‘ruv davrida shikoyati yo‘q. Bolaga qanday tadbirlar qo‘llanilishi lozim?

5.Masala.

9 yoshli bola.Tez charchashdan, ta’sirchanlikdan, ko‘p terlashdan shikoyat qiladi. Bemor burovchi og‘riqdan, naxorda va ovqatlangandan keyin 1,5-2 soatdan keyin og‘riq, tungi og‘riq, tungi kechki og‘riqdan shikoyat qiladi. Ovqat yegandan keyin og‘riqlar o‘tib ketadi, kekirish, jig‘ildon qaynash, yengillik keltiradigan qusishdan shikoyat qiladi. Ishtaxa yaxshi. Paypaslaganda oshqozonni epigstral va piloroduodenal soxasida og‘riqdan shikoyat qiladi.
1.Sizning tashxisingiz?
2.Qanday instumental tekshirish zarur?.
3.Gastrofibroskopiyada qanday natijalar kutiladi?
4.Gastritning ushbu shaklida oshqozon sekretor faoliyati qanday o‘zgaradi?
5.Antixelikobakterioz terapiya qanday o‘tkaziladi?

6.Masala.

9 yoshli bola. Epigastral soxada va kindik soxasida ovqatdan keyin og‘riqdan shikoyat qiladi. Asosan ko‘p miqdorda va yog‘li ovqat istemol qilgandan keyin. Og‘riq 1-1,5 soatdan keyin o‘z-o‘zidan o‘tib ketadi Qorin soxasida og‘irlik, tuzalib ketish xissi, tezda to‘yib qolish, ishtaxani kamayishi yoki ovqat tanlab yeyish,kekirish,ko‘ngil aynish, yengillik keltiruvchi qusishdan shikoyat qiladi. Qorin soxasi paypaslanganda epigastral soxada va kindik soxasida ozroq og‘riq bilinadi.
1.Sizning tashxisingiz?
2.Qanday instumental tekshirish lozim?
3.Gastrofibroskopiyada qanday o‘zgarishlar kutiladi?
4.Gastritning ushbu shaklida oshqozon sekretor faoliyati qanday o‘zgaradi?
5.Qanday tibbiy dori-darmonlar tavsiya etiladi?

7-Muammoli masala

6-yoshli bemor qizcha, Statsionarga chap tizza bo’g’inida og’riq, harakatning buzilishi, chap tizza va tovon boldir bo’g’inida shish shikoyati bilan murojaat qildi. Anamnezda 2 hafta ilgari o’tkir respirator infeksiyani ko’z og’rig’i bilan boshidan kechirgan. Bugun ertalab turganda chap oyog’iga bosa olmaslikka shikoyat qilgan. Bemor ko’zdan kechirilganda, o’rta og’ir, chap oyog’ini ehtiyot

qilayotganini, oqsoqlanib yurishi aniqlndi. Terisi fiziologik rangda, bo'yin oldi va orqa limfa tugunlari nisbatan kattalashgan, o'pkada vezikular nafas, hriplar yo'q. Yurak tonlari ritmik, shovqinlar yo'q. Puls 1 min. 92 marta. Qorin palpasiyada yumshoq, og'riqsiz, jigar va taloq kattalashmagan. Chap tizza bo'g'in kattalashgan, bo'g'inda shish, og'riq, mahalliy temperature oshgan. Chap tizza va tovon boldir bo'g'inida harakat chegaralangan.

Umumiy qon tahlili: Nv — 118 g/l, Leykosit.— 10,0x109 /l, eoz. — 2%, tayoq/yad — 4%, s — 42%, lim. — 49%, m — 3%, ECHT — 20 mm/soat. Umumiy siydik tahlili: solishtirma og'irligi — 1018, oqsil, glukoza— yo'q, Leykosit.— 1–3, eritrosit.— yo'q. Qonning bioximik tahlili: umumiy oqsil — 78 g/l, umumiy bilirubin — 20,0 mkmol/l, bog'langan bilirubin— 18,0 — yo'q ALT — 32 Bir/l, AST — 30 Bir/l, mochevina— 4,5 Bir/l.

Topshiriq: 1. Tashxisingiz? 2. Qiyosiy tashxisingiz ? 3. Davo muolajalarini belgilang?

8-Muammoli masala

11-yoshli bemor qizcha, bir, yil davomida kasal, shikoyati: och qolganda epigaster sohasida ogriq', bu o'g'riqlar ertalab och qoringa paydo bo'lib, ovqat yegandan 1,5-2 soatdan keyin, kechasi o'tib ketadi. Nordon kekirish, jig'ildon qaynashi bezovta qiladi.

Birinchi marta shifokorga 1 hafta burun murojaat qilgan. EGDS muolajasi o'tkazilgan. Otasida—gastrit, ona tomonidan buvisida 12 barmoq ichak yara kasalligi aniqlangan. Maktabda haftada 6 kunlik o'qishda, haftada 3 kun xoreografiya bilan shug'ullanadi. Ob'yektiv: vazni 34 kg, bo'yi 148 sm, terisi och -pushti, toza. Qorin: Mendel sindromi epigaster sohasida musbat. Epigaster sohasida yuzaki va chuqur paypaslaganda yengil mushak defansi va og'riq, ham da Dejarden va Mey-Robson nuqtasida og'riq aniqlandi. Jigar kattalashmagan, og'riqsiz, boshqa organlarda patologik holat aniqlanmadi.

Umumiy qon tahlili: Nv — 128 g/l, eritrositlar 4,2x1012/l, Leykosit.— 7,20x109 /l, eoz. — 3%, tayoq/yad — 3%, s/yad — 51%, lim. — 36%, mon — 7%, ECHT — 6 mm/soat. Umumiy siydik tahlili: somon rang, solishtirma og'irligi — 1017, pH-6,0; oqsil, glukoza— yo'q, epiteliy -1-2, Leykosit.— 1–3, eritrosit.— yo'q. Qonning bioximik tahlili: umumiy oqsil — 78 g/l, umumiy bilirubin — 20,0 mkmol/l, bog'langan bilirubin— 18,0 — yo'q ALT — 32 Bir/l, AST — 30 Bir/l, mochevina— 4,5 Bir/l.

Ezofagogastroduodenoskopiya: qizil o'ngach shilliq qavati pushti, cardial qismi yopilmoqda, oshqozonda loyqa shilimshiq ko'piksimon suyuqlik, o'choqli giperemiya, antrum devorida turli o'lchamli shishchalar. Duodenum boshchasi shilliq qavatida o'choqli giperemiya, shishgan, orqa devorida 0,8x0,6 sm.li atrofi giperemiyali, tagi fibrin bilan qoplangan yara ko'rinmoqda. Biopsiya HP-

infeksiyasiga — (de-nol) testi (++).
Topshiriq: 1. Klinik tashxisingiz? 3. Davo muolajalari sxemasini belgilang?

9-Muammoli masala

13-yoshli bemor qizcha, shikoyati: ohirgi hafta ichida umumiy holsizlik, tez charchab qolish ohirgi 2 kun ichida uyquchanglik, bosh aylanishi, ikki marta qisqa vaqtga xushdan ketish, bir hafta ichida axlati qora rangda. 2 yildan beri qorinning epigaster sohasida vaqti-vaqti bilan og'riq ertalab och qoringa paydo bo'ladi, ovqat yegandan keyin, o'tib ketadi, kekirish ba'zan jig'ildon qaynashi bor. Ogriq sindromi bir yilda 3-4 marta, 2-3 hafta bo'lib o'tib ketadi. Shifokorga uchramagan. O'quvchi, 3 kun basketbolga qatnaydi. Kun tartibiga va ovqat tartibiga rioya qilmaydi. Otasi—12 barmoq ichak yara kasalligidan davolangan. Ob'yekiv: vazni 40 kg, bo'yi 151 sm, terisi va shilliq qavati rangpar, qizcha lanj, bo'shashgan. Yurak urish — 116/min, AD — 85/50 mm sim. ust. Qorin yumshoq, kuchli bo'lmagan og'riq ham da Dejarden va Mey-Robson simptomi musbat.
Umumiy qon tahlili: Nv — 72 g/l, eritrositlar 2,8x1012/l, anizositoz, poykilositoz, GEMATOKRIT -29%, R/K—0,77; Leykosit.— 8,70x109 /l, eoz. — 2%, tayoq/yad — 6%, s/yad — 51%, lim. — 34%, mon — 7%, Trombositlar -390x109*k ECHT — 12 mm/soat. Cuxarev bo'yicha qon ivishi vaqti boshi 1 min, tugashi 2,5 min. Umumiy siydik tahlili: somon rang, solishtirma og'irligi — 1024, pH-6,0; oqsil, glukoza— yo'q, epiteliy -1-2, Leykosit.— 1–3, eritrosit. — yo'q. Koprologik tekshiruv: Gregerson reaksiyasi (+++)

Ezofagogastroduodenoskopiya: qizilongach shilliq qavati pushti, cardial qismi yopilmoqda, oshqozonda o'choqli giperemiya, antrum devorida turli o'lchamli shishchalar. Duodenum boshchasi shilliq qavatida o'choqli giperemiya, shishgan. Oldi devorida 0,5 sm li chiziqli chandiq, orqa devorida 1,5x1,7 sm.li atrofi giperemiyali, qizargan do'nglik b-n chegaralangan, chuqur, tagi fibrin bilan qoplangan yara ko'rinmoqda. Biopsiya HP-infeksiyasiga — (de-nol) testi (++).

10-Muammoli masala

9 yosh bola tez-tez ORVI va angina bilan og'rigan. 3 haftadan keyin qovoqlarida, yuzida shish paydo bo'lgan, keyin shish pastga tarqalgan. Peshob kamaygan, A/D – 120/80mm.sim. o'st. Kon bioximiyasi: oqsil-40gr/l, albo'min-33%, xolestirin – 8,8mmol/l. peshob taxlili: oqsil-6,6%, leykotsitlar-5-6, eritrotsitlar 3-4 ko'rinish maydonida.
1.tashxis qo'ying.
2.shifokor taktikasi.

11-Muammoli masala

5 yoshli bola shikoyatlari: onasining so'zi bo'yicha yuzi, qo'llari shishgan. Shish 2-kun oldin boshlandi, oldin qovoqlari keyin yuzlari shishdi.

Anamnezdan: bola yoshiga mos rivojlangan.
Kuruvda: axvoli qoniqarli, ichki a’zolar bo’yicha sezilarli o’zgarishlar yo’q.
1.tashxis qo’ying.
2.Shifokor taktikasi.

12-Muammoli masala

Bola 5 yoshli, 3-kundan beri kasal. SHikoyatlari: bola tez-tez og’riq bilan siyishi, siyish jarayoni og’rik bilan kechadi, hamda kam-kamdan siyadi. Analizlar: peshobda oqsil –0,099%, leykotsitlar 10-12, eritrotsitlar 20-22 ko’rish maydonida, umumiy qon va qon bioximiyasida o’zgarish kuzatilmaydi.
1.tashxis 2.shifokor taktikasi.

13-Muammoli masala

9 yoshli kiz. Shikoyati: tana xaraorati ko’tarilishi 39 S, belda kindik atrofidagi og’rigan. Anamnezidan: 2 yildan beri pielonefrit bilan davolanib kelgan. Peshob taxlili: oqsil 0,33%, ley- 25-30, erit 3-4 ko’ruv maydonida, solishtirma og’irligi 1015. Pasternatsskiy simtomi musbat.
1.tashxis quying.
2.shifokor taktikasi.

14-Muammoli masala

5 yoshli bola maxalla shifokoriga ishtaxasi pastligi, xolsizlikdan, qorindagi og’riq, tez-tez siyishga shikoyat bilan olib kelindi. ko’ruvda: bola rangpar, tana harorati 37,6S, peshob analizi: oqsil 0,066%, ley 8-12, erit 5-6, ko’ruv maydonida, oksalat tuzlari +++.
1.tashxis qo’ying.
2.shifokor taktikasi.

15-Muammoli masala

Bola 9 yosh. 5 yoshligida surunkali tonzilit bilan davolangan. SHifokorga murojat qilishdan 1 oy oldin angina bo’lgan 2-3 haftadan keyin, onasi ertalab yuzida shish paydo bo’lganini payqagan. Keyinchalik shishlar ko’paygan. Peshob taxlilida: oqsil -1,05%,
mikrogematuriya 10-15 ko’rish maydonida, gialinli tsilindrlar 5-6 ko’rish maydonida.
1.tashxis qo’ying.
2.shifokor taktikasi.

Javoblar

1- Javob: 1.Surunkali antral gastrit. 2.Bazal va stimullangan sekretda kislotalik ortgan. 3. Spazmolitiklar (papaverin, noshpa, tserukal). 2.Antatsidlar. (natriya gidrokarbonat, okis magniya, vikalin, almagel) 4.Antixelikobakteroz terapiya. Blokatorы N+K+ATFazы (omeprazol, lanseprazol, pantoprazol) 1marta

kechqurun ichiladi. Antibiotik (amoksitsillin, klaritromitsin yoki sumamed) Davolanish kursi 2 hafta.

2 - Javob 1.Surunkali tarqalgan gastrit.
2.Oshqozon sekretor faoliyati oshqozon hamma porsiyalarida pasaygan. Oshqozon shirasi proteolitik faolligi pasaygan. Pepsinni oshqozon shirasida va oshqozon shilliq qavatida va siydikdagi miqdori meyorida.

3 - Javob:1.Surunkali erroziv gastrit,gemorragik variant.
2.Gastrofibroskopiya, Reaksiya Gregersena..
3.Gastrofibroskopiya natijasi: oshqozon antral bo‘limida va oshqozon tanasida va subkardial bo‘limida ko‘pgina erroziyalar mavjud.
Reaksiya Gregersena: Ijobiy.

4 - Javob:1.Qaytalanishga qarshi tadbirlar (baxor va kuzda) 3-4 hafta davomida.
2.To‘g‘ri kun tartibi va ovqatlanish.
3.Remissiya davrida sanator-kurort davolash.
4.Davolash kursi o‘rtasida tibbiy dori darmonlardan giyoxlar damlamasi Moychechak, shipovnik, ukrop urug‘i, zveroboy, pustirnik, valeriana ildizlari damlamasi tavsiya etiladi

5 - Javob:1.Yarasimon surunkali gastrit.
2.Gastrofibroskopiya.
3.Endoskopiya: Yuzaki, giperplastik, eroziv, kuchli shish, giperemiya.
4.Oshqozon sekretor faoliyati meyorida yoki ortgan.
5.N+K+ATFaza blokatorlari (omeprazol, lanseprazol, pantoprazol) kechqurun 1 marta ichiladi. Davolash kursi 2 hafta.. Antibiotik (amoksitsillin, klaritromitsin yokisumamed)
6 - Javob.1.Gastritsimon surunkali gastrit.
2. Gastrofibroskopiya.
3. Oshqozon shiliq qavatida atrofik o‘zgarish, ozroq yalig‘lanish.
4. Oshqozon sekretor faoliyati meyorida yoki kamaygan.
5. Oshqozon bezlarini stimullaydigan (plantaglyutsid, sok podorojnika) 3-4 hafta davomida ovqatdan oldinnedeli o‘rindosh davolovchi (abomin, atsidin-pepsin, betazid, festal, panzinorm, mezim-forte) Antixelikobakterioz-terapiya. N+K+ATFaza blokatorlaridan (omeprazol, lanseprazol, pantoprazol) kechqurun 1 marta ichilali.
Antibiotik (amoksitsillin, klaritromitsin ili sumamed) Kurs davomiyligi 2 hafta tashkil etadi.

7- masala javobi: 1.Yuvenil ideopatik artrit, poliarticular turi, faol davri, rentgenologik II davri, 1–2 darajali funksional yetishmovchilik.
2. Tekshiruv: kengaytirilgan immunnogramma, S- refaol oqsil.
Protein, revmatoid factor, B-27 antigen, PSR/IFA TORCH uchun, bo'g'milari O'Z Isi, bo'g'inlar EKG, ExoEKG; ureaza testi.
3. Gematolog, bolalar xirurgi, oculist konsultatsiyasi
4. Kasallikning progressiyalanuvchi kechishiga qarab, basis terapiya buyuriladi: metotreksat — 15 mg/m² haftasiga 1 marta m/o yoki t/o, analizlarni inobatga olgan holda korreksion terapiya, YQV.
5. Surunkali infeksiylar o'choqlaini sanasiyasi

8- masala javobi: 1.12 barmoq ichak yara kasalligi, yangi tara— bosqichi, Nr+. Duodenogastral refluks. Gastrit,
2.Kasalhonaga yotqizish, Stol № 1A (yara) — 1 hafta; keyin № 1B — 1–2 hafta; keyin № 5 stol.
3.Kvadroterapiya amoksasillin (yoki klaritromisin), metronidazol, de-nol –120 mg bir kunda/4 marta, omeprazole 10 mg — 2 bir kunda/2 marta 10–14 kun. Motilium, probiotiklar (lineks, asipol, bifidumbakterin i dr.), KVCh-terapiya.

9- masala javobi: 1.Tashxis: 12 barmoq ichak yara kasalligi, yaradan ichki qon ketish asorati bilan. Nr+. Duodenogastral refluks. Antrl Gastrit,
2.Kasalhonaga yotqizish, Stol № 1A (yara) — 1 hafta; keyin № 1B — 1–2 hafta; keyin № 5 stol.
3.Kvadroterapiya amoksasillin (yoki klaritromisin), metronidazol, De-nol –120 mg bir kunda/4 marta, omeprazole 10 mg — 2 bir kunda/2 marta 10–14 kun. Motilium, probiotiklar (lineks, asipol, bifidumbakterin i dr.), KVCh-terapiyab.
4.Anemiyada Maltofer — 5 mg/kg.
5.Sportni basketbolni to'xtatish. Kun tartibiga va ovqat tartibiga rioya qilish.
6. Qayta Ezofagogastroduodenoskopiya, O'Z I, Umumiy qon tahlili 1,5-2 oydan keyin.
7. Resedivga qarshi bahor, qish, ko'z da davolash, profilaktika olib borish.

10- masala javobi: O'tkir glomero'lonefrit, stol №7, antigistamin davo, plazma, siydik haydovchi muolaja.
11- masala javobi: O'tkir glomero'lonefrit, O'ZI, qonni bioximik taxlili, peshob taxlili.
12- masala javobi: Sistit, umumiy gigiena, antibiotiklar.
13- masala javobi: Surunkali pielonefrit, peshob, qonni bioximik taxlili, O'ZI.

14- masala javobi: Buyrak tosh kasalligi, gospitalizatsiya.
15- masala javobi: O’tkir glomero’lonefrit, O’ZI, qonni bioximik tahlili.

II.TEST. Nazorat savollari.

1.O‘tkir glomerulonefritda infeksiyani faolllashishiga tegishli emas.

1. Sovuq qotish.
2. Respirator virusnaya infeksiya.
3. Surunkali tonzillit.
4. Teri nefritogen streptokokka A. tashuvchisi
5. Borde – Jangu tayokchasi tashuvchisi. +

2. O‘tkir glomerulonefrit ekstra -renal simptomiga tegishli emas?

1. Bexollik..
2. Ishtaxa kamayishi..
3. Bushashish..
4. Ko‘ngil aynish..
5. Gematuriya.. +

3.O‘tkir glomerulonefrit renal simptomiga tegishli emas?

1.Oligouriya.
2.Gematuriya.
3.Bel soxasida ogrik..
4.Proteinuriya.
5.Qusish.. +

4.O‘tkir glomerulonefrit siydik sindromiga tegishli emas?

1.Oligouriya.
2.Proteinuriya.
3.Gematuriya.
4.Silindruriya.
5.Shishlar.. +

5.Eritrotsitar silindrlar mavjudligi?

1.Nefrit belgisi.. +
2.Siydik infeksiyasi belgisi..
3.Siydik tosh kasaligi belgisi..
4.Sistit belgisi.
5.Piyelonefrit belgisi.

6.O‘tkir glomerulonefritda gipertoniyaga sabab bulaolmaydi.?

1.Giperreninemiya.
2.Gipergidremiya.
3.Gipernatriyemiya

4.Giperkaliyemiya.

5.Giperkalsiyemiya. +

7.O‘tkir glomerulonefritda intoksikatsiya belgilari bo’la olmaydi?

1.Bosh og’rig’i.

2.Ko’ngil aynish..

3.Pay reflekslarini ortishi..

4.Uyqusizlik..

5.Eyforiya. +

8.O‘tkir glomerulonefritda yurak qon tomir tizimi faoliyatini buzilishiga tegishli emas?

1.Kardiomegaliya.

2.Sistolik shovkin.

3.Yurak tonlari bug’iqligi.

4.Bradikardiya.

5.Yurak chegarasi qisqarishi.. +

9.O‘tkir glomerulonefrit asoratiga tegishli emas?

1.Anuriya.

2.O‘tkir buyrak yetishmovchiligi..

3.Eklampsiya.

4.Yurak yetishmovchiligi..

5.Qon tomir yetishmovchiligi.. +

10.O‘tkir glomerulonefritda qiyosiy tashxisi o`tkazilmaydi?

1.Sistemali qizil yugurik..

2.Revmatik kasallik.

3.Kapillyarotoksikoz.

4.Virus infeksiyasi persistensiyasi. (gepatit V, tsitomegaliya, yuqumchil Mononukleoz)

5.Megalloblast anemiya. +

HOLATIY MASALALAR

1. Masala. 10 yoshli bola. 3 hafta avval folikulyar angina kechirgan. Ambulatoriya usulida davolangan. Ko‘ruv davrida yuz soxasida, tizzada, ishinkirash, teri va shillik qavatlar rangparligi ko‘zga tashlanadi. Arterial bosim 130/90. Yurak nisbiy bo‘g‘iqligi chegarasi kengaygan. Yurak tonlari bo‘g‘iq, cho‘qki turkisida sistolik shovqin eshitiladi.

Umumiy kon taxlilida: albuminuriya 1 g%o gacha, siydik cho‘kmasida yangi va uringan eritrotsitlar.

Umumiy qon taxlilida: Gematokrit kamaygan, EChT-30-40 mm/s. Leykotsitoz va neytrofillez.

1. Sizning tashxisingiz? 2. Ushbu xolatda yana qanday tekshirish usullari lozim? 3.Ushbu xolatda qanday preparat yuborish taqiqlanadi?

Javob:

1.O‘tkir diffuz glomerulonefrit, nefritik sindrom bilan.

2.O’Z I, Ekskretor urografiya, Zimnitskiy, Addisa-Kakovskiy, Nechiporenko sinamasi.

3. Kortikosteroidlar taqiqlanadi.

2. Masala. 12 yoshli bemor. Angina kechirgandan keyin bemorda tarqalgan shish, ertalab kuchlirok, yuzida, qovok soxasida, tupikni ichki yuzasida ko’proq bilinadi. Diurez kamaygan.

Umumiy siydik taxlilida: Proteinuriya 2,5-3g/s, eritrotsitlar 7-8 ko’ruv maydonida, silindruriya (gialinli va donador). Qonning bioximik tekshiruvida: gipoproteinemiya, disproteinemiya, xolesterin 8,0mmol/l gacha lipidlar 8g/l gacha ortgan.

1. Sizning tashxisingiz? 2. Ushbu xolda qanday qo‘shimcha tekshiruv zarur. 3. Qanday tartib va parxez ushbu xolatda zarur?

Javoblar: 1. O‘tkir diffuz glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan. 2. Siydikni Zimnitskiy taxlili, O’Z I, Ekskretor urografiya, Addissa-Kakovskiy sinamasi, Nechiporenko sinamasi. 3. Tartib № 1. Stol Pevzner bo`yicha: №7.

3. Masala. 7 yoshli bola. Shikoyati axvoli qoniqarli. Kayfiyati yaxshi. Tanasida shish bilinmaydi. Arterial bosim meyorida. Ichki organlarda chetlanish bilinmaydi. Bola maktabga joylashtiralayapti. Umumiy siydik taxlili: Nisbiy zichlik: 1,030,proteinuriya -2,5g/s, gematuriya, gialinli, eritrotsitar va donador silindrlar.

1. Sizning tashxisingiz? 2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi? 3. Qanday qo‘shimcha davo tadbirlari zarur.

Javoblar: 1.O‘tkir glomerulonefrit, chegaralangan siydik sindromi. 2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo’limiga yotkizish, tekshirish va davolash.

3.Addissa-Kakovskiy, Zimnitskiy, Nechiporenko, O’Z I, Ekskretor urografiya.

4. Masala. 13 yoshli bola. 6 oy muqaddam o‘tkir glomerulonefrit kechirgan. Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo’limida 28 kun yotib davolangan.

Ko‘ruv davrida umumiy axvoli yomon, bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotkizildi. Bola bexol, bosh og‘rig’idan, harorat ko‘tarilishdan shikoyat qiladi. Tana harorati 39,0 daraja. Teri rangi rangpar. Arterial bosim 140/95 gipotenziv preparatlar bilan meyorlashmayapti. Nefrotik sindrom rivojlandi. Proteinuriya 15-25g/s, turg’un gematuriya. Qonni bioximiyaviy taxlili: Azotemiya, giyerkreatininemiya, giperxolesterinemiya, gipoproteinemiya,

Umumiy qon taxlili: Normoxrom anemiya.

1.Sizning tashxisingiz? 2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi?

Javoblar: 1.O‘tkir osti yomon sifatli glomerulonefrit. 2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotkizish.

5. Masala. 14 yoshli bola. 2 oy muqaddam o’tkir glomerulonefrit kechirgan. Bemorda surunkali tonzillit va tishlar kariyesi mavjud. Ushbu kasallik bo`yicha nomuntazam davolangan. Kuo’ruv davrida bemor bexol, kuchsizlangan, ishtaxa kamaygan. Davriy ravishda kovok soxasida, oyoqlarda, tanasida shishlar bilinadi. Teri rangi oqish, quruq, yupqalashgan. Arterial bosim meyoriy ko`rsatkichda. Jigar va taloq kattalashgan. Kunlik siydik miqdori kamaygan. Kuchli proteinuriya 10g/s va undan yuqori. Azot qoldig`i, xolesterin, mochevina, kreatinin meyoriy ko‘rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2. Shifokor ushbu holatdagi taktikasi?

3. Qanday qo’shimcha davo tadbirlari lozim.

Javoblar:1. Surunkali glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan. 2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotkizish. 3.O’Z I, Ekskretor urografiya, Siydikni Zimnitskiy, Addisa-Kakovskiy, Nechiporenko bo`yicha taxlili.

6. Masala. 15 yoshli bola.3 yil muqaddam o‘tkir diffuz glomerulonefrit kechirgan. Bemorda surunkali xonzilit mavjud. Birinchi o’rinda bemorda kuchli va turg’un gematuriya, yuz va qovoq soxasida shish bilinadi.

Siydik cho‘kmasi tekshirilganda eritrotsitdan tashqari leykotsit, gialinli va donador tslindrlar va siydikda 1g/s gacha, Azot qoldig’i, mochevina, kreatinin, meyoriy ko`rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz? 2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi.

Javoblar: 1. Surunkali glomerulonefrit, gematurik shakli. 2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotqizish.

7. Masala.

10 yoshli bola. 3 hafta avval folikulyar angina kechirgan. Ambulatoriya usulida davolangan. Ko‘ruv davrida yuz soxasida, tizzada, ishinkirash, teri va shillik qavatlar rangparligi ko‘zga tashlanadi. Arterial bosim 130/90. Yurak nisbiy bo‘g‘iqligi chegarasi kengaygan. Yurak tonlari bo‘g‘iq, cho‘qqi to’g’risida sistolik shovqin eshitiladi.

Umumiy kon taxlilida: albuminuriya 1 g%o gacha, siydik cho‘kmasida yangi va uringan eritrotsitlar.

Umumiy qon taxlilida: Gematokrit kamaygan, EChT-30-40 mm/s. Leykotsitoz va neytrofillez.

1. Sizning tashxisingiz? 2. Ushbu xolatda yana qanday tekshirish usullari

lozim? 3.O‘shbu xolatda qanday preparat yuborish taqiqlanadi?

8. Masala.

12 yoshli bemor. Angina kechirgandan keyin bemorda tarqalgan shish, ertalab kuchlirok, yuzida, qovoq soxasida, tupikni ichki yuzasida ko’prok bilinadi. Diurez kamaygan.

Umumiy siydik taxlilida: Proteinuriya 2,5-3g/s, eritrotsitlar 7-8 kuruv maydonida, silindruriya (gialinli va donador). Qonning bioximik tekshiruvida: gipoproteinemiya, disproteinemiya, xolesterin 8,0mmol/l gacha lipidlar 8g/l gacha ortgan.

9. Sizning tashxisingiz? 2. Ushbu xolda qanday qo‘shimcha tekshiruv zarur. 3. Qanday tartib va parxez ushbu xolatda zarur?

9. Masala.

7 yoshli bola. Shikoyati axvoli qoniqarli. Kayfiyati yaxshi. Tanasida shish bilinmaydi. Arterial bosim meyorida. Ichki organlarda chetlanish bilinmaydi. Bola maktabga joylashtiralayapti. Umumiy siydik taxlili: Nisbiy zichlik: 1,030,proteinuriya -2,5g/s, gematuriya, gialinli, eritrotsitar va donador silindrlar.

1. Sizning tashxisingiz?

2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi?

3. Qanday qo‘shimcha davo tadbirlari zarur.

10. Masala.

13 yoshli bola. 6 oy muqaddam o‘tkir glomerulonefrit kechirgan. Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo’limida 28 kun yotib davolangan.

Ko‘ruv davrida umumiy axvoli yomon, bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotkizildi. Bola bexol, bosh og‘rigidan, harorat ko‘tarilishdan shikoyat qiladi. Tana harorati 39,0 daraja. Teri rangi rangpar. Arterial bosim 140/95 gipotenziv preparatlar bilan meyorlashmayapti. Nefrotik sindrom rivojlandi. Proteinuriya 15-25g/s, turg’un gematuriya. Qonni bioximiyaviy taxlili: Azotemiya, giyerkreatininemiya, giperxolesterinemiya, gipoproteinemiya,

Umumiy qon taxlili: Normoxrom anemiya.

1.Sizning tashxisingiz?

2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi?

11. Masala.

14 yoshli bola. 2 oy mukaddam o’ tkir glomerulonefrit kechirgan. Bemorda surunkali tonzillit va tishlar kariyesi mavjud. Ushbu kasallik bo`yicha nomuntazam davolangan. Ko’ruv davrida bemor bexol, kuchsizlangan, ishtaxa kamaygan. Davriy ravishda qovok soxasida, oyoqlarda, tanasida shishlar bilinadi. Teri rangi okish, quruk, yupqalashgan. Arterial bosim me’yoriy ko`rsatkichda. Jigar va taloq kattalashgan. Kunlik siydik miqdori kamaygan. Kuchli proteinuriya 10g/s va undan yuqori. Azot qoldig`i, xolesterin, mochevina,

kreatinin meyoriy ko‘rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi?

3. Qanday qo’shimcha davo tadbirlari lozim.

Javoblar:1. Surunkali glomerulonefrit, nefrotik sindrom bilan. 2.Bemorni bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotqizish. 3.O’Z I, Ekskretor urografiya, Siydikni Zimnitskiy, Addisa-Kakovskiy, Nechiporenko bo`yicha tahlili

12. Masala.

15 yoshli bola 3 yil muqaddam o‘tkir diffuz glomerulonefrit kechirgan. Bemorda surunkali tonzilit mavjud. Birinchi o`rinda bemorda kuchli va turg`un gematuriya, yuz va qovoq soxasida shish bilinadi.

Siydik cho‘kmasi tekshirilganda eritrotsitdan tashqari leykotsit, gialinli va donador tslindrlar va siydikda 1g/s gacha, Azot qoldigii, mochevina, kreatinin, meyoriy ko`rsatkichda.

1.Sizning tashxisingiz?

2. Shifokor ushbu xolatdagi taktikasi.

Javoblar: 1.Surunkali glomerulonefrit, gematurik shakli. 2.Bolalar kasalxonasi nefrologiya bo‘limiga yotqizish.

GLOSSARIY

1. **Revmatoid artrit** – biriktiruvchi to`qimani surunkali tizimli yallig`lanishi
2. **Artrit**- bo`g`imlar yallig`lanishi
3. **Destruksiya-**(lot.destructio-parchalanish)-makromolekulalardagi bog`imlarni uzulishi
4. **Poliartrit** – ko`p bo`g`imlarni yallig`lanishi
5. **Eritema**- terining malum bir qismlarini qizarishi
6. **Amiloidoz**-oraliq to`qimalarda amiloidni to`planishi
7. **Adaptatsiya –** moslashish
8. **Skleroz** – to`qimalarni zichlashishi
9. **Streptolizin-** streptokkokning toksik fermenti.
10. **Sinovit**- sinovial membranalar yallig`lanishi
11. **Osteoporoz**- skeletni progressivlanuvchi metabolitik kasalligi
12. **Osteoartroz**-mexanik va tart harekterdagi og`riqlar, bo`g`imlar qisrlashi
13. **Kardit**- yurak devorlarini yallig`lanishi
14. **Plevrit** – plevra qavatini yallig`lanishi
15. **Tolerantlik**-organizm immun tizimi ning antigenga nisbatan befarqligi, o’ziniki deb qabul qilishi, unga nisbatan antitelolar ishlab chiqarmasligi.

16. **Artroz**- bo`g`imning distrofik surunkali kasalligi
17. **Deformatsiya** – tashqi kuch tasirida jismdi shaklini buzilishi
18. **Perforatsiya –** oshqozon yoki 12 barmoqli ichak yarasining asorati sifatita teshilib qolishi.
19. **Ekssudat**- yallig`lanish tufayli mayda venalar va kapilyarlar atrofiga sizib chiqqan suyuqlik
20. **Penetrasiya–** oshqozon yoki 12 barmoqli ichak yarasining asorati sifatita qo'shni organlar (oshqozon osti bezi, o't qopi, o't yo'li, yo'g'on ichak v.b.)ga ochilib qolishi.
21. **Stenoz –** torayish, qisilish
22. **Eroziya**- shilliq qavatlarni yoki epitelial qavatlarni shilinishi va yaralanishi
23. **Gipertermiya**-organizmni qizishi, isishi
24. **Agregatsiya**- elementlarni bitta o`ramga birikishi
25. **Ateroskleroz**- bu qon tomir devorida xolesterinni blyashka shaklida to`planishi
26. **Peritonit –** qorin yog' qatlamining o'tkir yallig'lanishi
27. **Stress –** ruxiy zo'riqish
28. **Shok –** (franso'z cha so'z-zarba) odam hayotiga xavf soluvchi holat, haddan tashqari kuchli ta'sirot natijasida nerv, endokrin, qon aylanish, faoliyatinig, modda almashinuvi buzilisi, qattiq shikastlanish, kuyish, qon ketishi, dorinig nojo'ya ta'siri va b. oqibatida yuzaga keladi
29. **Pernisioz anemiya –** (lot. Pernisioz-havfli) B_{12} -defisit, Megaloblast kamqonlik turi.
30. **Biliar refluks gastrit –** o't suyuqligining o'n ikki barmoqli ichakdan oshqozonga o'tishi.
31. **Granulematoz ileit-**oshqozon ichak tizimining nospesifik, autoimmune surunkali yallig'lanishi yoki Kron kasalligi.
32. **Distrofiya** – bu oziqlanishni buzilishi oqibatida ya'ni modda almashinuvining metabolizmning izdan chiqishi oqibatida organ, tuqima va xujayralarda paydo bo'lgan morfologik o'zarishlar.
33. **Dekompozitsiya**–xujayralar, xujayralararo moddaning ultratuzulishlarining buzilishi.
34. **Transformatsiya**–bu bir turdagi moddadan boshqa turdagi moddaning sintezlanishi.
35. **Infiltratsiya** – moddalar almq shimilishi.
36. **Disproteinoz** – oqsil distrofiyasi.
37. **Lipidoz** – yog' distrofiyasi.
38. **Giperkeratoz** – muguzlanishning kuchayib ketishi.
39. **Leykoplakiya**–yassi muguzlanmaydigan epiteliyda (*shillik kavatlar epiteliysida*) muguzlanishning paydo bo'lishi. Bu predrak deb ataladi.

40. **Ixtioz** – agar yangi tugilgan chaqaloq terisida ko’p miqdorda keratin paydo bulib tug’ilsa teri baliq tangasiga o’xshab qoladi.
41. **Gistion** – kapilyarning ichki devoridan to’qima xujayrasining tashkqi devorigacha bo‘lgan chegaraga aytiladi.
42. **Mukoid bukish** – stroma tomir distrofiyasining boshlang’ich bosqichi bo’lib bunda biriktiruvchi to’qimada glikozaminoglikanlar miqdori oshib ketadi.
43. **Fibrinoid bukish** – biriktiruvchi to’qimaning tolali oqsillari, ularning orasiga qondan albumin, globulin oqsillari shimiladi. Ular GE bilan bulyalganda fibringa o’xshash bo’yaladi. –oid o’xshash degan ma’noni bildiradi.
44. **Gialinoz** – bu biriktiruvchi tukimada gialin tog’ayiga o’xshash moda hosil bo’lishi bilan xarakterlanadi.
45. **Amilaidoz** – amiloid moddasining biriktiruvchi tukimada hosil bo’lishi.
46. **Metaxromaziya** – bo’yalishning o’zgarishi.
47. **Lipogialin** – bu tomirli gialinning bir turi bo’lib tarkibida lipidlar va β-lipoproteidlar tutadi.
48. **APUD-amiloid** – APUD sistema xujayralarida sintezlanadigan amiloiddir.
49. **Lipamatoz** – bu yog’ kletchatkasining maxalliy to’planishi.
50. **Ateroskleroz** – «*athere*» butkasimon massa, *sclerosis* – zichlashish. Qon tomir intimasida yog’ va oqsilli detrit (to’qima qoldig’) hosil bo`ladi va biriktiruvchi to’qima o’sadi (chandiqlanadi).
51. **Xromaprotoid** – murakkab pigmentli oqsil. Mn: gemoglobin Hb, mioglobin Mb.
52. **Gemoliz** – eritrotsitlarning parchalanishi.
53. **Eritrofagiya** – bu eritrotsitlarni fagotsitoz qilinishi.
54. **Ferritin** – bu Fe li oqsil bulib, o’zida 23% Fe tutadi.
55. **Gemosidirin**–bu gemni parchalanishidan hosil bo‘lgan ferritinning polimeridir.
56. **Bilirubin** – ut pigmenti. U biliverdindan hosil bo`ladi. Biliverdin gemdan hosil bo`ladi.
57. **Gematoidin** – Fe tutmaydigan pigment. Bu gemoglobin xujayra ichida parchalanganda hosil bo’ladi.
58. **Gematin** – gemning oksidlangan shakli. Oksigemoglobinni gidrolizlanishidan hosil bo`ladi.
59. **Appoferritin** – bu temir bog’lovchi oqsildir.
60. **Anabolizm** – xujayra tuzulishlarining sintezlanishi.
61. **Katabolizm** – xujayra tuzulishlarining parchalanishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Belyayeva L.M. Detskaya kardiologiya i nefrologiya – prakticheskoye rukovodstvo –M.: Geotar. 2011 g
2. Bolalar kasalliklarini integratsion usulda olib borish. O‘quv qo‘llanma. O’z RSSV/YUNISYEF, 2003
3. Bolalarga statsionar yordam ko`rsatish. Metodik qo’llanma.(O’z SSV №225 buyrug’i. 2013)
4. Ignatova M.S. Detskaya nefrologiya – rukovodstvo dlya shifokorey – M.: Geotar. 2011 g
5. Kildiyarova R.R.Laboratornie i funksionlnie metodi issledovaniya v praktike pediatrii –uchebno-metodicheskoye posobiye. –M.: Geotar., 2012
6. Ko‘krak suti bilan boqish. O‘quv qo‘llanma. O‘zRSSV/YUNISYEF. 2013.
7. Shabalov N.P. Detskiye bolezni. – Uchebnik. M.: Geotar. 2010.
8. Baranov A.A. Detskiye bolezni. - Uchebnik. – M.: Geotar. 2009 g
9. Geppe N.A., Podchernyayeva N.S. Propedevtika detskix bolezney – Uchebnik. – M.: Geotar, 2008 g
10. Vasilevskiy I.V. Differensialnaya diagnostika i terapiya kashlya u detey i podrostkov. – uchebno-metodicheskoye posobiye – Minsk.: BelMAPO, 2006
11. Xalmatova B.T., Bobomuratov T.A. Pediatriyada sindromal diagnostika. – o‘quv qo‘llanma. T.: TTA bosmaxonasi. 2010 y
12. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboyeva O’.R. Bolalar kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. - T.: Tafakkur Bo’stoni. 2013 y.
13. Daminov T.O., Xalmatova B.T, Boboyeva U.R. Detskiye bolezni. Uchebnik. – T.: Tafakkur Bo’stoni. 2013 g.
14. Shabalov N.P. Neonatologiya. Uchebnik. – Moskva. Meditsina. 1988.
15. Nelson Textbook of Pediatrics, 20 editions. Robert M. Kliegman, Bonita Stanton. Joseph St. Geme., Elsevier. 2016.
16. The five Minute child Health Advisor/ - M. William Schwartz. MD., - 1998, USA
17. A therapist’s guide to pediatric assessment - Linda King-Thomas. Bonnie J. Hacker. 1987, USA
18. Pediatrics, - Margaret C. Heagarty., William J. Moss, -1997, USA

Internet saytlar:

1. www.tma.o’z
2. www.zyonet.o’z
3. www. info@ minzdrav.o’z
4. www.info@tma.o’z

№	Mundarija	Beti
1	**KIRISH**	3
	Ma’ruza mavzulari	
2	O‘tkir revmatik istima. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	4
3	Yuvenil revmatoid artrit. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	19
4	Surunkali gastrit va gastroduodenitlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis.	56
5	Yara kasalligi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	61
6	Pielonefritlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	70
7	Glomerulonefritlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	79
8	Dizmetabolik nefropatiyalar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	92
9	Perinatal va neonatal davr muammolari. Ko‘krak suti bilan oziqlantirish (JSST dasturi). Chaqaloqlarda uchraydigan kasalliklarni diagnostikasi, dispanserizatsiya va profilaktikasi	123
	O’quv amaliyoti	
10	1-Mavzu. Yuvenil revmatoid artrit. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	147
11	2-Mavzu. Surunkali gastrit va gastroduodenitlar. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	172
12	3-Mavzu. Yara kasalligi. Etiopatogenezi, tasnifi, klinik belgilari, tashxisot mezonlari, qiyosiy tashxis. Davosi, profilaktikasi.	177
13	4-Mavzu.Surunkali gepatitlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari	185
14	5-Mavzu. O‘t pufagi va o‘t yo‘llari kasalliklari. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari	195
15	6-Mavzu. Pielonefritlar. Etiopatogenezi, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis va davolash usullari, profilaktika choralari	203

16	7-Mavzu. O’tkir infeksion glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.	211
17	8-Mavzu. Surunkali glomerulonefritlar. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.	214
18	9-Mavzu. O’tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligi. Etiopatogenez, tasnifi, tashxislash, qiyosiy tashxis, davolash usullari, profilaktika choralari.	216
19	10-Mavzu. Chaqaloqlik davri fiziologiyasi. Moslashuv jarayonini aks ettiruvchi xolatlar (chegara, tranzitor yoki fiziologik xolatlar).	221
20	11-Mavzu. Chaqaloqlarni ko‘krak suti bilan ovqatlantirish tamoyillari. Ko‘krak sutining afzalliklari	223
21	12-Mavzu. Kam tana vazni bilan tug‘ilgan chaqaloq. Muddatidan oldin tug‘ilishning sabablari, morfologik va funksional belgilari.	228
22	**I-Klinik o’quv amaliyoti**	229
23	**II-Klinik o’quv amaliyoti**	271
24	**Mustaqil ta’lim va mustqail ishlar**	308
25.	**I-TEST. Nazorat savollari, muammoli masalalar**	310
26	**II-TEST. Nazorat savollari, muammoli masalalar**	332
27	**Glossariy**	327
28	**Foydalanilgan adabiyotlar**	330

PEDIATRIYA. NEONATOLOGIYA.

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: M.Muqimov
Texnik muharrir: A.Ayubjonov
Sahifalovchi: Z.Karimova
Dizayner: B.Oripov

«ALPHA BRAND» nashriyoti
Tasdiqnoma raqami: № 062491
150100. Farg‘ona shahri,
Ulug‘vor ko‘chasi, 70-uy

Bosishga 02.06.2025 ruxsat etildi
Bichimi 70x100 1/16, Ofset qog‘ozi
Nashriyot bosma tabog‘i: 18,36.
Shartli bosma tabog‘i: 13,23
Adadi: 1000 nusxa.
Bosmaxona manzili:
«**ALPHA BRAND**» MCHJ da chop etildi.
O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona shahri, Ulug‘vor ko‘chasi 70-uy

Bog‘lanish uchun:
+99855500-38-88

«**ALPHA BRAND**» MCHJ korxonasining buyurtmasi asosida tayyorlandi.
Copyright 2025 ©«**ALPHA BRAND**» MCHJ. Barcha xuquqlar himoyalangan.

SHARHLAR UCHUN

SHARHLAR UCHUN

SHARHLAR UCHUN